ABDURAMANOV X.X., ARABOV N.U.,
XOLMUXAMEDOV M.M.

AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH SIFATI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ABDURAMANOV X.X., ARABOV N.U.,
XOLMUXAMEDOV M.M.

AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH SIFATI

O‘quv qo‘llanma 5A230102 – “Iqtisodiyot (ijtimoiy soha)” va 5A230110 –“Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti” magistratura mutaxassisliklari talabalariga mo‘ljallangan

«TAFAKKUR BO‘STONI»
TOSHKENT – 2014

UO'K: 336.671:331(075)
60.7
A139

Taqrizchilar:

Umurzakov Baxodir Xamidovich	G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali "Mehnat iqtisodiyoti va boshqaruv" kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori.
Xolmurodov Salimbek Eshbekovich	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Mehnat va ijtimoiy soha iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Abdurahmanov X.X.

Aholi daromadlari va turmush sifati : X.X. Abdurahmanov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov. -Toshkent: Ilm Ziyo, 2014. 256 b.

KBK 60.7

ISBN - 978-9943-16-171-9

Ushbu o'quv qo'llanmada aholi daromadlari, uning turlari, shakllanish manbalari, aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, aholi daromadlarining tabaqalashuvi, daromadlar siyosati va uning asosiy yo'nalishlari, turmush sifati va uning asosiy ko'rsatkichlari, iste'mol budjeti va uning shakllanishi, kambag'allik muammosi va uni cheklash yo'llari yoritilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5A230102 – "Iqtisodiyot (ijtimoiy soha)" va 5A230110 – "Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti" magistratura mutaxassisliklari talabalariga mo'ljallangan.

UO'K: 336.671:331(075)
KBK 60.7

ISBN - 978-9943-16-171-9

© «Tafakkur Bo'stoni», 2014
© Abdurahmanov X.X. va b., 2014

KIRISH

O'zbekiston Respubljkasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi barqarorlikka, iqtisodiyotni yuksaltirishning ijobiy sur'atlariga erishish hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-mehnat munosabatlarining barcha jihatlari aholining turmush tarzi va daromadlariga bevosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy jihatdan olib qaraganda, davlat insonning munosib turmushi va erkin rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni olib boradi. Bu siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri – mehnat va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining iqtisodiy farovonligini ta'minlash, omonatlarni shakllantirishni va ularni samarali investitsiyalashni ta'minlashga imkoniyatlar yaratish asosida aholining turmush darajasi va sifatini oshirishdir. Mehnat faoliyati va uning natijalari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-mehnat munosabatlari ish haqi va daromadlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mehnat munosabatlarining rivojlanishi ijtimoiy sherikchilik yangi shakllarining yuzaga kelishiga, ijtimoiy himoyalanganlikning rivojlanishiga, mehnat faoliyatidan qoniqishning oshishiga olib keladi.

Bozor munosabatlarining chuqurlashishi bosqichida aholining turmush darajasi va daromadlarning tabaqalanishi markaziy muammo bo'lib qoladi. Ularning hal qilinishiga ko'p jihatdan keyingi tub o'zgarishlar yo'nalishi va sur'atlari hamda oqibat natijada jamiyatdagi siyosiy barqarorlik bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, bu muammolarning hal qilinishi daromadlarning aniq ishlab chiqilgan siyosatini talab qiladi. Shuning uchun o'tkazilayotgan daromadlar siyosati aholining qatlam va guruhlarida, ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan tarkiblarida, davlat (hudud) hokimiyat organlarida, jamoat tashkilotlarida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda aholining turmush darajasini obyektiv statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlil qilish, aholining pul daromadlari va xarajatlarini o'rganish, uy xo'jaliklarining iqtisodiyotda qatnashish darajasi va xarajatlar tasnifini tahlil etish dolzarb masala hisoblanmoqda. Respublikamizda aholini ijtimoiy himoya qilish, ish haqi va

47414

boshqa pul daromadlarini bosqichma-bosqich oshib borishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. O'z navbatida, aholi pul daromadlarining o'sishi, uning xarid qobiliyatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Aholining turmush tarzi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga bo'lgan yangicha yondashuvlar korxona(tashkilot, firma, kompaniya)dagi mehnat munosabatlari, mehnatga haq to'lashni tartibga solish, xodimlar xizmatlarini baholash, ish haqini va umuman ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishda jamoa shartnomasi usullaridan foydalanish menejment, mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash uchun yangi o'quv kursi qo'yish zaruriyatini oldindan belgilab berdi. Ular amaliy faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan daromadlar siyosatining nazariy masalalarini, ularning turli darajalarda va aholining turli guruhlari uchun shakllanish usullari va mexanizmlarini bilish bilan ham belgilanadi.

Ushbu masalaning maqsadi hozirgi bosqichdagi aholining turmush sifati, daromadlar siyosatining dolzarb nazariy jihatlarini tushunib olish bo'lib, unga erishish uchun "Aholi daromadlari va turmush sifati" fani yordam berishi shubhasizdir.

I bob. "AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH SIFATI" FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1.1. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari

"Aholi daromadlari va turmush sifati" fani aholining moddiy farovonligi, sog'lig'i va xavfsizligini saqlashning yuksak darajasiga erishish, ularni amalga oshirish borasida kafolatlarni yuzaga keltirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlar yaratish, daromadlar va ularning turlari, shakllanish manbalarini, daromadlarni davlat tomonidan tartibga solish shakllari, daromadlarning tabaqalashuvi va aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini o'rganadi.

Fanning predmeti aholining daromadlari va hayot faoliyati sharoitlarini shakllantirish, taqsimlash munosabati bilan jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan.

Mazkur munosabatlarning **subyektlari** quyidagilar hisoblanadi:

- davlat hokimiyati organlari;
- ish beruvchilar vakillari;
- yollanma ishchilar birlashmalari;
- mehnatga layoqatsiz va ishlamaydigan fuqarolar.

Bu boradagi daromadlar siyosatining asosiy vazifalari:

- o'rnini to'ldiruvchi-qayta tiklovchi:
- rag'batlantiruvchi, ya'ni fuqarolarning ijtimoiy va shaxsiy farovonligini oshirish yo'nalishidagi faoliyatini jonlantirish;
- taqsimlovchi – daromadlar siyosati orqali turli darajalardagi budjet mablag'larini qayta taqsimlash hisoblanadi.

Fanning asosiy maqsadi daromadlar siyosati va aholining turmush sifatini yaxlit, murakkab, muayyan tarixiy, nisbatan mustaqil hodisa sifatida tushunish, ularning ichki va tashqi aloqalari, munosabatlari, omillari, yo'nalishlari va qonuniyatlarini aniqlash hamda uni takomillashtirish istiqbollarini belgilash hisoblanadi.

Fanning asosiy vazifalari:

- o'rganilayotgan sohadagi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash;
- turmush darajasi va sifati konsepsiyasi hamda ko'rsatkichlari bilan tanishish, ularning daromadlar va ehtiyojlarning qondirilishi, turmush sifati bilan o'zaro aloqasini o'rganish;

- aholining turmush darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar va indikatorlarni bilish;

- daromad turlari va manbalarining xilma-xilligi, ularning aholining turli qatlamlarida shakllanish xususiyatlari bilan tanishish;

- turli darajalardagi (davlat, tarmoq, mintaqa, firma) daromadlar va ish haqini tartibga solishning nazariy asoslarini o'zlashtirish;

- daromadlarni (ish haqini) o'lchash va tahlil qilish usullarini, ularning tabaqalanishini tadqiq etish;

- daromadlar sohasida ko'nikmalarni hosil qilish va mustahkamlash;

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi va uni takomillashtirish yo'llarini o'rganish;

- O'zbekistonda aholining daromadlari darajasini (turmush darajasini) oshirish prognozlarining turli variantlarini, ularga ta'sir qiluvchi omillarni va daromadlar siyosatini rivojlantirish istiqbollarini o'rganish.

Shuningdek, fanning vazifasi boshqa muammolarni hal qilishdan, ya'ni iqtisodiy imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda daromadlar siyosatini ishlab chiqish borasidagi muammolarning mazmuni va chegaralarini tavsiflashdan ham iborat.

Olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar soha mutaxassislariga daromadlar siyosatini to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi.

1.2. Daromadlar siyosati va uning asosiy yo'nalishlari

Har qanday jamiyatda daromadlar siyosati davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim bir qismi hisoblanadi. U davlatda muayyan paytda mavjud bo'lgan iqtisodiy institutlar, davlat belgilab bergan ustuvorliklar va u foydalanadigan vositalar bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Davlatning daromadlar sohasidagi siyosatining maqsadi – aholi farovonligi va rivojlanishini oshirish hamda uning ijtimoiy taraqqiyotga intilishini rag'batlantirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun daromadlar siyosati quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

- aholining kam ta'minlangan qatlamlarining turmush darajasini barqarorlashtirish;

- qashshoqlik miqyoslarini qisqartirish;

- aholi daromadlari tabaqalanishining o'sishini hamda jamiyatning tabaqalashuvini to'xtatish;

- aholi pul daromadlari tarkibidagi chuqur deformatsiyalarni bartaraf qilish;

- mehnatga haq to'lashning daromadlarning asosiy manbayi va xodimlar iqtisodiy faolligining eng muhim rag'batlantiruvchi omili sifatidagi rolini oshirish;

- keng xalq ommasining turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Daromadlar siyosati davlat ijtimoiy siyosatining eng muhim qismi sifatida quyidagi asosiy tamoyillardan tashkil topadi:

- xodimning o'z mehnat qobiliyatini namoyon qilish erkinligi, faoliyat turi va kasbini tanlash erkinligi;

- mehnatga haq to'lashni mehnatning bozordagi qiymati asosida shakllantirish;

- jismoniy shaxslar tomonidan qonuniy asoslarda olinuvchi daromadlarning cheklovlariga yo'q qo'ymaslik;

- mehnat faoliyatidan va mulkdan keladigan daromadlarga yagona huquqiy yondashuv;

- mehnatga layoqatsiz aholi uchun manzilli ijtimoiy moddiy yordam ko'rsatish;

- ishlovchi aholining davlat tomonidan, shu jumladan, ishsiz bo'lib qolsa, ijtimoiy sug'urtalanishi.

Daromadlar siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– eng kam oziq-ovqat va iste'mol savatlari, eng kam miqdordagi tirikchilik budjeti; eng kam ish haqi, budjet sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun yagona tarif setkasi va birinchi razryad tarif me'yori kabi davlat ijtimoiy standartlarini belgilash orqali mehnatga haq to'lash o'lchamlariga ta'sir qilish;

– yashash minimumi budjetlarini belgilashda mamlakat hududini zonalashtirish asosida, shuningdek, ish haqiga tuman koeffitsientlarini va ish stajlari uchun ustama haqlarni o'rnatish asosida daromadlar va ish haqini mintaqaviy ravishda tartibga solish;

– ijtimoiy sherikchilik tizimidagi daromadlar va ish haqini tartibga solish;

– olinayotgan daromadlar miqdoriga soliqqa tortish tizimi bilan ta'sir ko'rsatish;

– pensiya ta'minotini uning qonuniy reglamentatsiyasini, shuningdek, pensiyalarning eng kam miqdorini belgilash yo'li bilan tartibga solish;

– aholi uchun bandlik sohasidagi ijtimoiy kafolatlar, ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

– mehnat muhofazasi tizimini isloh qilish, noqulay mehnat sharoitlari uchun imtiyoz va badallar tizimidan xavfsizlik darajasini oshirish va mehnat sharoitlarini sog'lomlashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

– mehnatga layoqatni, ish haqini, ishni yo'qotish bilan bog'liq kasbiy xavf-xatarlardan himoya qilish borasidagi kafolatlarni ta'minlash yo'nalishida davlat ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish;

– sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, uy-joy kommunal xizmati sohalarida aholini, ayniqsa uning kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash kafolatlari.

Daromadlar siyosatining mexanizmi shundan iboratki, u qonunlar, hukumat qarorlari orqali quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

– aholi turmush darajasini davlatning minimal ijtimoiy standartlari tizimi bilan tartibga solish. Davlatning minimal ijtimoiy standartlari – bu qonunlar bilan o'rnatilgan me'yorlar bo'lib, ular mehnatga haq to'lash, pensiya ta'minoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida aholini ijtimoiy himoyalashning eng kam darajasini kafolatlaydi;

– fuqarolarning daromadlar va ish haqlari sohasidagi konstitutsiyaviy kafolatlarini ta'minlash uchun budjet mablag'larining miqdorini va realizatsiyasini belgilash:

– jismoniy va yuridik shaxslarni soliqqa tortish tizimi bilan olinayotgan daromad miqdorlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish;

– ijtimoiy sherikchilik tizimida bosh, mintaqaviy, tarmoq (tarmoqlararo) tarif, kasbiy tarif, hududiy va boshqa bitimlar tuzishda muzokaralar jarayonida ishtirok etish;

– tarmoq va mintaqaviy ijtimoiy dasturlarni qabul qilish.

Shunday qilib, daromadlar siyosati ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari tomonidan daromadlarni tashkil qilish, taqsimlash va ulardan foydalanish sohasidagi amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi bo'lib, bu tadbirlar ularning manfaatlarini muvofiqlashtirishga va qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlashga imkon beradi.

1.3. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi

"Aholi daromadlari va turmush sifati" fanining boshqa fanlar va o'quv adabiyotlari bilan aloqadorligi aholining turmush darajasini va daromadlar siyosatini murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon deb tushunishdan kelib chiqadi (1.1-rasm).



1.1-rasm. "Aholi daromadlari va turmush sifati" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.

Daromadlar siyosati insonni butun umr yo'li mobaynida (tug'ilishdan to hayotining so'nishiga qadar) mablag'lar bilan ta'minlashga yo'naltiriladi hamda **falsafa** tomonidan ishlab chiqiladigan insonning yaxlit bir butunligi to'g'risidagi nazariya va tamoyillar asosida olib boriladi.

Iqtisodiyot nazariyasi insonlarning ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlarini o'rganish, ijtimoiy rivojlanishning turli bosqichlarida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishni, taqsimlashni va ayirboshlashni boshqaradigan iqtisodiy qonunlarni tadqiq etish va shakllantirish sababli hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyoti qonunlarini va jamiyatda, hududlarda, korxonalarda, ijtimoiy guruhlarda ro'y beradigan ijtimoiy jarayonlarni e'tiborga oladi. Aytish joizki, mazkur ijtimoiy jarayonlar **"Sotsiologiya"** fanining ham predmeti hisoblanadi.

"Aholi daromadlari va turmush sifati" fani **siyosatshunoslik** bilan ham uzviy bog'liqdir. Mazkur kurs iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning mohiyatini, mexanizmi va usullarini o'rganadi, daromadlar siyosati sohasidagi bilimlarni chuqurlashtiradi, uning turli darajalardagi xususiyatlarini, mehnatga haq to'lash sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni hisobga oladi.

Ushbu fan **"Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi"** fani bilan ham chambarchas bog'liq. Mazkur fan mehnat faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini, mehnat jamoalari shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi hamda mehnatni rag'batlantirish, moddiy va ma'naviy ne'matlarni taqsimlashdagi qonunlardan ongli ravishda foydalanishning aniq usullarini ishlab chiqadi, mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning usullarini asoslaydi va shakllantiradi.

Daromadlar va ish haqi siyosatini o'tkazishda uning huquqiy ta'minotiga (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi va h.k.) asoslaniladi. Bu esa, o'rganilayotgan kursning **"Huquq"** fani bilan o'zaro bog'liqligi mavjudligini ko'rsatadi.

"Aholi daromadlari va turmush sifati" fani bilan **"Moliya"** va **"Soliqlar va soliqqa tortish"** o'quv adabiyotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik va davomiylik mavjud. Xususan, xodimlarning nominal daromadlari va nominal ish haqi ko'p jihatdan moliya sohasidagi siyosat, respublika va mahalliy budjetlarni shakllantirish tartibi, usullari bilan belgilanadi. Bular esa **"Moliya"** fanining predmeti hisoblanadi. Tasarrufdagi va real daromadlar soliq siyosatiga va narxlarning tartibga solinishiga bog'liq bo'ladi. Bular esa tegishli ravishda **"Soliqlar va soliqqa tortish"** fanida o'rganiladi.

Aholi daromadlari va turmush sifati fanida turmush darajasi va daromadlar sohasidagi tendensiyalarni o'rganish uchun statistik ko'rsatkichlar va ma'lumotlar, daromadlarni (ish haqini) o'lchash va tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Bularni talabalar **"Statistika"** fanida o'rganadi. Inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillar jumlasiga atrof-muhit omillari ham kiradi, ya'ni hozirgi "turmush sifati" konsepsiyasida insonning sog'ligi va ovqatlanishi birinchi o'rinda turadi. Shu sababli "Aholi turmush tarzi va daromadlari" va **"Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti"** fanlari o'rtasida muayyan bog'liqlik va davomiylik mavjud. Shuningdek, mazkur kurs "Boshqaruv nazariyasi", "Hayot faoliyati xavfsizligi", "Boshqaruv psixologiyasi" va "Boshqaruv mehnatini tashkil etish" fanlari bilan ham uzviy bog'liq.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholi daromadlari deganda nimani tushunasiz?
2. "Aholi daromadlari va turmush sifati" fanining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Fanning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Fanning predmetini tushuntirib bering.
5. "Aholi daromadlari va turmush sifati" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushuntirib bering.
6. "Aholi turmush darajasi" tushunchasining tarkibiy tuzilishini aytib bering.
7. Aholining turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?
8. Turmush sifatini ifodalovchi qanday ko'rsatkichlarni bilasiz?
9. Aholining turmush darajasiga qanday omillar ta'sir qiladi?
10. Nima uchun daromadlar turmush darajasining indikatori hisoblanadi?

II bob. AHOLI DAROMADLARI VA ULARNING SHAKLLANISH MANBALARI

2.1. Aholi daromadlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Bozor iqtisodiyoti taqsimlash munosabatlari sohasidagi sodir bo'layotgan jarayonlarni nazariy jihatdan qayta tushunishni talab qiladi. Bu eng avvalo, "aholi daromadlari" tushunchasining ta'rifi, uning tabaqalanishiga va yuzaga kelgan aholi tabaqalanishiga, aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarning yo'nalishlarini kuzatib borishga, aynan bir xil daromadlar siyosatini o'tkazish asosida daromadlarning yuzaga kelishi va o'sishi masalalarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarda aholi daromadlari uning yuzaga kelishi yoki xo'jalikning turli sharoitlarida daromadlarning taqsimlanishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Ko'pincha ushbu masala faqat kambag'allik, qashshoqlik, aholini ijtimoiy himoya qilish bilan o'zaro bog'liqlikda tekshiriladi. Daromad o'lchamlarining miqdoriy va sifatiy o'zgarishi va taqsimlanish tamoyillarining o'zgarishi umuman iqtisodiyot, daromadlar nazariyasi sohasi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganilishi kerak.

Bunda "daromad" va "boylik" tushunchalarining o'zaro aloqasini qayd qilish muhim. Bizning fikrimizcha, "boylik" tushunchasi kengroq. Daromad jamiyat a'zolarining shu paytdagi pul, boylik va xizmatlar zaxiralaridan tarkib topadi va har doim ham iste'mol qilish orqali ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lmaydi. Daromad boylik yuzaga kelishining asosini tashkil qiladi va qandaydir vaqt oralig'i, odatda, bir yil ichida belgilanadi. Daromadlarning o'sishi va boylikning ko'payishi har doim ham o'sha bitta yagona yo'nalishning o'zida o'zgarmaydi. Lekin, aholining daromadlari va boyliklari insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishning asosi bo'lib, jamiyat farovonligini oshirishning eng muhim omili sifatida maydonga chiqadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda aholi daromadlarining mohiyatini belgilashga oid turlicha yondashuvlar mavjud va ularni tadqiq qilish darajasidan kelib chiqqan holda turlicha talqin qilinadi. Bu yondashuvlarni umumlashtirib, qayd qilish mumkinki, ularni tadqiq qilish ikki asosiy yo'nalishda o'tkazilgan. Iqtisodiyotda aks etgan birinchi yo'nalish doirasida miqdoriy o'zaro aloqalar ko'rib chiqiladi, ya'ni aholi daromadlari "vaqt birligiga pul tushumlari yoki naqd pul yig'indisi sifatida" belgilanadi. Bu yerda

tadqiqotning mohiyati daromadlarning talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi va o'z navbatida, talab va taklifning ishlab chiqarish omillariga o'zaro nisbati bilan belgilanuvchi pul miqdori sifatida qabul qilinadigan miqdoriy xususiyatlarni o'rganishdan iborat.

Aholining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi, hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi hususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

Ushbu tarifga muvofiq ravishda tushumlar "daromad" hisoblanishi uchun qator mezonlarga muvofiq bo'lishi kerak (2.1-rasm).



2.1-rasm. Tushumlar "daromad" hisoblanishi uchun zarur mezonlar

Lotoreyadagi yutuqlar, o'yinlardan olingan sovrinlar, sug'urta talablari bo'yicha mol-mulkka etkazilgan zararni qoplash uchun to'lovlar, olingan meroslar, pensiyaga (iste'foga) chiqishda bir marta to'lanadigan summalar, hayot sug'urtasi bo'yicha (umrining oxirigacha davom etadigan sug'urta rentasidan tashqari) sug'urta to'lovlari, kutilmagan (ko'zda tutilmagan) foydalar, qonuniy huquqlari buzilganligi yoki etkazilgan zararni qoplash to'g'risida qilingan davolar bo'yicha to'lovlar (yo'qotilgan foydani qoplashga qilingan to'lovlardan tashqari) va qarzni qaytarish evaziga olingan summalar umumiy daromadlarga qo'shilmaydi va kapital tushumlarga taaluqli bo'ladi (chunki kutilmagan, nomuntazam va uy xo'jaligi uchun juda kam takrorlanadigan holat hisoblanadi).

Demak, daromadlarning shakllanishida xodimlarning shaxsiy xususiyatlari va mehnatdagi yutuqlari, xodim band bo'lgan korxona, tashkilot, muassasaning faoliyat natijalari va umuman iqtisodiyotning rivojlanish

darajasi muhim omil hisoblanadi. Aholi daromadlari yangidan yaratilgan qiymat o'lchamlariga, ularning yuzaga kelish manbasi sifatida mehnat unumdorligi darajasiga, davlatning soliq va ijtimoiy siyosatiga bog'liq.

2.2 Aholi daromadlarining asosiy vazifalari

Aholi daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat o'rtasida, ikkinchi tomondan, uy xo'jaliklari va individlar o'rtasida yangidan yaratilgan qiymat qismini o'zlashtirish, taqsimlash va qayta taqsimlash borasida yuzaga keluvchi umumiy munosabatlarni ko'rsatadi.

Oilada yuz beradigan barcha iqtisodiy munosabatlarning mohiyati ularning funktsiyalari orqali tavsiflanadi. Oila a'zolari tomonidan iqtisodiy faoliyatning amalga oshirilishi jarayonida u iqtisodiy birlik sifatida ishlab chiqarish va iqtisodiy noishlab chiqarish funktsiyalarini, moliyaviy tizim sub'ekti sifatida esa qayta taqsimlash, tartibga soluvchi va nazorat funktsiyalarini bajaradi (2.2-rasm).



2.2-rasm. Oila daromadlari shakllanishi va ularni taqsimlash funktsiyalari.

Bundan tashqari, aholi daromadlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: qayta tiklovchi, maqom, rag'batlantiruvchi, to'lov qobiliyatini shakllantiruvchi va farovonlikni oshiruvchi.

Qayta tiklash vazifasi. Bu vazifa aholining takror barpo bo'lish jarayonidagi qator daromadlarning rolini ko'rsatadi. Dastlab aholi daromadlari tarkibida ushbu vazifaning bajarilishidagi asosiy rolni ish haqi o'ynagan, lekin bozorga o'tish sharoitlarida uning aholi daromadlari tarkibidagi ulushi keskin pasaydi va endi ish haqi bilan bir qatorda odamlarning ehtiyojlarini qondirish jarayonida shaxsiy yordamchi xo'jalikdan va tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlarning ulushi ortmoqda, ya'ni aynan daromadlarning barcha turlari aholining mo'tadil turmush darajasini ta'minlashning asosiy manbayi bo'lib qoladi.

Maqom vazifasi. Individning jamiyatdagi o'rni va asosiy ehtiyojlarining qondirilish darajasi uning daromadi bilan belgilanadi. P.Samuelsonning yozishicha, "inson haqida uning daromadiga ko'ra hukm chiqaradilar", ya'ni individ daromadi asosida uning bilimi, yoshi va hatto umrining davom etish muddati haqida namunaviy tasavvurni tuzish mumkin. O'z daromadlarini jamiyatning boshqa a'zolari daromadlari bilan taqqoslab, inson o'zining jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o'rnini belgilaydiki, bu unga boshqalarga nisbatan o'z maqomini yaxshilash uchun asos beradi. Daromadlar odamlarning ijtimoiy ahvollarini nafaqat mamlakat ichida qiyoslashda belgilovchi asosiy ko'rsatkich, balki ular turmush darajasini mamlakatlararo solishtirishda ham qo'llanilishi mumkin.

Rag'batlantiruvchi vazifasi. Ushbu vazifa odamlarning faoliyat jarayonida qobiliyatlarini yaxshilashni rag'batlantirishga qaratilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar iqtisodiy manfaat egalari (xodimlar, sarmoya, yer va aqliy mahsulot mulkdorlari), shuningdek, boshqa sohalarda band bo'lgan insonlar uchun moddiy rag'bat sifatida maydonga chiqadi. Odamlar ko'nikmalarining sifat o'zgarishlari faoliyatning istalgan turida daromadlarning ko'payishiga olib keladi va shunga yarasha ularning turmush darajasini oshiradi. Shuning uchun daromad olish mehnatning oxirgi natijalari bilan o'zaro bog'liq bo'lishi va insonlarni o'z daromadlarini oshirishda asos bilan ta'minlashi kerak.

Farovonlikni oshirish vazifasi. Aholi daromadlari insonlarning eng muhim ehtiyojlarini qondirish asosi bo'lib, bu ehtiyojlar oqibat natijada jamiyat farovonligi darajasini belgilaydi. Farovonlik iqtisodiy kategoriya sifatida aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan belgilanadi va jamiyat a'zolari daromadlariga bog'liq bo'ladi hamda

ular alohida individda qanchalik yuqori bo'lsa, uning farovonligi shunchalik yuqori bo'ladi. Daromadlar nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun qo'llaniladi, balki ular inson hayotiy faoliyatining sifat xususiyatlarini yaxshilash asosidir, ya'ni bilim darajasini oshirish uchun, sog'liqni yaxshilash uchun, dam olish vaqti, jamiyatdagi ekologik vaziyat sifatini oshirish uchun qo'llaniladi. Shunday ekan, daromadlar aholi farovonligini oshirish va ularning moddiy xususiyatlarining muhim omili bo'lib hisoblanadi.

2.3. Aholi daromadlarining turkumlanishi

Daromadning mohiyati uning shakli vositasida pul to'lovlari, natural vositalar, ko'chmas mulk, muayyan vaqt oralig'ida aholiga bepul xizmat ko'rsatish majmuidan iborat bo'lib, ular iste'mol va jamg'armalarga qo'llaniladi. Pul va natural tushumlar mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha solishtirma og'irlikka ega bo'lgan shakldagi daromadlardan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

– birinchidan, daromadlar shakllari o'zgardi, ya'ni an'anaviylariga (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

– ikkinchidan, daromadlarning miqdor va sifat tarkibiy qismlari o'zgardi, haqiqiy egalik qilinayotgan daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsienti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi;

– uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari qo'shildi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasini, qimmatli qog'ozlarni, shaxsiy mulkni sotib olishga xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar.

Shu bilan birga, aholi daromadlarining tarkibi ham jiddiy o'zgardi. Mulkchilik munosabatlarning tubdan o'zgarishi, xo'jalik yuritish va mehnat bozori hamda sarmoya yangi shakllarining yuzaga kelishi aholi daromadlari tarkibiga tegishli o'zgarishlarni olib kirdi.

Aholi daromadlarini batafsil tahlil qilish uchun ularning mavjud turlarini to'liqroq baholash maqsadida ma'lum belgilar bo'yicha ularni tasniflash lozim. (2.3-rasm).



2.3-rasm. Aholi daromadlarining turkumlanishi

47414

Aholining pul daromadlari – bu ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlari, mulkdan foiz, dividend, renta, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlardir.

Natural daromadlar – bu asosan uy xo'jaliklari tomonidan shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (shaxsiy yordamchi xo'jalik, fermer xo'jaligidan), shuningdek, davlat budjeti, korxonalar fondi va turli xayriya yordami mablag'lari hisobiga olinadigan natural tushumlar va bepul xizmatlardir.

Olinish xususiyatiga bog'liq ravishda aholi daromadlari quyidagilarga bo'linadi:

– ishlab chiqarish va tadbirkorlikdagi faoliyat asos bo'luvchi mehnat daromadlari. Mehnat daromadlariga shaxsiy yordamchi xo'jalik va uy xo'jaligi, xususiy mehnat faoliyatidan keladigan daromadlar ham xos;

– mehnatga oid bo'lmagan, lekin qonuniy yo'l bilan olingan daromadlar (mulkdan, ijtimoiy transfertdan daromadlar).

Shu bilan birga, hozirgi iqtisodiy sharoitda qonun nuqtayi nazaridan daromadlarni qonuniy va noqonuniylarga ajratish to'g'ri bo'ladi. Agar, birinchisini mavjud me'yorlarga to'la muvofiqlikda olinsa, ikkinchisi, uy xo'jaliklari tomonidan mamlakatdagi amal qilayotgan qonunlarni buzish yo'li bilan ko'proq salbiy va jinoiy iqtisodiyot sohasida olinadi. Ehtimollik mezoniga ko'ra, daromadlar olish uzluksiz va vaqtinchalikka bo'linadi.

Vaqtinchalik yoki tasodifiy daromad inson tasodifiga kirituvchi barcha omillar ta'sirini aks ettiradi, ya'ni ular, masalan, ishdagi faollikning davriy o'zgarishlari kabi kuchlar harakatining prognoz qilinuvchi natijalari bo'lishi mumkin.

Daromadlarning umumiy va ishlatilayotgan daromadlarga bo'linishi muhim ko'rinadi. Umumiy daromadlar aholining jami mobil daromadlari bruttosini, ulardan tegishli soliqlar va majburiy to'lovlar to'lanishiga qadar tavsiflaydi. Qolgan qism (aholining tasarrufdagi shaxsiy daromadlari) mobil daromadlar – mablag'larning eng yuqori bo'lishi mumkin shunday miqdorini tavsiflaydiki, ular jamg'armalardan foydalanmagan holda tovar va xizmatlarning oxirgi iste'moli miqdorlarini belgilaydi.

Daromadlarning yana bir guruhi – bu omonatlardan olinadigan daromadlar bo'lib, unga dividendlar, turli moliyaviy muassasalarga qo'-

yilgan omonatlar bo'yicha foizlar, mulkdan, shu jumladan, ijaraga berilgan uy-joydan daromadlar va boshqa tarkibiy qismlar kiradi.

Aholi daromadlari qiymatiga daromadlarni shakllantirish va boshqarish borasida tizim ichidagi munosabatlardan tashqari demografik, siyosiy, huquqiy va boshqa sohalarda yuzaga keluvchi ekzogen munosabatlar ham ta'sir qiladi.

Ishlab chiqarishda yaratilgan daromadlarni taqsimlash borasidagi munosabatlar daromadlarni tartibga solishning bozor mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish omilining har bir egasi firma faoliyatining oxirgi natijalari hissasiga muvofiq keluvchi yangi qiymat qismiga huquq oladi. Taqsimlash chog'ida omiliy daromadlarning ish haqi, foyda, renta va tadbirkorlik daromadi kabi shakllari hosil bo'ladi. Daromadlarning taqsimlanishida davlat muhim rol o'ynaydi, u fiskal siyosat yordamida davlat budjetidagi pul mablag'larini akkumulyatsiyalaydi. Davlatning bu daromadlari budjet sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun, ijtimoiy transfertlar va aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish to'lovlari uchun qo'llanadi.

Aholi daromadlari, ularning tarkibi, olinish manbalari va tabaqalanish darajasi jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy farovonligining eng muhim ko'rsatkichidir. Madomiki, daromadlar insonning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishning asosiy manbayi bo'lib xizmat qilar ekan, aynan daromad kengroq tushuncha bo'lib, aholi turmush darajasining markaziy bo'g'ini, yadrosidir. Daromad deganda nimani tushunish, ularning turlari va asosiy olinish manbalari qandayligini bilish muhimdir.

Shaxsiy daromadlar – bu inson tomonidan pul va natural shaklda olinadigan, ular tomonidan turmushning muayyan darajasini ta'minlash uchun foydalaniladigan mablag'lar majmuidir.

Agar "shaxsiy daromadlar" ta'rifida biz ularning shakllanish manbalarini ta'kidlasak, unda u quyidagi tarzda namoyon bo'ladi. Shaxsiy daromadlar – fuqarolarning mehnat faoliyatida ishtiroki, ishlab chiqarish va boshqa boyliklarning istalgan turiga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, ushbu davlatning qonuniy hujjatlariga muvofiq ijtimoiy transfertlar to'lovi qo'yilgan ijtimoiy guruhlarga tegishlilik bilan bog'liq barcha pul va tabiiy tushumlar yig'indisidir.

Iqtisodchilar shaxsiy daromad manbalarini turlicha talqin qiladi, biroq umumiy xulosa shuki, har bir ishlab chiqarish omili shaxsiy daromadlarning muayyan turi bilan bog'liq.

Omillar nazariyasiga muvofiq daromad turlari. Omillar nazariyasiga muvofiq asosiy ishlab chiqarish omillari quyidagilardir:

– tabiiy boyliklar (yer va tabiiy boyliklar);

– investitsiya boyliklari;

– mehnat;

– tadbirkorlik faoliyati.

Har bir sanab o'tilgan omillarga daromad – renta, foyda, ish haqi, tadbirkorlik daromadining boshlang'ich shaklini oladi (2.4-rasm).



2.4- rasm. Omillar nazariyasiga muvofiq shaxsiy daromadlarning shakllanish chizmasi.

Shu bilan birga, har bir omilga daromad, nazariyaga muvofiq, korxona tomonidan mahsulot sotilgandan keyin olingan daromadga bu omilning qo'shgan oxirgi hissasiga tengdir. Faqat oxirgi ishlab chiqarish nazariyasidan kelib chiqqan holda, amalda daromadlarning bunday taqsimlanishi haqiqatan bo'lishi mumkin emas, chunki:

– bozordagi takomillashmagan raqobat tufayli olinadigan daromad miqdori ishga solingan omilning mahsulot chiqarishga qo'shgan ulushini ko'pincha aks ettirmaydi;

– boyliklarni jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlashda har doim tengsizlik va adolatsizlik mavjud bo'ladi, bu shaxsiy daromadlarni oxirgi unumdorlik nazariyasiga qat'iy muvofiqlikda taqsimlashda yo'l qo'yib bo'lmas keskin qarama-qarshiliklarga olib keladi;

– har qanday taraqqiy topgan jamiyatda daromadlarni shakllantiruvchi ishlab chiqarish omillari egalarining soni jamiyat a'zolari sonidan kamroq bo'ladi.

Dastlabki boyliklarni taqsimlashdagi bunday tengsizliklar jamiyat qonunlari va ustuvorliklariga muvofiq daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlarini ishga solishni talab qiladiki, bu ulardan jamiyat umumiy daromadini ishlab chiqarishda ishtirok eta olmaydiganlarning omon qolishiga imkon beradi.

Birlamchi va ikkilamchi daromadlar. Daromadlarning ishlab chiqarish omillari o'rtasida taqsimlanishi funksional taqsimlash xususiyatiga ega va bunda hosil bo'ladigan daromadlar (renta, foyda, ish haqi, tadbirkorlik daromadi) birlamchi daromad deb ataladi. Bu daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlarini ishga solish natijasida ikkilamchi daromadlar yuzaga keladi va shu bilan birga. daromadlarning yangi turi – *ijtimoiy transfertlar* (*pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam, stipendiya*) paydo bo'ladi.

Bozor sharoiti xodimlar daromadlarining parametrlarini tubdan o'zgartirib yubordi:

– birinchidan, manbalar o'zgardi – an'anaviylariga yangilari (tadbirkorlik faoliyatidan daromad, mulkdan daromadlar);

– ikkinchidan, daromadlarning sifat va miqdor bahosi o'zgardi, egallanuvchi va haqiqatan egallanuvchi daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsienti, daromad tanqisligi, yashash minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi;

– uchinchidan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi ish haqining ulushi bilan, jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlarida ijtimoiy transfertlar ulushi bilan bog'liq aholi daromadlarining solishtirma bahosi kiritildi;

– to'rtinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi shakllari qo'shildi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar, uy-joy (ko'chmas mulk) sotib olishga xarajatlar, bankka qo'yilmalar.

Aholi daromadlari shakllanishining asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

– mehnatga ko'ra (uning natijalari va sarf-xarajatlariga ko'ra) taqsimlash tamoyili;

– mulkka ko'ra taqsimlash tamoyili (mohiyati shundan iboratki, mulkning har qanday turiga egalik qilish daromad olishni mo'ljallaydi);

– ijtimoiy-kafolatlangan me'yorlar bo'yicha taqsimlash tamoyili (barcha jamiyat a'zolariga, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy jihatdan yaxshi himoyalanmagan qatlamlariga ijtimoiy himoyaning ma'lum darajasini taqdim qilish).

Aholining shaxsiy daromadlarini tahlil qilishda "jami", "nominal" va "real" daromadlar kabi tushunchalarni qo'llash mumkin.

Yalpi daromadlar – bu shaxsiy iste'molga shaxsiy yordamchi xo'jalikdan natural tushumlar qiymatini va aholiga ijtimoiy fondlar hisobiga bepul va imtiyozli xizmatlar qiymatini hisobga olgan holda kirimning barcha manbalari bo'yicha pul daromadlarining umumiy yig'indisidir. Aholi jami daromadlari tarkibi 2.5-rasmda ko'rsatilgan.



2.5-rasm. Aholi daromadlarining tarkibi.

Fuqarolar daromadlari darajasi ular farovonligining muhim ko'rsatkichidir. U jamiyatning har bir a'zosining dam olish, bilim olish, sog'liqni saqlash, zaruriy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilaydi. Undan tashqari, oila daromadlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish mamlakat iqtisodiyotidagi holat haqida eng qimmatli axborot beradi va uning iqtisodiy-siyosiy kelajagini bashorat qilishga yordam beradi. Shuning uchun iqtisodchilar aholi daromadlari shakllanishini doimiy kuzatib boradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining yalpi daromadi 2006 yilda 11674 mlrd. so'mdan, 2012 yilda 63282 mlrd. so'mga oshgan. Yoki shu davrda o'sishi qariyb 1,3 martaga teng bo'lgan (2.1-jadval).

Nominal daromadlar aholi pul daromadlarining soliq va to'lovlar to'lashga qadar va narxlar o'zgarishidan qat'iy nazar darajasini tavsiflaydi. Bu daromad turmush darajasini ifodalamaydi.

2.1-jadval

O'zbekistonda aholi yalpi daromadlarining o'zgarishi, yil boshiga nisbatan (mlrd. so'm)

Ko'rsatkichlar	2006 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2012 yilda 2006 yilga nisbatan o'sish, marta
Aholining yalpi daromadi	11674	20906	36430	47760	63282	1,3
YaIMga nisbatan %da	73,3	74,2	73,8	76,6	81,4	8,1 f.n.
Tadbirkorlik faoliyati daromadi	4476,4	8123,1	12317	17656	22936	5,1
Mulkdan olingan daromad	35,1	57,7	135,6	191,1	272,1	7,8
Maosh ko'rinishidagi daromad	3771	6929	12969	16886	21666	5,7
YaIMga nisbatan %da	23,7	24,6	26,3	27,1	27,9	2,4 f.n.
Natural shakldagi daromad	1035	1635	2468	2870	3576	3,4
YaIMga nisbatan %da	6,5	5,8	5,0	4,6	4,6	-1,9 f.n.
Pensiya va boshqa ijtimoiy transfertlar	1508	2666	4938	6239	7775	5,2
YaIMga nisbatan %da	9,5	9,5	10,0	10,0	10,0	0,5
Boshqa daromadlar	849,4	1553	3738	4110	7329	8,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari

O'z ixtiyoridagi daromadlar soliqlarni to'lash va majburiy to'lovlardan keyingi, aholi ixtiyorida haqiqatdan ham qoladigan, oxirgi iste'mol uchun sarf qilish mumkin bo'lgan daromad hisoblanadi. Aholining o'z ixtiyoridagi daromadini quyidagicha tasniflash mumkin (2.6-rasm).



2.6-rasm. Aholining o'z ixtiyoridagi daromadlari.

Shunday qilib, aholining jami va pul daromadlari umumiyga – soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashgacha bo'lganlarga va tasarrufdagiga – ko'rsatilgan to'lovlarni amalga oshirishdan keyingi netto daromadga bo'linadi.

Aholining real daromadlari ikkita omil – ixtiyoridagi daromadlar hamda tovar va xizmatlar narxlari bilan belgilanadi. Ular amalda olingan nominal daromadlarga xarid qilish mumkin bo'lgan iste'mol tovarlari va xizmatlar miqdori bilan ifodalanishi mumkin. Real daromadlar tasarrufidagi daromadlar o'sish sur'atlari bilan muayyan davr uchun iste'mol narxlar indeksi o'rtasidagi nisbatga bog'liq. Aholi uchun real daromadlar, mol-mulk va ilgari jamg'arilgan mablag'lar miqdori bilan bir qatorda ularning farovonlik darajasini belgilab beruvchi eng muhim ko'rsatkichlar jumlasiga kiradi.

Aholining nominal va real daromadlarini hisoblash natijasida aholining real daromadlari indeksi hisoblanadi. Buni hisoblash uslubini quyidagi 2.2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

Qator mamlakatlarda aholining nominal pul daromadlarining o'sishi so'nggi yillarda inflyatsiya, soliqlar va to'lovlarni hisobga olgan holda, ularning real qiymatlarining jiddiy pasayishi bilan birga kechadi.

Aholining o'z ixtiyoridagi daromadlarining pasayishi quyidagi omillarga bog'liq:

2.2-jadval

Aholining real daromadlar indeksini hisoblash uslubi (shartli statistik ma'lumotlar asosida)*

T/r	*Ko'rsatkichlar*	*Bazis davr*	*Joriy davr*
1.	Aholining nominal daromadlari, mln so'm	567	598
2.	Umumiy nominal daromaddan chegirib tashlanadigan har xil to'lovlar (soliqlar va ijtimoiy to'lovlar)	98	112
3.	Aholining ixtiyoridagi daromadi, mln so'm (1-2)	469	486
4.	Iste'mol narxlari indeksi	1,0	1,16
5.	Real daromad, mln so'm (3:4)	469	418.9

*Manba: Ғойибназаров Б.К. Аҳоли турмуш даражасини статистик баҳолаш. – Т.: Фан, 2005. – 24 б.

– birinchidan, turmush darajasi tirikchilik uchun eng kam miqdordan pastroq bo'lgan aholi ulushining o'sishi, kambag'allik jarayonlarining chuqurlashuvi, kambag'allik chegaralaridan yuqoriroq yashovchi aholi daromadlarining qisqarishi bilan;

– ikkinchidan, (asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga, transportga, uy-joyga) narxlar dinamikasi va ovqatlanish sifati ko'rsatkichlarining yomonlashuvida ifodalanadigan (oziq-ovqat mahsulotlariga xarajatlar nooziq-ovqat tovarlariga xarajatlardan oshib ketsa) daromadlar o'rtasidagi nomaqbul mutanosiblik bilan;

– uchinchidan, xizmatlar tarifining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga qaraganda tezroq ko'payadi.

Daromadlar tarkibi va shakllanishi muammosini o'rganishda mehnatga oid va mehnatga oid bo'lmagan daromadlarni farqlash zarur. Yaqin vaqtgacha iqtisodiyotni boshqarishning hukmron-buyruq usullari sharoitlarida mehnatga oid daromadlarga davlat va kooperativ korxonalar hamda tashkilotlardagi mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlarni kiritish qabul qilingan edi. Rasmiy davlat kanallaridan tashqarida olingan daromadlarning barcha turlari mehnatga oid emas, deb tavsiflanardi. Shu asnoda umumiy daromadlarning mehnatga oid va mehnatga oid bo'lmaganlariga ajratilishi muammosida, ayniqsa mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish shakllari xilma-xil bo'lgan sharoitlarda g'oyatda muhim yangi jihatlar paydo bo'ladi. Eng avvalo, gap tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar va mulkdan keladigan daromadlar kabi daromadlar

turlari haqida boradi. Mahsulot ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'ziga xos mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdan oila budjetiga tushumlarning asosi, shubhasiz, mehnatdir. Xuddi shu narsa shaxsiy yordamchi xo'jalikda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlarga ham tegishlidir.

Mehnat daromadi mehnat faoliyati bilan bog'liq, investitsiya daromadi esa mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lishi yoki bog'liq bo'lmasligi mumkin. Mehnat va investitsiya faoliyati o'rtasidagi cheklangan aloqa xususiy mablag'larni korxonalar yaratishga joylaydigan va shu bilan bir paytda uning rivojlanishi va samarali ishlashi uchun tashkiliy, boshqaruv va boshqa vazifalarni bevosita amalga oshiradigan tadbirkorlar uchun xosdir.

Mehnatga oid bo'lmagan daromadlarga haqiqiy ma'noda faqat mulkdan, jamiyatda qabul qilingan huquqiy me'yorlardan, axloq va fuqarolik me'yorlaridan chetga chiqish bilan (shuningdek, o'zini olib qochish bilan) olib boriluvchi alohida mehnat va tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlargina kiradi. Bunday daromadlar o'z mohiyatiga ko'ra jinoiydir.

Shaxsiy daromadlarning ko'rib chiqilgan turlaridan tashqari ularning tasnifini quyidagi belgilar bo'yicha keltirish mumkin.

Ashyoviy shakliga ko'ra daromadlar pullik va natural bo'lishi mumkin. Daromadlarning natural shakli – bu nafaqat shaxsiy yordamchi xo'jalik va uy xo'jaligidan daromadlar, tabiiy shakldagi ijtimoiy yordam (mahsulotlar, kiyim-kechaklar, o'tin), balki xodimlarga ish haqini o'z korxonasi mahsuloti shaklida berish hollari yoki to'lanmaslik bo'hroni sharoitlarida ular tomonidan barter bo'yicha o'rniga olingan mahsulotlar hamdir. Bundan tashqari, daromadlarning tabiiy shakli korxona xodimiga qimmatli sovg'alar yoki firma badal paketiga kiruvchi tovarlar va xizmatlar (transportga yo'l chiptalari, basseynga abonementlar) bo'lishi mumkin.

Olish manbasiga ko'ra korxonalar iste'mol fondidan (korxonalardagi ish haqi, mukofotlar, ijtimoiy to'lovlar), davlat budjetidan va davlat budjetdan tashqari fondlaridan (pensiya, nafaqa, yordam, stipendiya, imtiyozlar) va nihoyat fuqarolar mulkidan (dividend, foiz, ijara to'lovi, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan daromadlar) olinadigan daromadlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Shu bilan birga, asosiy va qo'shimcha daromad manbalarini ajratish mumkin. **Qo'shimcha daromad** – mablag'larning asosiy manbasidan tashqari olinadigan daromaddir (o'rindoshlik bo'yicha ishlash, qimmatli

qog'ozlar bo'yicha daromadlar va b.q.). Daromad olishning qo'shimcha manbasiga asosiy daromadning yetarli emasligi tufayli murojaat qiladilar – so'nggi yillarda 50,0 % dan ortiqroq aholi qo'shimcha daromad olish uchun qo'shimcha ravishda ishlashga majburdirlar. Qo'shimcha daromadlarga intilishning yana bir sababi, asosiy daromad qisqargan mahalda turmush darajasining jiddiy ravishda tushib ketishi xavfini kamaytirishga imkon beruvchi daromad manbalarini diversifikatsiyalashga intilishdir.

Qonuniylik darajasiga ko'ra, qonuniy va noqonuniy daromadlarni farqlash kerak bo'ladi. Huquqiy jihatdan oqlangan shaklga ega qonuniy daromadlardan farqli ravishda, noqonuniy daromadlar manbayi faoliyatning hisobga olinmagan va huquqqa qarshi turlaridir. Noqonuniy daromadlarni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi – narkotik savdosi, reket, kontrabanda, korrupsiya bilan bog'liq kelib chiqishi jinoiy noqonuniy daromadlardir. Ikkinchisi – iqtisodiy xususiyatga ega daromadlar: soliq xizmatlari tomonidan ro'yxatga olinmagan, lekin xususiyatiga ko'ra jinoiy bo'lmagan faoliyat turlari (ruxsatnomasiz savdo qilish, yashirin ustaxonalar va h.k.).

2.3-jadvalda mamlakatimiz uy xo'jaliklari daromadining tarkibi va ular ko'rsatkichlarining 2006-2012 yillarda o'zgarish dinamikasi keltirilgan.

2.3-jadval

O'zbekistonda aholi umumiy daromadi tarkibining o'zgarishi,

Ko'rsatkichlar	2006 y.	2008 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.
Aholining yalpi daromadlari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
ish haqi	32,3	33,1	35,6	35,4	34,2
tadbirkorlik va mulkdan olingan daromad	38,6	39,1	34,2	37,4	36,7
nafaqa, stipendiya va boshqa ijtimoiy transfertlar	12,9	12,8	13,6	13,1	12,3
natura shaklidagi daromadlar	8,9	7,8	6,8	6,0	5,7
boshqa daromadlar	7,3	7,2	9,9	8,2	11,2

(yil boshiga nisbatan foizda)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari

Aholi daromadlari tarkibida ish haqi, aholining tadbirkorlik hamda mulkidan keladigan daromadlar ulushi 70 foizdan yuqori, shundan oylik ish haqi 2012 yilda 34,2 foizni tashkil etganda, bu ko'rsatkich 2006 yilga nisbatan qariyb 2 foiz punktiga oshgan.

Aholi daromadlarida nafaqa, stipendiya, va ijtimoiy transfertlar ulushi 12-14 foizni tashkil etadi. Keyingi yillarda aholining natura shaklidagi mahsulotlari hajmi ko'paysa-da, ularning daromaddagi ulushi pasayish tendentsiyasiga ega. Shu bilan bir vaqtda aholining boshqa daromadlari ulushining o'sishi kuzatiladi.

2.4. Aholining pulsiz ko'rinishidagi daromadlari va ularning shakllanishi

Pullik va natural shakldagi daromadlar bilan bir qatorda, aholi o'z ehtiyojlarining keng doirasini ijtimoiy-maishiy soha xizmatlaridan foydalanib ham qondiradi. Bular aholining **pulsiz daromadlari** deb ataladi. Aholi pulsiz daromadlarining qator manbalari mavjud (2.7-rasm).



2.7-rasm. Aholining pulsiz ko'rinishidagi daromadi tarkibi.

Aholi tomonidan jamoatchilik yoki maqsadli jamg'armalar hisobiga iste'mol qilinuvchi bepul yoki qisman to'lanadigan imtiyozlar bepul xizmatlar ko'rinishida olinadigan daromadlar qismidir. Ular ham daromadlar darajasini belgilaydi, turmush darajasining o'sishiga yordam beradi, lekin qat'iy maqsadlidir va bu xizmatlar hamda imtiyozlar qiymatiga ekvivalent pul miqdori bilan almashtirilishi mumkin emas. Pulsiz ko'rinishidagi daromadlarning boshqa manbalari – bu shaxsiy yordamchi xo'jaliklar, uy ishlaridir.

Jamoatchilik iste'mol jamg'armalari iste'molning jamoaviy shakli turlaridan biri bo'lib, aholiga bepul xizmat ko'rsatish sohasining amal qilishi uchun moddiy asosni tashkil qiladi. Mazkur jamg'armalar hisobiga aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha davlat muassasalari: kasalxonalar, poliklinikalar, boshqa sog'liqni saqlash muassasalari, maktablar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa o'quv muassasalari, maktabgacha ta'lim muassasalari, ko'pgina madaniyat muassasalari ta'minlanadi. Shunday qilib, bu o'ziga xos boyliklarning bepul taqdim qilinishi hisobiga aholining barcha qatlamlari uchun yuqoriroq darajadagi iste'mol ta'minlanadi.

Jamoatchilik iste'mol jamg'armalaridan olinuvchi bepul boyliklar va xizmatlar miqyosi haqida, jamg'arma mablag'lari qanday bo'linishiga qarab baho berish mumkin: pul to'lovlari jamg'arma umumiy miqdorining yarmiga yaqinni tashkil qiladi, bu miqdorning yarmidan sal kamrog'ini o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va ta'limi, kasbiy tayyorgarlik, sog'liqni saqlash bo'yicha aholiga bepul yoki imtiyozli shartlarda ijtimoiy sotib olingan xizmatlarni ko'rsatishga xarajatlar tashkil qiladi. Xizmatlarning shunga o'xshash turlari sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat munitsipal idoralari uchun mahalliy budjet hisobiga amalga oshiriladi.

Ma'lumki, ehtiyojlarni qondirishning jamoaviy shakllariga turli imtiyozlar, dotatsiyalar, subsidiyalar kiradi. Daromadlarning pulsiz ko'rinishlari hududlarning iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq. Ulardan eng keng tarqalganlari quyidagilar: pensionerlar va aholining boshqa guruhlari uchun shahar jamoatchilik transportida bepul yurish, kommunal xizmatlarga imtiyozlar, nonga dotatsiya, aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlari uchun ovqatlanishga bepul talonlar. Shu bilan birga, korxonalarda (tashkilot, firma) bolalarning maktabgacha tashkilotlardagi, sog'lomlashtirish oromgohlaridagi ta'minotiga imtiyozlar, ovqatlanishga, jamoatchilik transportida yurishga bepul talonlar, uy-joy kommunal xo'jaligi ta'minotiga dotatsiyalar beriladi.

Daromadning pulsiz shakllari hajmi korxonadagi (hududdagi) iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy siyosatga bog'liq bo'ladi hamda faqat ushbu korxona xodimlariga yoki hudud aholisiga joriy qilinadi.

Shaxsiy yordamchi xo'jalik – bu pulsiz ko'rinishidagi daromad manbalaridan hisoblangan iqtisodiy shakldir. Uning mavjudligiga va

rivojlanishni rag'batlantirishga huquqini e'tirof etish bilan bir qatorda, uni cheklash va qisqartirish chavrlari ham bo'lgan, hatto uning butunlay yo'qolib ketishi uchun sharoit ar yaratish vazifasi ham qo'yilgan. Hozirgi paytda davlat siyosati shaxsiy yordamchi xo'jalikni rivojlantirishga qaratilgan. Biroq aholining shaxsiy yordamchi xo'jalikka munosabatida ma'lum bosqichda noiqtisodiy omillar hal qiluvchi rolni o'ynashi ham mumkin. Bo'sh vaqtga ehtiyo , undan birinchi navbatda, moddiy ehtiyojlarni emas, balki madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanish istagi ma'lum sharoitlarda aholini yordamchi xo'jalik yurtishdan voz kechishini tezlashtirishi mumkin.

Shaxsiy yordamchi xo'jalikning rivojlanish istiqbollarini ijobiy baholash (tomorqa, bog'dorchilik, poliz ekin maydonlariga ishlov berish, chorvachilikni rivojlantirish) va bu manbadan daromadlarning o'zgarish yo'nalishini to'g'ri aniqlash uchun bu yordamchi xo'jalikning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarning tavsifini berish zarur.

Shaxsiy yordamchi xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishiga yordam beruvchi omillarga quyidagilar kiradi:

1. Mamlakatda aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashning yomonlashuvi, qishloq xo'jaligining yetarlicha rivojlanmaganligi va samaradorligining pastligi bilan bog'liq bo'lgan tanqislikning o'sishi. Mavjud baholarga ko'ra, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan voz kechish uchun ekin maydonlarini ko'p mehnat talab qiluvchi qishloq xo'jaligi ekinlari uchun deyarli ikki marta, mahsuldor chorva mollarini 20 foizga ko'paytirish talab qilinadi.

2. Davlatning mulkning rivojlangan shaxsiy shakllariga nisbatan siyosati.

3. Shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olinuvchi foydaning mavjudligi. Shaxsiy yordamchi xo'jalik atigi 3 foiz yerni egallashiga qaramasdan, ularda butun mamlakat qishloq xo'jaligining 38 foiz atrofidagi yalpi mahsuloti ishlab chiqariladi, talab ayniqsa katta bo'lgan mahsulotlarning asosiy turlari (kartoshka, sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar, go'sht, sut) ulushi esa yanada kattaroq. Shaxsiy yordamchi xo'jalikda nobudgarchilik va chiqindilar deyarli bo'lmaydi. Bu turdagi ishlab chiqarishning afzalligi iqtisodiy xulqning erkinligi (shaxsiy iste'mol, mahsulotlarni boshqa xo'jaliklar va firmalarga pullash, bozorda sotish), "qo'shimcha" xarajatlarning yo'qligi.

4. Shaxsiy yordamchi xo'jalik mahsulotlariga sotish narxlarining o'sishi.

5. Iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan shaxslarning (turli sabablarga ko'ra) ishdan bo'shatilishi natijasida mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi.

6. Bog'dorchilik va poliz ekin maydonlari sonining tez o'sishi.

Shaxsiy yordamchi xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishini cheklovchi omillarga quyidagilar kiradi:

– shaxsiy yordamchi xo'jalikka egalik qiluvchi oila a'zolari bo'sh vaqtining kamayishi, ularning madaniy rivojlanishi, bilim darajasining oshishi;

– shaxsiy yordamchi xo'jalikda jismoniy og'ir, qo'l mehnatining ulushi yuqoriligi munosabati bilan yoshlarda bunday mehnatning ommabop emasligi;

– transport, yoqilg'i, bog'dorchilik va poliz inventarlariga narxlarning (tariflarning) oshishi.

Qishloq joylarida shaxsiy yordamchi xo'jalikning roli nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ulushi bilan, balki ularning aholi farovonligi tarkibida qanday o'rin egallashi, daromadlar va iste'molning o'sishiga qanday ta'sir qilishi bilan ham belgilanadi. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklar aholining turli qatlamlari turmush darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ularda shaxsiy yordamchi xo'jalikka ega oilalar uchun ishlab chiqarilgan mahsulot natural shaklda ham, pul shaklida ham chiquvchi daromaddir.

Umuman olganda, qishloq aholisi, ayniqsa nafaqaxo'rlar, ishsizlar va qisman ish bilan band xodimlarning katta qismi uchun shaxsiy yordamchi xo'jalikdan daromad olish farovonlikni oshirishning zarur sharti bo'lib qolishda davom etmoqda. Shu bilan birga, shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsiy yordamchi xo'jalik ayrim fuqarolar uchun xobbi hisoblanadi.

Shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olinadigan daromadlar miqdori nafaqat aholi ijtimoiy qalamlari va guruhlari bo'yicha, balki hududlar bo'yicha ham jiddiy ravishda tabaqalashmoqda. Shaxsiy yordamchi xo'jalikda olingan mahsulotning katta qismi savdo sohasini ortda qoldirib, bevosita iste'mol qilinadi va oilalarning umumiy daromadlari tarkibiga natural shaklda qo'shiladi. Aynan shu qismni daromadlarning pulsiz variantlariga kiritish mumkin. Masalan, bugungi kunda qishloq aholisi shaxsiy yordamchi xo'jalikdan kartoshkaga bo'lgan ehtiyojlarini 95 foizga, sabzavotlarga – 75 foizga, go'shtga – 79 foizga, sutga – 82 foizga, tuxumga esa 97 foizga qondirgan.

Shunday qilib, shaxsiy yordamchi xo'jalik mahsulotlaridan foydalanishning asosiy yo'nalishi – bu oilalarning bevosita iste'moli, o'z-o'zini ta'minlashidir. Shu bilan birga, shaxsiy yordamchi xo'jalik rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri – bu bog'dorchilik va polizlarda, tomorqalarda yetishtirilgan ekologik toza mahsulotni iste'mol qilishga kuchayib borayotgan intilishdir.

Shuni hisobga olish kerakki, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olinadigan natural daromadlar – bu aholi natural daromadlarining faqat bir qismidir. Boshqa qismi (hozircha o'rganilmagan) – bu **tabiat in'omlarini o'zi tayyorlashidir.** Bularga ovchilik, baliq tutish, iste'mol qilish mumkin bo'lgan yovvoyi o'simliklar, yovvoyi asal, yong'oq, giyohlarni terish kabilar kiradi.

Daromadlarning pulsiz shakliga **uy xo'jaliklaridagi ishlar** (tikish, to'qish, uy-joyni, mebellarni, kiyimlarni, oyoq kiyimlarini ta'mirlash, kir yuvish, uylarni yig'ishtirish, bolalarni tarbiyalash) kiradi. Bu daromad shaklining shaxsiy yordamchi xo'jalik daromadidan farqi shundan iboratki, uy xo'jaligini olib borish hisobiga o'zi va o'z oilasi uchun ayrim tovarlar, predmetlar, xizmatlarga bo'lgan talablar qondiriladi. Shaxsiy yordamchi xo'jalikda daromad shakli oziq-ovqat yo'nalishiga ega.

Pulsiz daromadlarning yana boshqa manbalariga manzilli yo'nalishga ega bo'lgan **homiylik yordami** (xorijda yurishga, turistik yo'llanmaga, davolanishga, operatsiyalar o'tkazishga, konkurslarda qatnashishga haq to'lash, madaniy tomoshalar va sport tadbirlari o'tkazishga dotatsiyalar) ni kiritish mumkin. Bu manba ijtimoiy iste'mol jamg'armalari bilan ba'zi bir o'xshashlikka ega.

Shunday qilib, daromadlarning pulsiz manbalari aholining serdaromad bo'lishini, iste'mol darajasini oshirishga va aholi farovonligini yaxshilashga imkon beradi. Pulsiz daromadlarning shakllari, miqdori, yo'nalishlari katta rang-baranglik bilan ajralib turadi va istiqbolda ham ular aholi farovonligida muhim rol o'ynaydi.

2.5. Real daromadlarning shakllanishida soliqlarning o'rni

Soliqlarda davlatning iqtisodiy ifodalangan mavjudligi mujassamlangan. Ushbu qoida birinchi navbatda bozor tamoyillariga asoslangan davlatga tegishlidir. Davlat mulkiga asoslangan hukmron iqtisodiyot davlat budjetini, birinchi navbatda, davlat tashkilotlarida yaratilgan qo'-

shimcha mahsulotlarni qayta taqsimlash tufayli ta'minlaydi. Bu tizim soliqlari iqtisodiy munosabatlarning shu qismida tarqaladiki. u yerda ularning tovar-pul shakliga (ma'lum darajadagi cheklovlar bilan) yo'l qo'yiladi: korporativ sektor va fuqarolar daromadlari, shuningdek. bilvosita soliqlar vositasida chakana savdo orqali, keyingilari – zarur mahsulotning bir qismi va moddiy-texnik ta'minot hamda aholi uchun qator oziq-ovqat mollarining ongli ravishda tushiriladigan narxlari sababli olinmagan qismi hisobiga davlat budjetining qo'shimcha ravishda to'ldirilishidir.

Soliqlarning mohiyati to'liq darajada bozor munosabatlari sharoitida ochiladi. Bu yerda ular nafaqat yuzaga kelgan va yuzaga keladi. balki davlatning tartibga soluvchi, muvofiqlashtiruvchi va qayta taqsimlovchi rolini amalga oshirishda to'laqonli amal qilishlari mumkin.

Har qanday soliq tizimi foyda va yo'qotishlar olib keladi. Undan tashqari. eng maqbul soliqlarga deyarli erishib bo'lmaydi, chunki ular siyosiy jarayonlar tomonidan va yetakchi guruh manfaatlari tazyiqi ostida buzilib ketishga moyildir.

Soliqlar uy xo'jaliklari, korxona va tashkilotlar daromadining mavjud miqdorini qisqartiradiki, bu aholi turmush darajasida aks etadi. Shu bilan bir paytda soliq tizimining mamlakat iqtisodiyotidagi roli ancha kengroq va rang-barang bo'lishi mumkin. Soliq to'lovchilar daromadlarini kesib tashlash yo'li bilan nafaqat davlat budjeti daromadlari manbayi va qayta taqsimlash instrumenti. balki fiskal siyosat dastagi, yoki bo'lmasa soliqlarning fiskal vazifasining tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi vazifasi bilan ajralmas tarzda qo'shilib ketganida stabilizator bo'lishi ham mumkin. Bunday yondashuv chog'ida soliqlarning ahamiyati oshadi va davlatning hayot faoliyatidagi imkoniyat va qobiliyatlariga yetarlicha baho bermaslik nafaqat soliq yig'imlarini. balki inflyatsiya, talab. taklif, jamiyat boyliklari, transfert, investitsiya, tashqi iqtisodiy aloqalar va iqtisodiy istiqbollarni ham hisobga olgan holda aholi turmush darajasiga ta'sir qiladi.

Qo'llanilayotgan soliq tizimining samaradorligi nafaqat undan foydalanishning funksionalligi va strategiyasi bilan, balki uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishining erishilgan darajasiga aynan mosligi bilan ham bog'liq. Turli mamlakatlar tajribasi ko'rsatadiki, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi va iqtisodiyotga soliq yuklamasi imkoniyatlari o'rtasida aloqa kuzatiladi.

Soliqqa tortish tamoyillariga qadimdan ta'riflab berilgan: foyda tamoyili, ya'ni soliqlarning tarkibi va miqdorlari shunday bo'lishi kerakki, ular yordamida bozor mexanizmi bilan belgilanuvchi daromadlar jamiyat manfaatlari yo'lida va nafaqat muayyan to'lov, yordam va imtiyozlar shaklida, balki ijtimoiy tovarlar va samarali iqtisodiyot orqali ham tegishli tarzda qayta taqsimlansin.

Soliqlar xarid qobiliyatini qisqartiradi. Bu oddiy fikrdan rivojlangan mamlakatlar aniq iqtisodiy vaziyatlarda muavaffaqiyatli foydalanadi. Masalan, agar milliy iqtisodiyot oldida iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi muammosi tursa, soliq olinmalari qiymati eng yuqori darajada qisqaradi. Bu nafaqat mavjud daromadlarda, balki mehnat va investitsiya faolligida ham aks etadi. Aksincha, firmalardan olinadigan soliqlarning ortishi foydadan umidni va sarmoya solishga intilishni zaiflashtiradi, aholining esa iste'mol darajasi pasayadi.

Soliq tizimi shunday tuzilishi kerakki, soliq tushumi sof milliy mahsulot qiymatiga mutanosib bo'lsin. Uning o'sishi bilan davlat budjetiga soliq tushumlari ham ortib boradi. Agarda sof milliy mahsulot kamayishi yoki hatto tushishi kuzatilsa, soliq tushumlari qisqaradi, bu xarid qobiliyatini oshiruvchi o'sib borayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish bilan iqtisodiy inqirozni yumshatadi. Shu bilan birga, fiskal siyosat budjet tanqisligi sharoitlarida davlat xarajatlari yonma-yon qisqargan chog'da soliq me'yorlarining pasayishini ham ko'zda tutadi.

Aholining real daromadlariga, birinchi navbatda, daromad soliqlari ta'sir ko'rsatadi. Bu daromadlar bir qismining belgilangan me'yorlarda to'g'ridan-to'g'ri ushlab qolish ko'rinishidagi to'lovlardir (shu jumladan, real va shaxsiy). Marginal soliqlar, ya'ni daromadlar o'sishidan olinadigan soliqlar, bundan tashqari, ish vaqtidan tashqari ish va qo'shimcha ishga qiziqishni yo'qotadi. Ular daromadlarni berkitishga undaydi, chunki daromad o'sishining rasmiy asosi daromadlar haqidagi deklaratsiyani taqdim qilish talabining asosi bo'lib xizmat qiladi. Yuksak soliq me'yorlari, qayd qilganimizdek, mehnatga haq to'lashdagi, dividend va boshqa daromadlar olishdagi firibgarliklarning o'sishiga olib keladi.

Oluvchilar nuqtayi nazaridan, norasmiy daromadlar, shubhasiz, ularning turmush darajasiga ijobiy ta'sir qiladi. Lekin, ular va ularning oila a'zolari tomonidan jamiyat boyliklarini, hatto transfertlarni olishda soliqlarni to'lamaslik jamiyatning a'zolari elkalariga tushadigan soliqlar-

ning o'sishi, imtiyoz va ijtimoiy yordamlarning qisqarishi, budjet sohasi ish haqining muntazam ravishda kechikishi shaklida og'ir yuk bo'lib tushadi. Bundan tashqari, mamlakatning axloqiy iqlimi ham buziladi: qonunlarga hurmatsizlik siyosiy vaziyatni beqarorlashtiradi, totalitar choralarga undaydi, bu esa, aholi turmush sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Soliqlar kuchli sarmoya qo'yish va uy xo'jaliklarida mulk hosil bo'lish kabi xususiy jamg'armalarning o'sishi bilan bog'liq ijobiy qayta taqsimot jarayonlarini ham to'xtatib turadi. Iqtisodiyot va farovonlikning ko'tarilishi borasidagi jahon tajribasi jamg'armalarga qayta taqsimlashning hukumat tomonidan tanlab olinganiga nisbatan teskari choralarini namoyish qiladi. Masalan, Germaniyada 1990-yillarga qadar, ayniqsa 1950-1960-yillarda hukumat e'tibori yollanma ishchilarning ish haqiga yagona daromad manbayi sifatida bog'liqligini kamaytirishga qaratilgan, uy xo'jaliklarida foiz, dividend, renta shaklida daromad keltiruvchi mulklarni to'plash siyosati o'tkazilgan edi.

Aholi daromadlari yuzaga kelishidagi qayta taqsimlash jarayonlari daromad solig'ining qo'llanuvchi turi bilan ham bog'liqdir. Masalan, daromadga nisbatan tezroq o'suvchi ilg'or soliqlar yuqori daromadlarga ega fuqarolar hisobiga budjetning ko'payishini ta'minlaydi. Keyingilari soliqning og'ir yukini boshqalarga ag'darishga kirishadi. Masalan, malakali va malakasiz xodimlar mehnatiga haq to'lashdagi tafovutlarni saqlab qolishga intilish ham ish beruvchini ilg'or soliqlar o'rnini to'ldirish va mavjud to'lovdagi tafovutni saqlab turish uchun xodimning ish haqini oshirishga majbur qiladi. Ish haqining oshirilishi ijtimoiy fondlarga majburiy ajratmalarga ham ta'sir qiladiki, ular ham xarajatlarga kiradi.

Niqoblangan qayta taqsimlash jarayonlari narx va tariflar orqali to'lanadigan bilvosita soliqlar bilan ifodalangan bo'lib, ular narx va tariflar orqali to'lanadi. Ularni nafaqat to'lov shakli sababli, balki fuqarolarning haqiqiy daromadlarini fiskal ravishda kesib olishi sababli ham iste'molga soliqlar deb atashlari bejiz emas.

Qator mamlakatlarda bilvosita soliqlarga birinchi navbatda: qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksizlar, bojxona soliqlari kiradi. Ularga korxona va tashkilotlarning majburiy badallari kelib tutashadi. Amalda ular ish haqining o'sishini qisqartiruvchi to'lov fondiga qo'shimcha soliq sifatida amal qiladi. Ushbu ajratmalar budjetdan tashqari fondlarga korxonalardan tushishiga qaramasdan, oxir-oqibatda barchasini o'z daromadi-

dan tovarlarni sotib oluvchi iste'molchi to'liq ravishda to'laydi, chunki bu ajratmalar ishlab chiqarish, sotish xarajatlariga va narxlarga ham qo'shiladi.

Ishlab chiqarish va tovarlar iste'molining pasayishiga aksiz solig'i ham ta'sir ko'rsatadi. Aksizlarning fuqarolarning haqiqiy daromadlariga ta'siri QQS bilan aynan o'xshash, lekin tovarlar ro'yxati va xaridorlar doirasi bilan nisbatan cheklangan. Shu bilan birga, hukumat nafaqat soliq daromadlarining maqsadini, balki tovarlarning ijtimoiy zararli iste'moli bilan kurash maqsadini ham ko'zlashi mumkin. Zeb-ziynat buyumlariga narxlarda aksizlardan foydalanish aholining badavlat qatlamlari pul mablag'larining qayta taqsimlanishidagi ilg'or daromad soliqlarini to'ldiradi. Yuqori daromadlarga ega oilalar uchun soliqlar regressiv bo'ladi, chunki daromadlarning barchasi xaridlarga sarf qilinmaydi, bu omonatlar imkoniyatini yaratadi. Lekin, beqarorlik va yuksak inflyatsiya sharoitlarida omonatlar ko'pincha likvid tovar shaklini oladi: valyuta, ko'chmas mulk, antikvariat, zargarlik mahsulotlari, ya'ni daromadlar xarid orqali omonatlarga aylanadi. Oqibatda boylar uchun ham bilvosita soliqlar mutanosib va hatto ilg'or bo'lib qoladi.

Import mahsulotlariga bojlar ham bilvosita soliqlardir. Bojxona bojlaridan foydalanish milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadi va budjet daromadlarini olish bilan o'zini oqlaydi. Bojlarning kiritilishini mamlakat ishlab chiqarish mahsulotlarini xarid qilishni rag'batlantirish bilan izohlaydi. Shu bilan bir paytda iste'molchilar xarajatining bojlarga ega bo'lgan tovarlarni sotib olishdan unchalik istalmaydigan tovarlarni sotib olishga qayta taqsimlanishi real daromadlarning qisqarishiga olib keladi. Ulardan ilgari nafaqat importning yo'qligi uchun, balki past funksional va organoleptik xususiyatlari sababiga ko'ra ham voz kechganlar. Undan tashqari, import to'xtatilgan va milliy tovarlarga talab o'sgan sharoitlarda keyingilarining narxlari o'sadi.

Bilvosita yig'inlar korxonalarga solinadigan mahalliy soliqlarga ham xosdir. Ularning mavjudligi va o'sishi obyektiv asosga ega bo'ladi: mintaqaviy va mahalliy budjetlarning ta'minlanmaganligi va bu bilan tuman ma'murlarining narxlarda qayd qilinuvchi qo'shimcha soliqlar o'rnatishga intilishi va iste'molchilar talablari notekis bo'lgan chog'da uy xo'jaliklari budjetlariga qo'shimcha yuk sifatida tushadi.

Dunyoning rivojlangan va boshqa bir qator davlatlarida shu borada erishilgan natijalarga e'tibor beradigan bo'lsak, yurtimizda olib borilayotgan soliq siyosati har tomonlama ma'qul va qulay siyosat ekanini anglash qiyin emas (2.4-jadval).

2.4-jadval

Dunyoning ayrim davlatlarida soliq yukining o'rtacha darajasi, foizda

Davlatlar va uyushmalar nomi	Soliq yukining o'rtacha darajasi, foizda	O'zbekistondagi soliq yukining boshqa davlatlardagi holat bilan qiyosiy darajasi
AQSH	32,3	1,5 marta past
Yevropa Ittifoqi davlatlari	42,6	2,0 marta past
Lotin Amerikasi davlatlari	47,2	2,2 marta past
IHTga a'zo davlatlar	35,9	1,7 marta past
Janubiy Osiyo davlatlari	40,2	1,9 marta past
Sharqiy Osiyo davlatlari	34,5	1,6 marta past
Markaziy Osiyo davlatlari	40,5	1,9 marta past
Rossiya Federatsiyasi	34,1	1,6 marta past
MDHga a'zo davlatlar	25,2	1,2 marta past
Dunyo davlatlari bo'yicha o'rtacha	44,7	2,1 marta past
O'zbekiston	21,6	x

Манба: www.worldtax.org, www.worldwide-tax.com, www.taxworld.org интернет сайтлари маълумотлари

Jadvaldan ko'rinadiki, mamlakatimizda soliq yuki dunyo bo'yicha hamda Yevropa Ittifoqi davlatlari, Lotin Amerikasi davlatlaridagi o'rtacha darajadan 2,1 marta past ko'rsatkichga ega. Shuningdek, MDHga a'zo davlatlardagi o'rtacha soliq yukining ham nisbatan past ekanida yurtimizdagi soliq yuki darajasining ta'siri katta. Chunki, Rossiyada bu ko'rsatkich 34,1 foizni, Belorussiyada 27,6 foizni, Ukrainada 25,3 foizni tashkil etadi.

Budjetlararo qayta taqsimlashdan xarajatlar va yo'qotishlarni qisqartirish maqsadida mintaqaviy hamda mahalliy budjetlarga oxirgilarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda yo'naltiriladigan soliqlar ulushini rasman belgilash zarur. Jumladan, korxona va jismoniy shaxslar mulklariga soliqlarni, fikrimizcha, mintaqaviy va mahalliy darajalarda to'planishga teng nisbatlarda qoldirish o'rinlidir.

Aholiga bilvosita soliqlarni kamaytirishning badali sifatida yer uchastkalaridan renta to'lovlarining oshirilgan (mintaqa bo'yicha o'rtacha

miqdorlardan oshadigan) me'yorlarini, qurilishlardan (maydonlari o'rtacha mintaqanikidan yuqoriroq) soliq to'lovlarini kiritish kerak bo'ladi. Uchastkalar, uylar va xonadonlarning, ularni sotib olish, qo'llash va qarash xarajatlarini ko'tara oladigan egalari, ko'chmas mulk solig'i bo'yicha xarajatlarni ham bemalol ko'tara oladi.

Fuqarolar daromadi biznes va davlat korxonalarida soliqlardan zarar ko'radi. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari imkon qadar soliq to'lovi o'rnini narxlarni oshirish, foydani sarmoyalashni to'xtatib turish va taklifni qisqartirish yo'li bilan qoplaydi. Korxonalarga soliq hujumi ishlab chiqarishning to'xtashiga olib kelishi mumkin. Biznesning va soliq qarzlariga o'ralib qolgan yirik davlat ishlab chiqarishining ahvoli bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Oqibatda nafaqat ushbu korxona xodimlari va biznes tashkilotchilari, balki iste'molchilar ham, umuman olganda, zarar ko'radi, chunki soliq siyosati ular uchun keskinlashayotgan hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Aholi daromadlari" tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Aholi daromadlarining qanday turlarini bilasiz?
3. Daromadlarning shakllanish manbalarini aytib bering.
4. Nominal va real daromad deganda nimani tushunasiz?
5. Iste'mol narxlar indeksi – bu nima?
6. Aholining pulsiz shakldagi daromadlariga misollar keltiring.
7. Real daromadlarning shakllanishida soliqlarning o'rni nimalardan iborat?
8. Omillar nazariyasiga muvofiq daromadning qanday turlari mavjud?
9. Aholi daromadlarining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
10. Aholi daromadlarini oshirishning qanday yo'llarini bilasiz?

III bob. AHOLINING UMUMIY DAROMADLARI TARKIBI

3.1. Ishlab chiqarishdan olingan daromad

Mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar ishlab chiqarishdan olingan daromadlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromad yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo'lgan aholining daromadidan tarkib topadi.

Yollanma ishchilarning daromadi – bu mehnatga haq to'lashning yashirin (ya'ni, birlamchi va buxgalteriya hisobida aks ettirilmasdan ish beruvchi tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar) qismini qo'shgan holda pul va natura (tovarlar yoki xizmatlar ko'rinishida) shaklida mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlar.

Mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlarga ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasi yoki hususiyatiga ko'ra ish bajarish va xizmat ko'rsatish hisoblangan fuqarolik-huquqiy asoslardagi shartnomalar bo'yicha ish bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblangan jami ish haqi kiradi.

Ish haqi mehnat birligidan foydalanganlik uchun to'lanadigan narx hisoblanadi. Agar ish haqi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga nazar tashlasak, unda Konstitutsiyaning 37-38 moddalari va Mehnat kodeksining 153-156 moddalarida har bir kishi qonun doirasida mehnat uchun mukofot huquqiga egaligi ta'kidlab o'tilgan. Mazkur qonunlarda mehnat haqining eng ma'qul miqdori ish beruvchi va xodim o'rtasidagi kelishuvga muvofiq o'rnatilishi belgilangan. Shu bilan birga, mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar jamoa shartnomalarida, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa lokal hujjatlarda qat'iy belgilanishi ta'kidlangan.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti ish haqini belgilashda to'rtta mezonga alohida e'tibor qaratgan:

1. Ish haqi mehnat qiluvchi va uning oilasini qoniqarli kun kechirishini ta'minlashi shart.

2. Ish haqini o'rnatish jarayonida kasb, korxona va tarmoqlarga bog'liq ravishda mehnat haqining taqqoslama darajasi ta'minlanishi shart, ya'ni ishning bahosiga teng ish haqi to'lovi tamoyiliga rioya qilinishi zarur.

3. Mehnatga haq to'lash uchun iqtisodiyotning (korxona, tarmoq, davlat) qodirligi.

4. Mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga mos holda ish haqini doimiy o'zgartirib turish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqining to'rtta vazifasi alohida ajralib turadi, bular:

1. Takror ishlab chiqaruvchi (ish haqi ishchi kuchi qiymatini qoplaydi. shu sababli uning ishlab chiqarish jarayonida va mehnat bozorida bevosita ishtirok etishi ta'minlanadi);

2. Rag'batlantiruvchi (ish haqi ishchi kuchi to'lovini sarf bo'lgan mehnatning miqdori va sifati bilan o'zaro mutanosib ekanligini o'lchash orqali mehnat sarfini yanada ko'paytirishga ishchilarni undaydi);

3. Tartibga soluvchi (mehnat bozoridagi talab ish haqi darajasiga ta'sir etsa, mehnat haqi iste'mol va xizmatlar predmetlari narxlariga o'z ta'sirini o'tkazadi);

4. Ijtimoiy vazifa (ish haqi ishchi va uning oila a'zolariga turmush kechirishlari uchun minimal tarzda etarli sharoit yaratib beradi).

Ish haqiga xos funktsiyalarining asosiylari quyidagi rasmda keltirilgan (3.1-rasm).



3.1-rasm. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqining funktsiyalari*

*Manba: Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. –T.:O'qituvchi, 2008. - 441-b.

3.1-rasmdan ko'rinadiki, ish haqining bu funktsiyalari dialektik jihatdan yaxlit bo'lib, ular birgalikda bo'lgan taqdirdagina ish haqi mohiyati, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga chiqadigan ziddiyatlar va muammolarni anglash mumkin bo'ladi.

Eng kam ish haqi O'zbekiston Respublikasida Mehnat Kodeksiga muvofiq belgilangan haftasiga 40 soat, olti kunlik ish haftasida har kuni 7 soat, besh kunlik ish haftasida esa 8 soat ish vaqti me'yoridan kelib chiqqan holda har bir soat, kun, hafta yoki oy uchun belgilanishi mumkin.

Eng kam ish haqini o'rnatishda quyidagilar hisobga olinadi:

– mehnatkashlar va ularning oila a'zolari ehtiyojlari;

– mamlakatdagi ish haqining umumiy darajasi;

– tirikchilik qiymati va undagi o'zgarishlar;

– ijtimoiy ta'minot bo'yicha nafaqalar;

– boshqa ijtimoiy guruhlar turmush darajasining taqqoslanmasi;

– iqtisodiy omillar, shu jumladan, iqtisodiy rivojlanishning ahvoli, mehnat unumdorligi darajasi, ish bilan bandlikni ta'minlash.

Tadbirkorlik daromadi. Tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish uchun ishlab chiqarishning barcha omillari birlashtiriladi. Tadbirkor foyda olish va jamiyatning xilma-xil ehiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishning barcha omillarini muvofiqlashtiradi. Tadbirkorlik faoliyati har doim ma'lum darajadagi xavf bilan bog'liqki, bu tadbirkor tomonidan olinuvchi daromadning ajralmas xususiyatidir. Bu daromad belgilangan qiymat bo'lmay, balki tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatiga bog'liqdir.

Tadbirkorlik daromadi tadbirkor ixtiyorida kredit uchun foiz to'lovidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir. Bozor iqtisodiyotida tadbirkor daromadi ikki qismga bo'linadi: mo'tadil va iqtisodiy foyda. Mo'tadil foyda – tadbirkorni ushbu turdagi faoliyat doirasiga jalb qilish va ushlab turish uchun zarur bo'lgan mukofotdir. Mo'tadil foydani tadbirkorning shartli-kafolatlangan daromadi va uni firmaning ichki xarajatlari deb hisoblash mumkin. Iqtisodiy foyda – bu mo'tadil foyda ustiga olingan daromaddir. Aynan u tadbirkorlik faoliyatining noaniqligi va xavfi uchun to'lanadigan haqdir. Tadbirkorlik daromadining umumiy qiymati iqtisodiy foyda hisobiga tebranadi.

Tadbirkorlik daromadi tadbirkorlik qobiliyati va uddaburonligiga bog'liq. Bu daromad tadbirkor tomonidan quyidagi vazifalar bajarilganligi

uchun uning mukofotidir: sarmoya, mehnat va tabiiy boyliklarning tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning bir butun jarayoniga birlashtirilishi; u tomondan firmaning boshqarilishi bo'yicha qarorlar qabul qilinishi; yangi mahsulotlar, texnologiyalarning kiritilishi: qo'yilgan boyliklarga tegishli xavf.

Tadbirkorlik daromadi kattaligi, olish usuli, foydalanish yo'nalishlari bo'yicha xilma-xildir. Masalan, sarmoya mulkdori bir paytning o'zida tadbirkor rolida ham chiqsa. tadbirkorlik daromadi yalpi foydadan budjetga ssuda foizi, soliq va boshqa to'lovlar ushlab qolingandan so'nggi qoldiq sifatida hosil bo'ladi. Agar sarmoya mulkdori va tadbirkor – har xil shaxslar bo'lsa, quyidagi variantlar bo'lishi mumkin:

– mulkdor firmani boshqarish vazifasini ushbu firmaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun javobgar bo'lgan menejerlarga beradi. Bu holda tadbirkor daromadi sarmoya mulkining monopoliyasi uchun haq sifatida chiqadi.

– sarmoya mulkdori sarmoyani ma'lum foiz ostida o'z ishini tashkil qilish uchun tadbirkorga beradi. Ushbu holda tadbirkorlik daromadi ishlab chiqarishning faoliyat yuritishida tashabbus ko'rsatish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, yangi mahsulot ishlab chiqarish, firmani boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish va xavfga javobgarlik uchun mukofot ko'rinishida chiqadi.

Tadbirkorlik daromadining shakllanishiga sezilarli darajada xavf ta'sir ko'rsatadi, chunki har qanday tadbirkorlikning amalga oshirilishi uning har qanday ko'rinishida xavf bilan bog'liq. Xavf – bu zararlar va bashorat, reja, loyiha, dasturdagiga qaraganda daromadlarni kamroq olish ehtimolidir. Tadbirkorlik xavfini tug'diruvchi eng muhim omillarga siyosiy beqarorlik, tabiiy ofatlar, o'g'irliklar, reket, usullarning takomillashmagani va biznes-rejani shakllantiruvchi shaxslar ma'lumotining kamligi, sheriklarning insofsizligi yoki nochorligi kiradi.

Tadbirkorlik faoliyatida xavfni kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Xavfni kamaytirishning quyidagi asosiy usullarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– loyihani ishlab chiqishga bilimdon sheriklar va maslahatchilarni jalb qilish;

– muammolarni loyihadan oldin chuqur ishlab chiqish;

– bozor konyunkturasining, ushbu mahsulot yoki xizmatga talabning rivojlanish yo'nalishlarini bashorat qilish;

– xavfning loyiha ishtirokchilari, uning ijrochilari o'rtasida taqsimlanishi (xavfning taqsimlanishi shundan iboratki, xavf uchun javobgar xavflarni boshqalardan yaxshiroq hisoblay oladigan va nazorat qila oladigan sherik bo'lishi kerak);

– sug'urta;

– ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplashga mablag'larni zaxiralash.

Shuningdek, o'z-o'zini sug'urtalash, opsionlar chiqarishdan foydalanib, boshqaruv sohasidagi malakali ishlar bilan xavfni ancha kamaytirish mumkin.

Tadbirkor maxsus zaxira fondi hosil bo'lishi bilan bog'liq o'z-o'zini saqlash choralaridan foydalanib va zararlarni o'z aylanma moliyaviy mablag'larining bir qismi hisobiga qoplab, o'z yo'qotishlarini kamaytirishi mumkin. O'z-o'zini saqlash choralari, sug'urtalanuvchi mulk qiymati butun biznesning mulkiy va moliyaviy parametrlariga qaraganda uncha katta bo'lmaganda mantiqqa egadir. O'z-o'zini saqlash choralari, shuningdek, zararlar ehtimoli nihoyatda kichik bo'lganda, firma bir tipdagi mulkning katta miqdoriga ega bo'lganda ahamiyatlidir. Masalan, bir necha yuz tankerlarga egalik qiluvchi transmilliy neft kompaniyalari o'z-o'zini saqlash choralarini amalda sinamoqdalar. Hisob-kitob juda oddiy va mantiqan to'g'ri: bir yilda bitta tankerni yo'qotish kompaniyaga barcha tankerlarga sug'urta badallarini to'lashga qaraganda arzonroq tushadi.

Opsionlar – bu egasiga belgilangan muddatda (odatda 3–6 oy) qimmatli qog'ozlar yoki tovarlarning ma'lum miqdorini qayd qilingan narxda sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi qog'ozlardir. Opsionlar chiqarib, korxona daromadlarning kamayishidan ushbu korxona qimmatli qog'ozlariga yoki uning mahsulotiga kursning tushishi hisobiga qo'shimcha kirim oladi. Moliyaviy fyucherslar opsionlardan shu bilan farq qiladiki, ular sotib olish va sotishni o'tkazishga huquqni emas, balki majburiyatni ko'zda tutadi. Korxonalar o'z fyucherslaridan o'z balanslarini tartibga solish uchun foydalanishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar fuqarolarning yuridik shaxs ma'lumotisiz amalga oshiriluvchi tijoratchilik faoliyati (xususiy uyushmagan savdo, kasanachilik va hunarmandchilik ishlab chiqarishi, xususiy xizmat ko'rsatish) dan keladigan daromadlarni ham o'z ichiga oladi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad bo'lib mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo'jaligi a'zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar hisoblanadi.

Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga bozor uchun mo'ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.

Halqaro tavsiyalarga muvofiq ravishda uy xo'jaligi a'zolari tomonidan ishlab chiqarilgan maishiy xizmatlar (ovqat tayyorlash, uyni tozalash, bolalarni parvarishlash va sh.o'.) mazkur turdagi daromadlar tarkibiga kiritilmaydi, chunki ular kelgusida tashqi bozorda sotish maqsadida jamg'arilish va saqlanish xususiyatiga ega emas.

3.2. Mol-mulkdan olingan daromad

Mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo'jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.

Mol-mulkdan olingan daromadlarga foizlar, dividendlar, ishlab chiqarilmagan aktivlardan foydalanish uchun renta to'lovlari, shuningdek, intellektual mulkdan foydalanganlik uchun mualliflik haqi ko'rinishidagi tushumlar kiradi (3.2-rasm).

Shuningdek, mol-mulkdan olingan daromadlarga yuridik shaxsning tadbirkor (xususiy korxonaning mulkiy egasi yoki fermer xo'jaligining rahbari) ixtiyoriga (soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lagandan so`ng) o`tkazilgan foydasi ham kiradi.

Mamlakatimizda mualliflik haqini belgilashning me'yoriy-huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 10 martdagi «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida» 24-son qarori va O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonuni tashkil etadi.

O'zbekistonda ijodiy jarayonni yanada rag'batlantirish va faollashtirish maqsadida fan asarlari nashr etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari belgilangan (3.1-jadval).

Endi mol-mulkdan keladigan daromad hisobi bo'yicha aniq vaziyatni ko'rib chiqamiz. 1950-yillar o'rtalarida bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda "ishtirok etish konsepsiyasi" yuzaga keldi. Bu konsepsiya g'oyasi butun iqtisodiyotga tarqalgan ishtirok nafaqat mehnat asoslariga

kuchli turtki beradi, balki bir paytning o'zida ish haqining konyunktura tebranishlariga moslashib javob berishiga olib keladi va bu bilan tanglik vaqtida inflyatsiya va ishsizlik yuzaga kelishidan saqlanishga imkon beradi. Bu konsepsiyaga asoslanib, g'arb iqtisodchilari ishtirokning bevosita (natijalar bo'yicha mukofotlar to'lovi) va bilvosita ("sarmoyada ishtirok etish") tizimlarini ajratib ko'rsatadi. Shu bilan birga, "sarmoyada ishtirok etish" shaklidagi qo'shimcha haqlarning deyarli hamma joyda taqsimlanishi mukofotlashdan ustun keladi.



3.2-rasm. Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi

Foydada ishirok etish tizimini joriy qilish maqsadlari – mehnat natijalariga asosli ta'sir ko'rsatish, xodimlarni kompaniyalar manfaatlari uchun rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish, ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-ruhiy iqlimni yaxshilash, mehnat munosabatlaridagi keskinlikni pasaytirishdir. Foydada ishtirok etish tizimlari AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi.

3.1-jadval

Bitta kitobning boshlang'ich narxi (qiymati)dan foiz stavkalari tarzida to'lanadigan mualliflik haqining eng kam stavkalari

Mualliflar	Bitta kitobning boshlang'ich narxi (qiymati)dan foiz stavkalari tarzida to'lanadigan eng kam stavka
1. Original asarlarni nashr etish: - asar muallifiga	5
2.Tarjima asarlarni nashr etish:	
- original asar muallifiga	3
- tarjimonga	2
3. Oraliq tarjimadan foydalangan holda nashr etilgan taqdirda:	
- original asar muallifiga	3
- oraliq tarjima tarjimoniga	1
- nashr etilgan til tarjimoniga	2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 8 yanvardagi "Mualliflik haqi va boshqa haq to'lash turlari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 8-sonli qaroriga 1-ilova

Xodimlarni kapitalda ishtirok etishga jalb qilishning aniq mexanizmi AQSHda 1970-yillar o'rtalarida paydo bo'ldi. U ESOP nomi bilan (employee stock ownership plan) – yollanma xodimlarning aksiyadorlik mulkini rivojlantirish dasturi bilan mashhur.

Xodimning kapitalda ishtirok etishining mamlakat tajribasi – davlat mulkini xususiylashtirish natijasida yuzaga kelgan nisbatan yangi yo'nalishdir. Unga muvofiq ko'pchilik mehnat jamoalari 51 %dan ortiqroq aksiyalarni mehnat jamoalariga berishni ko'zda tutgan xususiylashtirish variantini tanladi. Bu bilan nazariy jihatdan korxona xodimlarining aksiyadorlik mulkiga asos qo'yildi.

Davlat korxonalarining aksiyadorlik jamiyatlariga o'zgarishi natijasida foyda va kapitalda ishtirok etishning oddiy yoki imtiyozli aksiyalarga egalik qilish bilan bog'liq har xil shakllari yuzaga keldi. Bu imtiyozli aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha dividendning oldindan o'rnatilgan miqdorini olish, shuningdek, oddiy aksiyalar egalari uchun jamiyat tugatilgan taqdirda, dividendlar olish va mulk olish huquqidir.

Xodimlarning foydadagi ishtiroki shuni ko'zda tutadiki, yollovchi o'zgarmasligi lozim bo'lgan, oldindan kelishilgan soha bo'yicha foydaning *ma'lum ulushini to'lash majburiyatini zimmasiga* oladi.

Tashkilotning dividend siyosati. Dividend siyosatining mohiyati va uning turlarining mohiyatini anglash uchun dastlab "dividend" tushunchasini u bajaruvchi vazifalar orqali bilish lozim. "Dividend" biz uchun yangi tushuncha deb bo'lmaydi, negaki oldingi vaqtlarda xodimlarni moliyaviy hisobot yili tugagandan so'ng "o'n uchinchi maosh" bilan taqdirlash tajribasi mavjud edi. Lekin, bu faqat shartli qiyoslash, chunki "o'n uchinchi maosh" rag'batlantirish usuli sifatida faqat ushbu korxonaning xodimlariga, dividendlar esa – aksiyalarning barcha egalariga to'lanardi. "O'n uchinchi maosh" – bu ko'proq imtiyozli aksiyalarga o'xshagan narsa hisoblanadi.

Rasmiy hujjatlarda dividendlar aksiyanerlar o'rtasida taqsimlashga mo'ljallangan foydaning bir qismi sifatidagina talqin qilinadi, ya'ni bu qimmatli qog'ozlar egalarining daromadidir. Shu bilan birga, daromad ikki tarkibiy qismdan: dividend to'lovlaridan va aksiyalarning kurs qiymatlarining o'sishidan hosil bo'ladi. Ularning o'rtasidagi farq shundaki, ulardan bittasi – haqiqiy, boshqasi esa yashirin (nisbiy-ehtimoliy) mavjud bo'ladi. Aksiyalarning kurs qiymati o'sishini *ma'lum darajada* aksiyanerlar daromadlari to'lovlarini xavfning muayyan ulushi bilan kechiktirish usuli sifatida ham baholash mumkin.

Shunday qilib, dividendning birinchi vazifasi daromaddir. Undan tashqari, dividend – o'zida investor uchun axborot tashuvchi aksiyadorlik jamiyati rivojlanishining tahliliy indikatoridir (dividendning ikkinchi vazifasi). Dividendning uchinchi vazifasi – bu aksiyadorlik jamiyatini boshqarish instrumentidir. Dividendning to'rtinchi vazifasi: aksiyadorlik sarmoyasining bir ulushiga aylanishi mumkinki, bu sarmoya o'z navbatida yangi dividendlar, yangi sarmoyalar olishga imkon beradi. Lekin, bu agar dividendlar qimmatli qog'ozlar ko'rinishida to'lansagina bo'lishi mumkin. Dividendning beshinchi vazifasi aksiyadorlik jamiyatlar faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoit yaratish mezoni, sifat ko'rsatkichidir; aksiyadorlik jamiyati sarmoyasining barcha qolgan qismlarini yagona tarkibga bog'laydi, unga ma'no bag'ishlaydi va aksiyadorlik jamiyati sarmoyasi tarkibi uchun maqbul sharoit yaratishga imkon beradi.

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari mavjud bo'lish davri uncha katta emas, shuning uchun yuzaga kelgan dividend siyosati haqida so'z-

lashga erta. Biroq, korxona oldida "to'plash yoki iste'mol qilish" alternativlari paydo bo'lishining o'zi u yoki bu qaror qabul qilishning barcha omillarini va oqibatlarini bilish va hisobga olishni talab qiladi. Umuman olganda, dividend siyosati ostida investor-aksiyanerlarning ham, firma-emitentlarning ham manfaatlarini hisobga olishning shartligini ko'zda tutadi. Bu manfaatlar bir-biridan nafaqat farq qilishi, balki bir-biriga bevosita qarama-qarshi bo'lishi ham mumkinligi tushunarli. Shunisi aniqki, dividend siyosati instrumentlarini shakllantirish chog'ida aksiyadorlik jamiyatining maqsadi qimmatli qog'ozlar (aksiyalar) alohida nashrlarini muvaffaqiyatli joylashtirish, emissiya daromadi va imkoniyatga qarab dividendlar to'lovi uchun mo'ljallangan aksiyadorlik jamiyati mablag'larini rivojlantirishga ko'proq yo'nalish olishdir.

Bugun dividend siyosatiga yondashuvlar bo'yicha aksiyadorlik jamiyatining bir-biridan farq qiluvchi ikki guruhni ajratib ko'rsatish mumkin. Bu yondashuvlar ham ikkita: dividendlarni to'lash kerakmi yoki yo'qmi, agar to'lash kerak bo'lsa, unda qancha to'lash kerak? Birinchi guruh – bu o'z iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha zarar keltiradigan, deb hisoblanuvchi va o'z aksiyanerlariga qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni to'lamaslikni afzal ko'ruvchi yoki daromadlari bor, lekin ularni ishlab chiqarish maqsadlariga sarf qiluvchi korxonalardir. Ikkinchi guruh – o'z moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar dividendlarni to'lashga intiluvchi korxonalardir. Shu bilan birga, korxona rahbariyatini foydaning bir qismini dividendlar to'loviga ajratishga majbur qiluvchi sabablar quyidagilardir: 1) korxona xodimlari tarkibini, uning malakali qismini saqlab qolishga intilish; 2) aksiyalarning nazorat paketini ushbu korxona xodimlari qo'lida saqlashga intilish; 3) aksiyanerlar, kuchli investorlar, kreditorlar, qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislari ko'z o'ngida korxonaning ma'lum imidjini yaratishga intilish.

Dividendlar imtiyozli aksiyalar bo'yicha oldindan qayd qilingan foizga ko'ra yoki oddiy aksiyalar bo'yicha aksiyadorlik jamiyati hisobot yilidagi xo'jalik faoliyati natijalariga bog'liq bo'lgan suzuvchi foizga ko'ra to'lanadi. Odatda, dividend to'lovi bo'yicha ishlarni hisob-kitob bo'limi amalga oshiradi, ya'ni u sof hisob-kitob operatsiyalari xususiyatiga ega. Bir maromda va to'g'ri ish olib boruvchi firmalarda dividend siyosatini yuzaga keltirishga fond bo'limi xodimlari, moliyachilar, konsalting (maslahat) firmalari jalb qilinadi. Dividendlar to'lovi boshlangunga

qadar ular tashqi muhitning avvalgi kompaniyaga dividendlar to'lovi bo'yicha qisqa va uzoq muddatli tahlillarini amalga oshiradi va bu bilan bugungi dividend to'lovini yuzaga keltiradi. Buning uchun ular quyidagilarni bilishlari zarur: 1) avvalgi dividend to'lovlari aksiyanerlar va aksiyadorlik jamiyatining o'zining manfaatlariga amal qilinishiga qay darajada yordam berdi; 2) yetakchi tahliliy agentliklarda aksiyadorlik jamiyati reytingi o'zgardimi yoki yo'qmi; 3) qimmatli qog'ozlar bozori o'tkazilgan kompaniyaga qanday javob berdi; 4) bajarilgan to'lovlar natijasida yangi yirik va o'rtacha investorlar paydo bo'ldimi; 5) aksiyadorlik jamiyati dividend siyosati haqida ommaviy axborot vositalarida qanday munosabatlar bildirildi.

Aksiyadorlik jamiyati foydalangan to'lovlar usuli alohida tahlilga tortiladi. Dividend yilda bir marta to'lab boriladi. Oraliq dividend aksiyadorlik jamiyati direktorlar kengashi tomonidan e'lon qilinadi va qayd qilingan qiymatga ega bo'ladi. Bitta oddiy aksiyaga oxirgi dividend miqdori aksiyanerlarning umumiy yig'ilishi tomonidan oraliq dividendni hisobga olgan holda tugagan yil natijalari bo'yicha tasdiqlanadi. Imtiyozli aksiyalar va aksiyadorlik jamiyati obligatsiya foizlari bo'yicha qayd qilingan daromad ularni chiqarishda oldindan aytib qo'yiladi.

Dividendlar to'lovidagi qabul qilingan ish tartibida bir nechta izchil bosqichlar ajratib ko'rsatiladi. Avvalo e'lon kuni – aksiyadorlik jamiyati rahbariyati dividend to'lovi, uning miqdori, ro'yxatga olish sanasi va to'lov muddati haqida e'lon qiladigan kun mavjud. Shuningdek, odatda aniq eks-dividend sanasi ko'rsatiladi, bu sana dividendlarga kimning huquqi borligini aniqlash uchun belgilanadi: aksiyalarni eks-dividend sanasigacha sotib olgan shaxslar tugagan yil uchun daromad olish huquqiga ega bo'ladi; aksiyalarni o'sha kuni va undan kechroq sotib olgan shaxslar bunday huquqqa ega emas. Bu sananing belgilanishi aksiyaning bozor narxi o'zgarishiga ham ta'sir qilishi mumkin. Ro'yxatga olish sanasi – tugagan davr uchun daromad olish huquqiga ega bo'lgan aksiyanerlarni ro'yxatga olish kunidir; odatda eks-dividend sanasidan 4 kun o'tgach va dividendlar to'lovi kuniga qadar 2–3 hafta ichida belgilanadi. To'lov sanasi – aksiyanerlarga cheklar tarqatiladigan kun. Dividend o'tkazish bilan yoki to'lov topshirig'i bilan to'lanishi mumkin. Dividendlarni to'lash shakli quyidagilar bo'lishi mumkin: pul to'lovlari, aksiyalar, obligatsiyalar, tovarlar.

Biroq, aksiyadorlik jamiyati ixtiyorida imtiyozli aksiyalar mavjud bo'lgan jamiyat, birinchidan, oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarni puldan boshqa istalgan shaklda to'lash, ikkinchidan, ular tomonidan aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lmaydi. Dividendlar to'lovi aksiyadorlik jamiyati o'zi tomonidan yoki bunga maxsus vakil qilingan bank tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Dividend miqdori soliq hisobga olinmagan holda e'lon qilinadi. Soliq undirish ushlab qolingan miqdorni byudjetga o'tkazuvchi aksiyadorlik jamiyati yoki bank tomonidan dividend to'lanayotgan paytda bajariladi.

Dividend to'lovlari manbalari bo'lib: 1) hisobot yilining sof foydasi; 2) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi; 3) bu maqsadlar uchun yaratiladigan maxsus fondlar (masalan, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lovi uchun fond) hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyati dividendlar siyosati turining shakllanishiga iqtisodiy, daliliy, tashkiliy omillar ta'sir qiladi. Me'yoriy omillar o'z mohiyatiga ko'ra, dividend siyosatini shakllantirish bo'yicha aksiyadorlik jamiyati uchun manevr imkoniyati borasidagi cheklovlarni ko'rsatib beradi. Bu cheklovlar qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan beriladi. Bunday cheklovlar qatoriga quyidagilar kiradi: a) dividend to'lovlari manbasi bo'yicha me'yoriy cheklov (to'lovlarni amortizatsiya chegirmalaridan amalga oshirish mumkin emas, hatto aksiyadorlik jamiyatiga ularni o'z vazifasida qo'llash foydali bo'lmasada); b) aksiyadorlik jamiyati to'lash qobiliyati bo'yicha me'yoriy cheklov (dividendlarni, agar korxona to'lovlarni amalga oshirgan taqdirda sinish belgilariga ega bo'lmasa va sinmasagina to'lash mumkin). Iqtisodiy omillarga iqtisodiy xususiyatga ega va korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan quyidagi omillar kiradi: a) dividend to'lovlarining haqiqiy to'lash qobiliyati va muddatlari. Bu omil hisobga olish siyosati sohasida yotadi. Shunday hodisalar bo'lishi mumkinki, hisobot hujjatlari bo'yicha korxona foyda ko'rib ishlaydi, lekin pul mablag'larining yetishmasligini chindan his qiladi. Shuning uchun dividend to'lovlari muddatlari rasmiy to'lash qobiliyati bilan emas, balki haqiqiysi bilan bog'liq; b) qimmatli qog'ozlarni soliqqa tortish; d) kreditor kafolatlari bayon qilingan kredit shartnomasining mavjudligi. Bunday shartnoma to'lanayotgan dividendlar va korxonaning ichki rivojlanishiga qaratiluvchi mablag' qiymatining cheklanishiga ishlaydi. Kreditor kafolatlari shundan iboratki,

u kelgusi foizlar qoplanishini ta'minlovchi mablag'lar yo'naltirilishi mumkin bo'lgan maxsus fond barpo qilinishini talab qilishi mumkin. Daliliy omillar aksiyanerlar manfaatlarining majburiy hisobga olinishiga asoslangan. Odatda, yirik va mayda aksiyanerlar manfaati bir-biridan farq qiladi. Maydalari dividendlarni maksimallashdan manfaatdor. Shu bilan birga, ular aksiyadorlik jamiyati ichki rivojlanishi uchun mablag'siz qolishi ham mumkin. Yirik hissador (investor), o'sishning ichki vositalari ko'rsatkichini ko'paytirib, odatda, aksiyadorlik jamiyati rivojlanishiga mablag'larni ko'proq qo'yishga intiladi. Biroq, investorlar manfaatlarini korxonadagi daromadlarning to'g'ri siyosati orqali birlashtirish varianti ham bo'lishi mumkin. Tashkiliy omillarga aksiyadorlik jamiyati qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividend qiymatini hisoblash usulini belgilovchi omillar kiradi. Odatda, u aksiyadorlik jamiyati nizomida oldindan aytib qo'yiladi va u qanchalik qat'iy aytilganligiga oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lovi uchun mo'ljallangan foydaning miqdori bog'liq bo'ladi.

Omillarning xilma-xilligi aksiyadorlik jamiyati dividend siyosati turlarida aks etadi: sust va faol. Dividend siyosati turi bozorning rivojlanganlik darajasiga, korxona tomonidan ishlab chiqarish va moliyaviy operatsiyalarning amalga oshirilishi natijasida yo'qotishlar paydo bo'lishini oldindan ayta olishga va shunday xavfga bog'liq bo'ladi. Agar axborot shaffofligi va oldindan ayta olish kuzatiladigan, vaziyatni beqarorlashtirishga qodir omillar tenglashtirilgan, shakllangan, rivojlangan bozor yuz bersa, unda dividend siyosatining turi sust hisoblanadi. Bu holda ishlab chiqarish va moliyaviy xavflar darajasi eng kam va aksiyanerlar ancha uzoq muddatga dividend to'lovlari miqdorini rejalashtirish imkoniyatiga ega. Buning oqibatida qimmatli qog'ozlar egasiga u daromadni qanday ko'rinishda olishining farqi yo'q: daromadlar yoki dividend to'lovlari ko'rinishida yoki u oqibat natijada aksiyalar kurs qiymatining ortishiga olib keluvchi har qanday harakatlarga rozi bo'ladi. Hissador uchun muhimi – qimmatli qog'ozlarga egalik qilishdan kelib chiquvchi o'z huquqini amalga oshirishdir. Dividendlarga nisbatan sust siyosat o'tkazish haqidagi qarorni qabul qilish uchun, odatda, "to'lovlar miqdorini muvofiqlashtirish" tushunchasi ishlatilmaydi. Agarda noaniqlikning katta darajasiga aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish faoliyati va moliyaviy operatsiyalari natijasida yo'qotishlar xavfiga ega rivojlanayotgan bozor yuz bersa, unda olinuvchi daromadlarning ko'plab obyektiv va subyektiv

omillarga o'ta bog'liqligi mavjud bo'ladi, zararlar xavfi katta bo'ladi, axborot yopiqligi ro'y beradi. Bu holda aksiyadorlik jamiyati tomonidan dividend to'lovlari miqdorini muvofiqlashtirishning ma'lum usullarini ishlab chiqishni talab qiluvchi faol dividend siyosati zarur. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatidagi dividend siyosatining faol va sust turini shakllantirishda qo'llanuvchi usullar zaxirasi xilma-xildir.

Dividend to'lovlarining vaqtida to'lanishi aksiyadorlik jamiyati siyosatining oldindan ayta olish xossasini oshiradi; hissadorga ma'lum vaqt davomida u qimmatli qog'ozlar bo'yicha qayd qilingan daromadni olishi oldindan ma'lum. Inflyatsiya davrida bu usul samarali emas. Muddat daromad miqdori qayd qilingan vaqtning boshlang'ich paytidan qanchalik uzoq bo'lsa, dividend siyosatining jozibadorligi shunchalik oz bo'lib qoladi. Aksiyanerlarning salbiy kayfiyatlarini bartaraf qilish uchun ham doimiy kvartal to'lovlari qo'llanadi. Ushbu usulning boshqa turi inflyatsiya qoplamasiga ega barqaror dividendlar usulidir.

Dividendlarni doimiy o'stirish usuli. Bu o'sishning kattaligi inflyatsiya yo'qotishlariga qaraganda kamroq bo'ladi. Bu holda hissadorning qimmatli qog'ozlari jamg'arma moliya hujjatidan iboratdir.

Xususiy aksiyalarni sotib olish usuli. Agar to'lovlarning zarur miqdorini belgilash bilan bog'liq bo'lgan tahlil natijalariga ko'ra korxonada taqsimlanmagan foyda qolsa, unda bo'sh mablag'larni o'z iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida qandaydir loyihaga investirlash imkoniyati bo'lmagan vaziyat yuzaga keladi. Bu holda, agar aksiyalarning bozordagi narxi ancha past bo'lsa, xususiy aksiyalarni sotib olish tashkil qilinadi va bu bilan dividend to'lanuvchi qimmatli qog'ozlar miqdori qisqaradi, va shunday ekan, bitta aksiyaga to'lovlar miqdori oshadi. Bundan keyin bu qimmatli qog'ozlar xarid narxidan ortiq bo'lgan narx bo'yicha tag'in sotilishi mumkin.

Aksiyalarni taqsimlash va birlashtirish usuli. Taqsimlash – bu aksiyaga foydaning hisob qiymatini maydalash bo'lib, u aksiyaning kurs narxi o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Taqsimlash operatsiyalarini amalga oshirish tajribasi shuni ko'rsatdiki, yangi aksiyaning narxi haqiqatan necha marta bo'lish bajarilgan bo'lsa, to'ppa-to'g'ri shuncha marta kamaymaydi. Ularning narxi, ehtimol yangi aksiyalar likvidliligining oshishi hisobiga birmuncha oshadi. Birlashtirish samarasi qiyinroq bashorat qilinadi. Aksiyaning kurs qiymati qaysi tomonga o'zgarishini darrov aytish mumkin emas.

Doimiy to'lovlar va ekstradividendlar usuli. Bu usulda aksiyador har qanday holatda u unga ma'lum minimumni olishini biladi. Shu bilan birga, agar aksiyadorlik jamiyatida qo'shimcha to'lovlar imkoniyati bo'lsa, unda u albatta amalga oshadi. Bu usulning o'ziga xosligi shuki, aksiyadorlik jamiyati rahbariyati tomonidan "ekstrato'lovlar" uchun tanlangan payt ma'lum darajada aksiyadorlar uchun kutilmagan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, dividend siyosatini ishlab chiqishda aksiyadorlik jamiyati moliyaviy ahvoli va rivojlanish istiqbollariga bog'liq ravishda barcha ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga olib, dividend to'lovlarining har xil variantlaridan mohirona foydalanish maqsadga muvofiq.

3.3. Transfertlardan daromad

Transfertlar – bu uy xo'jaliklariga tovar, xizmat yoki aktiv evaziga qoplanmasdan tovarlar, xizmatlar va aktivlarning kelib tushishidir.

Transfertlar naqd pul (pullik transfertlar) va tovar yoki xizmatlar (natura shaklidagi transfertlar) ko'rinishida, boshqa uy xo'jaliklaridan, davlatdan, homiylik muassasalaridan va chet eldan kelib tushishi mumkin.

Ijtimoiy transfertlar tasnifi 3.3-rasmda keltirilgan.



3.3-rasm. Ijtimoiy transfertlar tarkibi.

Boshqa joriy transfertlarga uy xo'jaligiga boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan (muntazam moliyaviy yordamlar, masalan, alimentlar, bolalar yoki ota-onalar tomonidan beriladigan moddiy yordamlar, notijorat homiylik tashkilotlaridan, kasaba uyushmalaridan va shunga o'xshashlardan muntazam ravishda to'lanadigan) amalga oshiriladigan to'lovlar kiradi.

Shuningdek, boshqa joriy transfertlar toifasiga chet eldan, shu jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan mehnat va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan pul o'tkazmalari kiradi.

Endi ijtimoiy transfertlarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, pensiyaning quyidagi uch turi mavjud:

– yoshga doir pensiya;

– nogironlik pensiyasi;

– boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Chunonchi:

– yoshidan qat'iy nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro'yxati (kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari, bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar, uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarning xizmat muddati – erkaklarda 20 yil, ayollarda 15 yil bo'lganda);

– umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati (yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar, sirklar va konsert tashkilotlari artistlarining ayrim toifalari ijodiy ishdagi staji kami 20 yil bo'lgan taqdirda);

– umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati (urush nogironlari va

ularga tenglashtirilgan shaxslar. qishloq xo'jaligi xodimlarining ayrim toifalari, aviatsiya muhandis texniklari tarkibining xodimlari, shahar yo'lovchilar tashish transporti haydovchilari, besh va undan ortiq farzand tuqqan hamda ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar, ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolar, ijtimoiy ta'minot tizimining qariyalar, nogironlar va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatishda bevosita band bo'lgan xodimlari).

Shular bilan birga, belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga pipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar – erkaklarga ish staji kamida 20 yil bo'lganda, ayollarga 15 yil bo'lganda ega bo'ladilar.

Yoshga doir pensiya olish uchun muayyan sug'urta stajiga ega bo'lish va qonunda ko'rsatilgan pensiya yoshiga erishish zarur. **Sug'urta staji** deganda pensiya sug'urtasi jamg'armasiga badal to'lovlari to'langan davr tushuniladi. Sug'urta stajiga qonun bo'yicha ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lovlari davri kiritiladi. Yevropa Ittifoqining ko'pgina mamlakatlarida pensiya yoshi qilib erkaklarga ham, ayollarga ham 65 yosh belgilangan. Pensiyaga chiqish uchun eng katta yosh Daniyada – erkak va ayollar uchun 67 yosh, eng kami 60 yosh – Fransiya va Italiyada belgilangan.

Pensiya ta'minoti tizimi keksalik bo'yicha asosiy va qo'shimcha pensiya va nafaqa shaklida quriladi. Keksalik bo'yicha asosiy pensiyalar Niderlandiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya kabi qator mamlakatlarda oldingi ish haqi miqdoridan qat'iy nazar barcha kishilar uchun bir xil pul summalari to'lovlari orqali beriladi. Yevropa Ittifoqining qolgan mamlakatlarida asosiy pensiya belgilangan vaqt mobaynidagi o'rtacha ish haqi bilan belgilanadi va pensiyaning eng kam va eng yuqori miqdori chegaralangan bo'ladi.

Qo'shimcha pensiyalar tarmoqlar yoki firmalar bo'yicha to'lanadi. Ular asosiy pensiyaning o'rtacha 10–12 foizini tashkil etadi va u nafaqat pensiyaga chiquvchilarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash, to'ldirish usuli, balki ushbu korxonada kadrlarni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

Nogironlik pensiyasi. Nogironlarga nisbatan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat ularning hayotda va jamiyat taraqqiyotida faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytirishga, moddiy ahvollarini yaxshilashga qaratilgan. Hayot faoliyatining buzilishi darajasiga qarab birinchi, ikkinchi, uchinchi nogironlik guruhi belgilanadi.

Birinchi guruh nogironlikni belgilash uchun kasalliklar, jarohatlar, tug'ma nuqsonlar oqibatida organizm hayot faoliyatining yaqqol ko'rinib turgan cheklanishlari asos bo'ladi.

Birinchi guruh nogironlik quyidagi hollarda belgilanadi:

– o'ziga o'zi xizmat qilish, harakat qilish yoki o'z xulq-atvorini nazorat qilish (o'qish, muomala qilish, harakatlanish), shuningdek, mehnat faoliyatida qatnashish mumkin bo'lmagan, bu esa o'z navbatida boshqalarning doimiy parvarishiga, yordamiga yoki nazoratiga ehtiyoj sezishga olib keladigan, to'la ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotish hollarida (tetraplegiya, og'ir tetraparez, og'ir surunkali psixozlar, inkurabel xavfli o'smalar);

– harakat qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, o'qish yoki muomala qilish, o'zini idora qilish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek, oddiy ishlab chiqarish sharoitida mehnat faoliyatida qatnashish ancha qiyinlashgani oqibatida, agar ko'rsatilgan buzilishlar doimo o'zgalarning parvarishi, yordami yoki nazorati zarurligini taqozo etuvchi ancha yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslanuvchanlikni yo'qotish hollarida (oyoqlarning doimiy falaji, har ikki qo'lning cho'ltoqligi, ya'ni har ikki panjadagi hamma barmoqlarning yo'qligi, yuqoridan uchdan bir darajada har ikki sonning cho'ltoqligi, butunlay ko'rmaslik).

Ikkinchi guruh nogironlik quyidagi hollarda belgilanadi:

– salomatligining holatiga ko'ra mehnat faoliyatida qatnasha olmaslik oqibatida ancha yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotishda yoki mehnat faoliyati ta'sirida kasallik kechishining yomonlashishi, og'ir asoratlar paydo bo'lishi xavfi tug'ilganda, shuningdek, muomala qilish, o'zini idora qilish, o'qish, o'z xulq-atvorini nazorat qilishga yaqqol qiynalishda, ammo o'zgalarning yordamiga, parvarishiga yoki nazoratiga ehtiyoj bo'lmaganda (yurakning klapan apparati shikastlanganligi yoki qon aylanishining II va III darajali doimiy buzilgandagi miokard, tez avj oluvchi, tez-tez krizislarga moyil ikkinchi bosqich gipertoniya kasalligi, o'pka sirrozi, takroriy miokard infarkti, qisqa vaqt ichida takrorlangan insult, yaqin masofani ko'rolmaslik);

– og'ir surunkali kasalliklar, tayanch-harakat a'zolarining o'zaro bog'liq nuqsonlari va ko'rish qobiliyatini ancha yo'qotish oqibatida yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotganda, shuningdek, muomala qilish, o'zini idora qilish, o'qish, o'z xulq-avorini nazorat qilish

hamda oddiy sharoitdagi mehnat faoliyatida qatnashish qiyin bo'lganda, ammo o'zgalarning yordamiga, parvarishiga yoki nazoratiga ehtiyoj bo'lmaganda (ovqatlanishning kamayishi va qisqa muddatli remissiyalar ko'rinib turgan yazva kasalligining og'ir shakli, zaharlanish, tez-tez zo'rayib turadigan bronxoektatik kasallik, tez-tez xuruj qiladigan tutqanoq kasalligi, qadam bosishni birmuncha buzib turadigan oyoq paraparezi).

Nogironlik pensiyalari mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotilgan quyidagi hollarda tayinlanadi:

– mehnatda mayiblaganda yoki kasb kasalligiga uchraganda;

– umumiy kasallik (ish bilan bog'liq bo'lmagan shikastlanish, mayiblik, bolalikdan nogironlik) tufayli.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

3.2-jadval

Nogironlik boshlangan paytga qadar talab qilinadigan ish staji (yil)

Yosh	Ish staji (yil hisobida)
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Agar nogironlik keltirib chiqaruvchi jarohatlanish, zaharlanish, issiq urishi, kuyish, sovuq urishi, cho'kish, elektr toki yoki yashin urishi, shuningdek, tabiiy ofatlar yoki avariyalar tufayli salomatlikning boshqacha shikastlanishi mehnat vazifasini bajarishda, korxona, tashkilot hududida sodir bo'lsa, nogironlik mehnatda mayiblanish tufayli sodir bo'lgan deb hisoblanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Mahrumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbayidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga egadirlar.

Pensiyalar tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanib, uning miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, pensiyaning tayanch miqdori, ish staji uchun pensiyaning oshirilishi va pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni bilan pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilangan:

– yoshga doir to'liq pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

– 1- va 2-guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

– oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

– ota-onasidan judo bo'lgan bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida.

Ta'kidlash joizki, to'liq davlat ta'minotida turgan chin yetim bolalarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi eng kam oylik ish haqining 100 foizi, ota-onasining biridan ajralgan va to'liq davlat ta'minotida turgan bolalarga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida pensiya to'lanadi.

Sahovat uylarida yashovchi yolg'iz qariyalar va nogironlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, lekin tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi, urush nogironlariga esa kamida 20 foizi to'lanadi. Internat uylarida yashovchi ruhiy bemor pensionerlarga pensiya to'lanmaydi.

Nafaqa – tegishli budjet mablag'lari hisobidan pul mablag'larini beg'araz tarzda to'lash, aniq maqsadga yo'naltirilgan pul mablag'laridir. Ularning ayrimlarini obyektiv sabablarga ko'ra ish haqi yo'qotilgani tufayli belgilansa, boshqalari aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoyalash maqsadida tayinlanadi. Birinchi holdagi nafaqalarga vaqtinchalik ishga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ruq bo'yicha, ishsizlik va boshqa shu kabi holatlar bo'yicha to'lanadigan nafaqalar kiradi. Ikkinchi turga ayollar va bolalarga bir martalik to'lovlar, bolalarni parvarishlash bilan band bo'lgan oilalarga to'lanadigan nafaqa, dafn marosimi uchun to'lanadigan nafaqa va maqsadiga ko'ra boshqa to'lovlar kiradi.



3.4-rasm. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa turlari.

Yoshi bo'yicha nafaqalar. Yoshi bo'yicha nafaqa ish stajiga, ularni boqishga bo'lgan qarindoshlari bo'lmagan shaxslar: erkaklarga 65 yoshga, ayollarga 60 yoshga yetganlarida tayinlanadi. Ijtimoiy ta'minot bo'limlari tekshiruviga ko'ra, nafaqa so'rab murojaat etgan shaxs qarindoshlarining moddiy nochorligi aniqlangan hollarda nafaqa o'zlarining keksa qarindoshlariga moddiy yordam ko'rsata olmaydigan qarindoshlar bor bo'lgan taqdirda ham tayinlanishi mumkin. Yoshi bo'yicha nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat etgan shaxs tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga ariza, ariza beruvchining yoshini tasdiqlovchi hujjat, yashash joyidan ma'lumotnoma, ariza beruvchi oilasining umumiy daromadi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etilishi lozim. Fuqaroning holati o'rganilib chiqqandan so'ng unga ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan nafaqa tayinlanadi.

Nogironlik bo'yicha nafaqalar. Nogironlik sodir bo'lgan hollarda, ya'ni mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda, faqat

I va II guruh nogironlarga tayinlanadi va to'lanadi. Fuqarolarning mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlik darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirishni faqat tibbiy-mehnat ekspert komissisiyalari o'zlari tasdiqlagan Nizom asosida shahar yoki tuman ijtimoiy ta'minot bo'limlari yo'llanmasi bo'yicha amalga oshiradi. Ishlab turgan yoki yashashning boshqa manbalariga ega bo'lgan I va II guruh nogironlarga nafaqa to'lanmaydi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega. Vafot etganning oila a`zolariga nafaqalar miqdori quyidagicha belgilanadi:

– oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a`zosiga – vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaning 100 foizi;

– oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga nafaqaning 75 foizi;

– oilaning mehnatga layoqatsiz bir a`zosiga nafaqaning 50 foizi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa tayinlashda tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga boquvchisining vafot etganligi to'g'risida guvohnoma va bolalarning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnomalar nusxasi taqdim etiladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi. Nafaqaning bu turi quyidagi hollarda beriladi:

– vaqtincha mehnatga qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda;

– sanatoriy-kurortlarda davolanganda;

– kasallanganda oila a`zosini parvarishlash zarur bo'lganda;

– karantinda;

– sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;

– mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a`zo (protez) qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqazilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun faqat belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik (kasallik) varaqasi asos bo'ladi. Nafaqaning bu turi mehnat qobiliyati yo'qotilgan birinchi kundan to u tiklanguncha qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan nogironlik belgilangunga qadar beriladi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqa mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan mud-

datga beriladi. Ishlayotgan imtiyozli jihatdan ikkinchi jahon urushi nogironlariga tenglashtirilgan nogironlarga, Chernobil AESdagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'liq sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ketma-ket to'rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi. Agar ishlayotgan nogironning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli yuz bersa, nafaqa u to'la sog'ayguncha yoki mehnatda mayiblanish yoxud kasb kasalligi bilan nogironlik guruhi qayta ko'rib chiqilgunga qadar to'lanadi. Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqa shaxs to'la sog'aygunga qadar, lekin ko'pi bilan 10 oyga beriladi. Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron deb topilganda nafaqa ko'pi bilan 6 oyga beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda nafaqa to'lanmaydi:

– ish haqi saqlanmagan ta'til:

– bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;

– ish vaqtincha to'xtatilganda;

– xodim ish (lavozim)dan chetlashtirib, mehnat haqi to'lash to'xtatib qo'yilganligi sababli ishlamaganda;

– ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'tilda.

Bulardan tashqari, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ishdan yoki boshqa vazifalardan bo'yin tovlash maqsadida o'z salomatligiga ataylab ziyon yetkazgan yoxud o'zini kasallikka solganda; giyohvandlik yoki mastlik bilan bog'liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarni iste'mol qilish natijasida kasallikka chalinganda; jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda; sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda; hibsda bo'lgan davrda; sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tish davrida berilmaydi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligadan qat'iy nazar ish haqining 100 foizi miqdorida ishlayotgan ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga; baynalminal janchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan

evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari va xavfli o'smalar bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga; mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga yaroqsiz bo'lgan xodimlarga to'lanadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, xavfli o'simtalar, jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklar, OITS, moxov kasalligi, ruhiy kasalliklar) bo'yicha hisobga turgan xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urta badallari to'lagan davrining (umumiy ish stajining) davomiyligiga bog'liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorda to'lanadi:

– umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 100 foizi miqdorida;

– umumiy ish staji 5 yilda 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;

– umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

Yuqorida keltirilgan xodimlardan tashqari qolgan xodimlarga: umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin yetimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi mehnat haqining 80 foizi miqdorida; umumiy ish staji 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi mehnat haqining 60 foizi miqdorida to'lanadi.

Umuman, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo'lmasligi lozim.

Sanatoriy-kurortlarda davolanganda beriladigan nafaqa. Sanatoriy-kurortlarda davolanishda, agar xodimning ta'til kunlari uning davolanishi uchun yetarli bo'lmasa, u holda unga sanatoriy-kurortda davolangan barcha kunlari uchun, xodimning mehnat ta'til kunlari chiqarib tashlagan holda nafaqa hisoblanadi. Xodim mehnat ta'tilidan sanatoriy-kurortga borishdan avval foydalangan bo'lsa ham nafaqa mehnat ta'tili kunini chiqarib tashlagan holda hisoblanadi. Bunda tashkilot xodimning sanatoriy-kurortda davolanishi uchun ta'tilning yetmaydigan kunlari uchun xodim bilan kelishib, xodimga mehnat haqi saqlanmagan ta'til beradi. Ikkinchi jahon urushi nogironlariga, baynalminal jangchilarga, Chernobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, shuningdek,

sanatoriyga davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o'tkir miokard infarkti bilan kasallangan, jarrohlik uslubi bilan yurakning aort-akoronar shuntirovkasi va anevarizmlari, oshqozonning yara kasalliklari, o'n ikki barmoq ichak kasalligidan davolangan va o't pufagi olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek, sil kasalligi bilan og'riganlarga nafaqa sanatoriyda bo'lgan barcha vaqtlar uchun hisoblanadi. 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga, nogiron bolaning sanatoriyda davolangan barcha davri uchun unga yakka tartibda parvarishlash zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa mavjud bo'lganda nafaqa beriladi.

Kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda beriladigan nafaqa. Uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurbu yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan nafaqa beriladi. Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga qarash bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muhtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi. 14 yoshga yetmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar bo'yicha nafaqa. Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar ta'tili sifatida ayollarga tug'ganiga qadar 70 kalendar kun va tug'ganidan keyin 56 kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda – 70 kalendar kun) ta'til beriladi. Bu nafaqani tayinlash va to'lash uchun belgilangan tartibda mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo'ladi hamda ko'rsatilgan barcha davr uchun to'lanadi. Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va tug'ish bo'yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa ayol ishga kelishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi. Ishni vaqtinchalik to'xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til davrida homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilgan holda, nafaqa ko'rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo'lgan

kundan boshlab beriladi. Xodim yillik ta'tilda va bolani parvarishlash uchun ta'tilda bo'lgan vaqtda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta'til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o'rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo'lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsienti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa, shu jumladan, ayrim hollarda, ya'ni mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingandan keyin bir oy ichida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlangan bo'lsa, nafaqa yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa. Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi. Ish haqiga koeffitsient qo'llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ayollarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o'qish joyidan to'lanadi. Ishlamaydigan va o'qimaydigan ota-onalarga bola tug'ilganda beriladigan nafaqa ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Agar ayol homiladorlik bo'yicha ta'til davrida ishdan bo'shab, shu davr mobaynida homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa olgan bo'lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o'lik tug'ilgan hollarda nafaqa to'lanmaydi.

Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa. Bu nafaqa nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa. Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan quyidagi oila a'zolari vafot etganda beriladi:

– turmush o'rtog'i;

– 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;

– ota-onasi;

– bobosi yoki buvisi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa oila a'zolariga yoki dafn o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga tuman (shahar) *ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan eng kam oylik ish haqining* uch baravari miqdorida beriladi. Ishlamaydigan pensioner vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan kam bo'lmagan miqdorida to'lanadi. Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa, agar unga so'nggi ish haqi to'langan kundan bir oydan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa beriladi. Oliy, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan *shaxslar, maktablar, malaka oshirish institutlari o'quvchilari yoki ularning* oila a'zolari vafot etganda, agar ular kurslarga, maktablarga, institutlarga korxona tomonidan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa, dafn etish marosimi uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi.

Ishsizlik bo'yicha nafaqa. Qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan fuqarolarga ishsizlik bo'yicha nafaqa beriladi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida 16 yoshga to'lmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori 10 %ga oshiriladi. Ish haqiga koeffitsientlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsientni qo'llagan holda aniqlanadi. Ishsizlik nafaqasi davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi;

2. Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi.

Birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi ilgari ishlamagan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida 75 foizi miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik bo'yicha nafaqa uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz fuqarolarga to'lanadi. Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

– mutaxassisligi bo'lgan shaxslar uchun, shuningdek, 12 oy mobaynida haq to'lanadigan ish bilan bandligi 12 kalendar haftadan kam bo'lmagan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o'rgatish yoki malakasini oshirish talab qilinmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda;

– boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo'lmagan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 75 foizi miqdorida.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

– ishsiz shaxs zarur kasb malakasiga ega bo'lmaganligi tufayli unga maqbul keladigan ish tanlash mumkin bo'lmasa;

– ishsiz shaxsning kasb ko'nikmalariga mos keladigan ish yo'qligi sababli uning kasbini o'zgartirish zarur bo'lsa;

– ishsiz fuqaro avvalgi kasbi bo'yicha ish bajarish qobiliyatini yo'qotgan bo'lsa.

Ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish o'quv yurtlarida mehnat organlarining yo'llanmalari bo'yicha davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ish beruvchi tomonidan to'lanadigan nafaqa. Nafaqaning mulkchilik shaklidan va xo'jalik yuritish usulidan qat'iy nazar, ish beruvchilar korxonada (tashkilotda) mehnat shartnomasi tuzish asosida yollanib mehnat qiluvchi xodimlariga to'lanadigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, bir yo'la beriladigan nafaqa hisoblanadi. Xodim ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa yoki boshqa xil shikastlanish tufayli sog'lig'iga zarar yetganda, shuningdek, u kasb kasalligiga chalinish tufayli salomatligi yomonlashganda. ish beruvchi unga bir yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli xodim vafot etgan taqdirda ish beruvchi uning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga olti yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli sog'lig'iga zarar yetgan yoki vafot etgan xodim qaramog'ida bo'lgan fuqarolarga nafaqa to'lash shartlari va tartibi, nafaqaning aniq miqdori tegishli qonun hujjatlarida, jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalarida, boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar tarkibini yoritib bering?
2. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ish haqini belgilashda qaysi mezonlarga alohida e'tibor qaratgan?
3. Eng kam ish haqini o'rnatishda nimalar hisobga olinadi?
4. Qaysi daromadlar mol-mulkdan olingan daromadlarga kiradi?
5. Mualliflik haqini belgilashning me'yoriy-huquqiy asosini aytib bering.
6. Dividend deganda nimani tushunasiz?
7. Renta – bu nima?
8. Ijtimoiy transfertlar tarkibini sanab bering.
9. Pensiyaning qanday turlarini bilasiz?
10. Ijtimoiy transfertlarni moliyalashtirish manbalarini aytib bering.

IV bob. AHOLI UMUMIY DAROMADLARINI HISOBLASH METODIKASI

4.1. Aholi umumiy daromadlarini hisoblash metodikasining mohiyati

Aholi umumiy daromadlarini hisoblash metodikasi aholi turmush sifatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblash va baholash asoslarini, shuningdek, aholi daromadlarining darajasi, tarkibi va shakllanishidagi alohida manbalarning ahamiyatini belgilaydi. Ushbu metodika Milliy hisoblar tizimi (MHT)-93 ning halqaro statistika standartlariga, Halqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan.

Metodika davlat statistika organlari tomonidan aholi umumiy daromadlarining hajmini yillik va choraklik asosda respublika va hududlar darajasida hisoblashda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Uy xo'jaliklari ixtiyorida mavjud bo'lgan va tovar va xizmatlar xarid qilishga qodirligini belgilovchi iqtisodiy resurslar majmuini ifodalovchi uy xo'jaliklarining iqtisodiy farovonligi aholi turmush sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu resurslarga joriy va kapital tushumlar, shuningdek, asosiy fondlar va qarzga oid bo'lgan majburiyatlar balansi kiradi.

Iqtisodiy farovonlik darajasining tahlili uy xo'jaliklarining iqtisodiy resurslarga egalik qilish darajasini, ularni iste'mol qilishga yoki jamg'arishga, shuningdek, ulardan birini tanlashga qodirligini aniqlashga imkon beradi.

Uy xo'jaliklarining iste'mol qilishga qodirligini aniqlash mezoni sifatida foydalaniladigan muhim indikator bo'lib umumiy daromadlar (joriy tushumlar) hisoblanadi, chunki ular iste'mol qilish yoki jamg'arish imkoniyatini oshirishni ko'proq ta'minlaydi.

Halqaro statistika amaliyotiga muvofiq ravishda qismlarga ajratish maqsadida umumiy daromad, qoidaga ko'ra "birlamchi daromad" va "transfertlardan olingan daromadlar"ga bo'linadi, bu o'z navbatida bandlik holati yoki ijtimoiy ta'minot tizimiga bog'liq holda institustional o'zgarishlarning ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Aholining umumiy daromadlari tarkibi 4.1-jadvalda keltirilgan.

4.1-jadval

Aholining umumiy daromadlari tarkibi

	Daromadlar tarkibi
	Umumiy daromadlar (I+II)
I	**Birlamchi daromadlar**
1	**Ishlab chiqarishdan olingan daromad**
1.1	Mehnat faoliyatidan olingan daromad
1.1.1	Yollanma ishchilarning daromadi
1.1.2	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad
1.2	Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromad
2	**Mol-mulkdan olingan daromad**
	Foizlar
	Dividendlar
	Mualliflik haqi
	Renta va boshqa mol-mulkdan olingan daromadlar
II	**Transfertlardan daromad**
2.1	Ijtimoiy transfertlar
2.1.1	Pensiyalar
2.1.2	Nafaqalar
2.1.3	Stipendiyalar
2.2	Boshqa joriy transfertlar

4.2. Aholi birlamchi daromadlari tarkibiy qismlarining shakllanishi

Aholi birlamchi daromadlari "ishlab chiqarishdan olingan daromadlar" va "mol-mulkdan olingan daromadlar" ga bo'linadi.

Mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlarga xodimlarga hisoblangan ish haqi, rahbatlantirish hususiyatiga ega bo'lgan barcha to'lovlar, kompensastiya to'lovlari va ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash kiradi. Shuningdek, mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlarga ommaviy axborot vositalari xodimlariga to'lovlar (maqola, radio (tele) dasturlar va shunga o'xshashlar uchun mualliflik haqlari), rastionalizatorlik takliflari uchun va mualliflik huquqiga ega bo'lmagan shunga o'xshash mukofotlar kiradi.

Ushbu metodikada yollanma ishchilar daromadlariga shuningdek: yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxslarning ehtiyojini qondirish maqsadida tovarlar, ishlar, xizmatlar (maktabgacha bolalar muassasasida tarbiyalanishi

uchun, kommunal xizmatlar, transportda yurish bo'yicha imtiyozlar va shunga o'xshashlar) uchun to'lovlar, mehnat munosabatlarini tugashi yoki ishdan bo'shash bo'yicha nafaqalar. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ravishda ish beruvchi tomonidan o'z qo'l ostida yollanib ishlayotganlarga to'langan boshqa to'lovlar kiradi.

Yollanma ishchilarning daromadlarini hisoblash sxemasi metodikaga 4.2-jadvalda keltirilgan.

4.2-jadval

Yollanma ishchilarning daromadlarini hisoblash sxemasi

Hududlar	Mehnatga haq to'lash	Ish beruvchi tomonidan to'langan boshqa daromadlar	Yollanma ishchilarning daromadlari (1 ustun + 2 ustun)
A	1	2	3
O'zbekiston Respublikasi			
Qoraqalpog'iston Respublikasi			
viloyatlar:			
Andijon			
Buxoro			
Jizzax			
Qashqadaryo			
Navoiy			
Namangan			
Samarqand			
Surxondaryo			
Sirdaryo			
Toshkent			
Farg'ona			
Xorazm			
Tashkent sh.			

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni hisoblash uchun asos bo'lib MHTning "aralash daromad" tushunchasi hisoblanadi. Aralash daromad yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlarning hom-ashyo mahsulotlarini sotib olishga, asbob-uskunalarga texnik xizmat ko'rsatishga, transport vositalariga, kommunal xizmatlarga to'lovlar va

shunga o'xshashlarga qilingan xarajatlarni chiqarib tashlagan holda yalpi mahsulotning qiymatidan tarkib topadi.

Shuningdek, aralash daromadga ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan olingan daromadlar, hamda xarajatlarni chiqarib tashlagan holda uy xo'jaligi tomonidan shaxsiy iste'moli uchun ishlab chiqarilgan tovarlarning baholangan qiymati kiradi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hajmini hisoblash uy xo'jaliklari kuzatuvi asosida, shuningdek, quyidagi choraklik statistik baholashlar orqali amalga oshiriladi:

a) jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan (qayta ishlangan), hamda bozorda sotilgan yoki shaxsiy iste'mol uchun sarflangan sanoat mahsulotlari hajmi;

b) sotish hamda shaxsiy iste'mol maqsadlarida dehqon xo'jaliklarida etishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hajmi;

v) jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar (transport, savdo va shunga o'xshash) hajmi;

g) jismoniy shaxslar tomonidan (ya'ni. pudratchi sifatida yuridik shaxslarni jalb qilmagan holda) yakka tartibda uy-joy va noturar-joy qurilishi hajmi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni hisoblash sxemasi metodikaga 4.3-jadvalda keltirilgan.

4.3-jadval

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni hisoblash sxemasi

Hududlar	**Jami**	Shu jumladan sohalar bo'yicha:					
		qishloq xo'jaligi	sanoat	qurilish	xizmatlar	ulardan:	
						trans-port	savdo (umumiy ovqatlanishni qo'shgan xolda)
A	1	2	3	4	5	6	7
Daromadlar, xarajatlarni chiqargan holda							
shu jumladan hududlar bo'yicha:							
Qoraqalpog'iston Respublikasi							

viloyatlar:							
Andijon							
Buxoro							
Jizzax							
Qashqadaryo							
Navoiy							
Namangan							
Samarqand							
Surxondaryo							
Sirdaryo							
Toshkent							
Farg'ona							
Xorazm							
Tashkent sh.							

Soliqlarni to'lagandan so'ng xususiy korxona egasi va fermer xo'jaligi rahbari ihtiyorida qolgan foyda, noishlab chiqarish aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar tadbirkorlar va boshqa jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari aralash daromadlar hajmiga qo'shilmaydi.

Kichik korxonalarda, mikrofirmalarda va fermer xo'jaliklarida yollanib ishlovchilar mehnatiga haq to'lash, mustaqil ravishda band bo'lgan shaxslarning daromadlari, uy xo'jaliklari tomonidan shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarning mol-mulkdan olingan daromadlari, hisoblash asosida aniqlanadigan jismoniy shaxslarning chet elda mehnat va tadbirkorlik faoliyatini yuritishdan olingan transfertlar summasi bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida kichik tadbirkorlikdan olingan umumiy daromadlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

4.3. Transfertlarni hisoblash tartibi

Transfertlar, odatda, uncha katta bo'lmagan hajmda va muntazam ravishda to'lab boriladigan joriy transfertlarga hamda bir marta (yoki muntazam bo'lmagan), odatda yaxlit yirik summada to'lanadigan kapital transfertlarga ajratiladi.

Halqaro standartlarga muvofiq ravishda, ushbu metodikada aholining umumiy daromadlari tarkibiga faqat joriy transfertlar kiritiladi va ularni joriy hisob davrida xarajat qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Joriy transfertlar ijtimoiy ajratmalarga (ijtimoiy sug'urta to'lovlari va ijtimoiy yordam choralariga) va boshqalarga (tashkilotlardan va boshqa uy xo'jaliklaridan to'lanadigan to'lovlarga) bo'linadi.

Transfertlardan olingan daromadlarni hisoblashda quyidagi ma'lumotlardan foydalaniladi:

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining pensionerlar soni va ularga tayinlangan pensiyalar to'g'risidagi ma'lumotlari;

– O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (kam ta'minlangan oilalar uchun, 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalar uchun, 2 yoshgacha bolalari bo'lgan ishlamaydigan onalar uchun nafaqalar) to'g'risidagi ma'lumotlari;

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining aholidan pul tushumlari va aholiga pul mablag'lari to'lovlari, shuningdek, chet elga va chet eldan amalga oshirilgan pul o'tkazmalari to'g'risidagi ma'lumotlari;

– uy xo'jaligiga boshqa uy xo'jaliklaridan amalga oshirilgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar qismi bo'yicha uy xo'jaliklari kuzatuvi natijalari.

4.4. Aholi umumiy daromadlarini hisoblash uchun axborot bazasi

Aholi umumiy daromadlarini hisoblash respublika va hududlar darajasida yil va choraklar uchun yig'ilib boruvchi (hisobot yili boshidan o'sib boruvchi) usulda amalga oshiriladi.

Umumiy daromadlar bo'yicha ko'rsatkichlarning keng qamrovini ta'minlab beruvchi yillik hisoblashlar choraklik baholashlar uchun asos bo'ladi. Choraklik baholashlar ko'rsatkichlarning joriy o'sish sur'atlarini tavsiflash uchun amalga oshiriladi va yillik hisoblash jarayonida aniqlashtiriladi.

Yollanma ishchilarning daromadlari hajmini hisoblash tadbirkorlik sub'ektlari va notijorat tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan mehnat bo'yicha va jismoniy shaxslarga to'lovlar haqidagi davlat statistika hisobotlari, shuningdek, "konvertda" to'langan to'lovlar hisobi uy xo'jaliklari kuzatuvining haqiqiy ish haqi bo'yicha maxsus moduli ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ravishda band bo'lgan shaxslarning daromadlari hajmini hisoblashda tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi tad-

birkorlar (jismoniy shaxslar)ning iqtisodiy faoliyati bo'yicha choraklik asosda o'tkaziladigan tanlama kuzatuv natijalaridan foydalaniladi, bunda quyidagilar kuzatiladi:

sanoat va savdo bo'yicha:

- barcha buyum va ixtisoslashtirilgan bozorlarda, mahalla-guzarlarda va boshqa aholi ko'p to'planadigan joylarda savdo faoliyatini (ruxsat bilan va ruxsatsiz) amalga oshiruvchi barcha shaxslarning 30 foizdan kam bo'lmagan qismi;
- o'zi ishlab chiqargan sanoat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi shaxslarning 50 foizdan kam bo'lmagan qismi;

xizmatlar bo'yicha:

- pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha ob'ektlarning, shu jumladan, barcha bozorlarda, mahallalarda va mahalla-guzarlarda va boshqa aholi ko'p to'planadigan joylarda joylashgan va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan maishiy xizmat ko'satish ob'ektlarining 30 foizdan kam bo'lmagan qismi;

avtomobil transporti bo'yicha:

- barcha bozorlarda, avtoshoxbekatlarda, avtomobil turar joylarida va boshqa xususiy yuk tashuvchilar ko'p to'planadigan joylarda yakka tartibda yuk tashish bilan, shuningdek, ruxsat beruvchi hujjatsiz yakka tartibda yo'lovchi tashish bilan shug'ullanayotganlarning 30 foizdan kam bo'lmagan qismi;

qurilish bo'yicha:

- qurilishda foydalanilgan qurilish materiallarining barcha turini inobatga olgan holda, ularning vakilliligini ta'minlab, foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi turar-joylarning 20 foizdan kam bo'lmagan qismi.

Shuningdek, hisoblashlarda Davlat soliq qo'mitasining byudjetga soliqlar va majburiy to'lovlar tushumi, soliq organlarida ro'yxatga olingan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni va ular tomonidan to'langan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar 1 kv.metr turar-joyning qiymatidan kelib chiqib, davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida olingan turar-joy fondining umumiy maydonini uy xo'jaliklari kuzatuvi ma'lumotlariga asosan olingan uy xo'jaliklarining qurilish materiallariga, joriy ta'mirlashga va binodan foydalanishga qilgan xarajatlari hajmiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar bo'yicha yillik aniqlashtirilgan hisoblashni amalga oshirish uchun, yirik korxonalar hamda kichik korxona va notijorat tashkilotlari uchun bir xil shaklga keltirilgan, tarkibida jismoniy shaxslarga ish haqidan tashqari hisoblangan to'lovlar haqidagi maxsus bo'limga ega bo'lgan davlat statistika hisoboti asos bo'ladi. O't-gan yilgi yillik ma'lumotlarga va uy xo'jaliklari kuzatuvining joriy natijalariga asosan har chorakda ko'rsatkichning tezkor baholanishi amalga oshiriladi.

Aholining umumiy daromadlari majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirgunga qadar bo'lgan yalpi daromadni ifoda etadi.

Aholi tomonidan olingan daromadlarning tarkibiy taqsimlanishini tahlil qilish maqsadida **aholi ixtiyoridagi daromad** aniqlanadi, chunki u aholi iste'mol xarajatlari uchun mumkin bo'lgan eng katta miqdorni aniqlash imkonini beradi.

Aholi ixtiyoridagi daromad umumiy daromaddan to'g'ri soliqlarni (ularning qaytarilishini hisobga olgan holda), majburiy yig'imlar va jarimalar hamda bir uy xo'jaligiga boshqa uy xo'jaligi tomonidan beriladigan moddiy yordam pullarini chegirish orqali hisoblanadi.

Aholi ixtiyoridagi daromadni hisoblash sxemasi 4.4-jadvalda keltirilgan.

4.4-jadval

Aholi ixtiyoridagi daromadni hisoblash sxemasi

T/r	Ko'rsatkichlar nomi
	Aholi ixtiyoridagi daromad (1-2-3)
1.	**Umumiy daromad**
2.	**Soliqlar va majburiy transfertlar**
2.1.	Qaytarilgan soliqlarni chegirgan holda daromaddan to'g'ri soliqlar
2.2.	Qaytarilgan soliqlarni chegirgan holda mol-mulkdan to'g'ri soliqlar
2.3.	Majburiy yig'imlar
2.4.	Boshqalar
3.	**Oilaga yordam sifatida boshqa uy xo'jaliklaridan to'langan yordam pullar**

Uy xo'jaliklari kuzatuvi asosida olingan aholining moddiy farovonligi bo'yicha taqsimlanishi va aholi daromadlarining tabaqalanishi to'g'risidagi ma'lumotlarning qamrovi, vakolatliligi va aniqligini baho-

lash maqsadida, mazkur metodika asosida shakllangan umumiy daromad ko'rsatkichlari uy xo'jaliklari kuzatuvi doirasida daromadlar to'g'risida olinadigan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida aholining umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromad ulushi boshqa daromadlarga nisbatan yuqori (4.5-jadval).

4.5-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholining umumiy daromadlari tarkibi, % (2013 yil 1 yanvar holatiga)

Hududlar	Umumiy daromadlar	Shu jumladan:			
		Birlamchi daromadlar			Transfertlardan daromad
		Ishlab chiqarishdan olingan daromad		Mol-mulkdan olingan daromad	
		Mehnat faoliyatidan olingan daromad	Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromad		
O'zbekiston Respublikasi	**100,0**	**67,4**	**1,7**	**2,4**	**28,5**
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,0	60,0	2,3	0,7	37,0
viloyatlar:					
Andijon	100,0	62,7	1,2	0,9	35,2
Buxoro	100,0	64,4	1,3	1,4	32,9
Jizzax	100,0	75,7	2,2	0,8	21,3
Qashqadaryo	100,0	66,8	1,9	1,3	30,0
Navoiy	100,0	81,2	1,4	1,1	16,3
Namangan	100,0	62,7	2,2	0,8	34,3
Samarqand	100,0	62,7	1,7	1,1	34,5
Surxondaryo	100,0	64,4	1,9	0,7	33,0
Sirdaryo	100,0	75,7	1,7	1,3	21,3
Toshkent	100,0	79,2	1,5	2,3	17,0
Farg'ona	100,0	65,5	1,7	1,3	31,5
Xorazm	100,0	55,5	2,8	1,8	39,9
Toshkent sh.	100,0	70,6	1,0	8,7	19,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

4.5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, respublikaning Navoiy va Toshkent viloyatlarida mehnat faoliyatidan olingan daromadning, Xorazm viloyatida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadning, Toshkent shahrida mol-mulkdan olingan daromadning, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida transfertlardan daromadning ulushi yuqori.

Shunday qilib, uy xo'jaliklari kuzatuvini o'tkazish, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash tamoyillari O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining 2010 yil 24 dekabrdagi 18-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha uslubiy qoidalar"da belgilangan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholi umumiy daromadlarini hisoblash metodikasining ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlar tarkibini yoriting.
3. Yollanma ishchilarning daromadlarini hisoblash sxemasini tushuntirib bering.
4. Qaysi tushuncha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni hisoblash uchun asos bo'lib hisoblanadi?
5. Transfertlardan olingan daromadlarni hisoblashda qanday ma'lumotlardan foydalaniladi?
6. Aholi umumiy daromadlarini hisoblash qanday usulda amalga oshiriladi?
7. Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar qanday tartibda hisoblanadi?
8. Aholi ixtiyoridagi daromadni hisoblash sxemasini tushuntirib bering.

V bob. AHOLI DAROMADLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

5.1. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning zaruriyati

Bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlarda transformatsiyaning tangligi, shuningdek, daromadlar shakllanishining omiliy modeliga tartibga solib bo'lmas tarzda o'tish natijasida umumiy iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning keskinlashuvi, aholi daromadlari tabaqalanishining o'sishi sodir bo'lmoqda. Masalan, daromadlarning aholi kvintil (20% lik) guruhlari o'rtasidagi taqsimlanish dinamikasini tadqiq qilish bozor iqtisodoyotiga asoslangan mamlakatlarda 1992- yildan boshlab aholi daromadlari tabaqalanishidagi notekislik kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Mablag'larning eng ko'p ta'minlangan 20 %lik guruhida to'planishiga intilish yetarlicha ravshan namoyon bo'lgan. Xususiylashtirish sharoitlarida sodir bo'layotgan mulkning qayta taqsimlanishi aholining muayyan guruhlari uchun mulkdan daromad chiqarish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, sarmoyaning dastlabki to'planish jarayonida ko'p sonli suiste'mollar sodir bo'ladi va bu daromad to'planishining asossiz ravishda keskin o'sish manbayi bo'ladi.

Aholi daromadlari darajasi haqidagi axborotning asosiy manbayi oila budjetlarini tekshirish hisoblanadi. Ular asosida olingan ma'lumotlar yuksak ishonchlilik bilan ajralib turmaydi, chunki respondentlar ko'pincha o'z daromadining haqiqiy miqdorini shunchaki bilmaydi. Shu bilan birga, aholining eng ko'p ta'minlangan kategoriyalari daromadlari to'g'risida ishonchli ma'lumot olishning imkoniyati yo'q. Daromadlar o'sishi bilan bu kategoriyalar ular haqida qandaydir axborot berishga borgan sari kamroq moyil bo'ladi.

Aholi daromadlarining tabaqalanish jarayonini tahlil qilish quyidagi xulosalarni qilishga imkon beradi:

Birinchidan. tegishli jarayonlarning aniq qonuniy reglamentatsiyasining yo'qligidagi transformatsiyali tub o'zgarishlar daromadlar tabaqalanishining o'sishiga olib keladi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida eng keskin o'zgarishlar 1990-yillarning boshida sodir bo'ldi. Albatta, mehnatning bozor mahsuldorligi va daromadlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik o'rnatishdan iborat bo'lgan islohotlar sharoitida aholi daromadlari tabaqalanishining o'sishi muqarrar.

Ikkinchidan, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, aholi daromadlari tabaqalanishining qulay, iqtisodiy jihatdan samarali va ijtimoiy jihatdan yo'l qo'yib bo'ladigan darajasini belgilash qiyin. Daromadlar tabaqalanishini jahon tajribasida qabul qilingan ko'rsatkichlar bilan taqqoslash mumkin. Masalan, Djini indeksi qiymatlarini transformatik o'zgarishlarni amalga oshiruvchi boshqa mamlakatlarning tegishli ko'rsatkichlari bilan qiyoslash Rossiyada Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga qaraganda tabaqalanish ko'rsatkichlarining ancha keskinroq o'sishining kuzatilayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sobiq ittifoqning qolgan mamlakatlarida ham daromadlarning to'planish darajasi nisbatan yuqori.

Umuman olganda, aholi daromadlari tabaqalanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tadqiq qilish quyidagi mantiqqa nomuvofiq vaziyatni aniqlash imkonini beradi: daromad bo'yicha aholi taqsimotining O'zbekiston uchun xos bo'lgan ko'rsatkichlari past daromadli mamlakat (Gana), o'rtacha daromadlarga ega mamlakatlar (Tunis, Filippin) va yuqori daromadli mamlakatlarda ham (Shveytsariya, Buyuk Britaniya) qayd qilingan ko'rsatkichlarga yaqin. Shu bilan birga, eng yuqori daromadli mintaqalar bo'yicha ma'lumotlar daromadlarning eng yuqori darajada tabaqalanishiga ega mamlakatlar (masalan, Braziliya) ko'rsatkichlariga yaqin.

Aholi daromadlarining o'rtacha jon boshiga past darajasi asosidagi keskin tabaqalanishi iqtisodiy kuchlarning tabaqalanishiga olib keladi. Bu iste'mol tarkibida, shuningdek, egalikdagi jamg'armalar tarkibida aniq namoyon bo'ladi. Aholining daromadlaridan foydalanish tarkibida tovar va xizmatlar xarid qilishga xarajatlar ustunlik qiladi va bu Engel faraziga ko'ra, daromadlarning mutlaq past darajasi haqida guvohlik beradi.

Aholi iqtisodiy imkoniyatlari tabaqalanishining o'sishi talabning keskin segmentlanishiga olib keladi. Masalan, narxlarning eng ko'p ta'minlangan aholi guruhlari talabining o'zgarishlariga ta'sirchanligi oshadi. Buning oqibatida "elitar" iste'mol tovarlari va xizmatlari: uy-joy, rekreatsiya, xizmatlar, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan ayrim tovarlarga narxlar nisbatan tez o'sadi.

Aholi iqtisodiy imkoniyatlarining tabaqalanishi qashshoqlik muammosini favqulodda kuchaytiradi. "Qashshoqlik" tushunchasi aholi guruhlarining shunday ahvolini tavsiflaydiki, ushbu jamiyatdagi oqilona minimumga muvofiq bo'lgan farovonlik darajasiga erishish mumkin

bo'lmaydi. Oqilona minimumning "obyektiv" kattaligini hisoblashning murakkabligi va shu bilan birga, mavjud statistik ma'lumotlar aholining eng kam ta'minlangan qatlamlari ahvolini "asosiy ehtiyojlar" atamalarida har tomonlama baholashga imkon bermasligi sababli, maxsus adabiyotlarda qashshoqlik darajasini belgilash "qashshoqlik chegarasi" bilan qiyoslash asosida amalga oshiriladi.

Qator mamlakatlarda barqaror qashshoqlikning ancha keng qatlami hosil bo'lgan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda qashshoqlikning sifat xususiyatlari ham o'zgara boshladi.

Birinchidan, aholining an'anaviy kam ta'minlangan guruhlari – ko'p bolali oilalar, nogironlar, nafaqaxo'rlar, pensionerlar, o'quvchilardan tashqari kam ta'minlanganlar kategoriyasiga ishsizlar, harbiy xizmatchilar ham kiradi. Shunday ekan, eng kam ta'minlangan qatlamlar orasida iqtisodiy faol aholining solishtirma salmog'i oshmoqda. Qator mamlakatlarda qashshoq yoki kam ta'minlangan aholiga aqliy mehnatda band qatlamlar: ishchilar va texnik xodimlar; fan, ta'lim, sog'liqni saqlash xodimlari ham kiradi. Shuningdek, aholining ancha katta qismi, jumladan, iqtisodiy band bo'lgan aholi o'z kelajagiga, o'z oilasi uchun munosib turmush darajasini ta'minlash imkoniyatiga ishonmaydi.

Ikkinchidan, tadqiqotchilar mamlakatlarning alohida mintaqalarida haddan tashqari ko'p muhtojlik yoki qashshoqlikni oilaning o'rtacha daromadi tirikchilik uchun eng kam miqdorning yarmigacha yetib bormaydigan holatlarda kuzatilishini qayd qiladi.

Uchinchidan, eng muhtoj mintaqalarda surunkali qashshoqlik tarqaladi, ya'ni muhtojlik vaqtinchalikdan surunkali holatga o'tadi.

To'rtinchidan, iqtisodiy imkoniyatlar tabaqalanishining yuksak darajasi aholining marginalizatsiyalanishiga olib keldi. Marginalizatsiya alohida uy xo'jaliklari, butun mintaqa asosiy iqtisodiy, moliyaviy, axborot va boshqa oqimlardan chiqib ketishini anglatadi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar va uy xo'jaliklarining zaiflik darajasi oshadi. Ular uyg'un birlikda o'zaro tinch aloqalarning "ijtimoiy sezgisini" hosil qiladigan g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar, konsepsiyalar, e'tiqodlarning shakllangan tizimidan chiqarib yuboriladi.

Beshinchidan, kam ta'minlanganlik inson imkoniyatlarining sifatiga, shu jumladan, insonlarning sog'lig'iga ta'sir qiladi. Mablag'larning yetishmasligi ko'p jihatdan sog'lom turmush tarzini olib borish va salo-

matlikni saqlab turish imkoniyatini cheklaydi. Ilgari aholi uchun bepul bo'lgan tibbiyotni mablag' bilan ta'minlashning qisqarishi va pullik tibbiy xizmatlarning kengayishi uni aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun erishib bo'lmas narsaga aylantiradi. Buni aholining katta qismi sog'lig'ining yomonlashuvida ko'rish mumkin.

Aholi sonining kamayishi milliy havfsizlikka bevosita tahdid soladi. Lekin, kuchayib boruvchi tabaqalanishning yanada jiddiy omili barcha tarmoqlar bo'yicha sodir bo'layotgan inson salohiyati sifatining pasayishi bo'lib qolmoqda.

Aholi salomatligi xususiyatlari va turmush darajasi omillari (shu jumladan, ishsizlik darajasi, yashash minimumidan pastroq daromadlarga, haqiqatan ixtiyorida bo'lgan pul daromadlariga ega aholi ulushi) o'rtasidagi uzviy aloqa aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish zaruriyatini tasdiqlaydi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi sifat siljishlari, mahsulot miqdori va uning sifatini oshirish butun xo'jalik mexanizmidagi tub o'zgarishlarsiz yuz bermaydi hamda uning eng muhim bo'g'inlaridan biri daromad va mehnatga haq to'lashni tartibga solishdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda ish haqini tashkil qilish paytida albatta obyektiv va subyektiv omillar hisobga olinadi.

Asosiy obyektiv bozor omillari qatoriga ishchi kuchi narxi, mehnat vositalari va tayyor mahsulotga narxlar, tovarlar sotish bozori va konyunktura, raqobat mexanizmi, foyda kiradi. Bunday omillar davlat va korxonalardan mustaqil holda mehnatga haq to'lashni taqozo etadi. Ish haqini tashkil qilishda obyektiv omillar asosiy rolni o'ynaydi hamda menejerlar bu omillarni hisobga oladi. Subyektiv omillar qatoriga davlat, korxonalar va kasaba uyushmasi tomonidan tartibga solish kiradi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat, garchi ancha toraygan ko'rinishda bo'lsada, tartibga solish vazifasini saqlab qoladi. Bu vazifa daromadlar va mehnatga haq to'lash sohasiga ham tadbiq etiladi. Daromadlar va mehnatga haq to'lashni makroiqtisodiy darajasida tartibga solish rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda xos bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir. Agar o'z-o'zini boshqarish bozor mexanizmlari tartibga solinmagan, ko'pchilik korxonalarda ishlab chiqarishni qayta tuzish va rivojlantirishdan manfaatdor haqiqiy mulk egalari yo'q bo'lsa, davlat daromadlar va mehnatga haq to'lashni tarti-

bga solishdan voz kecha olmaydi. Undan tashqari, ijtimoiy soha muammolarini hal qilishning markazlashgan tizimidan bozor tizimiga o'tish avtomatik va tartibsiz ravishda sodir bo'lishi mumkin emas, chunki tub o'zgarishlar tizim elementlariga daxldor bo'ladi.

Daromadlar konsepsiyasining quyidagi eng muhim maqsadlarini ajratib ko'rsatish mumkin: daromadlar siyosatidagi ustuvor yo'nalish mavjud ish haqlarini oshirish bo'lib qolishi kerak, buning uchun uning indeksatsiyasini o'tkazish, qarzdorlikni qisqartirish va u bo'yicha to'lovlarni, birinchi navbatga qo'yish, ish haqi to'lanmagan holatda zararni qoplash haqida qonunlar qabul qilish, eng kam ish haqining o'rtacha tirikchilik minimumi bilan yaqinlashish jarayonini tezlashtirish zarur. Buning uchun eng kam ish haqini ijtimoiy transfertlarni tartibga solish vazifalaridan ozod qilish kerak, chunki bu katta budjet xarajatlari bilan bog'liqligi sababli uning oshishini to'xtatib turadi. Pensiyalarning moliyaviy asosini ish haqining nominal miqdorini oshirish yo'li bilan mustahkamlash lozim, bu nominal miqdor chegirmalari pensiya fondini yuzaga keltiradi.

Aholi daromadlarini tartibga solish mexanizmini hayot va faoliyatning hududiy o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda, qonuniy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan shakllantirish zarur.

Qashshoqlik ko'lamlarining kengayib ketganligini hisobga olib, uni to'xtatish bo'yicha quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– budjetdagilarning yagona tarif tizimi me'yorini, budjet va tijorat sektorlarida mo'tadil o'zaro nisbatni o'rnatib, yashash minimumiga yaqinlashtirish;

– mintaqalarda eng kam to'lovning mintaqaviy yashash minimumiga asta-sekin yaqinlashuvini ta'minlovchi tadbirlarni ishlab chiqish;

– narxlarning o'sishi munosabati bilan, eng kam ish haqining indeksatsiyasini ta'minlovchi bosh kelishuvni ishlab chiqish va barcha ish beruvchilar uchun uni majburiy qilish. Buning uchun korxonalarning ushbu maqsadlarga qaratilgan daromadlarini soliqlardan ozod qilish;

– miqdori yashash minimumidan pastroq bo'lgan ishsizlik nafaqalari indeksatsiyasini kiritish va ijtimoiy jihatdan himoyalanmagan oilalarda ishsiz ota-onalar uchun qo'shimcha imtiyozlar o'rnatish;

– bolalarga nafaqalar to'lashda oilaning real daromadlari asosida tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish.

Daromadlarning mavjud tabaqalanishining ijtimoiy tafovutga o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadlarida davlat siyosatini bozor iqtisodiyotining asosini tashkil qiluvchi aholi o'rta qatlamlarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratish zarur.

O'tish iqtisodiyotida daromadlarga davlatning ta'sir chegarasi to'g'risidagi masala daromadlarning obyektiv miqdoriy bahosi nuqtayi nazaridan ham, ularni tartibga solishning samarali manbalarini izlash nuqtayi nazaridan ham eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, davlat tomonidan tartibga solish miqyoslari davlat budjeti miqdorlari bilan, shuningdek, davlat daromad va xarajatlarining milliy daromaddagi, yalpi milliy mahsulotdagi ulushi bilan belgilanadi. Ma'lumki, daromadlarning davlat tomonidan tartibga solinishining asosi va ularning haqiqiy chegarasi davlat budjetidir.

Bugungi kunda daromadlarning davlat tomonidan tartibga solish siyosati moliyaviy barqarorlashtirishga zid hisoblanadi, chunki davlat budjeti ijtimoiy xarajatlarining barcha qismlari bo'yicha davlat to'lovlarining qisqarishi hisobiga amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, davlatning aholi daromadlariga ta'siri bilan bog'liq asosiy vazifalari ham o'zgarishga uchradi. Bu o'zgarishlar, eng avvalo, ma'muriy-hukmron vazifalarning o'tish iqtisodiyotining salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan ijtimoiy-himoyaviy vazifaga qayta moslashuvida namoyon bo'ladi. Ustuvor yo'nalishlar orasida funksional xususiyatga ega quyidagi o'zgarishlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

– daromad ishlab topish uchun sharoit yaratish va jamiyat farovonligidagi ulushga huquqlarni amalga oshirishda daromadlarni adolatli taqsimlash yo'li bilan bir xil imkoniyatlar yaratish;

– iqtisodiyotning tarkib jihatidan qayta mo'ljallangan uy-joy qurilishiga, ta'limga, sog'liqni saqlashga, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish;

– daromadlar olish va taqsimlashdagi o'tish davri bilan bog'liq nomaqbul tafovutlarni kamaytirish;

– soliqqa tortishni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan birlashtirishning oqilona siyosatini ta'minlash (tirikchilikni ta'minlovchi vositalarni ishlab chiqaruvchilarga, kichik biznesga imtiyozlar, transport to'lovlarini, subsidiyalarni rag'batlantirish).

Davlatning aholi daromadlarini tartibga solishi bozor mexanizmi vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan salbiy ijtimoiy oqibatlarni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Davlat tomonidan tartibga solish shakllari *moddiy, institutsional va konseptual* tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning *moddiy* asosi milliy ishlab chiqarish miqdoriga va davlat budjeti orqali markazlashgan tarzda qayta taqsimlanuvchi ulush miqdoriga bog'liq bo'ladi. *Institutsional* asos qayta taqsimlash jarayonini tashkil qilish va tegishli muassasalar faoliyati bilan bog'liq. *Konseptual* asos hukumat ijtimoiy siyosatida u yoki bu nazariyaning ishlatilishiga tayanadi.

Tartibga solishning davlat mexanizmi yetarlicha murakkab va boshlang'ich taqsimotni (mehnatga haq to'lashni, aholi va korxonalarning boshqa birlamchi daromadlarini); davlat budjeti orqali qayta taqsimlashni; soliq va transfert tizimlarini: operatsiyalar va aholiga xizmat ko'rsatish orqali amalga oshiriluvchi oxirgi taqsimotni o'z ichiga oladi.

Daromadlarning birlamchi davlat taqsimoti davomida davlat sektorida nominal ish haqini oshirishning yuqorigi chegarasi o'rnatiladi. Ish haqini tartibga solishning iqtisodiy mohiyati shu bilan belgilanadiki, uning o'zgarishi umumiy talabga va ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir ko'rsatadi. Daromadlarni dastlabki tartibga solish davlat tomonidan milliy mahsulotning raqobatchilik qobiliyatini oshirish, investirlashni rag'batlantirish uchun ham, ish haqi va inflyatsiya o'sishini to'xtatish uchun ham foydalaniladi.

Daromadlarning qayta taqsimlanishi davlat budjeti orqali amalga oshiriladi, turli guruhlar, daromad oluvchilarni tabaqalashtirilgan soliqqa tortishdan va aholiga ijtimoiy to'lovlardan iborat bo'ladi.

Daromadlar budjet qayta taqsimotini tashkil qilib, davlat bir necha muammolarni hal qiladi: aholining ehtiyojmand tabaqalari daromadlarini oshirish, ishchi kuchini mo'tadil qayta tiklash sharoitlarini yaratish, ijtimoiy keskinlikni yumshatish.

Daromadlarni tartibga solishda *iqtisodiy, qonuniy, muvofiqlashtiruvchi, ma'muriy* usullarning o'rni katta.

Iqtisodiy usullarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorlarini belgilash, soliq siyosati, budjet sohasi tashkilotlari xodimlari hamda davlat xizmatchilari mehnatiga haq to'lanishini, bandlikni tartibga solish kiradi.

Eng kam ish haqining o'sishi jamiyatda ma'lum bosqichda vujudga keladigan iqtisodiy imkoniyatlarga bog'liq. Agar bu omil hisobga olinmasa, unda bu xodimlarga ish haqlarini to'lashning ushlanib qolishiga, budjet tanqisligiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, mehnatga haq to'lash minimumi ishchi kuchining mo'tadil jismoniy qayta tiklanishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini, ya'ni tirikchilik minimumini hisobga olgan holda belgilanishi kerak, bu o'z navbatida, davlatning pul siyosatiga bog'liq bo'ladi.

Budjetga soliq tushumlarini soliq siyosati ta'minlaydi, busiz daromadlarning takror taqsimotini tashkil qilish, iqtisodiy o'sishning samarali rag'batlanishini yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Masalan, kichik biznesga soliq imtiyozlarini berish aholi bandligini oshirishga ko'maklashadi hamda yuqori daromadga ega bo'lishga va bozorda o'z o'rnini egallashga imkon beradi.

Davlat iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, byudjet sohasida mehnatga haq to'lanishini tartibga soladi. Bu soha kuchlari bilan har qanday jamiyatning inson salohiyati shakllanadi. Shuningdek, bu sohaning sog'liqni saqlashda, bo'sh vaqtni o'tkazishda roli katta.

Qonuniy usullar. Daromadlarni tartibga solishda qonuniy va me'yoriy asosni ishlab chiqish masalalari muhim o'rinni egallaydi va butun tartibga solish jarayonining boshlang'ich paytidir. Me'yorlar iste'mol budjetlarini hisoblash uchun, ish vaqti me'yorlari – ish vaqti tartiblarini, korxonalardagi mehnat ta'tillarining davom etish muddatlarini belgilash, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish uchun; soliq me'yorlari – daromad soliqlarini, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarni (shu jumladan, ijtimoiy soliqlarni) ushlab qolish uchun qo'llaniladi.

Aholi daromadlarini va turmush sifatini tartibga solish uchun Konstitutsiya (Asosiy qonun), Mehnat kodeksi, iqtisodiyotni isloh qilish, bandlik haqidagi qonunlar, Prezident Farmonlari, Hukumat qarorlari (eng kam ish haqlarini oshirish, jamoaviy mehnat shartnomalarini huquqiy ta'minlash, ijtimoiy ta'minot va sug'urta, ijtimoiy kafolatlar to'g'risidagi) juda ahamiyatlidir.

Ma'muriy usullar. Bu usullar iqtisodiy (moliyaviy) zararning qo'shimcha moddiy rag'bati yoki xavfini anglash bilan bog'liq emas. Ular hukumat kuchiga asoslanadi va ta'qiq choralarini, ruxsat yoki majburlashlarni o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan ba'zi bir ilgarigi ma'muriy choralar saqlanib qoldi, lekin yangilari ham paydo bo'ldi: monopoliya bozorlari ustidan bevosita davlat nazorati; standart ishlanmalari, ularga amal qilinishini nazorat qilish; millat manfaatlarini himoya qilish – eksportga ruxsat berish yoki import ustidan davlat nazorati.

Muvofiqlashtiruvchi usullar. Ko'pgina mamlakatlarda bu usullar keng tarqalgan va eng iqtisodiy, "qon to'kilmaydigan" usul hisoblanadi. Ijtimoiy sherikchilik – hukumat, tadbirkorlar va yollanma ishchilarning mehnatga haq to'lash dinamikasi va ijtimoiy transfert masalalari bo'yicha harakatlarini muvofiqlashtirishdir.

1950-yillarda L.Erxard, R.Balog va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy sherikchilik g'oyasi, bir tomondan, yollanma ishchilar kasaba uyushmalari tomonidan, boshqa tomondan esa, tadbirkorlar birlashmalari tomonidan mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun vakil qilingan ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi. U iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohasida teng huquqli sheriklar sifatida chiquvchi hukumat, ish beruvchilarning milliy birlashmalari va kasaba uyushmalari tomonidan "jamoatchilik shartnomasi" tuzilishini ko'zda tutadi.

Turli darajadagi bitimlarda (Bosh bitimda – mamlakat darajasida, tarmoq va mintaqaviy tarif bitimlarida – tarmoq va hududiy darajada, jamoaviy bitimlarda – korxonalarda) mehnatga eng kam haq to'lash, tarif me'yorlari, ijtimoiy to'lov miqdorlari, daromadlar indeksikatsiyasi tartibi, ish vaqtining davom etish muddati, zarar o'rnini qoplash, mehnat huquqlari kafolatlari, mehnat muhofazasi, uy-joy bilan ta'minlash haqidagi masalalar aks etadi.

Jamoa-shartnoma tizimi yollanma mehnat shaxslari ish haqini tartibga solishning samarali shaklidir. Uning yuzaga kelishi ikki omilni to'xtatadi:

– ishchi kuchining qadrsizlanishi. Buning oqibatida ish haqi o'zining takror ishlab chiqarish vazifasini bajara olmaydi;

– ish haqining bitta tarmoq, hudud korxonalaridagi xodimlar kategoriyalari bo'yicha, shuningdek, alohida tarmoq va mintaqalar bo'yicha asossiz tabaqalanishi.

Har bir usul o'z ixtiyorida bevosita va bilvosita ta'sir choralariga ega. Davlatning bevosita aralashuv choralari qatoriga o'z hududida ish haqi minimumining davlat kafolatini o'rnatish, budjet sohasida mehnatga

haq to'lashni tartibga solish, tuman koeffitsientlari tizimini o'rnatish, davlatning sarmoya solishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha dasturlarni subsidiyalash, soliqlardan ozod qilish, aholi ayrim guruhlari uchun ish o'rinlari kvotasi ajratishning majburiyligi bo'yicha bevosita ma'muriy tartibga solish, xodimlarni qayta o'qitishni tashkil qilish, ijtimoiy zarur ishlarni bajarish uchun xodimlarning ma'lum miqdorini ajratish kiradi.

Bilvosita ta'sir usullari qatoriga esa aholining muhtoj qatlamlarini imtiyozli soliqqa tortish; bepul boyliklarni taqsimlash tadbirlarining tanlov xususiyati kiradi.

Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida aholi daromadlarini hududlar bo'yicha tartibga solish daromadlarni tartibga solishni takomillashtirishning eng murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning muvaffaqiyatli hal qilinishi hududlardagi iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Hududlardagi aholi daromadlari va ularning tabaqalanishi, kambag'allik miqyoslari, iste'mol darajasi iqtisodiyotni isloh qilish davomida qator salbiy yo'nalishlar yuzaga kelishi mumkin. Aytish joizki, ularning keskinlashuvi ijtimoiy keskinlikning o'sishiga olib kelishi va iqtisodiy islohotlarni tahdid ostiga qo'yishi mumkin. Bu sohadagi keskin muammolardan biri – bu daromadlarning kuchayib borayotgan hududiy tabaqalanishi bo'lib, u ko'pchilik hollarda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan noo'rindir. O'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan eng yuqori daromad Toshkent va Navoiy viloyatlari hamda Toshkent shahriga xos, bu asosan mazkur hududlardagi sanoatning, shu bilan birga, xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy, bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, shuningdek, ish haqiga koeffitsientlar va qo'shimcha haqlarning joriy qilinishi bilan bog'liq.

Aholi daromadlari sohasidagi hududiy siyosatning ustunliklari quyidagilardan iborat:

– nafaqa, pensiya, ish bilan bandlik, ijtimoiy sohada mamlakat va uning hududlari bo'yicha tabiiy-iqlim, demografik, milliy va boshqa omillarga bog'liq ravishda eng kam ijtimoiy standartlarini ishlab chiqish va ta'minlash;

– tarmoqlarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, ijtimoiy ta'minot) va qabul qilingan hududiy ijtimoiy dasturlarning barqaror moliyalanishini ta'minlash;

– mamlakat, hududiy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida javobgarlikni chegaralash. Ijroiya hokimiyat organlari tomonidan hududlarga mahalliy qonunlarni rivojlantirishda, hududiy ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va o'tkazishda yordam ko'rsatish; mehnatga haq to'lashni tartibga solish masalalarida mamlakat va hududiy (yoki tarmoq), tarmoqlararo va professional tarif bitimlari o'rtasida vakolatlarni chegaralash;

– hududning iqtisodiy imkoniyatlari va demografik vaziyatni hisobga olgan holda hududiy tirikchilik minimumini amalga oshirish;

– ekstremal tabiiy-iqlim sharoitlariga ega hududlarda ish haqiga foizli ustama haqlarni, og'ir va zararli sharoitda ishlovchilar uchun maxsus qo'shimcha ta'tillarni berish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari o'rtasidagi narxlar disbalansini kuchaytirdi, bu esa dehqonlar daromadlari mavjud miqdorining keskin tushishiga, shahar va qishloq o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning kuchayishiga, qishloq va shahar oilalarining moddiy ta'minlanganlik bo'yicha tabaqalanishining o'sishiga olib keldi.

Mehnat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ko'proq ish haqi bilan emas, balki qishloqda aholi daromadining asosiy manbasi bo'lib qolgan shaxsiy yordamchi xo'jalikning qonuniy (imtiyozli narxlar va tariflar bo'yicha) va noqonuniy ta'minoti bilan asoslanadi.

Qishloqdagi ijtimoiy siyosatning strategik maqsadi – to'laqonli yashash muhitini, qishloqning barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlari uchun yuksak turmush darajasi va sifatini yaratish, agrar mehnatning muvozanatga keltirilgan bozori asosida aholini to'liq qayta tiklash, uning texnik qurollanganligini oshirish, mehnat asoslari va ijtimoiy kafolatlarning samarali tizimini yaratishdir. Kelgusida bu maqsadga erishishni faqatgina qishloqning ijtimoiy muammolarini, ularning keskinligini va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhimligini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich hal qilish yo'li bilan amalga oshirish mumkin.

Qishloqda aholi daromadlari sohasida faol iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning muhim yo'nalishi – bu ish beruvchilarga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasi, imtiyozli soliqqa tortish va kreditlash, boshqa yordamlar shaklidagi davlat proteksionizmidir. Xususan, bandlikka ko'maklashuvchi hududiy jamg'armalardan fermerlarga, fermer xo'jaliklari assosiatsiyalariga ishsiz qishloq aholisini ishga joylashtirish majburiyati ostida ssudalar ajratish tajribasi keng tarqalmagan.

Qishloq joylarida yashovchi aholi daromadlari va iste'moli sohasidagi siyosatni quyidagilarga yo'naltirish kerak:

– qishloq aholisi hayoti va faoliyatining, ishchi kuchining isloh qilinayotgan agrar ishlab chiqarish talablariga muvofiq keluvchi jadal tur bo'yicha qayta tiklanishini ta'minlovchi darajasini shakllantirish;

– mehnatga haq to'lashda ishlab chiqarish sharoitlarini to'laroq hisobga olish;

– qishloq oilasi byudjeti tarkibini daromadlarning har xil turlari uchun eng qulay sharoitlarni yaratish yo'nalishida takomillashtirish;

– pensionerlar, nogironlar, bolali ayollar va qishloq aholisining boshqa eng kam himoyalangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish;

– qishloqda iste'molchilar kooperatsiyasini, qishloq aholisi mehnat va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi rivojlangan bozorini yaratish.

Hozirgi paytda qishloq joylarida yashovchi va agrosanoat majmuasida ishlovchi xodimlarning o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlari tirikchilik minimumi darajasini ham ta'minlashga qodir emas. Boshqacha qilib aytganda, qishloq oilalarining uchdan ikki qismi kambag'allik chagarasidan tashqarida turibdi va faqat shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari hisobiga kun ko'rmoqda. Bunday holat mehnatga haq to'lashning rag'batlantiruvchi vazifasi rolini yo'qqa chiqardi, shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining pasayishi davom etmoqda. Shuning uchun mehnatga haq to'lashning shaxsiy yordamchi xo'jalikdan, mulkdan (turarjoy binolarini, dala hovli, omborlarni ijaraga berish), mehnatdan keladigan daromadlarga va shaxsiy yordamchi xo'jalikdan keladigan tabiiy tushumlarga nisbatan aholi pul daromadlarining ulushi qisqarishda davom etmoqda. Shu bilan birga, qishloqda iste'mol kooperatsiyasi tizimining bekor qilinishi u yerda yashovchi odamlarning daromadlari darajasiga salbiy ta'sir qilmoqda.

5.2. Aholi daromadlarini tartibga solishning klassik va yangi klassik yo'nalishlari

Iqtisodiy tafakkur nazariyasini o'rganish aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish iqtisodchilar tomonidan merkantilizm nazariyasini ishlab chiqish chog'ida ko'rib chiqilganligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, merkantilizm kapitalistik ishlab chiqarish va savdo kapitali maydonga kelishining boshida yuzaga kelgan va mustamlakachilik

urushlarini olib borishga qodir kuchli markazlashgan milliy davlat yaratishni asoslab berdi. O'sha paytda aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish faol savdo balansi ta'limotiga asoslanardi. Davlat boshqaruv organlari mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda faol ishtirok etardi. Ular mamlakat boyligini ko'paytirishga, savdo kapitali va manufaktura ishlab chiqarishining amal qilishi uchun imtiyozli sharoitlar yaratishga qaratilgan o'zaro munosabatlar tizimini qo'llab-quvvatladilar. Manufakturalarga u yoki bu turdagi tovarlar ishlab chiqarish, davlat subsidiyalarini va soliqlardan ozod qilishni amalga oshirish chog'ida mustamlakachilik huquqlari berildi. Manufakturalar tomonidan chiqariladigan mahsulotning raqobatga bardoshligini oshirish maqsadida yollanma ishchilar ish haqining o'sishini cheklash bo'yicha qonuniy hujjatlar qabul qilindi. Bu borada davlat siyosati mamlakat boyligining o'sishini ta'minlar edi. Jamiyatdagi boylarning xarajatlari qolgan barchaning ish o'rinlari va ish haqlari bilan ta'minlanadi, deb hisoblanardi. Ish haqining o'sishini cheklab, davlat iste'molga sarflanadigan yalpi ichki mahsulot ulushini kamaytirishga va bir paytning o'zida manufakturalar tomonidan ishlab chiqariluvchi mahsulot eksportini ko'paytirishga intilardi. Merkantilizm konsepsiyasi savdo pullari muomalasiga xizmat qilish bilan bog'liq edi.

Yevropada kapitalizm rivojlanishi va sanoat kapitalining roli oshgan sari merkantilizm o'z o'rnini yo'qotib bordi. Davlat o'z siyosatini sanoatni rivojlantirish bilan bog'lay boshladi, bu o'z navbatida iqtisodiy nazariyaning o'zgarishiga ta'sir qildi hamda iqtisodiyot fanida klassik yo'nalish paydo bo'ldi.

Klassik konsepsiya davlat boshqaruv organlarining iqtisodiyotning rivojlanishiga, shu jumladan, aholi daromadlarining tartibga solinishiga aralashmasligi tamoyillariga asoslanadi. Klassik iqtisodiy tafakkurda aholi daromadlarini tartibga solishning ikki yo'nalishi yuzaga keldi.

A.Smit aholi daromadlarining ortishi mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'sishi bilan bir paytda sodir bo'ladi, deb hisoblagan. Bu sharoitda bozor munosabatlari mexanizmi amal qila boshlaydi va har bir ishtirokchi o'z iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqadi. Amaliy tekislikda o'z foydasini amalga oshirishga intilib, xodim ishlab chiqarish munosabatlari jarayonida jamiyat mahsulotini ko'paytirib boradi. "O'z shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, "iqtisodiyot odami" ko'pincha jamiyat manfaatlariga, buni qilishga ongli ravishda intilganiga qara-

ganda, ta'sirliroq xizmat qiladi". A. Smit nazariyasiga muvofiq, shaxsiy manfaat ishlab chiqarish munosabatlarida raqobatni rivojlantirish manbayi bo'lib qoladi. Bundan kelib chiqadiki, mehnat faoliyatining asosiy iqtisodiy sababi o'z boyligini ko'paytirishga shaxsiy qiziqishdir. Uning nazariyasiga ko'ra, aholi daromadlari bozor qonunlari ta'siri ostida shakllanadi. Davlat uni bevosita tartibga solishni amalga oshirmasligi kerak. Yollanma ishchilarning ish haqlari mehnatning miqdori, murakkabligiga, shuningdek, mamlakat rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lishi kerak. A. Smitning ish haqi nazariyasi U. Petti va D. Rikardo iqtisodiy nazariyasidan shu bilan farq qiladiki, u mehnatga haq to'lash miqdorini tirikchilik minimumiga qadar pasaytirish qonuniyatini inkor qilgan va ish beruvchilarga malakasi yuqoriroq ishchi kuchini topishga imkon bergan yuksak ish haqi tarafdori bo'lgan. Aholi daromadlarining boshqa shakli deb, u kapitalistlar foydasini hisoblagan. A. Smit foydani yollanma ishga to'lovning to'la emasligi hisobiga shakllanuvchi mustaqil kategoriya sifatida qabul qilgan hamda foydani kapitalistlarning boshqaruvchilik mehnati uchun to'lov sifatida ko'rsatishga urinishlarni tanqid qilgan. A. Smitga muvofiq, foydaning miqdori tadbirkor tomonidan sarf qilingan mehnat miqdoriga emas, balki sarmoyaning miqdoriga bog'liq. Bir paytning o'zida u sarmoyadorlar tomonidan foyda olishning mavjud tajribasiga rozi edi va uni tadbirkor mehnati uchun mukofot va ular tomonidan qo'yilgan pulni yo'qotishlardan sug'urta sifatida baholardi.

A. Smit qishloq xo'jaligida daromadlar olishni ham ko'rib chiqqan. Yer egalari tomonidan olingan daromadlar rentadir va yerga egalik qilishdan keladigan daromadga va dehqonlarning yetarlicha to'lanmagan mehnati uchun daromadga bo'linadi. Davlat tomonidan daromadlarning tartibga solinish usullariga to'xtalib o'tib, u tartibga solishning asosiy mexanizmi deb bozorni hisoblagan, shu bilan birga, u davlatga odillik bilan sud qilish, mamlakatni himoya qilish (armiya) va jamoat tashkilotlarini qaramoqqa olish vazifalarini ajratib bergan.

Iqtisodiy tafakkurning klassik yo'nalishi g'oyalarini D. Rikardo rivojlantirdi. U iqtisodiyot fanining asosiy vazifasi – bu aholi daromadlarini jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida taqsimlanishini tartibga soluvchi iqtisodiy qonunni belgilash, deb hisoblagan. O'z asarlarida D. Rikardo davlat rivojlanishining turli bosqichlarida jamiyatning u yoki bu qismiga renta, foyda yoki ish haqi ko'rinishida teguvchi ijtimoiy mahsulot ulushining tafovutlarini ko'rsatdi.

D.Rikardo yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash, foyda va mahsulot narxi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilib, "nominal ish haqining o'sishi foydaning pasayishiga olib keladi, chunki ish haqi va foyda bir-biriga teskari bog'liqlikda joylashadi: ish haqining oshishi tovarlarga narxlarni oshirmaydi, lekin foydani muqarrar ravishda pasaytiradi", deb ta'kidlagan. Uning fikricha, kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan aholi daromadlari dinamikasini quyidagicha tasvirlash mumkin: mavjud ish haqi o'zgarishsiz qoladi, renta o'sadi, foyda qisqaradi. Mavjud ish haqi darajasining saqlanib qolishini D. Rikardo "temir daromad" tamoyili bilan tushuntirgan. Mehnatga haq to'lash darajasining jismoniy darajadan yuqoriroqqa o'sishi tug'ilishni ko'paytirishga va mehnat bozorida talab qilinuvchi ixtisoslikni erkin ishchi kuchining ko'proq miqdorini taklif qilishga olib keladi va bu o'z navbatida, yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lashning va keyinchalik tug'ilishning kamayishiga yordam beradi, chunki mehnatga haq to'lash ishchi kuchini to'liq qayta tiklashni amalga oshirishga imkon bermaydi.

Renta daromadi o'sishini u yer egalari monopoliyasining ahvoli bilan va dehqonlarda yerning tanqisligi bilan tushuntirgan. Keyinroq "renta daromadi" tushunchasini u unchalik tarqalmagan yoki o'ziga xos qo'shimcha daromad yuzaga kelganida, boshqa barcha holatlarga joriy qildi.

D. Rikardo foydaning pasayishini jamiyat rivojlanishi bilan sarmoyadorlarga bu foydani yaratib beradigan ishchi kuchini qo'llashning qisqarishi bilan tushuntirgan. Ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mashinalar miqdorining ko'payishi foyda miqdorini ko'paytirishga imkon beradi. Foydaning eng yuqori ulushi ishchi kuchining eng ko'p miqdori qo'llanadigan joydadir. Amalda mehnatni ekspluatatsiya qilishni oshirish yo'nalishi sodir bo'ladi, ammo buni D. Rikardo hisobga olmagan.

Iqtisodiyot fanining klassik nazariyasini T.Maltus tadqiqotlari to'ldirdi, u mamlakatning ijtimoiy mahsulotini yaratish va taqsimlashda "uchinchi shaxslar" roli va o'rni haqidagi nazariy omilli yondashuvlarini shakllantirdi. Uning fikricha, daromadlarni ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish jarayonida band bo'lmagan yoki sarmoya va mulkni (yerni) ishlab chiqarish jarayoniga joylamaydigan aholi ham oladi. U aholining o'sish sur'atlari va umuman jamiyat farovonligining o'zaro aloqasini ko'rib chiqdi. Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solinishining yo'qligi, uning fikricha, mamlakatda qashshoqlikni keltirib chiqaradi.

Klassik nazariyani aholi daromadlarini shakllantirish konsepsiyasi qismini J. B. Sey rivojlantirdi. U o'z ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqarish jarayonining barcha ishtirokchilari (tadbirkorlar, dehqonlar, yollanma ishchilar) daromadlarining shakllanishini ko'rib chiqdi va daromadlarning har xil turlari bir-biriga zid emas, balki aksincha, bir-birini to'ldiradi, degan xulosaga keldi. Jamiyat uning barcha a'zolari manfaatlarining uyg'unligi va davlatning aholi daromadlarini tartibga solish jarayoniga aralashmasligi hisobiga rivojlanadi. J. B. Sey davlatning iqtisodiyotni boshqarish jarayoniga har qanaqa aralashuvini qoralaydi va bu vazifa bilan band davlat apparatini qisqartirishni, bu budjet xarajatlarining qisqarishiga ko'maklashadi, deb yoqlab chiqadi.

Davlatning iqtisodiy jarayonga aralashmasligi g'oyasi yetarlicha keng tarqalgan; buni davlatning ustunlik qiluvchi rolini istisno qiluvchi "iqtisodiy uyg'unlik" g'oyasini ilgari surgan F. Bastia ham qo'llab-quvvatlagan. Uning fikricha, barcha davlat hisobiga daromadlar olishga harakat qiladi.

Klassik nazariya kambag'allikning paydo bo'lish sabablarini tushuntirishga va aholi daromadlaridagi tengsizlikni qisqartirish bo'yicha mexanizmlarni ishlab chiqishga urinmaydi. Iqtisodiy tafakkurning bu yo'nalishini qo'llab-quvvatlovchi iqtisodchilar fikriga ko'ra, aholi daromadlarini shakllantirish bozor ishlab chiqarishi qonunlari bo'yicha amalga oshirilishi kerak.

Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishiga muvofiq ravishda Yevropada iqtisodiy tafakkurning ham rivojlanishi sodir bo'ladi. Marjinal nazariya, undan keyin esa neoklassik nazariya yuzaga keladi. Eng yuksak foydalilik nazariyasi vakillari F. Vizer, A. Marshall, A. B. Klark, A.Pigu va boshqa mashhur iqtisodchilar bo'lgan. Ushbu nazariyada aholi daromadlari barcha individumlar uchun juda ko'p foyda sifatida qabul qilinadi va ularning taqsimoti miqdoriy jihatdan hisoblab chiqilgan hamda jamiyat farovonligi kattaligiga muvofiq bo'lishi kerak, deb hisoblanadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, aholi daromadlarini yuksak ta'minlangan aholi qatlamlaridan kam ta'minlanganlarga qayta taqsimlashni amalga oshirish zarur. Aholi daromadlarini shakllantirish jarayonini tadqiq qilish chog'ida kazual yondashuvning funksional yondashuvga almashishi aholi daromadlari shakllanishining noklassik konsepsiyasining vujudga kelishiga olib keldi.

Noklassiklar iqtisodiy fikrdan ishlab chiqarish sohasining birlamchiligi masalasini yoki ishlab chiqarilgan ne'matlarning iste'molini chiqarib tashlay boshladilar. Ular birinchi marta bu sohalarning o'zaro chambarchas aloqasini e'lon qilgan.

Iqtisodiy fikrning keyingi qadami sifatida V. Pareto nuqtayi nazarini belgilash kerak. U aholi daromadlarini raqobat kurashi sharoitlaridagi bozor muvozanati bilan bog'lagan. Iqtisodiy nazariyada "Pareto optimumi" atamasi paydo bo'ldi, u jamiyat boyliklaridan oqilona foydalanish va jamiyatning kimlarningdir hayotini boshqalariniki hisobiga yaxshilashga yo'naltirilgan daromadlarini qisqartirish zaruriyatini asoslab berdi. V. Paretoga ko'ra, iqtisodiy tafakkurda aholi daromadlarining taqsimlanishi taqsimot jarayonida davlat ishtirokiga ega ijtimoiy adolat tushunchasidan kelib chiqqan.

Aholi daromadlari va uning taqsimoti nazariyasi iqtisodchilar tomonidan iste'mol va ishlab chiqarishning keragidan ortiqligi nuqtayi nazaridan baholana boshlandi. Masalan, bunga A.Marshall nazariyasi misol bo'la oladi. Bu nazariyaga muvofiq, aholi va ishlab chiqarish daromadlarining ortiqchalari jamiyat tomonidan olib qo'yilishi kerak. Iqtisodchilarning borgan sari ko'prog'ini daromadlarni adolatli taqsimlash haqidagi fikr egallab oldi. Ularni daromadlarni jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi taqsimlanish jarayoni qiziqtirardi. Ularning fikriga ko'ra, kam ta'minlangan aholi daromadlari miqdori aholining yuksak ta'minlangan qatlamlari o'sishining sekinlashuvi hisobiga ko'payishi kerak. A. Pigu iqtisodiy fikrga yangi tushunchani – "eng kam daromad" tushunchasini kiritdi va u ishchi kuchining oddiy qayta tiklanishini bajarishga imkon beradi.

Iqtisodiy tafakkurning noklassik yo'nalishi aholi daromadlari taqsimotining notekisligi mavjudligini e'tirof etardi. Bir individ daromadlarining o'sishi jamiyatning barcha a'zolari daromadlari miqdorini u yoki bu tarafga o'zgartiradi. Aholi daromadlarini taqsimlash va shakllantirishning ijtimoiy masalalari ularning nazariyalari doiralaridan tashqarida qoldi.

5.3. Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning shakllari va usullari

Aholi daromadlarini tartibga solish mexanizmini ko'rib chiqishda uning uchta asosiy bo'g'inini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular o'zaro birgalikdagi harakat jarayonida odamlar turmush darajasidagi asoslangan tabaqalanishni ta'minlash bo'yicha tartibga solish mexanizmining asosiy maqsadini amalga oshiradi. Tartibga solish mexanizmining bu tri-

adasida aholi daromadlarini tartibga solishning davlat mexanizmi muhim rol o'ynaydi. Bu qoidani asoslab beruvchi obyektiv sabablar orasida bozor mexanizmining iqtisodiyotni ijtimoiy optimum holatiga olib borishga qodir emasligini, ko'p sonli odamlarning qashshoqlik chegaralarida yashashini, ishsizlarning ulkan armiyasi mavjudligini, aholi daromadlarining past darajalariga ega hududlarning soni kattaligini, iqtisodiyotning jiddiy ravishda jinoiylashganini, aholi daromadlarining keskin tabaqalanishini aytish mumkin. Aholi daromadlarini tartibga solish davlat mexanizmining muhim tarkibiy elementi, uning shakllari va usullari bo'lib, ular daromadlarga ta'sir ko'rsatish jarayonini ta'minlaydi. Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solishning budjet, soliq, pul-kredit va institutsional shakllari, shuningdek, uning asosiy usullari va instrumentlari ajratiladi (5.1-rasm).

Budjet tomonidan tartibga solish budjetning xarajat qismi hisobiga ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat) rivojlantirishning ijtimoiy dasturlari mablag' bilan ta'minlanadi va ijtimoiy transfertlar to'lovlari vositasida amalga oshiriladi. Budjet tomonidan tartibga solishning muhim instrumenti xizmatlarning ayrim turlari bepul yoki past narxli bo'lib qolganida (bepul ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari, kommunal xizmatlarning qisman to'lovi) narxlarni subsidiyalash hisoblanadi.

Davlat budjeti vositasida jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlari farovonligining mo'tadil darajasini ta'minlash uchun aholi daromadlarini qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Budjet tomonidan tartibga solish doiralarida mehnatga haq to'lashning, pensiya miqdori, yordamlarning eng kam me'yorlarini o'rnatishga katta e'tibor qaratiladi.

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning institutsional shakli aholi daromadlariga ta'sir ko'rsatishning me'yoriy-huquqiy asoslarini belgilovchi formal institutlar majmuini va bu me'yorlarning amalda qo'llanilishini amalga oshiruvchi tashkilotlar tizimini qamrab oladi.

Tartibga solish usullari davlatning ijtimoiy sohadagi maqsadlarini amalga oshirishda ma'lum rol o'ynaydi. **Davlatning tartibga solish usuli** deganda biz aholi daromadlariga ta'sir ko'rsatishning ma'lum usullarini, yo'llarini ko'zda tutamiz. Usul shu holicha ma'lum umumlashmadir, iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatish esa instrumentlar yordamida amalga oshiriladi. Davlat o'z tartibga solish faoliyatida tartibga solish usullari majmuidan foydalanadi.



5.1-rasm. Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullari.

Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining boshqa ahamiyatli elementi ham mavjud, ular – instrumentlardir. Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish "instrumentlari" so'zi ostida biz mablag'lar, vositalar (ijtimoiy transfertlar, narxlar, tariflar, soliqlar) majmuini tushunamiz, ular davlat tomonidan daromadlarning jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida bir tekis taqsimlanishini ta'minlash va odamlar daromadlari darajasidagi asoslanmagan tabaqalanishni bartaraf qilish uchun qo'llaniladi. Tartibga solish instrumentlari asosiy usullar doiralarida ajratib olingan va ularning tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Davlat tomonidan aholi daromadlariga ta'sir vositalarining kompleks ravishda qo'llanilishini mehnatga eng kam haq to'lash, soliqlar, daromadlar va transfert to'lovlari indeksatsiyasini tartibga solish asosida kuzatish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqini tartibga solishda davlat yondashuvlari o'zgarib boradi. Umumiy davlat ta'siri o'rniga tartibga solishning bilvosita usullari qo'llaniladi, ya'ni budjet sohasida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va tarif me'yorlari o'rnatiladi.

Daromadlarning quyi chegaralari davlat tomonidan qonunlarga asosan o'rnatilgan ish haqi asosida belgilanadi, uning miqdori har bir alohida mamlakatda turlicha qiymatlarga ega va xodimning yashash vositalari qiymatiga, davlatning iqtisodiy imkoniyatlariga, milliy o'ziga xoslikka, iqlimiy sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Eng kam ish haqini belgilash vazifasi xodimlarga ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni ta'minlashi mumkin bo'lgan daromadlarni kafolatlashdan iborat. Hozir u tirikchilik minimumi asosida belgilanadi. Yashash minimumi xodimni takror ishlab chiqarishning eng kam sharoitlarini ta'minlaydigan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar qiymatlarining puldagi ifodasidir. Biroq hozirgi paytda tirikchilik minimumi jismoniy minimumdan iborat va faqat xodimning jismoniy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan, ya'ni tirikchilik minimumi asosida hisoblab chiqilgan eng kam ish haqi ishchi kuchi qiymatining hatto quyi chegaralariga qadar ham yetib bormaydi va uning mo'tadil qayta tiklanishini ta'minlashga qodir emas.

Davlat daromadlar va ish haqlarini tartibga solish instrumenti sifatidagi eng kam ish haqi yordamida shu chegarani belgilaydiki, undan pastiga aholi daromadlari pasaya olmaydi. Uning darajasi mamlakat YaIM miqdoriga, yashash minimumiga kiruvchi iste'mol tovarlari va xizmatlari to'plami qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Nodavlat sektorda xodimlar mehnatiga haq to'lashni tartibga solish ijtimoiy sherikchilik doiralaridagi jamoa shartnomalari kabi instrument yordamida amalga oshiriladi. Ijtimoiy sherikchilikning mehnatga haq to'lashni tartibga solish jarayonidagi rolini oshirish uchun mamlakat, tarmoq, mintaqaviy bitimlar bilan kelishilgan me'yorlar tizimidan foydalanish, shuningdek, barcha shakllardagi mulkchilik korxonalari tomonidan ularning majburiy ijro etilishini kafolatlash zarur.

Soliqqa tortishning aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishda ahamiyati katta. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining eng muhim jihatlaridan biri soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukining yuridik va jismoniy shaxslar uchun bosqichma-bosqich kamaytirib borish evaziga korxonalarning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish bilan bir qatorda aholining real pul daromadlarining oshishi ta'minlab borilmoqda (5.1-jadval).

5.1-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasining o'zgarish dinamikasi, %

Yillar	Eng kam ish haqining 5 barobarigacha bo'lgan miqdorda	Eng kam ish haqining 5 barobaridan 10 barobarigacha bo'lgan miqdorda	Eng kam ish haqining 10 barobari va undan yuqori miqdorda
2009	12	17	22
2010	11	16	22
2011	10	16	22
2012	9	16	22
2013	8	16	22

Manba: O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam ish haqining 5 barobarigacha bo'lgan miqdorda o'rnatilgan soliq stavkasi oxirgi to'rt yil davomida 1 punktdan kamaytirib kelinmoqda, natijada soliqlarning sotsiallashuvi oshib, kam daromadga ega bo'lgan aholining moliyaviy holati yaxshilanishi uchun zamin yaratilmoqda. 2013 yilga mo'ljallangan soliq siyosatiga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga pasaytirilishi jismoniy shaxslar ixtiyorida qariyb 186

milliard so'm, shu jumladan, eng kam ish haqining 5 barobaridan kam daromad oladigan 2,7 million kishiga qo'shimcha ravishda 120 milliard so'm daromad qolishi uchun imkon berdi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlar aholining iqtisodiy xulqida aks etmaydi, chunki real daromadlarning dinamikasi va miqdori soliq me'yorlari bilan emas, eng avvalo nominal daromad narxlarining o'sishi bilan va iste'mol bozori turli segmentlarida tanqislikning o'sish darajasi bilan belgilanadi. Bu sharoitlarda soliqning aholi daromadlariga ta'sir qilish darajasini belgilash qiyinlashadi. Masalan, Rossiyada 13% miqdordagi yagona ijtimoiy soliq undirish tartibi kiritilgan. Boylarni "soyadan" chiqarish maqsadida kiritilgan bu soliq eng kam ta'minlanganlarga ko'proq zarar keltiradi. Shuningdek, yagona ijtimoiy soliqning kiritilishi ijtimoiy sohada sodir bo'layotgan yangi yo'nalishlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Jamiyatda o'z kelajagini ta'minlashning sug'urta tamoyillari endigina shakllana boshladi, ular yangi soliq kiritilgandan boshlab zaxiralar bilan aloqasini yo'qotishlari mumkin.

Aholi daromadlariga bevosita ta'sir soliq tizimining yana bir muhim tarkibiy qismi – fuqarolar mulkiga soliq solish orqali ham ko'rsatiladi. Shu bilan birga, imtiyozli soliqqa tortishning mavjud chizmasi, soliq solish bazasi bo'lib, fuqaroning mulkiga aylangan tugatilgan obyektning bozor qiymati xizmat qilganida, aholi daromadlaridagi yuzaga kelgan tabaqalanishga yordam berishni davom ettiradi.

Aholi daromadlarini tartibga solishning soliq vositalari ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirib, daromadlarni eng yuqori ta'minlanganlardan eng kam ta'minlangan guruhlarga qayta taqsimlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bunda davlatning qayta taqsimlovchi vazifasi namoyon bo'ladi. Bu barcha choralar soliq siyosati vositasida adolatni ta'minlashga ko'maklashadi va davlat budjeti hamda aholi daromadlarining o'sishiga olib keladi.

Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish uchun foydalaniladigan vositalar tizimida narxlar o'sishi va raqobatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan daromadlar indeksatsiyasi muhim rol o'ynaydi. O'tish iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitining yo'qligi shunga olib keladiki, inflyatsiyaning o'sishini to'xtatib turuvchi bozor mexanizmlari unchalik rivojlanmagan bo'lib chiqadi va narxlarning erkinligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni rag'batlantiruvchi omil bo'lmay, balki aksincha, aholi daromadlarini va ularning xarid qobiliyatini pasaytirish omili bo'lib qoladi.

Aholi daromadlari indeksatsiyasi deganda, olingan mehnat va boshqa daromadlarning xarid qobiliyatini saqlash va tiklashga qaratilgan davat mexanizmi tushuniladi. Daromadlar indeksatsiyasi jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlari (pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalar) uchun ayniqsa muhim va aholi guruhlari bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari indeksatsiyasi davlat tomonidan tartibga solish instrumenti sifatida o'zining himoyalash vazifasini bajara olmadi, chunki: birinchidan, davlatda indeksatsiya haqidagi qonunni amalga oshirish uchun vositalar yetarli emas, ya'ni muayyan vaziyatlarda jamiyatning real imkoniyatlarini belgilovchi ish tartiblari yaratilmadi; ikkinchidan, beqaror sharoitlarda aholi daromadlari o'lchamlarini belgilashda bashoratlash elementini kiritishning iloji bo'lmadi.

Aholi daromadlarini tartibga solish vositasi sifatida ijtimoiy transfertlar ham qo'llaniladi. Uning vositasida davlat tartibga solishning ijtimoiy vazifasini amalga oshiradi. Jahon amaliyotida ijtimoiy transfertlarning roli, garchi ularning tartibga solish vositasi sifatidagi rolini pasaytirishga intilish borgan sari aniqroq ko'rinayotgan bo'lsada, u mutaxassislar tomonidan turlicha baholanadi. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida ijtimoiy transfertlar jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlariga, ularning turmush darajasini oshirish uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratib, ijtimoiy muhim boyliklarga yo'l ochib beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy transfertlarning aholi daromadlariga ta'siri ularni taqsimlashning aqlga nomuvofiq tartibi sababli kam samarali bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, aholi daromadlarini tartibga solishning bu vositasi, butun iqtisodiyot singari o'tish holatida va isloh qilishga muhtoj.

Aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish shakllari, usullari va vositalarini tahlil qilish tartibga solish mexanizmining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun quyidagilar zarurligini ko'rsatadi:

– mehnatga eng kam haq to'lashdan tabaqalashgan, yashash minimumi o'lchamidagi hududiy tafovutlarni mehnatga eng kam haq to'lash bazasi sifatida hisobga oluvchi haq to'lashga asta-sekin o'tishni amalga oshirish;

– mehnatga minimal haq to'lash o'lchamini pul bilan belgilangan ifodasida emas, balki tegishli hududlarning yashash minimumi qiymatidan foizlarda belgilash;

– iqtisodiy faol aholining mehnat faoliyatini ularning pul daromadlariga adolatli soliqqa tortish yo'li bilan rag'batlantirish;

– o'rtacha va past daromadli odamlarga soliq yukini kamaytirib, uni yuqori ta'minlangan fuqarolar daromadlari va mulklariga nisbatan oshirish;

– aholining kam ta'minlangan guruhlari daromadlarini, ularni indeksatsiyalash vositasida oshirish;

– insoniy sarmoyaga investitsiyalarni ta'minlab, sust ijtimoiy transfertlardan faol transfertlarga o'tish.

Shunday qilib, aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solish shakllari, usullari va vositalari, uning tarkibiy qismi bo'lib, davlat organlarining bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida aholi daromadlarini ta'minlash maqsadida unga ta'sir ko'rsatish jarayonini ta'minlaydi. Davlat daromadlarga ta'sir qilish shakllari va usullarini tanlashda birinchilikni iqtisodiy usullarga beradi, lekin bozor subyektlarining taqsimlash jarayonidagi manfaatlarini hisobga olishni mo'ljallovchi muvofiqlashtirish usullarining roli ham o'sib boradi.

5.4. Aholi daromadlarini inflyatsiyaga qarshi yo'nalishda tartibga solish

Aholi daromadlarini tartibga solishda inflyatsiyaning o'rni katta bo'lib, mazkur uslubda iqtisodiy siyosatning ikki turi qo'llaniladi:

– budjet tanqisligini qisqartirishga, kredit ekspansiyasini cheklashga, pul emissiyasini to'xtatib turishga qaratilgan siyosat;

– ish haqining o'sishini tirikchilik minimumi darajasi bilan belgilanuvchi va narx indeksi bilan muvofiqlashtiriluvchi daromadlar indeksatsiyasi bilan bog'lashni maqsad qilgan narxlar va daromadlarni tartibga solish siyosati.

Davlat narxlarni tartibga solishni to'g'ridan-to'g'ri aralashuv yo'li bilan amalga oshiradi. Narxlarning shakllanishiga davlat subsidiyalari (ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchiga maxsus qo'shimcha to'lovlar, dotatsiyalar to'lash yo'li bilan) bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning bevosita ta'siri uning tovarlar, xizmatlar iste'molidagi ulushi katta bo'lgan tarmoqlarda (sanoatning mudofaa tarmoqlaridagi davlat buyurtmalari, qurilishning bir qator kichik tarmoqlarida) sodir bo'ladi. Shuningdek, davlat tashqi savdo narxlariga ham ta'sir ko'rsatadi

(eksportni rag'batlantirish; soliqlardan ozod qilish, imtiyozli kreditlar va boshqa imtiyozlarni taqdim qilish; tashqi savdoda bojlarni o'zgartirish; miqdoriy cheklovlarni kiritish yoki bekor qilish). Bundan tashqari, davlat sektori tovarlariga (xizmatlariga) qayd qilingan narxlarni, ularning nodavlat sektoridagi oshish chegaralarini o'rnatishi mumkin.

Soliqqa tortishning daromadlar siyosatiga ta'siri. Davlatning moliya-viy-kredit va soliq mexanizmidan qanday foydalanishiga ishlab chiqarish omillari bo'yicha yangi yaratilgan taqsimot ko'p jihatdan bog'liqki, bu omillardan asosiylari mehnat, yalpi ichki mahsulot keskin tushib ketgan va iqtisodiyotdagi band bo'lganlar sonining kamayishi qonuniy bo'lgan sharoitlarda mavjud ish haqlarining kamayishidir.

Soliq siyosati mamlakatning rivojlanish xususiyatlarini va istiqbollarini belgilovchi iqtisodiyot sektorlari – sanoat, fan, madaniyatdagi mehnat nufuzisiz va kam to'lanuvchi bo'lib qolayotgan bandlik tarkiblari va mehnatga haq to'lash sxemalarini rag'batlantiradi va mustahkamlaydi. Soliqlar mexanizmini "sozlash" maqsadlarida soliq yuklamalarini iqtisodiyot sektorlari o'rtasida qayta taqsimlash ham lozim. Gap soliqning og'ir yukini ishlab chiqarish korxonalaridan, birinchi navbatda, soliq olinmalarining oqlab bo'lmaydigan past darajasi yuzaga kelgan moliya va savdo sohasiga ko'chirish haqida bormoqda.

Daromadlarning adolatli taqsimlanishi ishlab chiqarish inqirozini to'xtatib turish va kelajakda iqtisodiy o'sishga o'tish uchun zarur bo'lgan shart deb qabul qilinishi kerakligini izohlovchi to'rtta asosiy omil mavjud.

Birinchidan, yuqori daromadli guruhlarning jamg'armalarga va mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya qo'yishga ishtiyoqlari yo'q, balki sarmoyani chet elga olib chiqish va import tovarlari iste'molini mo'ljallab ish tutadi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish qisqargan va aksariyat aholining daromadlari jismoniy minimumga qadar pasaygan, ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlarini iste'mol qilish baravar qisqargan chog'da mehnat zaxiralari sifatining keskin yomonlashuvi sodir bo'ladi.

Uchinchidan, mamlakat tovarlari va xizmatlarini iste'mol qilishni mo'ljallagan kam to'lanuvchi (kam daromadli) aholi guruhlari daromadlari darajasini oshirish mamlakat ishlab chiqarishi rivojlanishini, investitsiya faolligini va bandlikning o'sishini rag'batlantiradi.

Va, nihoyat, *to'rtinchidan,* daromadlarni taqsimlashga nisbatan bir maromdagi yondashuv – ruhiy jihatdan muhim ijobiy omil. Agar aholi

turli guruhlari o'rtasida daromadlar darajalaridagi mulkiy notenglik va tabaqalanish ko'payib borsa, unda yetarlicha yuqori ma'lumotli, lekin past daromadli aholi guruhlari tomonidan islohotlarga qarshilik ko'rsatish xavfi saqlanib qoladi.

Takliflar iqtisodiyoti maktabining soliq siyosati sohasidagi tavsiyalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bu maktab vakillari soliqlarning ko'payishi xarajatlar va narxlarning o'sishiga olib keladi va oxir oqibatda iste'molchilar zimmasiga yuklatiladi, deb hisoblaydi. Soliqlar investitsiyalashni, mablag'larning yangi texnologiyalarga, ishlab chiqarishni takomillashtirishga sarflanishini to'xtatib turadi. Keynsdan farqli ravishda, taklif iqtisodiyoti tarafdorlari G'arb mamlakatlarining soliq siyosati inflyatsiyani to'xtatmaydi, balki kuchaytiradi, iqtisodiyotni barqarorlashtirmaydi, balki ishlab chiqarishning o'sishini rag'batlantiruvchi omillarga putur yetkazadi, deb da'vo qiladi.

Taklif iqtisodiyoti investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadlarida soliqlarni qisqartirishni ma'qullaydi. Rivojlangan soliqqa tortish tizimidan voz kechish (yuksak daromadlarning oluvchilari ishlab chiqarishni yangilashda va mahsuldorlikni oshirishda yetakchidir), tadbirkorlikka, ish haqiga va dividendlarga soliq me'yorlarini pasaytirish taklif qilinadi. Soliqlarni kamaytirish tadbirkorlarning daromadlari va jamg'armalarini oshiradi, foiz me'yorlari darajasini pasaytiradi, natijada jamg'armalar va investitsiyalar o'sadi. Ish haqi oluvchilar uchun soliqning kamayishi qo'shimcha ishga qiziqishni va qo'shimcha ish haqi olishni ko'paytiradi, ishga qiziqishlar o'sadi, ishchi kuchi takliflari esa oshadi.

O'z mulohazalarida taklif iqtisodiyoti nazariyotchilari Laffer egri chizig'iga tayanadi (Laffer egri chizig'i budjet daromadlarining soliq me'yorlariga bog'liqligini asoslagan amerikalik iqtisodchi ismiga ko'ra nom olgan). Uning ma'nosi shundaki, eng so'nggi me'yorlarning va umuman soliqlarning pasayishi ishlab chiqarishga kuchli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Me'yorlar qisqargan vaqtda soliqqa tortish bazasi oqibat natijada oshadi: modomiki mahsulotlar ko'proq chiqarilar ekan, unda soliqlar ham ko'proq yig'iladi. Mazkur holat qisqa muddatda sodir bo'lmaydi. Lekin, asl maqsadiga ko'ra soliqqa tortish bazasining kengaytirilishi soliq tushumlaridagi soliq me'yorlarining pasayishi tufayli yuzaga kelgan yo'qotishlar o'rnini qoplashga qodir.

Taklif iqtisodiyotining ba'zi boshqa tavsiyalarini ham eslash lozim. Madomiki, soliqlarning pasayishi budjetning daromad qismining qisqa-

rishiga olib borar ekan, tanqislikdan "qutqarishning" turli usullari taklif qilinadi. Masalan, ijtimoiy dasturlarni kamaytirish, byurokratik apparatni qisqartirish, kam samarali xarajatlardan qutulish. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi bir necha asosiy vazifalarning bajarilishiga qaratilgan.

Birinchidan, soliq tizimi fiskal-qayta taqsimlash vazifasini muvaffaqiyatli hal qilishi kerak, ya'ni tadbirkorlar va aholi daromadlarini qayta taqsimlash yo'li bilan davlat budjetining daromad qismini moliyaviy boyliklar bilan ta'minlashi kerak (rivojlangan mamlakatlarda soliqlar davlat budjetining o'rtacha 90 %gacha daromadini qoplaydi).

Ikkinchidan, soliq tizimi shunday tarzda harakat qilishi kerakki, u eng kamida ishlab chiqarish va har qanday iqtisodiy faoliyatga rag'batlantiruvchi omillarga zarar keltirmasin.

Uchinchidan, soliqqa tortish tizimi ijtimoiy adolat tamoyili bilan ham ancha uzviy bog'lanadi.

To'rtinchidan, soliqqa tortish tizimi shakllanishiga u yoki bu soliqlarni belgilashdagi tashkil qilish va hisoblashning yengilligi, ularni to'plashning samaradorligi, soliqlar barqarorligini saqlash imkoniyatlari, ya'ni u yoki bu soliqlarning tez-tez takrorlanib turadigan va buning ustiga keskin o'zgarishlari zaruriyatining yo'qligi talablari katta ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchidan, soliq yukining turli budjet darajalari – mamlakat, mintaqaviy va mahalliy darajalar o'rtasidagi mohirona taqsimoti amalga oshirilishi kerak.

Soliqning u yoki bu mamlakat soliqqa tortish tizimini tavsiflovchi birinchi umumiy ko'rsatkich – bu barcha soliq tushumlarining ulushi, shuningdek, yalpi milliy mahsulotdagi (YaMM) markaziy (mamlakat) darajaga soliq tushumlarining ulushi hisoblanadi.

Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin (5.2-jadval).

Soliq tizimining muhim umumlashtiruvchi ko'rsatkichi – soliq tushumlarining turli budjet darajalari bo'yicha taqsimlanishidir. Soliqlarning alohida budjet darajalari o'rtasida taqsimlanishiga yondashuvlar turlicha bo'ladi.

Birinchi yondashuv yagona davlat soliqlarining ma'lum nisbatlarda alohida darajalar o'rtasida bo'linishidan iborat. Natijada mintaqaviy va mahalliy soliqlar tegishli daraja budjetlari uchun o'zlarining ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinda qolishlari mumkin.

5.2-jadval

Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot (milliard so'm)

Asosiy budjet ko'rsatkichlari	2012 yil	2013 yil	2013 yil jamiga nisbatan foizda
Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlari	20614,1	25104,9	100
Shu jumladan: Bevosita soliqlar	5196,4	6853,1	27,3
Bilvosita soliqlar	11187,8	13039,4	51,9
Resurs soliqlari	2746,4	3755,5	14,9
Boshqa daromadlar	1483,5	1456,9	5,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1887-sonli qarori

Ikkinchi yondashuv yuqori budjet darajalaridan eng quyi darajalar (transfertlar) foydasiga mablag'lar o'tkazishdan iborat. Bunday yondashuv qo'shimcha yondashuv sifatida unitar va federativ tuzumga ega deyarli barcha mamlakatlarda tarqalgan, shu bilan birga, federativ tuzumga ega mamlakatlarda transfertlar ko'pincha moliyaviy jihatdan zaif mintaqalarni nafaqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash rolini, balki moliyaviy jihatdan muvaffaqiyatli mintaqalarga odatda miqdori bo'yicha eng kam transfertlar berilgan taqdirda federal markazlashuv timsoli rolini ham o'ynaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Minimal ijtimoiy standartlarga misollar keltiring.
2. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi nimada?
3. Aholi daromadlarini tartibga solishning qanday usullari mavjud?
4. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning qanday shakllarini bilasiz?
5. Ish haqini tenglashtirish siyosatining mohiyati nimada?
6. Aholi daromadlarini tartibga solishning klassik va noklassik yo'nalishlarini tushuntirib bering.
7. Soliqqa tortishning daromadlar siyosatiga ta'sirini tushuntirib bering.
8. Aholi daromadlarini inflyatsiyaga qarshi tartibga solishning qanday yo'llarini bilasiz?
9. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning qonuniy asoslarini tushuntirib bering.

VI bob. AHOLI DAROMADLARINING TABAQALASHUVI

6.1. Aholi daromadlarining tabaqalashuvi haqida tushuncha va uni o'lchash usullari

Aholi daromadlari ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-geografik omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Ko'rinib turganidek, barcha omillar ijtimoiy maqsadlar bilan bog'liq: siyosiy tuzum ijtimoiy dasturlar, daromad siyosati va ish haqi yo'nalishini iqtisodiy siyosat doiralarida belgilab beradi; jins, yosh, insonlar qobiliyati, ularning bardoshi, oila instituti (nikoh munosabatlari, oilada farzand mavjudligi) insonning ma'lum kasbga, mutaxassislikka mansubligi, unda u yoki bu darajadagi bilim, malaka va ish tajribasining mavjudligi umumiy daromad qiymatiga ta'sir qiladi. Inson ijtimoiy foydali mehnat bilan bandmi yoki band emasmi, oilada yashaydimi yoki oilasiz, bolami, o'smirmi, o'quvchimi, yollanma ishchimi ekanligi yoki yo'qligida namoyon bo'luvchi insonning ijtimoiy maqomi mashg'ulot yoki faoliyat turi, ishlab chiqarish turi, mehnat sharoitlari, umuman iqtisodiy siyosatning shakllanish darajasi hamda qisman daromadlar va ish haqi siyosati (davlat, mintaqaviy, mahalliy, firma ichidagi) singari umumiy daromad miqdoriga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Daromadlarning shakllanishida yashash va ishlash joyining tabiiy-iqlim sharoitlari, joylashish zichligi va xususiyati, mintaqaning milliy o'ziga xosligi, unda yashovchi aholi mentaliteti ancha ahamiyatlidir.

Umuman olganda, aholi daromadlarini yuzaga keltiruvchi omillar uch darajali bo'ladi:

Birinchi darajaga insonning o'ziga, uning hayotdagi o'rniga, inson kapitali va mehnat imkoniyatlariga (bilim, malaka, tajriba, mashg'ulot turi, lavozim maqomi, mehnat xarajatlari va natijalariga, kasb va mansabda o'sish mavjudligiga, sarmoyaning uning istalgan ko'rinishida (ta'lim, kasb, moliyaviy) mavjudligiga bog'liq bo'lgan omillar kiradi;

Ikkinchi darajaga (mikrodarajaga) inson mehnat faoliyati bilan band bo'lgan ish joyi bilan: tarkibiga uning korxonasi, muassasasi, tashkiloti, firmasi kiradigan tarmoq bilan; korxonaning mulkchilik shakli bilan, uning tashkiliy-huquqiy shakli bilan; firmaning tovar, moliyaviy bozorlardagi va mehnat bozoridagi o'rni bilan; korxonanning texnik jihozlanganligi bilan, uning joylashgan o'rni bilan; jamoadagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarining rivojlanganligi bilan bog'liq omillar kiradi:

Uchinchi darajaga (makrodarajaga) umuman mamlakat iqtisodiyoti va mintaqaviy iqtisodiyot: iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi, yalpi milliy mahsulot va milliy daromad qiymati, narx siyosati va soliqqa tortish tizimi, mehnat munosabatlarini tartibga solishda ijtimoiy sherikchilik institutlarining rivojlanganligi bilan bog'liq omillar kiradi. Omillarning bu guruhi ijtimoiy transfertlar tizimini shakllantiradi.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan omillar daromadlarning xodimning mehnatga munosabatiga va uning xizmatlariga, mehnatning alohida va jamoaviy natijalariga va umuman iqtisodiyotning samaradorligiga bog'liqligini, shuningdek, aholi daromadlar, shu jumladan, mehnat daromadlari darajasiga ko'ra tabaqalanishini, qatlamlarga ajralishini ko'rsatadi.

Daromadlar va ish haqining mavjud tengsizligi aholisining farovonlik darajasidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlar uchun xosdir. Shu sababga ko'ra, daromadlarni o'lchash muammosi u yoki boshqa mamlakatning siyosiy tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga bog'liq bo'lmagan, umumiy muammodir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar darajasidagi yoki ish haqining bitta band odamga daromadlar darajasidagi tafovutlar **daromadlarning tabaqalanishi** yoki **ish haqining tabaqalanishi** deb ataladi.

Daromadlarning (ish haqining) tabaqalanishi – jamiyat a'zolarining ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol sohasidagi o'rnidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar bilan bog'liq bo'lgan obyektiv hodisadir. Siyosatchilar adolat tamoyiliga va fuqarolar tengligiga amal qilinishiga tashvish soluvchi demokratik davlatda birovlarning haddan ortiq boyligi va boshqalarining qashshoqligi yo'l qo'yib bo'lmaydigan hodisa, deb e'tirof etadi.

Hozirgi sharoitda aholi tomonidan olinadigan daromadlarda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi – ularning turli-tumanligi oshdi, tarkibi murakkablashdi, tabaqalanishga yo'nalish ochiq-oydin namoyon bo'ldi. Aholining real daromadlari tizimli ravishda kamaymoqda va bu ishlab chiqarishning qudratli cheklagichi bo'lib hisoblanadi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar nafaqat import tovarlar raqobati bilan, balki aholi keng qatlamlarining xarid qobiliyatiga ega talabining yo'qligi bilan ham to'qnash keldi. Aholining katta pul mablag'lariga ega yuqori daromadli guruhlari o'z daromadlarini jamg'arma, ko'chmas mulk va chet el valyutasiga yo'naltirishga intilmoqda.

O'tgan yillarda, qayd qilinishicha, xodimlarning turli guruhlari mehnatiga haq to'lashda, ularning mehnatga qo'shgan hissasi, malakasi va mehnat sharoitlarini yetarlicha hisobga olmasdan, tenglashtiruvchilik yo'nalishi kuzatilgan. 1970- va 1980-yillarda daromadlarning tabaqalanish koeffitsienti deyarli o'zgarmasligicha qolgan. Aholi daromadlarida ish haqi asosiy manba bo'lgan. Uning ulushiga turli yillarda barcha daromadning 75,0 % idan 90,0 % igacha to'g'ri kelgan. Yashash uchun mablag' ishlab topish imkoniyatlari cheklangan.

Bozorga o'tish bilan ahvol o'zgardi: daromadlarning guruhlararo, firmalararo, tarmoqlararo, tuman va mintaqalararo tabaqalanishi kuchaydi. Undan tashqari, o'tish davrida tabaqalanishning o'sishi shu bilan bog'liq ediki, aholi bir qismining mehnatiga haq to'lash ilgarigi tizimda amalga oshirilardi. Shu bilan birga, mamlakatda bozor iqtisodiyoti qonunlariga asosan harakat qiluvchi va yuksak daromad oluvchi yangi ijtimoiy qatlam (menejer, tadbirkor, bankir, ko'chmas mulk egalari) paydo bo'lib ulgurgan edi. Umuman olganda, bozor munosabatlariga o'tish unga asoslangan mamlakatlarda aholi katta ulushining qashshoqlashuvi bilan tavsiflanadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan hayot ko'rsatishicha, tengsizlik miqdorlari oshadi.

Bozor qonunlariga mos ravishda, jamiyatda qabul qilingan va qonuniy ruxsat berilgan usullar bilan topilgan daromadlardagi farqlar **adolatli tengsizlikni**, g'ayriqonuniy, ya'ni man etilgan usullar bilan topilgan daromadlardagi farqlar **adolatsiz tengsizlikni** paydo etadi. Adolatsiz tengsizlik xufyona (man etilgan) iqtisodiy faoliyat bor joyda yuzaga keladi (6.1-jadval).

6.1-jadval

Noqonuniy faoliyat turlari*

Ishlab chiqarish faoliyati	Noishlab chiqarish faoliyati
a) Kontrabanda: – tamaki mahsulotlari (ulgurji va chakana savdo); – qurol-yaroq; – spirtli ichimliklar; – oziq-ovqat mahsulotlari; – avtomobillarni olib qochish.	a) Talonchilik va o'g'irlik: – avtomobillar; – san'at ishlanmalari; – kvartiralar; – muassasalar; – yuk avtomobillaridan tovarlar; – yengil avtomobillardan tovarlar; – seyflar; – qimmatbaho buyumlar

b) Narkotik moddalarni ishlab chiqarish va sotish	b) Boshqa jinoyatlar: – garovga olish; – firibgarlik: – ta'magirlik
d) Fohishabozlik	d) Huquqi bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan qonuniy noishlab chiqarish faoliyati
e) Yashirin ko'ngil ochdi o'yinlar	
f) Yashirin abortxonalar	
g) Korrupsiya (pora berish, sotib olish)	
h) O'g'irlik	
i) Tovar markalarini qalbakilashtirish	
j) Qalbaki qog'oz pullarni chiqarish	
k) Olib qochilgan tovarlar bilan operatsiyalar	
l)Oziq-ovqat mahsulotlari sortlarini o'zgartirish	
m) Huquqi bo'lmasdan turib, ruxsat etilgan ishlab chiqarish faoliyat turlari bilan shug'ullaish: – noqonuniy tovarlarni ishlab chiqarish (spirtli ichimliklar); – noqonuniy xizmatlarni ko'rsatish; – litsenziyasi bo'lmay bir qancha faoliyat turlari bilan shug'ullanish.	

Manba: Гойибназаров Б.К. Аҳоли турмуш даражасини статистик баҳолаш. – Т.: Фан, 2005. – 83-84 б.

Ilmiy kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, xufyona iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi omillarni 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Iqtisodiy omillar:

– soliqlarning yuqoriligi (daromad solig'i, foydadan soliqlar va boshqalar);

– xo'jalik faoliyati sohalarining qayta o'zgartirilishi (sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, savdo, xizmat ko'rsatish);

– moliya tizimidagi inqiroz va uning milliy iqtisodiyotga salbiy ta'siri;

– xususiylashtirish jarayonining nomukammalligi;

– qayd qilinmagan iqtisodiy tuzilmalar faoliyati (qishloq xo'jaligida: aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishi; savdo sohasida: oziq-ovqat va kiyim-kechak bozorlarida individual savdo faoliyati; qurilishda: byurtmaga uy-joylarni qurish, ta'-

mirlash; transport sohasida: shaxsiy avtomobillarda odam tashish; fan sohasida: xususiy repititorlik, tarbiyachilik, enagalik; sanoat tarmog'ida: uy xo'jaligida spirtli ichimliklar ishlab chiqarish, kiyim-kechaklar, poyabzal, mebel, avtomobil va boshqa maishiy xizmatlar ta'miri).

2. Ijtimoiy omillar:

– aholi turmush darajasining pastligi. Bu iqtisodiy faoliyatning yashirin turlari rivojlanishini ta'minlaydi;

– ishsizlik darajasining yuqoriligi va qisman ishlovchilarning barcha faoliyat turlari bo'yicha olayotgan daromadlarining kamligi;

– yalpi ichki mahsulotning notekis taqsimlanishi.

3. Huquqiy omillar:

– qonunning nomukammalligi;

– noqonuniy va kriminal iqtisodiy faoliyat bo'yicha huquqiy himoyalash tuzilmalari faoliyatining yetarli emasligi;

– iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha koordinatsion mexanizmning takomillashmaganligi[1].

Amaliyotda daromadlardagi tafovut darajasi eng kam, o'rtacha va eng yuqori ish haqi (daromad) oluvchi xodimlarning yoki aholining mutlaq va nisbiy sonini statistik taqsimlash usuli bilan – ish haqi yoki jami daromadning miqdori bo'yicha o'lchanadi. Bunday o'lchov uchun asos tarmoq, mintaqa va aholining turli guruhlaridagi daromad darajasi bo'yicha guruhlangan muayyan tartibdagi qatorni tuzish uchun qo'llanuvchi statistik axborotdir.

Tarkibiy ko'rsatkichlar (mutlaq va nisbiy). Aholining yuqori daromadga ega guruhlari pul daromadlarining past daromadli guruhlariga nisbatan ortiqligi miqdorini belgilaydigan daromadlarning taqsimlanish koeffitsienti turmush darajasining chuqurroq tahlilidir.

Xalqaro amaliyotda quyidagi tabaqalanish koeffitsientlaridan foydalaniladi:

– fondlar koeffitsienti – aholining taqqoslanayotgan guruhlari ichidagi daromadlarning o'rtacha miqdorlari nisbati yoki ularning daromadlari umumiy hajmidagi ulushi;

– tabaqalanishning detsil koeffitsienti – u aholining eng ta'minlangan 10,0 % daromadlarining eng kam ta'minlangan 10,0 % o'rtasidagi farqni ko'rsatadi:

---

1. Ғойибназаров Б.К. Аҳоли турмуш даражасини статистик баҳолаш. – Т.: Фан, 2005. – 84 б.

– tabaqalanishning kvantil koeffitsienti - u aholining eng ta`minlangan 25,0 % daromadlarining eng kam ta'minlangan 25,0 % o'rtasidagi farqni ko'rsatadi;

– stratifikatsiya koeffitsienti – kambag'allarning ta`minlanganlar soniga nisbati.

Tebranish yoki tarqalish ko'rsatkichlari. Tahlil amaliyotida, garchi kamroq bo'lsada, variatsiya ko'rsatkichlari qo'llanadi, masalan, ish haqining (daromadlarning) eng yuqori va eng kam darajalarini solishtirish. Variatsiya va differensiatsiya o'rtasida tafovut mavjud. Variatsiya sof tasodifiy omillar belgisiga ta'sir sababli, tartibsiz va har xil yo'nalgan ta'sir sababli yuzaga keladi. Natijada tasodifiy variatsiyada belgining o'rtacha qiymatidan (ya'ni, o'rtacha arifmetik qiymatidan) har ikki tomonga og'ishlar ehtimoli bir xil va taqsimot simmetriyali bo'ladi. Differensiatsiya umumiylik ichidagi ma'lum yo'nalishga ega qonuniy tafovutlarni ifodalaydi. Bu tafovutlar o'rtacha darajadan oshadigan qiymatlar ehtimoli, nisbatan past qiymatlar ehtimolidan kam bo'lib chiqadi (taqsimot asimmetriyali bo'ladi).

Belgining o'rtacha darajasiga oid tebranish ko'rsatkichlari – o'rtacha chiziqli og'ish, shuningdek, dispersiyali tahlilda qo'llanuvchi dispersiya ko'rsatkichlari qat'iyroqdir (bu ko'rsatkichlar "Ekonometrika" va "Statistika" kurslarida batafsil ko'rib chiqiladi).

Differensiatsiya va asimmetriyaning turli o'lchagichlari (mo'tadil taqsimot egri chizig'i (simmetriya); taqsimotning og'ma egri chizig'i (asimmetriya). Daromadlar va ish haqlari tabaqalanishini tahlil qilishda taqsimotning og'ma egri chizig'i o'lchovlari va yo'nalishlarini baholash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kvantil koeffitsientidan foydalanish birmuncha osonroq.

Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida Lorents egri chizig'idan foydalaniladi (6.1-rasm).

Chizmaning yotiq chizig'ida aholi guruhlarining foizdagi ulushi, tik chizig'ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlarning mutloq teng taqsimlanishi imkoniyati (burchakni teng ikkiga bo'luvchi) 0E chiziqda ifodalangan bo'lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko'rsatadi. Ya'ni aholining 20% barcha daromadlarning 20%ni, aholining 40% daromadlarning 40%ni, aholining

60% daromadlarning 60%ni olishini bildiradi va h.k. Demak, 0E chizig'i daromadlarning taqsimlanishidagi mutloq tenglikni ifodalaydi.



6.1-rasm. Lorents egri chizig'i.

Shuningdek, nazariy jihatdan mutloq tengsizlikni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda aholining ma'lum guruhlari (20%, 40 yoki 60% va h.k.) hech qanday daromadga ega bo'lmay, faqat bir foizi barcha 100% daromadga ega bo'ladi. Chizmadagi 0FE siniq chizig'i mutloq tengsizlikni ifodalaydi.

Real hayotda mutloq tenglik va mutloq tengsizlik holatlari mavjud bo'lmaydi. Balki aholining ma'lum guruhlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishi notekis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishini Lorents egri chizig'i deb nomlanuvchi 0E egri chizig'i orqali kuzatish mumkin. Aholi guruhlari ulushi va daromad ulushini birlashtiruvchi egri chiziqdan ko'rinadiki, aholining dastlabki 20%ga daromadlarning juda oz (taxminan 3-4%gacha) qismi to'g'ri keladi. Keyingi guruhlarga to'g'ri keluvchi daromad ulushi ortib boradi. Daromadning eng katta qismi (deyarli 60%) aholining so'nggi 20%ga to'g'ri keladi. Bu guruh chegarasi ichida ham daromadlar notekis taqsimlangan, ya'ni dastlabki 10% taxminan 20% daromadga ega bo'lsa, keyingi 10%ga daromadning deyarli 40% to'g'ri keladi va h.k.

Mutloq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorents egri chizig'i o'rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa, ya'ni Lorents egri chizig'i 0E chizig'idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo'ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutloq teng bo'lsa, bunda Lorents egri chizig'i va bissektrisa o'qi bir-biriga mos kelib, farq yo'qoladi.

Yalpi daromadning aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Djini[2] коэффициенти) ko'rsatkichi qo'llaniladi. Djini koeffitsienti chizmadagi Lorents egri chizig'i bilan mutloq tenglik chizig'i o'rtasidagi yuzaning 0FE uchburchak yuzasiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Djini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQShda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti va BMTga a'zo mamlakatlar uchun taklif etilgan tasniflashga muvofiq tengsizlikning quyidagi darajalari farqlanadi (6.2 va 6.3-jadval):

6.2-jadval

Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti metodikasi bo'yicha Jini indeksi ko'rsatkichiga bog'liq holda daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik darajasini baholash mezoni

Ko'rsatkich	Baholash mezoni
0,20-0,22	Tabaqalanish darajadasi **juda past** bo'lgan davlatlar
0,24-0,26	Tabaqalanish darajadasi **past** bo'lgan davlatlar
0,29-0,31	Tabaqalanish darajadasi **o'rtacha** bo'lgan davlatlar
0,33-0,35	Tabaqalanish darajadasi **yuqori** bo'lgan davlatlar

6.3-jadval

BMTning metodikasi bo'yicha Jini indeksiga bog'liq holda daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik darajasini baholash mezoni

Ko'rsatkich	Baholash mezoni
0,41-0,42	Kritik chegara (ko'rsatkich)
0,35-0,37	Me'yoriy ko'rsatkich
0,25-0,26	Optimal ko'rsatkich

2. Korrado Jini (1884-1965) - italiyalik statistik olim va demograf. Asosiy asari: "O'zgarish va nodoimiylik".

Daromadlar tabaqalanishi bilan bir qatorda daromadlar tengsizligidan yuqori bo'lgan shaxsiy iste'molning tabaqalanishi ham mavjud. Iste'mol tengsizligi darajasini iste'mol savati va alohida hududlar va ijtimoiy guruhlar bo'yicha oilalarni tanlab tekshirishlar orqali ham aniqlash mumkin.

6.2. Aholi daromadlarining tabaqalashuviga ta'sir etuvchi omillar

Aholi daromadlari qator omillar ta'sirida o'zgaradi va bu omillarning ta'sir kuchi hamda yo'nalishlari turlicha. Daromadlar miqdori va ularning farqlari qator omillar ta'siri bilan bog'liq (6.2-rasm).



6.2-rasm. Aholi daromadlarining tabaqalashuviga ta'sir etuvchi omillar.

Endi yuqoridagi omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

Ijtimoiy-siyosiy omillar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jamiyatni ijtimoiy jihatdan qayta qurishni taqozo etadi, bu esa jamiyat va insonlar

hayoti hamda faoliyatining mehnat, moliya-kredit, huquq, investitsiya, texnik, ijtimoiy-maishiy sohalaridagi katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Iqtisodiyotni demonopollashtirish, mulkning turli shakllarining rivojlanishi taqsimot munosabatlariga o'zgarishlar olib keladi. Masalan, mehnat taqsimotining qachonlardir yagona, rasman e'lon qilingan tamoyili o'rniga mehnat va uning natijalari, sarmoya (mulk), ishchi kuchi qiymati bo'yicha taqsimot keladi va obyektiv jihatdan amalga oshadi.

Aytish joizki, bozor iqtisodiyotida tovarlar (xizmatlar) bozoridagi raqobat muhim rol o'ynaydi, u korxonalarning va alohida xodimlarning ham daromadlarining shakllanishiga ta'sir qiladi. Bozorga o'tishning dastlabki bosqichida korxonalar (firmalar) mehnat daromadlarining taxminan bir xil iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tenglashuvi sodir bo'ladi, (bu tovarlar, xizmatlar va mehnat xarajatlarining taxminan bir xil iste'mol sifatini ta'minlaydi). Chet el mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor munosabatlari fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan innovatsiyalarni joriy qilish orqali mehnatning o'rtacha ijtimoiy zarur xarajatlari borgan sari ko'proq faol rol o'ynay boshlaydi. Bu bir korxonalarning sinishiga, (keragidan ortiq qo'shimcha mahsulot me'yori sifatida ustama foyda oluvchi) boshqalarining esa gullab yashnashiga olib kelishi mumkin, bu xodimlar daromadlarining o'sishiga ham yordam beradi. Bu barcha jarayonlar aholining ish bilan bandligiga, ishchi kuchi narxiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda hozirgi paytda ish bilan bandlik davlatning ijtimoiy siyosatiga, shu jumladan, mehnat bozorini (ish bilan bandlikni, ish vaqtini tartibga solish, ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish, ijtimoiy kafolatlar tizimini shakllantirish) tartibga solish sohasiga bog'liq. Bunda ishchi kuchining siljib turishidagi cheklovlarni olib tashlash, yashash joyini tanlash erkinligi (masalan, uy-joy bozorini rivojlantirish orqali), jamoaviy shartnomalar rolini oshirish, ishchi kuchini yollashning shartnomaviy shaklini kengaytirish ma'lum rol o'ynaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy omillar aholining turli guruhlari daromadlari shakllanishining boshqa omillari yo'nalishi va ta'sir kuchini ma'lum darajada belgilab beradi.

Ijtimoiy-demografik omillar – aholining alohida guruhlarida daromadlar yosh va jins bo'yicha farq qiladi, negaki bu yerda daromadlar shakllanishining turli manbalari va ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok

etishning har xil imkoniyati harakat qiladi. Undan tashqari, yuksak jismoniy bardosh ato qilingan insonga mahsulot ishlab chiqarishning yuqoriroqligi tufayli kattaroq daromad olishga imkon beradi. Iste'dod, yuksak qobiliyatning mavjudligi qisqaroq muddatlarda aqliy o'sishga, yangi g'oyalar, ixtirolar va kashfiyotlar ishlab chiqishga yordam beradi va bu o'z navbatida fan-texnika taraqqiyoti hamda millatning ma'naviy rivojini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-kasbiy omillar daromadlar miqdoriga va ularning tabaqalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir kasb (ixtisos) bilim, tajriba, mahoratning muayyan darajasini (ko'pincha ish stajini) talab qiladi. Alohida kasblar va ixtisosliklar malaka darajasi bilan farqlanadi. Masalan, past malakali xodimlar (yordamchi ishchilar, sanitariya-maishiy va ishlab chiqarish imoratlari farroshlari, yukchilar, tabelchi, garderob xizmatchisi) pastroq daromadli kasblar hisoblanadi, shu bilan birga, yuqoriroq daromadli xodimlar kasblari ham (menejerlar, yuristlar, bank xodimlari, uchuvchilar, kosmonavtlar) mavjud. Turli kasblar xodimlarining ko'proq qismi uchun esa ish haqi miqdori boshqa bir xil sharoitlarda malakaga bog'liq.

Ijtimoiy-maqomiy omillar yuqorida sanab o'tilgan omillar bilan o'zaro chambarchas bog'liq va ko'p jihatdan ular tomonidan belgilanadi. Har bir insonning ijtimoiy maqomi hayoti va faoliyatining har xil bosqichlarida uning jamiyatdagi o'rni va turli manbalardan daromad olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Masalan, mulk (sarmoya) egasi yollanma xodimga o'zidagi daromadga qaraganda ko'proq daromad olishga yo'l qo'ymaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy maqom odamlarning bilim darajasiga, ijtimoiy va iqtisodiy xulqiga bog'liq. Ijtimoiy xulq o'zini tutish madaniyatida, bo'sh vaqt shakllarida, munosabatda, turmush tarzida ifodalanadi. Iqtisodiy xulq faoliyat turini tanlashda, ishni yo'qotish holatidagi harakatlarida ifodalanadi. Masalan, mutaxassislar ixtisosligiga muvofiq bo'lmagan, lekin yaxshi to'lanadigan ishga o'tishga kamdan-kam rozi bo'ladilar. Nafaqaga yashashni va to'g'ri keladigan ishni kutishni rahbarlar istamaydilar. Yuksak malakali xodimlarning katta qismi esa, agar bu ishga joylashish, mehnat daromadini olish uchun ham zarur bo'lsa, qayta o'qishga tayyor.

Ijtimoiy maqom qisman shaxsning vijdonlilik, halollik, ma'suliyatlilik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik, ahloqiy ahvol, kirishimlilik, xayrixohlik, sabrlilik, xo'jayinlik tuyg'usi kabi sifatlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar daromadlar miqdori va tarkibiga eng ko'p darajada ta'sir qiladi. Ularni sanab o'tilgan omillarni hisobga olmasdan amalga oshirish amri mahol. Bu yerda, birinchi navbatda, faoliyat turiga (yollanma mehnat, tadbirkorlik va mustaqil mehnat faoliyati, shaxsiy yordamchi va uy xo'jaliklarida ishlash, vositachilik, maslahat berish), ish bilan bandlik variantlariga (ish bilan bandlikning turlari, shakllari, vaqti va xususiyatining birga qo'shilishi), ishlab chiqarish turiga (iqtisodiyot tarmoqlari), mulkchilik shakllariga, mehnat sharoitlariga bog'liqlik ahamiyatlidir.

Amalda bu omillarning uyg'unligi yollanma xodimlar, mulk egalari, tadbirkorlar va boshqa shaxslarning daromadini ko'paytirish (kamaytirish) imkonini beradi. Ish bilan bandlik turlarining birga qo'shilishi daromadlarning o'sishiga olib borishi shubhasiz. Masalan, zararli sharoitlardagi mehnatga mo'tadil sharoitlardagiga qaraganda ko'proq haq to'lanadi. Ish vaqtidan tashqari bajariladigan ishga ham oshirilgan haq to'lanadi. To'liqsiz ish bilan bandlik daromad miqdorining pasayishiga olib keladi, chunki mehnatga haq mehnatning vaqtiga yoki unumdorligiga bog'liq holda to'lanadi.

Daromad miqdori korxonani (firmani) tanlashga ham bog'liq, u mulkchilik shakliga, korxona turiga, uning tovarlar (xizmatlar) va mehnat bozoridagi o'rniga bog'liq. Agar korxona (tarmoq) monopolist bo'lsa, unda u, tabiiyki, o'z shartlarini buyuradi va daromadlarning o'sishi uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu sababli gaz sanoati, elektr energetikasi, aloqa xodimlari ish haqi va daromadlari o'rtacha darajadan ancha yuqori. Aksionerlik jamiyatlari xodimlari davlat korxonalariga nisbatan mulkdan qo'shimcha daromadga ega bo'ladi. Mulkchilik shakli mehnatga haq to'lashning tashkil qilinishida mustaqillik va erkinlikni oldindan belgilab qo'yadi. Budjet sohasida uni tartibga solish imkoniyatlari cheklangan, negaki mehnatga haq to'lash bu yerda davlat tomonidan belgilanadi. Xususiy korxonalarga bu jihatdan deyarli to'la erkinlik berib qo'yilgan.

Ijtimoiy-geografik omillar hududiy kenglik, tabiiy-iqlim sharoitlari, joylashish xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, O'zbekiston turli iqlim sharoitlari, foydali qazilmalarning notekis joylashganligi bilan ajralib turadi. Bu esa mamlakatning turli hududlarida turmush vositalari qiymatining farqlanishiga olib keladi, natijada tegishli daromadlarni ta'minlash

va ularni tartibga solish talab qilinadi. Daromadning (ish haqining) miqdoriga alohida hududlarning tarmoq tarkibi ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnatga haq to'lash miqdori Toshkent, Navoiy viloyatlarida yuqoriroq, chunki mazkur viloyatlarda sanoat tarmoqlari rivojlangan. Toshkent shahrida esa moliya-bank muassasalari va davlat boshqaruv organlarining ko'p to'planganligi bois yuqoridir. Past ish haqi qishloq xo'jaligi yo'nalishiga ega va yengil sanoat ustunlik qiluvchi hududlar uchun xos. Ish haqi miqdori hududiy mehnat bozorining holati, kasaba uyushmalarining faolligi bilan chambarchas bog'liq.

Iqtisodiyotda shunday qonuniyat borki, aholi jon boshiga olingan daromadlarni o'sishi ishlab chiqarish darajasi va uning o'sish sur'atlariga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Aholi jon boshiga hisoblangan daromad ishlab chiqarishning hajmiga va aholining soniga bog'liq bo'ladi. Aholi jon boshiga daromadlar o'sishi uchun ishlab chiqarishning o'sishi aholining ko'payishidan tez borishi talab qilinadi.

Shuni hisobga olish kerakki, daromadlar uch darajali omillar ta'sirida shakllanadi:

– *birinchi daraja* – xodimning o'ziga, shaxsiga bog'liq bo'lgan omillardir (hayotdagi o'rni, ijtimoiy imkoniyat – bilim, malaka, tajriba, mehnatning jadalligi, kasblar va bandlik turlarining birga qo'shilishi);

– *ikkinchi daraja* (mikrodaraja) – bu xodim band bo'lgan korxona bilan (firma bilan) bog'liq omillardir (tarmoq, mulkchilik shakli, korxona turi, tovarlar va mehnat bozoridagi ahvol, texnik jihozlanganlik, joylashish o'rni, jamoaviy-shartnomaviy munosabatlarning rivojlanishi);

– *uchinchi daraja* (makrodaraja) – umuman iqtisodiyot (yoki hududlar iqtisodiyoti) bilan bog'liq omillar – iqtisodiy kuchlar, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy-maishiy soha, ijtimoiy sherikchilik ahvoli.

Qayd qilib o'tganimizdek, daromadlar bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatning alohida hamda jamoaviy natijalariga, umuman, iqtisodiyotning samaradorligiga bog'liq.

Daromadlarga narxlar va tariflar o'zgarishining ta'sir darajasini aniqlash uchun turmush qiymati indeksi deb ataluvchi iste'mol narxlari indeksidan foydalaniladi. Bu indeks asosiy davrga qaraganda hozirgi davrda aholining oziq-ovqat mahsulotlarini, tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qanchalik ko'p mablag' sarflay boshlaganini (ya'ni, iste'mol xarajatlari qanchalik o'sib borayotganini) ko'rsatadi. Narxlarning o'sishi

iste'mol tarkibining o'zgarishi (oziq-ovqatga xarajatlarning oshishi, qimmatbaho predmetlarni, uzoq muddatga foydalaniluvchi tovarlarni sotib olishga xarajatlarning kamayishi) bilan birga kechadi va bu holat aholining kambag'allashuviga olib keladi.

Soliqlar va majburiy chegirmalar aholi real daromadlarining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Demak, soliqlar qancha kam bo'lsa, aholida shunchalik ko'proq pul va ehtiyojlarni qondirish, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan ijtimoiy-maishiy buyumlar sotib olish, jamg'armalarini o'stirish uchun imkoniyatlar qoladi. O'zbekistonda amaldagi soliqqa tortish tizimi xorijda qabul qilinganidek, jismoniy shaxslarni emas, balki yuridik shaxslarni ko'proq soliqqa tortish tamoyiliga asoslanadi.

Shunday qilib, daromadlarning tabaqalanishi ko'p sonli va turli-tuman omillar bilan belgilanadi hamda ularni tartibga solish aholining turmush darajasini ham asosliroq tartibga solishga imkon beradi.

6.3. Aholi turmush darajasining hududiy tabaqalanishi

Aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat mamlakat hududlarining iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni hisobga olishni talab qiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hududlarining iqtisodiy rivojlanishi va turmush darajasidagi hududiy tabaqalanishning o'sishini cheklash uchun shart-sharoitlar yaratish yo'lida quyidagi choralar amalga oshirildi:

– mahalliy boyliklardan foydalanish asosida yangi korxonalar joylashtirishni rag'batlantirish;

– ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

– hududiy maqsadga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish: ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq ijtimoiy infratuzilmasini isloh qilish va rivojlantirish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash, ish o'rinlari, aholining ijtimoiy zaif himoyalangan guruhlarining ijtimoiy muhofazasini ta'minlovchi davlat dasturlarini yaratish.

Hukumat tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi hududiy tabaqalanishning keskin va nazorat qilib bo'lmas darajada o'sishining oldini olishga imkon berdi.

Aytish joizki, hududlarda yuqori darajadagi tabaqalashuv qator ichki va tashqi xatarlarni vujudga keltiradi (6.3-rasm).



6.3-rasm. Yuqori darajadagi tabaqalashuvning oqibatlari

Mintaqalarning aholi turmush darajasi bo'yicha tabaqalanishini xolis baholash maqsadida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan respublika mintaqalari farovonligi va insoniy rivojlanish darajasini tavsiflovchi usullar va maxsus indekslar ishlab chiqiladi. Bu usullarni qo'llash natijasida respublika hududlari ijtimoiy rivojlanish darajasi bo'yicha farqlab chiqiladi.

Aholi turmush darajasidagi mintaqaviy tafovutlarni yumshatish siyosati. Hududlar turmush darajasidagi haddan ortiq tafovutlar, garchi obyektiv sabablarga ega bo'lsada. davlatning maqsadga qaratilgan siyosati vositasida yumshatishni talab qiladi (6.4-rasm).



6.4-rasm. Ijtimoiy tabaqalanishni tartibga solish mexanizmlari

O'zbekistonda buning uchun daromadlarning budjetlararo qayta taqsimlanishi (kamroq rivojlangan hududlarni ko'proq rivojlanganlari hisobiga dotatsiyalash) va yagona ijtimoiy himoya tizimi (barcha fuqarolar yashash joyidan qat'iy nazar, ijtimoiy himoya huquqiga teng ega) kabi vositalardan faol foydalaniladi. Biroq, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini tenglashtirish uchun shart-sharoitlar yaratishning ahamiyati bundan kam emas. Bu yo'nalishda iqtisodiy siyosatning asosiy tayanchi iqtisodiy qoloq hududlardagi maxsus investitsiya loyihalarini rag'batlantirishdir.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tabaqalanish darajasini pasaytirishdagi muhim rolni qishloq aholisi farovonligini oshirishning eng muhim manbayi sifatida, ayniqsa agrar sektordagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish o'ynashi kerak.

Aytish joizki, aholi farovonligining integral bahosi quyidagi ko'rsatkichlar asosida belgilanadi:

– aholi turmushining ta'minlanish darajasi – toza ichimlik suvidan foydalanish va issiqlik energiyasidan foydalanish darajasi;

– aholi o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning xarid qobiliyati;

– aholi daromadlarining taqsimlanishi;

– turmush darajasini har kimning o'zi tomonidan baholanishi.

Aholining turmush ta'minoti darajasi ikkita ko'rsatkichdan, ya'ni uy xo'jaliklarining vodoprovod bilan ta'minlanganligi va aholining elektr energiyasi bilan ta'minlanish, gazlashtirish darajasidan iborat.

Aholi farovonligining integral bahosini aniqlash uchun ko'rsatkichlarning quyidagi eng minimal va maksimal qiymatlaridan foydalaniladi. (6.4-jadval).

6.4-jadval

Aholi farovonligining integral bahosi

Ko'rsatkichlar nomi	Minimal qiymat	Maksimal qiymat
Ichimlik suvidan foydalanish darajasi, %	0	100
Issiqlik energiyasidan foydalanish darajasi, %	0	100
O'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadning xarid qobiliyati (iste'mol tovarlarining standart to'plamlari soni), birlikda	0	3
Daromadlarning taqsimlanishi. Daromadlarning to'planish koeffitsienti	1	20
Turmush darajasini o'zi tomonidan baholanishi (o'z turmush darajasini yaxshi va maqbul deb baholovchi uy xo'jaliklarining ulushi), %	0	100

Har bir ko'rsatkich uchun daromadlarning taqsimlanishidan tashqari, quyidagi formula bo'yicha alohida indekslar hisoblanadi:

Ii = (haqiqiy qiymat – min.qiymat) / (maks.qiymat – min.qiymat)

Daromadlarni taqsimlash ko'rsatkichi indeksi ko'rsatkichning investitsion xususiyatini hisobga olgan holda (qiymat qancha kichik bo'lsa, shunchalik qulayroq ko'rsatkich) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

IRDi = (haq.qiymat – maks.qiymat) / (min.qiymat – maks.qiymat)

O'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadning xarid qobiliyatini belgilash uchun Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tavsiya qilingan, har bir hudud bo'yicha mahalliy iste'mol bozori minimal

narxlari bo'yicha baholangan oziq-ovqat mahsulotlarining standart to'plami qiymatidan foydalaniladi. Hisob quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$PSD_i = SRD_i / SPK_i$$

Bu yerda: PSD_i – i sohada o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadning xarid qobiliyati;

SRD_i - i – sohadagi o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromad;

SPK_i - i – sohadagi iste'mol savati qiymati.

Aholi farovonligi indeksi har bir hudud uchun uning tarkibiy qismlari indekslarining o'rtacha arifmetik qiymati sifatida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$IBN_i = [(2/3 \times IDV_i) + (1/3 \times IDT_i) + IPSD_i + IRD_i + ISS_i : 4$$

Bu yerda: IBN_i – aholi farovonligi indeksi;

IDV_i – ichimlik suvidan foydalana olish indeksi;

IDT_i – issiqlik energiyasidan foydalanish darajasi indeksi;

$IPSD_i$ – aholining xarid qobiliyati indeksi;

IRD_i – aholi daromadlarining taqsimlanish indeksi;

ISS_i – aholining ijtimoiy holati indeksi.

Inson rivojlanishini integral baholash quyidagi ko'rsatkichlar asosida belgilanadi:

– bolalar va onalar o'lim darajasi;

– ishsizlik darajasi;

– kasbiy ta'limga jalb qilish;

– o'rtacha oylik hisobida xarid qobiliyatining hududiy paritetiga to'ldirish bilan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot.

Inson rivojlanishini integral bahosini aniqlash uchun ko'rsatkichlarning quyidagi eng minimal va maksimal qiymatlaridan foydalaniladi (6.5-jadval).

6.5-jadval

Inson rivojlanishining integral bahosi

Ko'rsatkich nomi	Minimal qiymat	Maksimal qiymat
Bolalar o'lim darajasi (1000 bolaga nisbatan)	0	100
Onalar o'lim darajasi (10000 yangi tug'ilganlarga nisbatan)	0	100

Ishsizlar darajasi, %	0	25
Tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi, yosh	20	83,2 (2010 yil Yaponiya)
Ta'lim olishning o'rtacha davomiyligi, yil	0	13,2 (AQSH, 2000 yil)
Ta'lim olishning kutilayotgan davomiyligi, yil	0	20,6 (2002 yil, Avstraliya)
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM, AQSH dollari	163 (2008 yil, Zimbabve)	108 211 (1980 yil, BAA)

Hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

– kam ta'minlangan qatlamlar ulushini kamaytirishga va sharoiti og'ir zonalarda (tog', suv xo'jaligi va ekologiyasi tang hududlar, kichik shaharlar) ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan maqsadli hududiy ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kompleks dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– har bir qishloq ma'muriy tumani nuqtayi nazaridan mahallalar va guzarlar asosida qishloq joylaridagi xizmatlar sohasini tezkor rivojlantirish bo'yicha harakatlar dasturini ishlab chiqish;

– har bir hudud (viloyat, shahar, tuman, qishloq aholi punktlari) o'ziga xosligini hisobga olgan holda, ijtimoiy sohaning alohida sektorlarini (uy-joy kommunal xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash) rivojlantirishning maqsadga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– aholi, shu jumladan, qishloq punktlarini pasportlashtirishni ko'zda tutuvchi, aholini kelajakda turli joylarga uzoq muddatlarga o'rnashtirish chizmasini ishlab chiqish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va istiqbol mezonlari bo'yicha turlarga ajratish;

– ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirish, investitsiya jozibadorligini oshirish, qishloq joylarida unchalik katta bo'lmagan sanoat korxonalarini joylashtirish sohasida hududlarni uyg'un birlikda rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishini ta'minlash;

– markaziy va mahalliy hokimiyat organlari vazifalari va javobgarligini aniq chegaralash;

– mahalliy hokimiyat organlarining tegishli darajadagi budjetni vujudga keltirish va amalga oshirishdagi vakolatlarini va mustaqilligini kengaytirish;

– budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, mahalliy hokimiyat organlari roli va javobgarligini oshirish;

– mahalliy hokimiyatni isloh qilish, mahalliy darajadagi hokimiyat ijrochi va qonun chiqaruvchi tarmoqlarining aniq bo'linishi;

– hududiy statistikani, uy xo'jaliklarini tekshirish uslubiyotini, ijtimoiy tadqiqotlarni takomillashtirish;

– hududlarda aholi turmush darajasi monitoringining samarali tizimini tashkil qilish.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholi daromadlarining tabaqalashuvi deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi daromadlarining tabaqalashuviga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Xufyona iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi omillarni sanab bering.
4. Noqonuniy faoliyat turlarini sanab bering.
5. Aholi farovonligining integral bahosi qanday ko'rsatkichlar asosida belgilanadi?
6. Oziq-ovqat mahsulotlari savati – bu nima?
7. Aholi turmush darajasining hududiy tabaqalanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
8. Minimal iste'mol budjeti deganda nimani tushunasiz?
9. Elitar iste'mol budjetining o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
10. Iste'mol budjetining qanday turlarini bilasiz?
11. Hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq?

VII bob. KAM TA'MINLANGANLIK KO'RSATKICHLARI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI

7.1. "Kam ta'minlanganlik" tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Kam ta'minlanganlik – bu jamiyatning katta qismi uchun xos bo'lgan, mo'tadil turmush tarzini olib borish uchun moddiy boyliklarning yetishmasligi sababli yuzaga keladigan holatdir. Kambag'allik aholining bir qismi hayot va faoliyatining jamiyatda qabul qilingan asosiy sharoitlarga eng kam ehtiyojlarini qondira olmagan holatida yuzaga keladi. Bu hodisa tuzilish, shakllari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, barcha jamiyat uchun xosdir.

Kam ta'minlanganlikning sabablari, hajmi va shakllari har xil bo'lib, ular quyidagicha:

– kambag'allikning (yashash minimumining, ayniqsa bozor munosabatlari sharoitlarida) belgilangan chegarasining doimiy oshib borishi;

– aholining turli qatlamlari uchun iste'mol narxlarining o'sish tovonini to'lash mexanizmining takomillashmaganligi;

– aholining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvi jarayonining o'ziga xos xususiyatlari;

– shaxsning jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o'rni – insonning jamiyatning u yoki bu guruhiga (yoshi, ma'lumoti, kasbi, yashash joyi) tegishliligi.

Kambag'allikning qator mezon va ko'rsatkichlari mavjud. Kambag'allikning ko'pchilik tashkilot va olimlar tomonidan qabul qilingan mezoni – bu o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va tirikchilik minimumining o'zaro nisbatidir (kamroq, teng, birmuncha yuqoriroq). Shuningdek, mamlakat bo'yicha o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va o'rtacha ish haqining o'zaro nisbati ham mezon bo'lishi mumkin. Kambag'allarga o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi mamlakat bo'yicha ish haqining $^1/_3$ dan kam bo'lganlarni kiritiladi. Bundan tashqari kambag'allik tushunchasiga oila xarajatlarida oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan xarajatlar ulushi bo'yicha ham aniqlik kiritish mumkin. Agar oziq-ovqatga xarajatlar 50 foizdan ortiqroq bo'lsa, oilani kambag'allar qatoriga kiritiladi (boy oilalarda bu miqdor 5–6 %ni tashkil qiladi).

Shuningdek, kambag'allik darajasini daromadlarning aholi orasida taqsimlanishi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot miq-

dori, o'lim, balog'at yoshidagi aholi savodxonlik darajasi va kutilayotgan umrning davomiyligini tahlil qilib ko'rish orqali ham aniqlash mumkin.

Mamlakatdagi kambag'allik darajasining asosiy ko'rsatkichi – yashash minimumidan past darajaga ega bo'lgan aholining ulushi. Bunday vaziyat iste'mol tovarlari va xizmatlariga narxlarning o'sishi, inflyatsiyaning umumiy darajasi, aholi daromadlari va xarajatlari tarkibining o'zgarishi, majburiy to'lovlar ulushining oshishi bilan bog'liq. Masalan, kommunal xizmatlarining to'liq to'loviga o'tish oila budjetida to'lovlar ulushining o'sishiga va, aksincha, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga sarf qilinuvchi mablag'lar ulushining pasayishiga olib keladi.

Bugungi kunda ilmiy muomalaga kambag'allikning jiddiyligi, kambag'allikning keskinligi kabi ko'rsatkichlar ham kira boshladi.

Kambag'allikning jiddiyligi kambag'al aholi daromadlari tirikchilik minimumi darajasiga yetishi uchun qancha mablag' zarurligini, kambag'allikning keskinligi "kambag'al aholi" toifasi daromadlarining tabaqalanishini ifodalaydi.

Kambag'allikning asosiy sabablaridan biri shaxsning jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o'rnidir. Gap shundaki, aholining qator guruhlari ijtimoiy jihatdan kam himoyalangan hisoblanadi va kambag'allarning asosini tashkil qiladi. Bular nafaqaxo'rlar, pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar, bevalar, yetim bolalar va ota-onalar qarovisiz qolgan bolalar, qochoqlar va majburiy migrantlar.

Undan tashqari, kambag'allarning katta qismini ishsizlar (shu jumladan, yoshlar), to'la bo'lmagan ish kunida bandlar yoki majburiy ta'tildagilar; ish haqi bo'yicha qarzi bor, moliyaviy jihatdan nochor korxonalar va singan korxonalarning ishchilari va xizmatchilari kabi toifalar tashkil qiladi. O'quvchi yoshlar ham qisman kambag'allar toifasiga kiradi.

Kambag'allikning tabiiy holatini ko'p bolali, tugalmas oilalar, uzoqqa cho'zilgan kasallik sababli kambag'allashgan, tabiiy ofatlar tufayli mulkini yo'qotgan shaxslar, moslashuvi qiyinlashgan shaxslar guruhi tashkil qiladi.

Kambag'al bo'lib qolishning eng kam xavfi oilada jon boshiga to'g'ri keladigan yuqori daromadga ega shaxslar, poytaxt markazida yashovchi guruhlarda, rahbarlarda, xususiy sektorda ishlovchilarda, mehnat bozorida talabga ega ixtisosliklar bo'yicha oliy yoki tugallanmagan oliy ma'lumotga ega shaxslarda va mehnatga kirishayotgan 29 yoshgacha bo'lgan yoshlarda (katta yoshdagi xodimlarga qaraganda joy topish osonroq) kuzatiladi.

Kambag'allik miqyosini 10 foiz eng ko'p va 10 foiz eng kam ta'minlangan aholi guruhlari daromadlarining tabaqalanish ko'rsatkichi tavsiflaydi.

Kambag'allikning vaqt bo'yicha (turg'un, vaqtinchalik), daromadning yashash minimumi bilan o'zaro nisbati bo'yicha (kambag'allik, qashshoqlik, kam ta'minlanganlik) shakllari mavjud.

Turg'un kambag'allik – bu uzoq muddat davom etadigan kambag'allik bo'lib, u ayniqsa qishloq joylari uchun xos. Vaqtinchalik kambag'allik aholi uchun ish haqining muntazam to'lanmasligi sababli sodir bo'ladi.

Daromadning yashash minimumi bilan o'zaro nisbati bo'yicha kambag'allikning uch shakli ajratib ko'rsatiladi:

– kambag'allik (daromadlar yashash minimumi budjetning oziq-ovqat qismi qiymatini ta'minlamaydi);

– qashshoqlik (daromadlar yashash minimumi darajasida);

– kam ta'minlanganlik (daromadlar yashash minimumi budjetidan oshib ketadi, lekin minimal iste'mol budjetigacha yetib bormaydi).

Jahon amaliyotida kambag'allikni aniqlashning uchta asosiy konsepsiyasi mavjud:

1. **Kambag'allikning mutlaq konsepsiyasi**. Ushbu konsepsiya kambag'allik chegarasi tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Kambag'allik chegarasi mavjud daromad, yalpi daromad yoki iste'molning shunday darajasiki, bu darajadan past bo'lganda odam kambag'al hisoblanadi. Mutlaq kambag'allik ko'pincha iste'mol yoki daromad darajasi kambag'allik chegarasidan past bo'lgan odamlar yoki uy xo'jaliklar soni orqali o'lchanadi. Jahon banki mutlaq kambag'allik chegarasi sifatida kuniga 1,25 AQSh dollari hisobiga (dollar kursi xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblanadi) kun kechirishni belgilab qo'ygan.

2. **Kambag'allikning nisbiy konsepsiyasi**. Qambag'allikning nisbiy ko'rsatkichi kambag'allik nisbiy chegarasini belgilaydi va aholining amaldagi daromadini ana shu darajaga nisbatan taqqoslaydi. Aholining real daromadlari ortib borayotgan sharoitda taqsimlash o'zgarmasa, nisbiy kambag'allik avvaldagidek saqlanib qoladi. Bundan nisbiy kambag'allik konsepsiyasi tengsizlik konsepsiyasining tarkibiy qismi degan xulosa chiqarish mumkin. Biroq bu tengsizlik qancha kam bo'lsa, nisbiy kambag'allik shunchalik kam bo'lishi ma'nosini bermaydi yoki aksincha.

Nisbiy kambag'allik konsepsiyasining asoschisi, ingliz sotsiologi P.Taunsend bu kategoriyani iqtisodiy resurslarning yetishmasligi oqi-

batida mazkur jamiyat ko'pchilik a'zolari uchun odatiy turmush tarzini davom ettirishning imkoniyati bo'lmasligi sifatida ta'riflagan. U o'zining kambag'allikning tahlil etish usulini ko'p o'lchamli deprivatsiya tushunchasiga asoslagan. Bunday holatni u "shaxs, oila yoki guruhning jamiyat yoki umuman millat manzarasidagi kuzatilayotgan va asoslanadigan nochor ahvoli" sifatida tushungan. P. Taunsend tomondan ko'po'lchamli deprivatsiya usuli qo'llanilib, unda moddiy deprivatsiyaga (ovqatlanish, kiyim-kechak, turar joy sharoitlari, uzoq muddat foydalaniladigan ashyolar, yashash joyi muhiti, mehnat sharoitlari va xususiyatlari) ijtimoiy deprivatsiya ko'rsatkichlari (ish bilan bandlik, bo'sh vaqtni o'tkazish, ta'lim va hokazolar xususiyatlari) qo'shilgan.

Nisbiy kambag'allik ko'lamlari mutlaq kambag'allik ko'lamlariga mos tushmaydi. Mutlaq kambag'alikka barham berilishi mumkin, lekin nisbiy kambag'allik hamisha saqlanib qoladi. Ya'ni tengsizlik jamiyatning ajralmas belgisidir. Jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar turmush standartlari ortgan paytda ham nisbiy kambag'allik saqlanib turadi va hatto ortadi.

3. **Sub'ektiv kambag'allik konsepsiyasi**. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, faqat shaxsning o'zi kambag'alligini belgilashi mumkin. Sub'ektiv kambag'allik darajasini aniqlashga turlicha yondashuvlar mavjud. Qancha odam o'zini yoki do'stlarini kambag'al deb hisoblashi mumkinligini aniqlasa bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy fikrga asoslangan holda sub'ektiv kambag'allik chegarasini aniqlash, shundan so'ng uni aholi daromadi bilan taqqoslash mumkin.

Kambag'al hisoblanadigan aholi qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilishda pul va natura xisobidagi nafaqalarning rivojlangan tizimi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Mazkur tizim bozor iqtisodiyotiga ega barcha mamlaktlarda mavjud va kambag'allik salbiy oqibatlarini yumshatishda muhim ijtimoiy amortizator vazifasini o'taydi.

Kambag'allikni o'lchashni ikki bosqichga: aniqlash va hisoblashga bo'lish mumkin. Kambag'allik nihoyatda ko'p ma'noli va munozarali tushuncha hisoblanadi, chunki bu tushuncha nafaqat oziq-ovqat va uy-joy kabi moddiy boyliklar bilan, balki odamlar turmushining sifati, shuningdek, jamiyat hayotida faol va foydali ishtirok etish imkoniyatlari bilan ham bog'liq holda aniqlanadi.

Ko'pchilik empirik tadqiqotlar shkala ko'rinishida ifodalanuvchi farovonlik ko'rsatkichlarini qo'llash va ularni oldindan belgilangan

minimal daraja bilan taqqoslashga asoslangan. Ko'pincha shkala ko'rsatkichlari sifatida, garchi bu turmush darajasining yagona ko'rsatkichlari bo'lmasada, uy xo'jaliklarining daromadlari va xarajatlaridan foydalaniladi. Farovonlikning miqdoriy ko'rsatkichlarini tanlash aslida yetarlicha shubhali. Ulardan nazariy jihatdan eng yaxshisi alohida shaxsning real iste'molidir. Normal holatda individ iste'moli oziq-ovqat va boshqa mahsulot iste'moli singari, xizmatlar, shu jumladan, ijtimoiy xizmatlar iste'molini ham qamrab oladi. Amalda esa amalga oshirilgan iste'mol darajasini o'lchash uchun ko'pincha daromad va xarajat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, chunki ularni bevosita o'lchash osonroq. Ularning afzalligi yana shundaki, ular kambag'allikning pul bilan belgilangan ifodadagi ta'rifini beradi. Biroq bunday ko'rsatkichlar o'z cheklovlariga ega. Pul ta'rifidan foydalanishda pul olingan sharoitlar, ish haqi olishga sarf qilingan vaqt hisobga olinmaydi. Bu mulohaza ko'pincha gender muammolarni ko'rib chiqishda yuzaga keladi. Pul ko'rinishidagi daromadlar turmush sharoitlari, ish, zarur iste'mol boyliklaridan foydalana olish huquqi, bo'sh vaqt byudjeti haqida ham hech qanday dalolat bermaydi.

Aholini turmush kechirishning eng kam miqdori va iste'mol budjetining eng kam miqdori asosida daromadlari darajasi bo'yicha tabaqalash moddiy ta'minoti darajasi turlicha bo'lgan quyidagi guruhlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

– "kambag'al" oilalar – ularda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad turmush kechirishning eng kam miqdoridan past darajada yoki unga teng;

– "kam ta'minlangan" oilalar – ularda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad turmush kechirish uchun eng kam miqdor bilan eng kam iste'mol budjeti miqdori o'rtasida joylashgan;

– "ta'minlangan" oilalar – ularda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad eng kam iste'mol budjeti miqdori va oqilona iste'mol budjeti miqdori o'rtasida joylashgan;

– "boy" oilalar – ularda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad oqilona iste'mol budjeti darajasidan yuqoridir.

7.2. Kam ta'minlanganlik indikatorlari va ko'rsatkichlari

Kam ta'minlanganlikni o'lchash kambag'allik darajasini yoki kambag'allik chegarasidan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushini,

kambag'al oilalarning moddiy yetishmovchilik darajasini, shuningdek, kambag'al oilalarning daromad darajasi bo'yicha tabaqalanish darajasini belgilashni anglatadi.

Kam ta'minlanganlikni o'lchash jarayonining o'zi uy xo'jaliklarini (milliy va mintaqaviy darajalarda saralab olingan vakillar tanlab tekshiriladi) tekshirishga, ularni daromadlar va iste'mol darajasiga ko'ra farqlashga asoslangan.

Kam ta'minlanganlikning tarqalishini baholashning asosiy ko'rsatkichi sifatida kambag'allik koeffitsientidan yoki ularning umumiy miqdoridagi kambag'al uy xo'jaliklari (aholi) ulushidan foydalaniladi. Kambag'allik koeffitsienti oddiy formula yordamida aniqlanadi:

$$P = q / H$$

Bu yerda: P – kambag'allik koeffitsienti;

q – kambag'allik chegarasidan past daromadga, iste'molga ega uy xo'jaliklari (aholi) soni;

H – uy xo'jaliklarining (aholining) umumiy soni.

Shuni alohida ta'kidlash lozim, bu ko'rsatkichdan foydalanish cheklangan, chunki u kambag'allikning faqat tarqalishini tavsiflaydi, lekin kambag'allik xususiyatini ochib bera olmaydi.

Kam ta'minlanganlikni yanada aniqroq tavsiflash va uning tabiatini aniqlash uchun kambag'allikning quyidagi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

– kambag'allik oralig'i (kambag'allik darajasi) indeksi – kambag'allik chegarasining uy xo'jaliklari xarajatlari darajasidan yoki kambag'allarning o'rtacha daromadlaridan oshib ketish darajasi. Bu ko'rsatkich kambag'allikning jiddiyligini aks ettiradi va kambag'allikdan chiqishga zarur xarajatlar qiymatini belgilash uchun foydalanish mumkin. Bu ko'rsatkich kambag'allikning kuchlilik darajasini aks ettirmaydi.

– kambag'allikning kuchlilik indeksi. Bu indeks har xil daromadli oilalarning o'rtacha o'lchab ko'rilgan kattaligi orqali aniqlanadi hamda quyidagi ikki tarkibiy qismning yig'indisi: kambag'allik darajasi va kambag'allar o'rtasidagi tengsizlik bilan bog'liq bo'lgan yig'indidan iborat.

Kambag'allik ko'p darajali hodisa hisoblanib, uning mohiyati faqatgina daromadlar yoki iste'mol bo'yicha kambag'allikdangina iborat bo'lib qolmaydi. Agar inson taraqqiyoti uning munosib va sog'lom tur-

mush kechirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo'lsa, unda bu ma'noda kambag'allik – bunday imkoniyatlarning yo'qligi yoki jiddiy cheklanganligidir.

Kambag'allik insonning uchta asosiy yo'nalish – sog'liq (uzoq umr ko'rish orqali), bilim va yashash sharoitlari bo'yicha yetishmovchiliklarining turli jihatlarini aks ettiruvchi maxsus ko'rsatkich bo'lib, u yuksak daromadga ega mamlakatlar uchun, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida hisoblanuvchi kambag'allik indeksi deb ataladi.

Qayd qilish kerakki, kambag'allik indeksi daromadlarning iste'molga nisbati bo'yicha aniqlanadi. BMT tashkiloti kuniga 1,25 dollardan kam daromad bilan yashovchi aholini kambag'allar guruhiga kiritadi.

Bundan tashqari, kambag'allikni baholashda uy xo'jaliklarini tekshiruv ma'lumotlariga ham asoslaniladi. Bu tekshiruvlar har yili o'tkaziladi va 10000 uy xo'jaligidagi reprezentativ tanlovni qamrab oladi. Kambag'allikning oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli bo'yicha chegarani belgilashda aholi jon boshiga sutkasiga 2101 kilokaloriya iste'molga xarajatlar qiymati bo'yicha hisoblab chiqiladi. Bu chegaradan pastroq xarajatlarning o'rtacha darajasiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari kambag'allar toifasiga kiritiladi. Uy xo'jaliklaridagi iste'mol qiymatini aniqlash paytida oilaviy xarajatlarning bir maromdaligi, shu bilan birga, bevosita uy xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot iste'moli ham hisobga olinadi.

Kambag'allar toifasiga kiritilgan uy xo'jaliklarida bu holatga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

– aholining qishloq joylarida istiqomat qilishi;

– 16 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 3 yoki undan ortiq bo'lgan oilalarning mavjudligi;

– oila boshliqlarining o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganligi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ish bilan bandlik har doim ham kambag'allikdan xalos bo'lishga yordam bermaydi. Ya'ni, iste'mol uchun past xarajatlarga ega uy xo'jaliklarining katta qismi (50% atrofida) budjet sohasida ishlovchi xodimlarga, korxonalarning kam haq to'lanuvchi xodimlariga to'g'ri keladi. Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan xodimlarda kambag'allikka uchrash ehtimoli yuqori bo'ladi.

Kam ta'minlanganlikning jiddiyligi va keskinligi. Bir sutkada 2101 kkal iste'molga asoslangan kambag'allikni belgilash uslubiyoti uning jiddiyligi va keskinligini aynan mos baholashga imkon bermaydi. Biroq

aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikning jiddiyligi yuqori emas, chunki kambag'al oilalarning aksariyati kambag'allik chegarasining o'rnatilgan me'yorlariga yaqin bo'lgan iste'mol xususiyatiga (1900 kkaldan 2100 kkalgacha) ega. Shu bilan birga, ko'pchilik hududlarda (qishloq joylari bundan mustasno) kambag'allikning keskinligi ham yuqori darajada emas, biroq bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakatlarda katta hududiy tafovutlar mavjud bo'ladi.

7.3. Kam ta'minlanganlikka ta'sir etuvchi omillar

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kam ta'minlanganlikka quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:



7.1-rasm. Kam ta'minlanganlikka ta'sir etuvchi omillar.

Endi yuqorida ko'rsatilgan omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

1. Demografik o'sish. Kambag'allikning nisbatan yuqori darajasini oldindan belgilab bergan omillardan biri o'tgan asrning 70-80-yillardagi tug'ilishning yuqori darajasi bo'lib, u o'zining eng yuqori ko'rsatichiga yetgan, ya'ni aholi o'sha davrda yiliga o'rtacha 3,6 %dan ko'paygan. Bugungi kunga kelib mamlakatdagi demografik tendensiyalar normal holatda bo'lishiga qaramasdan quyidagi holatlar kuzatilmoqda:

– tug'ilish darajasining pasayishi;
– aholi o'sish sur'atlarining kamayishi;
– ikki yil oraliq bilan tug'ish holatlarining keskin qisqarganligi;
– ko'pchilik oilalarning oilaning o'rtacha o'lchamini rejalashtirishi.

2. Ish bilan bandlik. Ish bilan bandlik aholi iqtisodiy farovonligining oshishiga yordam beradi. Biroq, ish bilan bandlik oilani kambag'allikdan har doim ham ishonchli ravishda kafolatlay olmaydi. Bu qisman quyidagilar bilan izohlanadi:

– ish bilan bandlikning mavjud tarkibi, ya'ni qishloq xo'jaligi va budjet sohasida kam haq to'lanuvchi mehnatning ustunligi (sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmatlar va h.k.);

– norasmiy sektorda bir martalik, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarning ustunligi (bu sohada daromadlar beqaror xususiyatga ega bo'ladi);

– mamlakatning yetarli miqdordagi suv zaxiralariga ega bo'lmagan hududlarida, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarini yuritish uchun foydalaniladigan yerning unumdorlik sifati pasayishi.

3. Ta'lim. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, to'q oilalarga qaraganda kambag'al oilalarning ma'lumot darajasi pastroq bo'ladi. Kam daromadli oilalarda o'rta maxsus yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolari soni kam bo'ladi. Statistik ma'lumotlar tahlili aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarga qabul qilishning kamayishi kuzatilayotganligini ko'rsatmoqda. Bu holat yosh bolalar parvarishini amalga oshirishga majbur ayollar katta qismining samarali ish bilan bandlik qatoridan chiqishiga va shunga muvofiq uy xo'jaliklari tashqi daromadlarining qisqarishiga, bolalarni maktab ta'limiga yetarlicha tayyorlanmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, aksariyat mamlakatlarda oliy ta'limning pullik-shartnoma tizimga o'tishi kambag'al oilalarning oliy ma'lumot olishlarini mushkullashtirib qo'yadi.

4. Salomatlik va ovqatlanish. Shunisi shubhasizki, kambag'allik xavfi salomatlikning ahvoli mehnatga layoqatsizlikka sabab bo'ladigan oilalarda o'sib boradi. Bu shaxslarning mehnatga layoqatli yoshda bu toifa aholi tarkibidan chiqarilishi, ularni davolash xarajatlarining yuqoriligi, bunga bog'liq holda uy xo'jaliklari xarajatlari tarkibining majburiy o'zgarishiga olib keladi.

Ovqatlanish bolalar va onalar salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. To'yib ovqat yemaslik va mikroelementlar yetishmovchiligi bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, homiladorlik paytida asoratlarga olib keladi va katta yoshdagilarning reproduktiv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aytish joizki, aholining ayrim toifalari o'rtasida to'yib ovqatlanmaslik va mikroelementlar tanqisligi belgilari mavjud. Bu holat to'g'ri ovqatlanish haqidagi bilimlarning yetishmasligi, ovqatlanishning milliy an'analari, daromadlar kamligi, tibbiy yordam va undan keyingi nazoratning yetarli darajada sifatli emasligi bilan izohlanadi.

5. Ekologiya. Sobiq ittifoq davrida ko'p miqdordagi suvning Amudaryo va Sirdaryodan sug'orish maqsadlarida sarflanishi, zaharli o'g'itlardan keragidan ortiq foydalanish O'zbekistonda ko'plab ekologik muammolarni meros qilib qoldirdi. Bu aholining kambag'allik darajasining oshishiga olib keldi, ya'ni odamlarning ifloslangan, kimyoviy moddalarga to'yingan yerda yetishtirilgan mahsulotlarni, suvni iste'mol qilishi natijasida ular salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Orol dengizining qurib qolgan tubidan tarqalgan chang sababli respirator xastaliklar bilan kasallanish hollari ko'paygan. Shu bilan birga, respublikada ikkinchi bor sho'rlanishga – 50%, suv eroziyasiga – 8% va shamol eroziyasiga esa 54% sug'oriladigan yerlar yo'liqqan. Mazkur holat agrar faoliyatdan keladigan daromadlarni jiddiy pasaytiruvchi omil hisoblanadi.

6. Gender. Umummaktab, kasb-hunar ta'limi yoshida erkak va ayollar o'rtasida tengsizlik kuzatilmaydi. Biroq, undan yuqori yoshda jinslardagi nisbatda o'zgarishlar qayd etiladi. Aytish lozimki, ayollar borgan sayin ko'proq sog'liqni saqlash (barcha xodimlarning 77,5%ini tashkil qiladi) va ta'lim (72,7%) kabi kam haq to'lanuvchi sohalarda band bo'lib bormoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, uy xo'jaliklari, agar ayollar ish bilan band bo'lmasa, ko'pincha kam ta'minlangan bo'ladi. Shuning uchun ayollarning ish bilan bandligini oshirish oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ma'limki, ayollarning o'rtacha daromadi erkaklarnikiga qaraganda kamroq, lekin bu ayollarning ko'proq kam haq to'lanuvchi sohalarda bandligi tufayli sodir bo'lmoqda. Erkaklar singari, ayollar ham norasmiy mehnat bozorida kam himoyalangan, ya'ni yosh ayollar odam savdogarlari tomonidan ekspluatatsiya qilinish xavfi bilan to'qnashadi.

7.4. Kam ta'minlanganlikning kelib chiqish sabablari, uning tarqalishi va cheklash yo'llari

Kam ta'minlanganlikka ta'sir qiluvchi omillardan kelib chiqib, uning tarqalishining quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Farovonligi asosan qishloq xo'jaligi faoliyatiga bog'liq bo'lgan qishloq oilalari. Bu oilalar uchun quyidagilar xos:

– yollash bo'yicha ish bilan bandlikning nisbatan yuqori darajasi va oilaning ish bilan band va band bo'lmagan mehnatga layoqatli a'zolari sonining o'zaro turg'un nisbati (o'zaro nisbat 1:1,5);

– oilaning katta yoshdagi a'zolari kasbiy ma'lumot darajasining pastligi;

– suv yetishmasligi va yer sifatining pastligi tufayli mavjud yer maydonlari unumdorligining pastligi;

– oilaning kattaligi va oilaning ish bilan band bo'lgan a'zolariga tushadigan iqtisodiy yukning ortiqligi. Bu oilalar uchun tahdid soluvchi omil, qishloq xo'jaligi mahsulotlari konyunkturasiga va qishloq xo'jaligi faoliyatini olib borishning tashqi omillariga bog'liq bo'lgan, qancha oz bo'lsa, shunchalik beqaror ham bo'lgan daromadlardir.

2. Ko'proq kichik shaharlar, shahar tipidagi manzilgohlar va tuman markazlarida yashovchi oilalar. Bu toifani qishloq xo'jaligidan tashqari korxonalarning yollanma xodimlari tashkil qiladi. Bu oilalar uchun quyidagi belgilar xos:

– oilaning uncha katta emasligi (o'rtachaga yaqin);

– oilaning ish bilan band bo'lgan a'zolariga tushadigan iqtisodiy yukning nisbatan kattaligi;

– uy xo'jaliklari boshlig'ining ancha yuqori bilim darajasi;

– oilaning mehnatga layoqatli a'zolari ish bilan bandlik darajasining pastligi;

– yer maydonining yo'qligi va o'lchamining kichikligi.

Bu oilalar uchun xavf omillari iste'mol tovarlari va xizmatlariga narxlarning oshishi, ish haqlarining kechikishi, struktura tashkil qiluvchi qishloq xo'jaligidan tashqari korxonalar iqtisodiy ahvolining yomonlashuvidir.

3. Bu turga shahar oilalari kirib, ular quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

– oilaning uncha katta emasligi;

– oilaning ham o'quvchilar, ham katta yoshdagi ishsiz a'zolari hisobiga ish bilan band bo'lganlarga tushadigan iqtisodiy yukning kattaligi;

– oilaning to'liq emasligi, ya'ni boquvchilardan bittasining yo'qligi;

– oilaning mehnatga layoqatli a'zolarining budjet sohalarida bandligi;

– yer maydonining yo'qligi.

Bu oilalar uchun asosiy xavf omillari qatoriga iste'mol tovarlari va xizmatlariga narxlarning oshishi, mehnatga layoqatli oila a'zolarining kasalligi va ishni yo'qotish kiradi.

4. Quyidagi belgilar bilan ajralib turuvchi qishloq va shahar oilalari:

– mehnatga layoqatli oila a'zolari kasbiy ma'lumotining past darajasi va ularga mehnat bozorida talabning pastligi;

– malakasiz va beqaror ish bilan bandlik (iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi malakasiz xodimlar, vaqtinchalik yollanma va mavsumiy xodimlar, norasmiy sektorda band bo'lgan tadbirkorlar);

– yer maydonining yo'qligi yoki unumdorligining pastligi.

Kambag'al oilalar miqdori ajratilgan guruhlarining o'zaro nisbati va to'planish manzillarning muayyan turiga va ishlab chiqarish infratuzilmasi holatiga bog'liq. Kambag'allik to'plangan manzillarning bir necha turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– transport-sanoat aglomeratsiyalaridan uzoqda joylashgan qishloq joylari;

– ishlab chiqarish depressiyasi xususiyatiga ega bo'lgan ko'p sohali kichik shaharlar;

– transport-sanoat aglomeratsiyasidan tashqarida joylashgan tuman markazlari.

Aholining ko'pchilik toifalari uchun kambag'allik muammosini mustaqil ravishda hal qilib bo'lmaydi, chunki aholining bir qismi ijtimoiy qabul qilmaslikning alohida zonasiga tushib qoladi. Shu bilan birga, bozor kimlarnidir oldinga chiqib ketishiga imkon bersa, boshqalarni hamma narsadan mahrum qiladi.

Kambag'allikni davlat siyosatining quyidagi tamoyillariga tayangan holda bartaraf etish mumkin: halol, yuqori haq to'lanuvchi mehnat uchun keng imkoniyatlar berish va mehnatga layoqatli fuqarolarni o'zini-o'zi mehnati bilan faol mustaqil ta'minlashga rag'batlantirish.

Kambag'allik bilan kurashish va uning oldini olish bir necha yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi mumkin:

– alohida xodim va umuman aholi turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy choralar (bu daromadlar, bandlik siyosati, investitsiya, soliq, manzilli ijtimoiy yordam);

– obyektiv ravishda turli xavflardan aholini himoya qilish tizimini (mehnatga layoqatning yo'qotilishi, kasallik, nogironlik, ishsizlik, qarilik, o'lim, boquvchisini yo'qotish) va bolalarga nafaqalar, aholining alohida guruhlariga imtiyozlar berish tizimining samaradorligini oshirish;

– ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish (moddiy yoki nomoddiy yordam, bepul ovqatlanish, nogironlar huquqlarining tiklanishiga yordam berish, uyda, kunduzgi muassasalarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy uy-joy taqdim qilish).

Kambag'allikni bartaraf etishda soliqqa tortishning o'zgartirilishi natijasida daromadlarning kambag'allar foydasiga ularga har xil turdagi yordam ko'rsatish orqali qayta taqsimlanishi yaxshi samara bermaydi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar bunday yo'ldan allaqachon voz kechgan. Kambag'allarga to'lov ko'rinishida yordam ko'rsatish ish haqining rag'batlantiruvchi vazifasining pasayishiga olib keladi, boqimandalik kayfiyatining rivojlanishiga, ish bilan bandlik tarkibining yomonlashuviga, o'z ahvolini yaxshilashga intilishdan to'la mahrum bo'lgan odamlarning paydo bo'lishiga ko'maklashadi.

Shuning uchun ijtimoiy himoyaning faol siyosati qiyin vaziyatda qolganlarga bevosita yordam ko'rsatishdan ham ko'ra, bunday vaziyatga tushib qolish xavfini qisqartirish, aholining bozor sharoitlariga ijtimoiy moslashuvi, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, hududiy ijtimoiy dasturlar ishlab chiqishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya haddan tashqari mehnat faolligining aks rag'batlantiruvchisi bo'lib qolishi mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kambag'allik deganda nimani tushunasiz?
2. Kambag'allikning qanday mezon va ko'rsatkichlarini bilasiz?
3. Mutlaq, deprivatsion va subyektiv kambag'allik konsepsiyalarining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Turg'un kambag'allik deganda nimani tushunasiz?
5. Kambag'allikka qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Kambag'allikning jiddiyligi deganda nimani tushunasiz?
7. Hududlar bo'yicha tarqalishi jihatidan kambag'allikni qanday turlarga ajratish mumkin?
8. Kambag'allikning oldini olishda ish bilan bandlikning o'rni nimalardan iborat?
9. Kambag'allik bilan kurashishning qanday yo'llarini bilasiz?

VIII bob. AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA UNING KO'RSATKICHLARI

2.1. Aholining turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

"Turmush darajasi" atamasiga mutaxassislar turlicha yondoshadi va uning har xil talqinidan foydalanadi. Haqiqatan, turmush darajasi g'oyatda murakkab, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u umumiy ma'noda ham, alohida talqinlarda ham aniqlikni talab qiladi.

"Turmush darajasi" tushunchasi ma'nosiga ko'ra, aholi farovonligi, turmush sifati, xodimlarning moddiy va ma'naviy talablarining qondirilish darajasi, aholining ahvoli kabi qator atamalarning butun bir oilasi bilan birga mavjud.

"Turmush darajasi"ga berilgan iqtisodiy adabiyotlardagi mavjud ta'riflar ishlab chiqarish, daromadlarni iste'mol qilish, daromadlar, turmush qiymati, iste'mol me'yorlari va mezonlar kabi turli boshlang'ich tushunchalarni ta'kidlab ko'rsatadi yoki ularni rad qiladi yoxud bo'lmasa kompleks ravishdagi ko'p jihatli xususiyatga ega bo'ladi.

Turmush darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarish o'rtasida teskari aloqa mavjud. Bu eng avvalo, turmush darajasiga va mehnat resurslarining sifat xususiyatlariga hamda band bo'lgan aholi mehnati samaradorligiga bog'liq va xodimning iste'mol imkoniyatlari o'sishi bilan yuksak mehnat unumdorligidan manfaatdorligining oshishidir.

Rasmiy statistik ma'lumotlarda daromadlar, ish haqi, pensiya, ijtimoiy yordam, transfertlar turmush darajasiga kiritiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– pullik daromadlar, ularning hajmi, tarkibini hamda ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar;

– pullik daromadlarning tabaqalanishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;

– ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordamning asosiy ko'rsatkichlari:

– uy-joy fondi va aholining uy-joy sharoitlari ko'rsatkichlari.

Turmush darajasi ko'rsatkichlari tizimi. Turmush darajasi inson (aholi) hayoti va faoliyati haqida tasavvur beruvchi ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi.

Turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar har xil va turmush darajasi konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zi eng muhim ko'rsatkichlar 8.1-jadvalda ko'rsatilgan.

8.1-jadval

Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari

Hajmiy (mutlaq)	Nisbiy (o'rtacha)
1. Milliy daromad hajmi	1. Iste'mol jamg'armasining milliy daromaddagi ulushi
2. Aholining milliy daromadlari	2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar
3. Ish haqi jamg'armasi	3. O'rtacha va eng kam ish haqi
4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar	4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan o'rtacha daromad
5. Pensiya jamg'armasining umumiy hajmi	5. O'rtacha va eng kam pensiya miqdori
6. Tovar aylanish hajmi	6. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tovar aylanishi
7. Bajarilgan xizmatlar hajmi	7. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi
8. Uy-joy fondining kattaligi	8. Bir kishining uy-joy bilan ta'minlanganligi (kv.m, xona)
9. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi soni	9. Iqtisodiy faol aholi tarkibida ishsizlar ulushi
10. Aholining tabiiy o'sishi	10. Umr davomiyligi

Turmush darajasini odamlarning iqtisodiy va moddiy sharoitlar hamda imkoniyatlar hisobiga erishiladigan, iste'mol orqali amalga oshiriladigan, eng avvalo, daromadlar darajasi va turmush qiymatining o'zaro nisbati bilan belgilanuvchi moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida qabul qilish kerak.

Turmush darajasi daromadlar darajasining iste'mol va hayotiy ne'matlar bilan ta'minlanish xususiyatlari bilan birgalikda turmush qiymatiga nisbati bo'lib, bu xususiyatlar ushbu nisbat bilan belgilanadi.

Amaliy hisob-kitoblar uchun hatto quyidagi umumiy tarzda berilgan ta'rif ham yetarli bo'lishi mumkin: aholi turmush darajasi – bu daromadlar darajasining turmush qiymatiga nisbatidir. Daromadlar darajasi ushbu o'rinda tasarrufdagi boyliklar ko'rsatkichi bilan eng maqbul tarzda aks etadi, chunki unga kundalik daromadlardan tashqari to'plangan jamg'armalar ham qo'shiladi. Biroq, hisoblarning oson bo'lishi uchun o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadining ko'proq tarqalgan ko'rsatkichidan ham foydalanish mumkin. Turmush qiymati oqilona iste'mol budjeti, (turmush

qiymati indekslari yordamida hisoblanuvchi) iste'mol savatining tirikchilik minimumi yordamida hisobga olinishi mumkin. Hozirgi kunda eng kam tirikchilik miqdori muntazam, shu bilan birga, aholining turli guruhlari va mamlakat mintaqalari uchun hisob-kitob qilinishini e'tiborga olib, uni haqiqiy hisob-kitoblarda qo'llash ancha qulay.

Turmush darajasi inson (aholi) hayoti va faoliyatining qandaydir bitta tomoni haqida tasavvur beruvchi ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun aholi daromadlarini va uning ehtiyojlarini, iste'mol darajasi va tarkibini, uy-joy, mulk, madaniy-maishiy buyumlar bilan ta'minlanganligini va boshqa ko'plab jihatlarni uyg'un birlikda o'rganish zarur.

Turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar xilma-xil. Avvalo, aholining turmush darajasi ko'rsatkichlari umumiy va xususiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Umumiy ko'rsatkichlarga quyidagilarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorlari kiradi:

– milliy daromad;

– iste'mol fondi (bevosita iste'molchilar maqsadlariga sarflanuvchi iqtisodiyot tarmoqlarining mahsulotlari);

– milliy boylik tarkibida iste'mol fondining ulushi (to'plangan iste'molchilar mulki – uy-joy, madaniy-maishiy binolar, madaniy-maishiy, xo'jalik predmetlari).

Bu ko'rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy yutuqlarini tavsiflaydi.

Xususiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– iste'mol darajasi va usullari;

– mehnat sharoitlari;

– uy-joy bilan ta'minlanganlik;

– ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi;

– bolalarni tarbiyalash sharoitlari;

– ijtimoiy ta'minot.

Ushbu ko'rsatkichlar jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq, lekin katta batafsillikka ega va aholining (xodimlarning) muayyan guruhlari, hududlar bo'yicha aniqlashtiriladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar jamiyat va inson hayoti hamda faoliyatining iqtisodiy tomonini, ehtiyojlarni qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini

tavsiflaydi. Ularga jamiyat iqtisodiy rivojlanishining darajasini hamda har bir inson boyligini (nominal va real daromadlar, ish bilan bandlik) tavsiflovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchining (aholining) iqtisodiy asosini tavsiflab, ularni takror ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq, bu aholi daromadlari o'lchami va darajalanishida, ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar aholining jins va yosh, kasb-malakaviy tarkibini, ishchi kuchining jismoniy takror barpo bo'lishini tavsiflaydi. Ular ijtimoiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi, ijtimoiy soha va umuman iqtisodiyotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu omillar ommaning tabiiy asosi haqida tasavvur beradi va aholining, uning alohida guruhlari sonining o'zgarishida hamda umr davomiyligida yaqqol ko'rinadi.

Obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlar inson hayoti va faoliyatidagi o'zgarishlarning asoslanishi bilan bog'liq: birinchisi obyektiv (iqtisodiy, texnik) asosga, ikkinchisi – alohida shaxslar va aholi guruhlarining subyektiv fikriga, mehnat, oilaviy munosabatlar, daromadlar, turmush tarzidan qoniqishining subyektiv bahosiga ega. Subyektiv baho turmush sifati konsepsiyasida hisobga olinadi.

Qiymat va natural ko'rsatkichlar. Qiymat ko'rsatkichlariga daromadlarning barcha ko'rsatkichlari va pul shaklidagi boshqa ko'rsatkichlar (tovar aylanishi, xizmatlar, yuk tashish hajmi, pul qo'yilmalari va jamg'armalar) kiradi. Natural ko'rsatkichlar aniq moddiy boyliklar va xizmatlarni iste'mol qilishning natural ko'rsatkichlardagi (kg, dona, kv.m, kub) miqdorini – oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish, uy-joy, madaniy-maishiy tovarlar bilan ta'minlanishni tavsiflaydi.

Miqdor va sifat ko'rsatkichlar. Miqdor ko'rsatkichlar aholi farovonligining sifat jihatini ta'riflab berishga imkon beradi. Bular – boyliklar, xizmatlar, oziq-ovqatning iste'mol tarkibi, ta'lim, malaka, uzoq muddatga foydalanish uchun mo'ljallangan ijtimoiy-maishiy predmetlar bilan ta'minlanish darajasidir.

Shunday qilib, aholining turmush darajasi umumiy, xususiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, obyektiv, subyektiv, qiymat, natural, miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

8.2. Aholi turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillar

Turmush darajasi ko'p sonli, xilma-xil omillarga bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Istalgan odamning hayoti va faoliyati havo va suv muhitining, uy-joy, maishiy hamda ishlab chiqarish sharoitlarining, iste'mol tovarlari miqdori va sifatining ahvolidan boshlab, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatlar, shuningdek, siyosiy institutlar ahvoliga qadar bo'lgan tabiiy va ijtimoiy omillarning keng spektri bilan belgilanadi. Omillarning eng ahamiyatli guruhi – siyosiy va iqtisodiy omillar, ijtimoiy soha, ilmiy-texnik jarayon, ekologik muhitning rivojlanish omillaridir.

Yuqoridagi omillarning ta'siri tabiiy iqlim sharoitlari va boyliklar (inson, mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, axborot, ma`naviy) mavjudligi bilan kuchayishi yoki zaiflashishi mumkin. Lekin, bevosita bog'liqlik bu yerda yo'q. Masalan, juda taqchil tabiiy boyliklarga ega bo'lgan Yaponiya va Shveytsariya boy mamlakatlar hisoblanadi. Aholisining soni ko'p bo'lgan mamlakatlarda ham (AQSh, Germaniya, Yaponiya), kichik bo'lgan mamlakatlarda ham (Lyuksemburg, Finlyandiya, Shveytsariya) yuksak darajadagi farovonlik qayd qilinadi. Masalan, Kanada, Norvegiya, Rossiya (shimoliy mintaqalar) og'ir iqlim sharoitlariga ega, turmush darajasi bo'yicha esa bu mamlakatlar bir-biridan farq qiladi.

Endi aholining turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

Siyosiy omillar. Har bir mamlakatda aholining turmush darajasi jamiyat (davlat) tuzumi xususiyatiga, huquq institutining mustahkamligiga va inson huquqlariga rioya etilishiga, hokimiyatni turli tarmoqlarining o'zaro nisbatiga, uning boshqa mintaqalar (korxonalar) bilan o'zaro munosabatlariga, qarshi kuchlar, har xil partiyalarning mavjudligiga bog'liq.

Iqtisodiy omillar. Aholi turmush darajasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan milliy boylikning iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq. U moddiy boyliklar, mehnat hisobiga jamg'arilgan mahsulotlar hamda jamiyat tasarrufidagi hisobga olingan va iqtisodiy muomalaga jalb qilingan tabiiy boyliklarning yig'indisidir. Milliy boylikning uzluksiz to'lib borishi (uning oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi) ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Boylik ko'rsatkichlari ijtimoiy ishlab chiqarish moddiy sharoitlarini va umuman jamiyat hayotini tavsiflaydi, ijtimoiy mahsulot miqdori esa ma'lum davr mobaynidagi ishlab chiqarish jarayoni natijasi sifatida,

shuningdek, boylik elementlarining o'rnini to'ldirish va uni ko'paytirish manbayi sifatida chiqadi. Jamg'arilgan boylik va ijtimoiy mahsulotlar hajmi mamlakatning iqtisodiy qudratini hamda iste'mol, daromadlar, turmush darajasi hajmini ham aks ettiradi. Milliy boylikning mustahkamlangan tarkibi 2.1-rasmda ko'rsatilgan.

Milliy boylikning tarkibiy qismi jamiyat farovonligining moddiy sharoitlari majmuini ifodalaydigan milliy mulk va oldingi avlodlar mehnatining natijasidir. Uning miqdori va tarkibi boshqa bir xil sharoitlarda YaIM o'sishi hamda mamlakat farovonligi oshishi uchun katta imkoniyatlarni taqozo qiladi.

Iqtisodiy omillar orasida milliy daromadning o'sishi alohida rol o'ynaydi. Uning kattaligi hozirgi avlod mehnatining natijasi va aynan iste'molning o'sish manbayidir.

Milliy daromad – bu ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mehnat vositalari va moddiy xarajatlardan istisno umumiy ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib, u yangidan yaratilgan qiymat, ya'ni ushbu yildagi ishlab chiqarishning jamiyat farovonligi uchun qo'shilganidir. Bu jamiyatning sof "ishlab topilgan" daromadidir.



8.1-rasm. Milliy boylik tarkibi.

Iste'mol fondi – bu insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini va umuman jamiyat ehtiyojlarini (ishlab chiqarish sohasiga, mudofaaga xarajatlar) qondirishni ta'minlovchi milliy daromadning bir qismidir. Ushbu fond miqdori ehtiyojlarni qondirishning imkoniyatlarini belgilaydi.

Jamg'arma fondi – bu fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish rivojlanishini ta'minlovchi milliy daromadning bir qismidir.

Mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi YaIM hamda milliy daromad o'sishining eng muhim omilidir. Demak, aholining turmush darajasi ham mehnat unumdorligi dinamikasiga bog'liq ravishda oshadi (pasayadi). O'z navbatida, mehnat unumdorligi fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishiga, mehnatni tashkil qilishni, ishlab chiqarish va boshqaruvni takomillashtirishga, ijtimoiy-iqtisodiy omillar(xo'jalik mexanizmini takomillashtirish, mehnatning asoslari, ijtimoiy sohani rivojlantirish)ga bog'liq.

Ijtimoiy omillar. Ijtimoiy sohaning (fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at) rivojlanishi aholining ijtimoiy (ma'naviy, madaniy) ehtiyojlarini qondirishni shart qilib qo'yadi, millat aql-idrokining rivojlanishiga ko'maklashadi, millatning sog'lig'ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot mahsulot va xizmatlar, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruv, ta'lim, kadrlarni kasbiy tayyorlash xususiyatlariga o'zgarishlar kiritadi. Bu mehnat va boyliklarning xarajatlar o'zgarmagan yoki kamaygan paytda ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatini beradi, mehnat unumdorligining o'sishiga ko'maklashadi.

Ijtimoiy-ruhiy iqlimning holati inson turmush sharoitlarining xususiyatidir, u aholi turmushining ruhiy qulaylik darajasini belgilaydi. Unga insonning o'z-o'zini yuzaga chiqarish (ish bilan ta'minlanish, shu jumladan, mutaxassisligi bo'yicha mehnat faoliyatiga ega bo'la olish), hayotining xavfsizlik darajasi (muhitning kriminogenligi, harbiy ziddiyatlarning mavjudligi), ijtimoiy tahdidlar (qashshoqlik darajasi, axborot ola olish, erkin fikrlash huquqi) imkoniyatini hisobga oluvchi moddiy, moliyaviy va boshqa omillar ta'sir qiladi.

8.3. Aholi turmush darajasining ijtimoiy standartlari

Ijtimoiy standartlar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdagi yo'nalish, boyliklarni taqsimlashning asosi, ijtimoiy kafolat shakli

va davlatning omma oldidagi majburiyati bo'lib, u turli ko'rinishda bo'ladi. Masalan, turmushning istalgan darajasi va sifati haqida hosil bo'lgan tasavvurlar yoki qonuniy belgilangan me'yorlar ko'rinishida majburiy yoki tavsiyali xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ko'pchilik ijtimoiy standartlar aholi guruhlari oldidagi majburiyatlari bo'lib, budjet hisobiga ta'minlanadi. Davlat ijtimoiy standartlari rasmiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali belgilanadi, shundan keyin ular mamlakatning barcha hududida qo'llash uchun majburiy bo'lib qoladi. Davlat tomonidan belgilangan me'yoriy o'lchamlar davlatning moliyaviy imkoniyatlariga va inflyatsiya sur'atlariga bog'liq ravishda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Davlat ijtimoiy standartlarini belgilashdagi yondashuvlarga muvofiq, ikki guruhga ajraladi.

Birinchi guruh – bu minimal ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga mo'ljallangan standartlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

– aholining alohida guruhlari uchun yashash minimumi;

– mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori;

– yagona tarif setkasining birinchi toifasi me'yori;

– pensiyaning eng kam miqdori;

– ijtimoiy yordamning eng kam qiymati;

– bepul ta'lim va tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash me'yorlari;

– nogironlar, keksalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga va aholining boshqa guruhlariga xizmat ko'rsatish me'yorlari.

Ikkinchi guruhga real yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat indikatorlari hamda ijtimoiy farovonlik me'yorlari bo'lgan "oqilona" yoki o'rtacha standartlar kiradi. Ikkinchi guruhga quyidagilar tegishli:

– o'rtacha ish haqi;

– pensiyaning o'rtacha miqdori;

– uy-joy bilan o'rtacha ta'minlanganlik;

– aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromad;

– turmush sifati ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymati.

Birinchi guruhdan farqli ravishda ikkinchi guruh standartlari, odatda, me'yorlar bo'lmay, balki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish darajasining aynan indikatorlari sifatida namoyon bo'ladi.

Minimal ijtimoiy standartlar insonning tirik qolishi uchun davlat tomonidan ta'minlanadigan kafolatdir. Tirikchilik minimumi inson sog'lig'ini saqlash va uning yashash qobiliyatini ta'minlash uchun zarur oziq-

ovqat mahsulotlarining, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning eng kam to'plamini o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, tirikchilik minimumi asosida iste'mol savatchasi inson turmushini ta'minlashning eng kam me'yori bo'lib, u munosib turmushni emas, balki jismoniy tirik qolishni ta'minlaydi. Shubhasiz, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, pensiyaning eng kam miqdori, o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan eng kam daromad, eng kam stipendiya tirikchilik minimumidan past bo'lishi mumkin emas, chunki ta'minotning bu darajasiga erishilmagan taqdirda jismoniy yashash ilojsizligi boshlanadi.

Yashash minimumi siyosati nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xos, balki rivojlangan mamlakatlarga ham xosdir. Binobarin, bu vaziyatda ijtimoiy islohotlarning o'tkazilishi ham iqtisodiy o'tish bosqichidagi mamlakatlar uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki bu mamlakatlarda eski mexanizmlar ma'lum darajada buzilgan, yangilari esa hali yaratilmagan bo'ladi. Ommaviy qashshoqlik sharoitlarida davlatning asosiy vazifasi tirik qolish chegarasidan tashqarida yashovchi kishilar kategoriyasini ro'yxatdan chiqarish va butun aholi turmush darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish bo'lib qoladi. Aynan turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy tanglik sharoitlarida integral standartlar bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, davlatning ijtimoiy standartlari oqilona, o'rtacha standartlar bo'lishi ham mumkin. Ular ijtimoiy vazifalarning rivojlanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib, munosib (muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda inson uchun qabul qilingan) turmush sifatining kafolatlari bo'lib xizmat qiladi. Davlatning ijtimoiy faoliyati aholining ko'pchilik qismining turmushini tavsiflovchi o'rtacha ko'rsatkichlarni ta'minlash va rivojlantirishga qaratilgan.

Turmush sifatining integral ko'rsatkichlaridan tashqari, ijtimoiy boshqaruv amaliyotida ijtimoiy sohaning alohida tarkibiy qismlarini rivojlantirishning aniq indikatorlari ham muhim ahamiyatga ega. Bunday indikatorlarga, eng avvalo, quyidagilar kiradi:

– yashash minimumi;
– o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromad;
– ijtimoiy to'lovlar, pensiya, nafaqa, stipendiya, ish haqi miqdorlari;
– iste'mol narxlari indeksi;
– ishsizlik darajasi;

– Djini koeffitsienti (eng ko'p va eng kam ta'minlangan aholi detsillarining o'zaro nisbati);

– eng kam ish haqi;

– yagona tarif setkasining birinchi toifasi;

– pensiya yoshi;

– yagona ijtimoiy soliq me'yori yoki davlat ijtimoiy fondlariga jami to'lovlar;

– jami daromadlarga nisbatan kommunal to'lovlar ulushi.

Bu ro'yxatni kengaytirish mumkin, chunki, ijtimoiy siyosatning har bir yo'nalishi bir tomondan xususiy me'yorlar bilan, boshqa tomondan esa mavjud ijtimoiy siyosatni tavsiflovchi, davlatning javobgarligini belgilovchi va uni nazorat qilishga imkon beruvchi ko'rsatkichlar bilan aniqlashtirilishi mumkin.

Davlatning ijtimoiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifat xususiyatlarini ifodalashning miqdor indikatorlari ham mavjud bo'lib, ularga turli indeks va standartlar kiradi. Miqdor ijtimoiy ko'rsatkichlar nafaqat qiyosiy ahamiyatga ega va ijtimoiy siyosat me'yorlari vazifasini bajaradi, balki sifatning rivojlanish yo'nalishlari hamda tarkib darajalarini belgilovchi omillar ham hisoblanadi. Eng ko'p qo'llaniluvchi integral miqdoriy ko'rsatkichlardan biri BMTda qabul qilingan inson taraqqiyoti indeksidir.

8.4. Inson taraqqiyoti indeksi va uni hisoblash metodikasi

Insonning taraqqiyoti indeksi – inson rivojlanishi sohasidagi uch asosiy yo'nalish – salomatlik va uzoq umr, bilim va yetarli turmush darajasi bo'yicha o'rtacha yutuqlar darajasini belgilovchi qo'shma (integral) indeksdir.

Insonning taraqqiyoti indeksining tarkibiy elementlari quyidagi subindekslar hisoblanadi:

1. **Kutilayotgan hayot davomiyligi indeksi** – u ma'lum darajada mamlakat ijtimoiy ta'minoti va sog'liqni saqlash tizimining holatini aks ettiradi.

2. **Ta'lim darajasi indeksi** (ta'limdan foydalanish) – u mamlakat ta'lim tizimi holatining aksi sifatida ta'lim olish imkoniyatini ifodalaydi.

3. **Turmush darajasi indeksi** yoki aholi jon boshiga (milliy valyutalarning xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha AQSH dollarida) – yalpi milliy daromad asosida mamlakat aholisi daromadlarini aks ettiruvchi daromad indeksi.

1990-2009 yillarda inson taraqqiyoti indeksi quyidagi subindekslarni hisoblash asosida o'lchangan:

1) tug'ilishda umrning kutilayotgan davomiyligi;

2) katta yoshdagi aholining savodxonlik va maktab ta'limini qamrab olish darajasi (boshlang'ich maktabdan oliy o'quv yurtlariga qadar);

3) AQSH dollaridagi xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha aholi jon boshiga yalpi milliy daromad.

2010 yildan boshlab inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodikasi o'zgardi. Ya'ni 2010 yilda Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruzaga ko'ra, ta'lim (ta'limdan foydalanish) darajasi indeksi yoki aholi jon boshiga yalpi milliy mahsulot asosida daromad indeksi va hayot darajasi indeksini o'lchash uchun yangi ko'rsatkichlar kiritilgan.

Ta'lim darajasi indeksi quyidagi ikki ko'rsatkich bo'yicha o'lchanadi:

1) O'rtacha ta'lim davomiyligi, u hayot davomida 25 va undan katta yoshdagi shaxslar olgan o'rtacha ta'lim yillari bilan o'lchanadi;

2) Kutilayotgan ta'lim davomiyligi, uni kutilayotgandek, rasmiy belgilangan maktabga borish yoshiga yetgan bola, agar uning hayoti davomida aholini ta'lim bilan qamrash ko'rsatkichlari sohasida ustuvor yo'nalish saqlanib qolgan bo'lsa, olishi mumkin.

Bu yangi indikatorlardan foydalanish zarurati shu bilan bog'liqki, ko'pgina, ayniqsa inson taraqqiyoti indeksi reytingining yuqori qatorlaridagi mamlakatlarda katta yoshli aholi savodxonligi va ta'lim bilan qamrash darajasining yuqori ko'rsatkichlariga erishildi. Nima uchun mazkur ko'rsatkichlarning farqlash qimmati zaiflashdi?

Ta'limning kutilayotgan davomiyligi hamda 25 va undan katta yoshdagi shaxslar uchun o'rtacha ta'lim olish yillari miqdorini boshqa avval foydalaniluvchi va barcha mamlakatlar bo'yicha yanada ifodalangan tabaqalash qimmatiga ega ko'rsatkichlarga nisbatan ta'lim konsepsiyasini to'g'riroq aks ettiradi, chunki ular ta'lim va ta'lim bilan qamrashdagi so'nggi o'zgarishlarni yaxshi aks ettiradi. Biroq ular oldingi indikatorlar singari ta'lim sifatini baholamaydi.

Hozirda daromad darajasi AQSH dollaridagi xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha aholi jon boshiga yalpi milliy daromad yordamida baholanadi.

1990 yilda qabul qilingan inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodikasi bo'yicha indeksni hisoblash o'rtacha arifmetik o'lchamlar in-

dekslarini aniqlashga asoslangan. Mazkur agregatlash usulining asosiy kamchiligi shundaki, u inson taraqqiyoti o'lchovchilari o'rtasidagi o'zaro to'liq almashuvni ko'zda tutgan. Zero, subindekslardan biri bo'yicha yutuqlarning quyi ko'rsatkichlari boshqa ikki subindeksning yanada yuqori ko'rsatkichlari orqali bir tekisda ta'minlanadi.

2010 yilda qo'llangan multiplikativ agregatlash usuli o'rtacha geometrik usuldan foydalangan holda o'lchovlar bo'yicha erishilgan yutuqlardagi farqlarni e'tiborga olish imkonini beradi. Masalan, tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligidagi 1 foiz pasayish ta'lim va daromadlar sohasida 1 foizli pasayish singari inson taraqqiyoti indeksiga ta'sir etadi.

Shunday qilib, mazkur usul chiziqli agregatlash formulasiga nisbatan jiddiy e'tirozlardan birini hisobga olib, u o'lchamlarning o'zaro to'liq almashuvini amalga oshiradi va komponentlardan biri bo'yicha yanada yuqori belgi integral inson taraqqiyoti indeksining yuqoriroq ko'rsatkichiga ta'sir etishi mumkinligini ko'zda tutadi.

Inson taraqqiyoti indeksi miqdori mamlakatlarni turli inson rivojlanishi darajalariga ega guruhlarga taqsimlash mezoni bo'lib xizmat qiladi. Indeks 0 dan 1 gacha bo'lgan belgilarni qabul qilishi mumkin, bunda indeks miqdori 1 ga qancha yaqin bo'lsa, inson taraqqiyoti shuncha yuqori hamda mazkur mamlakatdagi turmush sharoiti alohida kishi va millatning umumqabul qilingan farovonlik mezonlariga yaqinlashadi.

8.2-jadval

Inson taraqqiyoti indeksini baholash mezoni

Ko'rsatkich	Darajasi
0,8-1	yuqori
0,5-0,8 gacha	o'rtacha
0-0,5 gacha	past

Inson taraqqiyoti indeksi qisqa muddatli istiqbolda inson rivojlanishidagi taraqqiyotni baholashga qodir emas, chunki uning ba'zi indikatorlari mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlardan darhol ta'sirlanmaydi. Bu o'rtacha ta'lim davomiyligi va tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi singari ko'rsatkichlarga tatluqli. Shuning uchun o'rta va uzoq muddatli istiqbolda inson taraqqiyoti indeksi taraqqiy etishini kuzatish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, inson taraqqiyoti indeksi turmush sifatining iqtisodiy hamda ijtimoiy ko'rsatkichlaridan foydalangan holda o'rtacha farovonlik

darajasini ifodalaydi. Bunda inson taraqqiyoti indeksining ilmiy qimmati nafaqat umumiy va o'rtacha natijalarga erishish, balki uning komponentlari belgilarini qiyoslashdan iborat.

Inson taraqqiyoti indeksi integral indeks bo'lib, uni aniqlash uchun o'rtacha kichik indekslarni hisoblash zarur. Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$HDI_t = \sqrt[3]{LEI_t \cdot EI_t \cdot GNII_t},$$

Ya'ni, inson taraqqiyoti indeksini aniqlash uchun uch subindeksning o'rtacha geometrik o'lchamini hisoblash zarur:

1) Kutilayotgan umr davomiyligi (Life expectancy index, *LEI*).

2) Ta'lim indeksi (Education index, *EI*).

3) Turmush darajasi indeksi (Gross national income index, *GNII*).

Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodikasi ikki bosqichdan iborat:

1. Har bir o'lchov uchun subindekslarni hisoblash.

2. Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uchun subindekslarni agregatlash.

1-bosqich. Har bir o'lchov uchun subindekslarni hisoblash. Ko'rsatkichlarni 0 dan 1 gacha shkalali indekslarga o'zgartirish maqsadida minimal va maksimal belgilar (yoki maqsadli mo'ljallar) o'rnatiladi. Agregatlash uchun o'rtacha geometrik o'lchamdan foydalanilgani tufayli maksimal belgi istalgan ikki mamlakat yoki vaqt davrlari o'rtasidagi (foizda) qiyoslovga ta'sir qilmaydi. Maksimal belgilar 1980-2010 yillarda mamlakat indikatorlarining *haqiqatda kuzatilayotgan yuqori belgilariga* qo'yiladi.

O'sish minimal darajalarga nisbatan o'lchanib, ular jamiyatga ma'lum davrda saqlanib qolish uchun zarur. Quyidagi minimal belgilar o'rnatilgan: tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi uchun – 20 yil, ta'lim sohasida ikkala o'zgaruvchi uchun – 0 va aholi jon boshiga yalpi milliy daromad uchun – 163 AQSH dollari.

Minimal ta'lim darajasi haqidagi tasavvur jamiyatlar rasmiy ta'limsiz mavjud bo'lishi mumkinligi bilan ma'qullanadi. 163 AQSH dolllardan iborat yashash uchun zarur asosiy daromad darajasi – mavjud tarixiy ma'lumotlar bo'yicha biror-bir mamlakatda erishilgan kuniga 45 sentga ekvivalent eng kam belgi (Zimbabve, 2008 y.), bu Jahon banki tomonidan o'rnatilgan kuniga 1,25 AQSH doll.ga teng kambag'allik chegarasidan 1/3 marta ortiq.

1. Kutilayotgan umr davomiyligi indeksi. Kutilayotgan umr davomiyligi indeksi tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligini oshirishda mamlakat tomonidan erishilgan nisbiy o'sishni o'lchaydi. U kutilayotgan umr davomiyligi ko'rsatkichi asosida o'lchanadi.

Kutilayotgan umr davomiyligi mazkur davrda tug'ilgan chaqaloqning taxminiy umr davomiyligini belgilaydi, chunki umuman, o'rtacha umr davomiyligi muayyan mamlakatda turmush sharoitlarining barqaror o'lchanishini aks ettiradi. Kutilayotgan umr davomiyligi indeksini belgilashda xalqaro metodikada qabul qilingan minimal va maksimal belgilar muvofiq tarzda 20 va 83,2 sifatida (Yaponiya, 2010 y.) belgilangan. Umr davomiyligi indeksini hisoblashda quyidagi formula qo'llaniladi:

$$LEI_t = \frac{LE_t - \min\{LE\}}{\max\{LE\} - \min\{LE\}} = \frac{LE_t - 20}{83,2 - 20} = \frac{LE_t - 20}{63,2},$$

bu yerda: $\mathbf{LEI_t}$ – tadqiq etilayotgan yilda umr davomiyligi indeksi;

$\mathbf{LE_t}$ – tadqiq etilayotgan yilda muayyan mamlakatda umr davomiyligining mavjud belgisi;

min **{LE}** – tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan kutilayotgan umr davomiyligining minimal belgisi;

max **{LE}** – tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan kutilayotgan umr davomiyligining maksimal belgisi.

2. Ta'lim indeksi. Ta'lim indeksi ikki subkomponentdan iborat:

a) O'rtacha ta'lim davomiyligi indeksi – 25 va undan katta yoshdagi shaxslarning umri davomida aholi ta'lim darajasi ko'rsatkichiga asoslangan, olingan har bir ta'lim darajasining nazariy davomiyligi asosida o'qish miqdorida hisoblangan ta'lim olish yillarining o'rtacha miqdori.

b) Kutilayotgan ta'lim davomiyligi indeksi – ta'lim olish yillari miqdori, agar rasman belgilangan maktabga borish yoshiga yetgan bola, uning umri davomida aholini ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari sohasida ustuvor yo'nalish saqlanib qolsa, ta'lim olishi mumkin.

a) O'rtacha ta'lim davomiyligi indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish zarur:

$$MSI_t = \frac{MS_t - \min\{MS\}}{\max\{MS\} - \min\{MS\}} = \frac{MS_t - 0}{13,2 - 0} = \frac{MS_t - 0}{13,2},$$

bu yerda: $\mathbf{MSI_t}$ - tadqiq etilayotgan yilda o'rtacha ta'lim davomiyligi indeksi;

MS$_t$ - tadqiq etilayotgan yilda o'rtacha ta'lim davomiyligining mavjud belgisi;

min **{MS}** - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan o'rtacha ta'lim davomiyligining minimal belgisi;

max **{MS}** - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan o'rtacha ta'lim davomiyligining maksimal belgisi.

b) Kutilayotgan ta'lim davomiyligi indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish zarur:

$$ESI_t = \frac{ES_t - \min\{ES\}}{\max\{ES\} - \min\{ES\}} = \frac{ES_t - 0}{20{,}6 - 0} = \frac{ES_t - 0}{20{,}6}, \quad (5)$$

bu yerda: **ESI**$_t$ - tadqiq etilayotgan yilda kutilayotgan ta'lim davomiyligi indeksi;

ES$_t$ - tadqiq etilayotgan yilda kutilayotgan ta'lim davomiyligining mavjud belgisi;

min **{ES}** - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan kutilayotgan ta'lim davomiyligining minimal belgisi;

max **{MS}** - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan kutilayotgan ta'lim davomiyligining maksimal belgisi.

So'ngra bu ikki subkomponent yagona ta'lim indeksiga birlashtirilad, uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$EI = \frac{\sqrt{MSI_t \cdot ESI_t} - \min\{EI\}}{CEL - \min\{EL\}} = \frac{\sqrt{MSI_t \cdot ESI_t} - 0}{0{,}951 - 0}$$

bu yerda: **EI**$_t$ – tadqiq etilgan yilda ta'lim indeksi;

MSI$_t$ - tadqiq etilgan yilda o'rtacha o'qish davomiyligi indeksi;

ESI$_t$ - tadqiq etilgan yilda kutilayotgan o'qish davomiyligi indeksi;

min - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan ta'lim indeksining minimal belgisi;

CEL – erkin ta'lim indeksi.

3. Turmush darajasi indeksi aholi jon boshiga (milliy valyutalarning xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha AQSH dollarida) yalpi milliy daromad ko'rsatkichi asosida hisoblanadi. Aholi jon boshiga yalpi milliy daromad ko'rsatkichini hisoblash boshqa indikatorlarga nisbatan murakkabroq hisoblanadi. Daromad ko'rsatkichi tuzatiladi, chunki inson salohiyatining munosib rivojlanish darajasiga erishish uchun cheklanmagan daromad talab etilmaydi.

Biroq bu, o'z navbatida, mazkur ko'rsatkichning inson taraqqiyoti indeksidagi muhimligiga ta'sir etmaydi, bu ayniqsa yuqori daromad darajasiga ega mamlakatlarga nisbatan sezilarlicha kuzatiladi. Shu tarzda, daromad uchun minimal va maksimal belgilardan iborat natural logorifmlardan foydalaniladi. Aholi jon boshiga yalpi milliy daromad indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$GNII = \frac{\log(Y_t) - \log(Y_{min})}{\log(Y_{max}) - \log(Y_{min})},$$

bu yerda: ***GNII*** – turmush darajasi indeksi;

Y_t - tadqiq etilayotgan yilda mamlakat aholi jon boshiga yalpi milliy daromad;

Y_{min} - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan mamlakat aholi jon boshiga yalpi milliy daromad miqdorining minimal belgisi;

Y_{max} – tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan mamlakat aholi jon boshiga inson taraqqiyoti indeksi miqdorining maksimal belgisi.

2-bosqich. Integral inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uchun subindekslarni agregatlash. Kutilayotgan umr davomiyligi (*LEI*) indeksi, ta'lim indeksi (*EI*) va turmush darajasi indeksi (*GNII*) belgilari o'rnatilgach, inson taraqqiyoti indeksi quyidagi formula bo'yicha bu uch indeksning geometrik o'rtacha ko'rsatkichi sifatida hisoblanadi:

$$HDI_t = \sqrt[3]{LEI_t \cdot EI_t \cdot GNII_t}$$

Kutilayotgan umr davomiyligi indeksi $= \frac{73,5-20}{83,2-20} = 0,847.$

O'rtacha o'qish davomiyligi indeksi $= \frac{7,5-0}{13,2-0} = 0,568.$

Kutilayotgan o'qish davomiyligi indeksi $= \frac{11,4-0}{20,6-0} = 0,553.$

Ta'lim indeksi $= \frac{\sqrt{0,568 \cdot 0,553}-0}{0,951-0} = 0,589.$

Daromad indeksi $= \frac{\ln(7,263)-\ln(163)}{\ln(108,211)-\ln(163)} = 0,584.$

Inson taraqqiyoti indeksi = $\sqrt[3]{0,847 \cdot 0,589 \cdot 0,584} = 0,663$.

Shu tarzda, yangi indikatorlar va yangi amaliy shakldan foydalangan holda inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodologiyasini yaxshilash sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. O'rtacha geometrik ko'rsatkichni qo'llash yanada past indeks belgilarini beradi, binobarin o'lchamlari turlicha rivojlangan mamlakatlarda ko'proq o'zgarishlar kuzatilgan. Bundan tashqari, mavjud maksimal belgilar darajasida yuqori chegaralarni o'rnatish umumiy indeks belgilariga kamroq ta'sir ko'rsatadi hamda muvofiq tarzda reytingga kamroq ta'sir etadi.

Inson taraqqiyoti indeksi yalpi milliy mahsulotga nisbatan kengroq vosita hisoblanishiga qaramay, inson rivojlanishini baholash uchun inson rivojlanishi integral indekslarini hisoblash metodologiyasini takomillashtirish zarurati haligacha saqlanib qolgan. Inson taraqqiyoti indeksi inson rivojlanishini belgilash uchun ijtimoiy tengsizlik, inson huquqlariga rioya etish va siyosiy erkinliklar mavjudligi singari bir qator muhim mezonlarni hisobga olmaydi hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va institustional islohotlarni sifatli to'liq baholay olmaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholining turmush darajasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarni sanab bering.
2. Turmush darajasi va turmush sifati tushunchalari o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.
3. Turmush darajasining umumiy ko'rsatkichlarini aytib bering.
4. Aholi turmush darajasiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
5. Milliy boylik tarkibini yoritib bering.
6. Ijtimoiy standartlar deganda nimani tushunasiz?
7. Insonning taraqqiyoti indeksining tarkibiy elementlarini aytib bering.
8. Turmush darajasi indeksi qanday aniqlanadi?

XIX bob. AHOLINING XARAJATLARI VA ISTE'MOL BUDJETI

9.1. Aholi xarajatlari tasnifi

Aholining pul xarajatlari – bu inson kapitalini asrash va hayotini davom ettirish uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni xarid qilish uchun amaldagi xarajatlar bo'lib, ular iste'mol xarajatlari va iste'mol bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Aholining xarajatlarini tasniflashga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Amalga oshirishning davriyligi (tez-tezligi) nuqtai nazaridan aholi xarajatlari uchta guruhga ajratiladi:

1) qisqa muddatli xarajatlar;

2) o'rta muddatli xarajatlar;

3) uzoq muddatli xarajatlar.

Birinchi guruhga kundalik ne'matlar (oziq-ovqat mahsulotlari, ayrim nooziq-ovqat tovarlar, xizmatlarning katta qismi) uchun xarajatlarni kiritish mumkin, ikkinchi guruh davriy (mavsumiy) ravishda sotib olinadigan tovarlar (kiyim-kechak, poyabzal va b.)ni o'z ichiga oladi, uchinchi guruh bir necha yilda bir marta amalga oshiriladigan xarajatlardan tarkib topadi.

Ushbu tasnifda aholining majburiy to'lovlari hisobga olinmagan, chunki bunday to'lovlar aholining real daromadlaridan kelib chiqadi. Agar aholi xarajatlarini ularning umumiy daromadlaridan kelib chiqib tasniflaydigan bo'lsak, u holda birinchi guruhga uy xo'jaliklarining majburiy to'lovlari – aholining kommunal va boshqa har oylik to'lovlarini, har oyda to'lanadigan soliqlar va yig'imlarni qo'shimcha qilish, ikkinchi guruhga esa jismoniy shaxslar nomuntazam, faqat alohida huquqiy harakatlarni amalga oshirishda (mol-mulkni meros qoldirishda, ko'chmas mulkni xarid qilishda va h.k.) to'laydigan soliqlarni kiritish mumkin.

Aholi tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning funkstional yo'nalishiga qarab ayrim iqtisodchilar ularni quyidagi asosiy guruhlarga bo'lishadi:

a) shaxsiy iste'mol xarajatlari (tovarlar xarid qilish va xizmatlar haqini to'lash);

b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

v) pul jamg'aralari.

Aholining xarajatlarini yanada chuqurroq tavsiflash uchun yuqorida ko'rsatilgan ikkita mezonni birlashtirish imkonini beruvchi tasnifla-

shning boshqa variantidan foydalanish taklif etiladi. Ushbu variant, uy xo'jaliklari budjetining xarajat qismini uchta asosiy bo'limga bo'lishni nazarda tutadi:

1) majburiy to'lovlar;

2) iste'mol xarajatlari;

3) pul jamg'aralari.

Uy xo'jaligining majburiy to'lovlari uning real daromadlarini qisqartiradi. Uy xo'jaligi tomonidan ushbu modda bo'yicha qancha ko'p pul mablag'lari sarflansa, u shuncha kam pul mablag'larini joriy iste'mol va jamg'arish uchun yo'naltirishi mumkin. Alohida uy xo'jaliklarining byudjetlarida ushbu moddaning miqdori mutlaq ifodada ham, boshqa xarajat moddalariga nisbatan ham sezilarli darajada o'zgarib turadi.

Aholining iste'mol uchun xarajatlari, birinchi navbatda, ikkita moddaga bo'linadi: joriy va kapital xarajatlar.

Aholining joriy xarajatlari jumlasiga oziq-ovqat mahsulotlari, nisbatan uzoq bo'lmagan davrda foydalaniladigan nooziq-ovqat tovarlari (kiyim-kechak, poyabzal va b.)ni xarid qilish, shuningdek, aholi tomonidan butun hayoti davomida davriy ravishda iste'mol qilinadigan xizmatlar (masalan, sartaroshxona, kirxona, stomatolog va h.k. xizmatlari) haqini to'lash xarajatlarini kiritish lozim.

Kapital xarajatlar ancha uzoq vaqt foydalaniladigan nooziq-ovqat tovarlari (mebel, uy-joy, transport vositalari va h.k.)ni xarid qilish xarajatlarini o'z ichiga oladi. Uy xo'jaligi a'zolari kamdan-kam hollarda iste'mol qiladigan, lekin natijasi, aksincha, ularga katta ta'sir ko'rsatib. ancha uzoq vaqt mobaynida ularning hayotini belgilab beradigan xizmatlar (ta'lim, tibbiy operastiya, turistik yo'llanma va h.k.) xarajatlarini kiritish darkor.

Iste'mol uchun xarajatlarning umumiy summasi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ularni paydo bo'lish sohasi nuqtai nazaridan ichki va tashqi turlarga bo'lish mumkin.

Ichki omillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– umumiy pullik daromadlar miqdori;

– ehtiyojlarning natural xo'jalik yuritish hisobidan ta`minlanish darajasi;

– byudjetni yuritishni tashkil etish darajasi;

– moddiy va ma`naviy ehtiyojlar darajasi.

Tashqi omillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

– iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar chakana narxlari darajasi;

– tibbiyot, ta'lim, transport va h.k.larni moliyalash uchun yo'naltiriladigan davlat dotastiyalari miqdori;

– uy xo'jaligining soliqlari va boshqa majburiy to'lovlari summasi;

– milliy iqtisodiyotda iste'mol kreditining rivojlanganlik darajasi.

9.2. Aholi iste'moli: tarkibi va o'zgarishi

Iste'mol deganda, insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirilish jarayoni tushuniladi. Iste'molning maqsadli funkstiyasi chegaralangan resurslar sharoitida iste'molning umumiy darajasini oshirish bilan alohida ehtiyojlarni qondirishni maksimumlashtirishdan tarkib topadi.

Iste'mol tarkibi – bu xarajat elementlari yoki natural iste'mol turlari, bevosita berilgan mahsulot turi uchun xarakterli bo'lgan birlikda yoki qiymat ko'rinishidagi o'zaro munosabatidan iborat.

Kishilar o'z daromadlarini, birinchi navbatda, eng zarur hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatadilar, ya'ni iste'molga sarflaydilar. Iste'moldan ortgan qismini esa turli maqsadlar uchun jamg'aradilar. **Daromadda jamg'arish bilan iste'mol ulushi teskari nisbatda bo'lib, birining ortishi ikkinchisining kamayishiga olib keladi. Agarda daromadning hammasi iste'mol qilinsa, jamg'arish nolga teng bo'ladi.** Olingan daromadning qanchasini jamg'arish yoki iste'mol qilishi, eng avvalo, har bir oila daromadi miqdoriga o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq. Masalan, milliy urf-odatimiz, an'anamizga ko'ra, daromadi ko'p bo'lmagan hollarda ham aholi pul daromadining bir qismini jamg'aradi. Ushbu jamg'arishning maqsadi to'y qilish, imorat qurish, o'limlik uchun pul yig'ish va boshqa omillarga bog'liq.

Aholi xarajatlari dastlab oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, transport va boshqalarga sarflanadi. **Iste'molning umumiy hajmida uzoq muddatga foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar ulushining yuqoriligi aholining turmush darajasi va mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti darajasining yuqoriligidan dalolat beradi.**

Aholining pul daromadlaridagi iste'mol xarajatlarining pasayishi ijobiy holatdir. Agar aholining iste'mol xarajatlari oshib borsa, bu mamlakatda aholining turmush darajasi pasayayotganligidan, aholi daromadlarining aksariyat qismi eng zarur kundalik ehtiyoj mahsulotlarini sotib olishga sarflanayotganligini bildiradi.

- aholining iste'mol darajasiga va tarkibiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- aholi daromadlari darajasi;
- iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- mamlakat milliy boyligi darajasi;
- YaIMdagi aholining pirovard iste'moli ulushi;
- aholining demografik tarkibi;
- tabiiy-iqlim sharoitlari;
- ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti uchun milliy daromadda iste'mol hissasining o'sib borishi xos, ya'ni milliy daromadning tobora ko'proq qismi aholi turmush darajasini. farovonlikni oshirishga qaratiladi. Bunga sabab:

1. Milliy daromadning kamroq (10-15%) qismini jamg'argan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Umuman investistiyalar yangi texnika va yuqori texnologiya uchun sarflanib, pirovard natijada iste'molni tkengaytirishga xizmat qiladi.

2. Iqtisodiy o'sishda inson omilining ahamiyati beqiyos o'sib, ushbu holat iste'molni ortishi orqali namoyon bo'ladi. Ilg'or yangi texnika, yuqori texnologiyani qo'llash malakali ishchi kuchini talab qiladi. Ishchi kuchi malakasini to'xtovsiz oshirish kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun iste'molni uzluksiz o'stirish zarur.

3. Iqtisodiyot rivojlangan sari aholining o'sish sur'atlari susayib, iste'molchilar sonining ortishi sustlashadi.

4. Bozor iqtisodiyoti rivoj.nib, ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan sari aholining ehtiyojlari to'laroq qondirilib, uning farovonligini oshirish kabi insonparvarlik tamoyili kuchayib boradi.

Oilaning yalpi daromadlari oshib borishi bilan bir vaqtda yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratildi.

Agar 1991 yilda aholi daromadlarining bor-yo'g'i 46-48 foizi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar resurslari bilan ta'minlangan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 75 foizdan oshdi. Shu bilan birga, 2011 yilda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1991 yilga nisbatan 6,7 barobar, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi esa 1,4 barobar o'sdi (9.1-jadval).

9.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi yalpi xarajatlarining tarkibi, foizda

Ko'rsatkichlar	1991 y	2001 y	2010 y	2012 y
1. Jami xarajatlar tarkibi	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
ulardan:				
iste'mol xarajatlari	81,1	84,3	78,4	78,1
Iste'moldan tashqari xarajatlar (soliqlar, a'zolik badallari va boshqa majburiy to'lovlar)	7,1	6,9	6,2	6,0
pul omonatlari va jamg'armalar	11,8	8,8	15,4	15,9
2. Jami iste'mol xarajatlari	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:				
oziq-ovqat mahsulotlari uchun	58,3	59,8	49,8	49,5
nooziq-ovqat mahsulotlari uchun	31,5	26,8	33,7	33,8
xizmatlar uchun to'lovlar	10,2	13,4	16,5	16,7

Jadvaldan ko'rinib turganidek, 1991-2011 yillar davomida jami xarajatlar tarkibida iste'mol xarajatlarining ulushi 81,1 foizdan 78,1 foizga, iste'moldan tashqari xarajatlar ulushi 7,1 foizdan 6,0 foizga qisqargan, aksincha, pul omonatlari va jamg'armalar ulushi 11,8 foizdan 15,9 foizga ortgan. Shu bilan birga, oilalarning iste'mol xarajatlari makrotarkibi ham optimallashib bormoqda: oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashib, xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bunday holat iqtisodiy rivojlanib borayotgan davlatlar uchun xosdir.

Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, 1991-2011 yillarda non va non mahsulotlarining iste'moli kamaygan, aksincha, qolgan oziq-ovqat mahsulotlarining iste'moli ortgan (9.2-jadval).

9.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol qilinishi (aholi jon boshiga, kilogramm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Yillar				2012 yilda 1991 yilga nisbatan foizda
	1991	2001	2010	2012	
Non va non mahsulotlari	170	167	160	158	92,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	31	34	38	39	125,8

Sut mahsulotlari	183	162	239	242	132,2
Tuxum (dona)	97	47	138	140	144,3
Sabzavot va poliz ekinlari	107	128	238	241	225,2
Kartoshka	29	36	45	47	162,0
O'simlik yog'i va boshqa moylar	12	12	13	13	108,3
Shakar	12	16	17	18	150,0
Meva, jumladan, uzum	23	42	83	85	369,5

O'zbekistonda aholi soni 1991-2011 yillar mobaynida 38,2 foiz oshganiga qaramasdan, jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 25,8 foizga ortdi, jumladan, sut va sut mahsulotlari 32,2 foiz, tuxum 44,3 foiz, sabzavot 2,2 barobar, kartoshka 1,6 barobar, meva 3,7 barobar va shakar 1,5 barobar o'sdi. Ayni vaqtda iste'mol tarkibi ancha sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish hisobidan o'zgarmoqda. Bunda uglevodlarga boy oziq-ovqatlarni (birinchi navbatda, non va non mahsulotlarini) iste'mol qilishning barqarorlashgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining soni, turi o'nlab barobar oshdi.

Yurtimizda oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining ortishi bilan bir qatorda asosiy engil sanoat mahsulotlarining iste'moli ham ko'payib bormoqda (9.3-jadval).

9.3-jadval

Asosiy engil sanoat mahsulotlarining aholi tomonidan iste'mol qilinishi, aholi jon boshiga (yil boshiga nisbatan)

Ko'rsatkichlar	1991 y	2001 y	2010 y	2012 y
Matolar, jami (metr)	7,1	5,6	9,7	10,0
shu jumladan:				
Paxta tolasidan tayyorlangan gazlamalar (metr)	2,2	2,2	2,9	3,0
Jun gazlama (metr)	0,3	0,3	0,7	0,8
Zig'ir tolasidan to'qilgan matolar, shoyi, ipak gazlamalar (metr)	1,8	3,2	4,6	4,7
Aralash matolar	0,7	-	1,5	1,5
Ustki kiyimbop trikotaj (dona)	0,6	1,1	2,5	2,6
Ichki kiyimbop trikotaj (dona)	0,9	1,6	3,5	3,6
Charm poyafzal (juft)	1,6	3,2	3,4	3,5
Paypoq mahsulotlari (juft)	3,7	6,0	6,7	6,7

Aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan nooziq-ovqat mahsulotlarning katta qismi ilgari respublikamizda ishlab chiqarilmas, balki chetdan keltirilar edi. Jumladan, televizorlar, kir yuvish mashinalari, elektr changyutgichlar, engil mashinalar 100 foiz, gazmollarning qariyb 40 foizi, barcha turdagi oyoq kiyim va boshqa shunga o'xshash mahsulotlarning 30 foizi chetdan olinib kelinardi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning ancha faol o'sishi asosan 2000 yildan so'ng, mamlakatimizda ularni ishlab chiqarishni rag'batlantiradigan shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratila boshlanganidan keyin kuzatildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sanoati aholining sifatli mebel, gilam mahsulotlari, engil avtomobillarga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlay oladi. Yurtimizda televizorlar, kondistionerlar va ekologik xavfsiz muzlatgichlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi. Trikotaj mahsulotlari, oyoq kiyimlar tayyorlash va engil sanoatning boshqa tarmoqlari yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Agar 2000 yilga qadar, o'tish davrining ob'ektiv shart-sharoitlari tufayli, aholining asosiy nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi va ta'minoti pasaygan bo'lsa, so'nggi o'n yillikda bu boradagi ko'rsatkichlarda barqaror o'sish tendenstiyasi kuzatilmoqda.

Bu jarayonda uy xo'jaliklari eskirgan va noquylay maishiy va elektrotexnika buyumlaridan voz kechib, yangi, zamonaviy, sifat jihatidan eski buyumlardan keskin farq qiladigan mahsulotlarni tez sotib olmoqda.

Qayd etilgan davrda mutlaqo yangi mahsulotlar paydo bo'ldi. Bugun ularni xonadon egalari katta qiziqish bilan sotib olmoqda: raqamli televizor va fotoapparatlar, sun'iy yo'ldosh antennalari va mobil telefonlar, DVD pleyerlar, kompyuter va unga qo'shimcha qurilmalar, noutbuklar va boshqa elektron texnikalar, qurilish materiallarining yangi turlari, qadoqlash buyumlari va boshqa ro'zg'or ashyolari shular jumlasidandir. Shunisi e'tiborliki, xonadonlarning zamonaviy maishiy va elektrotexnika bilan ta'minlanish sur'atlari yurtimizning barcha hududlarida bir maromda, mutanosib tarzda o'sib bormoqda (9.4-jadval).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan buyumlar bilan ta'minlanish bo'yicha mamlakatimizda yuksak darajaga erishilgan. Buni har 100 xonadonga 133 ta televizor, 101 ta sovutgich, 66 ta DVD pleyer, 149 ta mobil telefon to'g'ri kelishi tasdiqlaydi.

9.4-jadval

Aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanishi (har 100 xonadonga to'g'ri keladigan tovarlar soni)

Ko'rsatkichlar	2001 y	2010 y	2012 y
Televizorlar	88	132	133
Muzlatgich va muzxonalar	86	99	101
Kondistionerlar	11	18,5	19,1
Elektro changyutgichlar	30	37	38
Shaxsiy kompyuterlar	0,2	12	14
Fotoapparat va videokameralar	21	24	25
Videomagnitofon, videopleyer va DVD pleyerlar	31	64	66
Kir yuvish mashinalari	69	75	76
Mobil aloqa vositalari	18	145	149
O'rtacha har 1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan avtomobillar soni, birlikda	38,9	51,5	51,7
Har 100 ta xonadonga to'g'ri keladigan avtomobillar soni, birlikda	20,1	27,1	27,2

9.3. Iste'mol budjetining shakllanish usullari

Mavjud daromadlar darajasining inson va uning oilasi ehtiyojlari bilan taqqoslash asosida iste'mol budjeti yotadi.

Iste'mol budjeti – eng muhim moddiy boyliklar va xizmatlar hajmi va tarkibining qiymat ko'rsatkichidir. *Faktik va me'yoriy iste'mol budjeti* farqlanadi. Me'yoriy iste'mol budjeti davlat daromadlar siyosatining ijtimoiy me'yorlari bo'lib, ijtimoiy siyosatni o'tkazishda yo'nalish rolini o'ynaydi. *Iste'mol budjeti eng kam, oqilona va elitar iste'mol budjeti* kabi standartlarda bo'lib, ehtiyojlarni qondirishning turli darajalarini aks ettiradi (9.1-rasm).

Aytish joizki, ehtiyojlarni qondirishning eng kam, mo'tadil va to'kinlik darajasi mavjud. Ulardan birinchisiga eng kam iste'mol budjeti muvofiq keladi, u ehtiyojlarni qondirishning shunday tarkibi va darajasini tavsiflaydiki, jamiyat ularga iqtisodiy rivojlanishning ushbu bosqichida eng kam darajada yo'l qo'ysa bo'ladi, deb hisoblaydi. Ehtiyojlarni qondirishning ikkinchi va uchinchi darajasiga (farovonlik va to'kinlik darajasi) oqilona (ijtimoiy farovonlik budjeti) va elitar iste'mol budjetlari muvofiq keladi. Bu budjetlar o'rtacha va yuqori (o'ta yuqori) daromadlarga ega odamlar iste'molining tarkibi va darajasiga mo'ljallangan.



9.1-rasm. Iste'mol budjeti va uning muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan aloqadorligi.

Yashash minimumi budjeti insonning salomatligini saqlash va uning hayoti hamda faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan *oziq-ovqat* mahsulotlari eng kam to'plamining qiymat bahosini, shuningdek, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlariga, soliqlarga va majburiy xizmatlarga xarajatlarni, bu maqsadlarga aholining past daromadli guruhlari xarajatlari ulushidan kelib chiqqan holda ifodalaydi.

Shunday qilib, yashash minimumi budjeti eng kam iste'mol budjetining faqat chegaralangan muddatlarda – iqtisodiyotning tanglikni boshidan kechirayotgan davrda foydalanishga mo'ljallangan eng "qattiq" *turini* ifodalaydi. Ko'rsatilgan budjet, asosiy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishni ta'minlovchi eng kam iste'mol budjetidan farqli ravishda, jismoniy tirik qolish va odamlar sog'lig'ini saqlashga mo'ljallangan. *Biroq, bugun aynan tirikchilik minimumi* budjeti ish haqining eng kam miqdorini belgilash uchun, pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam, stipendiyalarni va boshqa ijtimoiy to'lovlarni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tirikchilik minimumining budjet hisoblari aholining kam ta'minlangan va zaif himoyalangan qatlamlari uchun ijtimoiy kafolatlar tizimini asoslashga imkon beradi.

Eng kam iste'mol budjetini hisoblash nisbatan ilmiy asoslangan bo'lib, u mehnatga layoqatlilarning ishchi kuchini mo'tadil ravishda qayta tiklanishi va rivojlanishini hamda mehnatga layoqatsizlarning mo'tadil hayoti va faoliyatini ta'minlaydi.

Eng kam iste'mol budjeti *nisbatan sifatli* oziq-ovqat, nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlar, shu jumladan, pullik xizmatlar iste'moliga xarajatlarni hisobga oladi. Eng kam iste'mol budjeti ishchi kuchining eng quyi chegarasini, insonning jismoniy talablariga muvofiq keluvchi mo'tadil darajadagi sog'ligi va ishlash qobiliyatini aks ettiradi.

Endi turli darajalardagi iste'mol budjetlari ishlab chiqishga metodologik yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

Iste'mol budjeti, qoidaga ko'ra, haqiqiy xarid narxlaridagi yuzlab tovarlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bu tovar va xizmatlar to'plami **iste'mol savatchasi** deb ataladi. Shunday qilib, iste'mol budjeti oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol savatchasini ifodalaydi va xizmatlar va soliqqa to'lovni o'z ichiga oladi.

Iste'mol budjeti tarkibida odatda xarajatlarning quyidagi turlari ko'zda tutiladi:

– oziq-ovqat;
– kiyim, ichki kiyim, oyoq kiyimi;
– sanitariya, gigiena, dori predmetlari;
– mebel, idish, uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan predmetlar;
– uy-joy va kommunal to'lovlari:
– madaniy-ma'rifiy tadbirlar va dam olish;
– maishiy xizmatlar;
– transport;
– aloqa;
– boshqalar.

Odatda, iste'mol budjeti aholining ijtimoiy-demografik va kasbiy guruhlari bo'yicha, shuningdek, mamlakat mintaqalari bo'yicha tabaqalanadi. Masalan, tirikchilik minimumi o'rtacha aholi jon boshiga va alohida 6 yoshgacha bolalar uchun, 7-15 yoshgacha o'smirlar uchun, mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar uchun, mehnatga layoqatli ayollar uchun, pensionerlar uchun hisoblanadi. Undan tashqari, mamlakat hududi shartli ravishda bir-biriga o'xshash tabiiy-iqlim sharoilari, milliy an'analar va mahalliy iste'mol xususiyatlari bilan tavsiflanadigan yashash hududlariga

bo'linishi mumkin. Ularning har biri uchun maxsus oziq-ovqat mahsulotlari to'plamini belgilashga imkon beradi.

Jahon va mamlakat amaliyotida iste'mol budjetining quyidagi usullari ishlab chiqilgan:

– **me'yoriy** – budjet alohida tovar va xizmatlar (me'yoriy iste'mol savati) va ularning real qiymatlari asosida belgilanadi. Ishlab chiqilayotgan budjet turiga bog'liq ravishda me'yorlar eng kam va mo'tadil darajada bo'ladi.

– **statistik** – budjet mamlakat aholisining ma'lum qatlamlarining o'z ixtiyoridagi daromadlari darajasida belgilanadi. Masalan, tirikchilik minimumi budjeti uchun mamlakatning 20% eng kambag'al fuqarolari daromadlari qabul qilinadi. Elitar iste'mol budjetlarini o'rnatish uchun mamlakatning badavlat va boy odamlari daromadlari asos bo'lishi mumkin.

– **birlashtirilgan** (me'yoriy-statistik) – oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlarning iste'mol me'yorlari bo'yicha, qolgan qismlar esa statistik yo'l bilan belgilanadi.

– **subyektiv** – mavjud budjetning zaruriy darajasi jamoatchilik fikri va ekspertlari so'rovi asosida belgilanadi.

– **zaxiraviy** – davlatning ushbu davrda eng kam iste'mol budjetining yoki tirikchilik minimumi budjetining ma'lum darajasini ta'minlash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Turli standartlardagi iste'mol budjetlari quyidagi vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi:

– aholining erishilgan va basharot qilinuvchi turmush darajasining obyektiv baholanishini ta'minlaydi;

– davlat daromadlar siyosatini va taqsimlash munosabatlari tizimini asoslashga yordam beradi;

– jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishning va alohida ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolining tahlilini ta'minlaydi;

– manzilli ijtimoiy siyosat uchun asos, muayyan oilalar iqtisodiy ahvolining mezoni va kam ta'minlangan oilalar daromadlari hamda iste'molini tartibga solish uchun yo'nalish bo'ladi.

Yashash minimumi budjeti uzoq vaqtgacha me'yoriy-statistik yondashuv asosida ishlab chiqilgan. Qator mamlakatlarda "Yashash minimumi to'g'risida"gi Qonunga asosan uni shakllantirishning me'yoriy

usullariga o'tish ko'zda tutiladi. Qonun talablariga muvofiq, mamlakat subyektlarida aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun iste'mol savatini belgilash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ko'rsatilgan usullar bo'yicha iste'mol budjetining barcha qismlari to'g'ri hisoblar bilan – iste'mol me'yorlari va ularning haqiqiy qiymati asosida belgilanadi. Uslubiy tavsiyalar quyidagilardan tarkib topadi:

– insonning sog'lig'i va hayot faoliyatini saqlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovar va xizmatlarining eng kam to'plamini shakllantirish tamoyillari va tartibi;

– subyektlar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarini iste'mol qilishning tabiiy-iqlim sharoitlari va mahalliy o'ziga xosliklarini hisobga olishga yondashuvlar;

– subyektlar bo'yicha aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarining taxminiy eng kam to'plamlari (iste'mol me'yorlari).

Oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovar va xizmatlar iste'molining eng kam me'yorlari quyidagilarni hisobga olgan holda belgilanadi:

– iste'mol miqdorlari va insonning sog'lig'i hamda hayot faoliyatini saqlash uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar ro'yxati bo'yicha ilmiy tavsiyalar;

– muhtoj oilalarda oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovar va xizmatlarni iste'mol qilishning real miqdorlari;

– aholi daromadlari darajasi, aholi tarkibi va yosh-jins tarkibini, oilalarning miqdori va tarkibini tavsiflovchi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar;

– davlatning aholi ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'yicha moliyaviy imkoniyatlari.

Qayd qilish lozimki, mazkur budjetning barcha me'yorlari aholining ijtimoiy-demografik guruhlari (0-6 yoshdagi bolalar, 7-15 yoshdagi bolalar, mehnatga layoqatli erkaklar va ayollar, pensionerlar) bo'yicha, shuningdek, yashash mintaqalari bo'yicha tabaqalanadi – oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish me'yorlari har bir mintaqada alohida ishlab chiqiladi, nooziq-ovqat mahsulotlarining eng kam to'plamlari esa sovuq va keskin kontinental iqlimli, mo'tadil iqlimli, issiq iqlimli uch yashash zonasi o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Yashash minimumi budjetida muhim o'rin oziq-ovqat mahsulotlari savatiga tegishlidir.

Oziq-ovqat mahsulotlari savati – bu bir oyga bitta odam uchun mo'ljallangan (mahsulotlarni iste'mol qilishning eng kam me'yorlari asosida hisoblab chiqilgan) oziq-ovqat mahsulotlarining to'plami bo'lib, u jismoniy ehtiyojlarga muvofiq keladi, talab qilingan to'yimlilikni va asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga boylikni va ovqatlanishni tashkil qilishning an'anaviy ko'nikmalariga amal qilinishini ta'minlaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarining eng kam to'plamini shakllantirishda aholining turli guruhlari uchun oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy ehtiyojlar me'yorlaridan va Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalaridan foydalaniladi. Shu bilan birga, kam ta'minlangan oilalardagi haqiqiy mahsulot iste'molini hisobga olgan holda ovqatlanishning yuzaga kelgan tarkibi hisobga olinadi, shuningdek, eng kam xarajatlar paytida qoniqarli ovqatlanishni tashkil qilishga imkon beruvchi mahsulotlar tanlab olinadi (9.5-jadval).

9.5-jadval

Aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun oziq-ovqat mahsulotlarining eng kam to'plami (1 yilda kg)

Mahsulot turlari	Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi		Pensi-onerlar	Bolalar	
	Erkak	Ayol		0-6 yosh	7-15 yosh
Non mahsulotlari	177	124,9	119	64,4	112,3
Kartoshka	150	95,0	90,0	85,0	135
Sabzavotlar	91,8	86,8	96,8	85,0	120,0
Mevalar va rezavorlar	18,6	14,6	13,6	34,4	44,4
Shakar va konditer mahsulotlar	20,8	19,8	18,8	19,7	26,1
Go'sht mahsulotlari	34,8	28	22,7	18,7	33,5
Baliq mahsulotlari	14,7	12,7	14,7	8,7	12,5
Sut va sut mahsulotlari	217,3	203,5	199,5	279	304,2
Tuxum, dona	180	150	90	150	180
O'simlik yog'i, margarin va boshqa yog'lar	13	11	10,2	7	12
Boshqa mahsulotlar (tuz, choy, ziravorlar)	4,88	4,88	4,15	2,925	4,015

Nooziq-ovqat mahsulotlarining eng kam to'plamini shakllantirishda quyidagi tamoyillar hisobga olinadi:

– yosh xususiyatlari va organizmni atrof-muhit ta'siridan himoya qilishni hisobga olgan holda, turmushni tashkil qilish uchun aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlarining nooziq-ovqat tovarlariga ehtiyojlarini qondirish;

– kam ta'minlangan oilalarning nooziq-ovqat tovarlari bilan ta'minlanganligining yuzaga kelgan darajasi;

– nooziq-ovqat tovarlarining eng kam yangilanishi, eng kam xilma-xilligi va past chakana narxi, ommabopligi.

Nooziq-ovqat tovarlarining eng kam to'plami yakka tartibda foydalaniladigan tovarlardan (kiyim, oyoq kiyimi va maktab-yozuv tovarlari) va umumiy oila tovarlaridan (choyshab, yostiq, ko'rpa jildlari, madaniy-maishiy va xo'jalik tovarlari, birinchi ehtiyoj, sanitariya predmetlari va dorilar) tashkil topadi (9.6-jadval).

9.6-jadval

Aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun noiste'mol tovarlarining tarkibi*

Tovarlarning nomlanishi	Birlik/ foydalanish muddati	Iste'mol hajmi (o'rtacha bir kishiga)		
		Mehnatga layoqatli aholi	Pensionerlar	Bolalar
Ustki palto guruhi	dona/yil	3/7,6	3/8,7	3/2,6
Ustki kastum-ko'ylak guruhi	dona/yil	8/4,2	8/5,0	11/2,0
Ichki kiyim	dona/yil	9/2,4	10/2,9	11/1,8
Paypoq buyumlari	juft/yil	7/1,4	4/1,9	6/1,3
Bosh kiyim va attorlik mollari	dona/yil	5/5,0	4/5,6	4/2,8
Poyabzal	juft/yil	6/3,2	6/3,5	7/1,8
Maktab-yozuv tovarlari	dona/yil	3/1,0	3/1,0	27/1,0
Choyshab	dona/yil	17/7,0	14/7,0	14/7,0
Madaniy-maishiy va xo'jalik tovarlari	dona/yil	19/10,5	19/10,5	19/10,5
Sanitariya va dori-darmon kabi birinchi zaruriy buyumlar	Oyiga noiste'mol tovarlariga sarflanadigan umumiy xarajatning foizi	10	10	10

Ko'rinib turibdiki, yakka tartibda foydalaniladigan nooziq-ovqat tovarlarining eng kam to'plami me'yorlari ijtimoiy-demografik guruhlar va uch yashash mintaqasi bo'yicha tabaqalanadi, umumiy oilada foydalanish tovarlarining eng kam to'plami esa umuman mamlakat bo'yicha bitta o'rtacha statistik oilaga ko'rsatilgan. Misol sifatida mo'tadil iqlim mintaqasida yashovchi mehnatga layoqatli yoshdagi ayollar uchun yakka tartibda foydalaniladigan nooziq-ovqat tovarlarining eng kam to'plami va eskirish muddatlarini keltiramiz: qishki palto (8 yil), yengil palto (7 yil), plash (7 yil), nim jun ko'ylak (5 yil), ikkita ip gazlama ko'ylak (5 yil), xalat (5 yil), ikkita bluzka (5 yil), yubka (5 yil), jemper (5 yil), sport kostyumi (3 yil), uchta kolgotka (1 yil), ichki kiyim, qishki etik (5 yil), kuzgi etik (3 yil), kuzgi tufli (1,5 yil), yozgi tufli (1,5 yil), shippak (3 yil), rezina poyabzal (5 yil), mo'ynali shapka (8 yil), jun shapka (4 yil), sharf (6 yil), ikkita trikotaj qo'lqop (3,5 yil).

Xizmatlarning eng kam to'plami turarjoy, markaziy isitish, sovuq va issiq suv, gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash, transport xizmatlaridan tashkil topadi (9.7-jadval).

9.7-jadval

Aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun xizmatlarning tarkibi*

Xizmatlarning nomlanishi	Birlik	Iste'mol hajmi (o'rtacha bir kishiga)		
		Mehnatga layoqatli aholi	Pensionerlar	Bolalar
Turarjoy	Umumiy maydoni, kv.m.	18,0	18,0	18,0
Markaziy isitish	Yiliga gkal	6,7	6,7	6,7
Sovuq va issiq suv ta'minoti	Sutkasiga litr	285,0	285,0	285,0
Gaz ta'minoti	Oyiga kub m.	10,0	10,0	10,0
Elektr energiyasi	Oyiga kVt s	50,0	50,0	50,0
Transport xizmatlari	Yiliga foydalanishi	619,0	-	396
Xizmatning boshqa turlari	Oyiga xizmatlarga sarflanadigan umumiy xarajatning foizi	15,0	15,0	15,0

Iste'mol savatini aniqlashning qator usullari mavjud bo'lib, bu minimal iste'mol me'yorlari bilan o'lchanadi. Me'yoriy yondashuvlar kishining yoshi, jinsi, kasbi bilan bog'liq ravishda kishi organizmini takror ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan oqsillar, vitaminlar, uglevodlar va boshqalar orqali tavsiflanadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'molning bir sutkalik kalloriyasi Shvetsiyada – 3160 kkal, AQShda 3642 kkal, Rossiyada 2704 kkal tashkil qiladi. O'zbekistonda jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun 3300-4200 kkal, jismoniy va aqliy faoliyatni nisbatan birga olib boruvchilar uchun 2800-4200 kkal, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun 2500-3000 kkal ozuqa talab qilinadi. Bu normalar tibbiyot nuqtai nazaridan hisoblab chiqilgan. Bir sutkada 1000 kkal dan past oziq-ovqat iste'mol qiluvchi kishilar o'zlarining sarflagan mehnat qobiliyatlarini tiklash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholining pul xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Amalga oshirishning davriyligi nuqtai nazaridan aholi xarajatlari nechta guruhga ajratiladi?
3. Shaxsiy iste'mol xarajatlariga nimalar kiradi?
4. Joriy va kapital xarajatlar deganda nimani tushunasiz?
5. O'zbekiston Respublikasida aholi yalpi xarajatlarining tarkibida qanday ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda?
6. Iste'mol budjeti deganda nimani tushunasiz?
7. Iste'mol savatini aniqlashning qanday usullari mavjud?
8. Bir sutkada nechta kkal dan past oziq-ovqat iste'mol qiluvchi kishilar o'zlarining sarflagan mehnat qobiliyatlarini tiklash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar?

X bob. TURMUSH SIFATI KO'RSATKICHLARI VA OMILLARI

10.1. "Turmush sifati" tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Turmush sifati deganda, keng ma'noda aholining turli ehtiyoj va manfaatlari nuqtayi nazaridan o'z turmushidan qoniqishi tushuniladi[3]. Bu tushuncha turmush darajasi xususiyatlari va indikatorlarini, mehnat va dam olish, uy-joy sharoitlari, ijtimoiy ta'minot va kafolatlarni, huquqiy tartibni saqlash va shaxs huquqlariga amal qilinishini, tabiiy-iqlim sharoitlari, atrof-muhitni asrash ko'rsatkichlarini, bo'sh vaqtning mavjudligi va undan oqilona foydalanish imkoniyatlari, nihoyat, tinchlik, orom, maishiy qulaylik, barqarorlikni qamrab oladi.

Turmush sifati iqtisodiyot chegarasidan tashqariga chiquvchi obyektiv va sotsiologik tarkibiy qismlarni, ya'ni ehtiyoj va manfaatlarni qondirish, insonlarning o'zlarining turmushidan qanoatlanish darajasini o'z ichiga oluvchi kategoriyadir.

Aholi turmush sifatining tarkibiy qismlariga turmush darajasi va turmush sharoitlari kiradi. O'z navbatida, turmush darajasi aholi daromadlari, keksalar ta'minoti, aholi omonatlarining to'planishi, sug'urta, sog'liqning ahvoli, bo'sh vaqt, jamoat xavfsizligi, ta'lim saviyasi, transportda harakatlanish xavfsizligi, fuqarolarning huquqiy himoyasi, migratsiyaning o'sish ko'rsatkichlari, qashshoqlik, ishsizlik, kundalik iste'mol darajasi, aholining iqtisodiy aktivlar bilan ta'minlanganligi kabi ko'rsatkichlar bilan, aholining turmush sharoiti esa ijtimoiy-ruhiy iqlim, yashashning tabiiy-iqlim va ekologik sharoitlari bilan belgilanadi.

Aholi turmush sifati uning oldingi davrlarda to'plangan iqtisodiy aktivlar – ham nomoliyaviy (ko'chuvchi va ko'chmas mulk bilan – uy-joy, uning sifatini hisobga olgan holda va shaxsiy transport bilan ta'minlanganlik), ham moliyaviy (omonatlar, qimmatli qog'ozlar, naqd pul va chet el valyutasidagi jamg'armalar) bilan ta'minlanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Dastlab turmush sifati asosan atrof-muhit, sog'liqni saqlash, shaharlarni yangilash masalalari bilan bog'liq bo'lgan. Lekin, tez orada bu atama jamiyatning yashash qobiliyatini ta'minlash nuqtayi nazaridan baholana boshlandi va insoniyat yaqin kelajakda erishishi lozim bo'lgan

3. Социальная политика, уровень и качество жизни: Словарь. – М.: ВЦУЖ, 2001.

qandaydir bir futurologik ideal insonlar o'rtasidagi yangi munosabatlarga ega taraqqiyotning keyingi bosqichiga o'tishning tarkibiy qismi sifatida talqin qilina boshlandi, unda birinchi o'ringa pul emas, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar uyg'unligi chiqadi.

Bugun jamiyat ahvolini baholash uchun an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanib, iqtisodiyotda bo'layotgan sifat jarayonlarni tasvirlash qiyin. Yaqin vaqtlarga qadar mavjud YaIM va o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichlaridan jamiyat farovonligi mezoni sifatida foydalanilgan. Lekin, bu ko'rsatkichlar hech qachon jamiyat ijtimoiy ta'minotini yoki aholi turmush sifatini aks ettirmagan.

Real YaIM va o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichlari jamiyat boyligiga taalluqli umumiy manzarani, ba'zi hollarda esa mamlakatning o'rtacha turmush darajasini belgilashi mumkin, lekin jamiyatning sifatli rivojlanishiga baho bera olmaydi.

"Turmush sifati" tushunchasi "turmush darajasi", "turmush tarzi", "xalq farovonligi" kabi tushunchalar bilan bir qatorda turadi, shu bilan bir vaqtda ulardan tubdan farq qiladi. Lekin "aholining turmush sifati" va "aholining turmush tarzi" – bu bir-birini o'zaro to'ldiradigan, lekin bir-birini almashtirmaydigan kategoriyalardir.

Ko'pchilik olimlar bu tushuncha "turmush darajasi", "turmush tarzi", "aholi farovonligi" atamalaridan jiddiy farq qiladi, degan fikrga qo'shiladi. To'g'ri, "turmush sifati" tushunchasining mavjud talqini va ta'rifi nihoyatda har xil va chet el tadqiqotchilarning bu muammoga qiziqishi katta bo'lishiga qaramay, munozarali bo'lib qolmoqda. Ayrim mualliflar "ishlab chiqarish" va "tovarlarni iste'mol qilish" tushunchalarini, birinchi navbatda, turmush sur'ati jiddiyligini kamaytirishga, stress vaziyatlarini pasaytirishga, ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan, unchalik manfaatparastlik ruhida bo'lmagan va inson shaxsiga qaratilgan ijtimoiy maqsadlar bilan faqatgina to'ldirish zaruriyati haqida fikr yuritadi. Boshqalari turmush sifati tushunchasining o'zini butun jamiyatga emas, balki uning oddiy iste'molchi ommadan baland bo'lishga qodir arzimas qismiga nisbatangina qo'llasa bo'ladi, deb hisoblaydi. Turmush sifatini bugungi ehtiyojlardan (eng avvalo, ulardan moddiy boyliklarni iste'mol qilishga doir bo'lganlaridan) voz kechish va hanuzgacha rivojlangan mamlakatlarda yalpi mahsulot iste'molini ko'paytiruvchi iqtisodiy o'sishni cheklash bilan bog'laydigan mualliflar ham bor. Nazarimizda,

"turmush sifati" tushunchasi aslida nafaqat buyumlarga ega bo'lish, balki madaniy boyliklar, inson shaxsini rivojlantirish, ta'lim olish imkoniyati, ijtimoiy zinapoyadan yuqoriga ko'tarilish, ijtimoiy masalalar, keksalikdagi ta'minlanish, mehnatdan qoniqishni hal qilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lishdir.

"Turmush sifati" atamasi iqtisodiy adabiyotlarda quyidagi uch nuqtayi nazardan baholanadi:

– turmush sifati va turmush darajasi deyarli sinonim bo'lib, bir-biri bilan chambarchas o'zaro aloqada bo'ladi. Turmush darajasi deganda, aholining zarur moddiy boylik va xizmatlar bilan ta'minlanganligi, ularni iste'mol qilishning erishilgan darajasi va ehtiyojlarni qondirish darajasi tushuniladi. Keng ma'noda "aholi turmush darajasi" tushunchasi yana turmush, mehnat va bandlik, tirikchilik va xizmat, salomatlik, ta'lim olish, turarjoy, tabiiy muhit sharoitlarni ham o'z ichiga oladi. Bu o'rinda ko'proq "turmush sifati" atamasi qo'llanadi;

– turmush sifati deganda, turli ehtiyoj va manfaatlarni hisobga olgan holda aholining o'z hayotidan qoniqishi tushuniladi. Bu tushuncha turmush darajasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari va indikatorlari, mehnat va dam olish, uy-joy sharoitlari, ijtimoiy ta'minot va kafolatlarni, huquq tartiblarini muhofaza qilishni va shaxs huquqlariga amal qilinishini, tabiiy-iqlim sharoitlarni, atrof-muhitni muhofaza qilish ko'rsatkichlarini, bo'sh vaqtning mavjudligi va undan oqilona foydalanish imkoniyatlari, nihoyat, osoyishtalik, qulaylik va barqarorlikning subyektiv his qilinishini qamrab oladi. Bu turmush darajasining ancha keng talqinidir;

– "turmush darajasi" atamasi ancha tor (masalan, "aholi turmushining darajasi va sifati" so'z birikmasida) talqin qilinadi: u sanab o'tilgan omillarni iqtisodiy nuqtayi nazardan turmush darajasining o'zisiz qamrab oladi (daromadlar, turmush qiymati, iste'mol).

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmida G'arb mamlakatlarida turmush sifati muammosi bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy adabiyotlar yaratildi. Ular xorijiy tadqiqotlarning ikki yo'nalishda, ya'ni turmushning obyektiv sharoitlari va subyektlarning o'z turmushidan qoniqish darajasini o'rganish asosida olib borilganligini ko'rsatadi.

Chet el olimlari nuqtayi nazarlarini umumlashtirish, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning (BMT, YuNESKO, Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) sifat muammosiga yondashuvlari shuni belgilashga imkon

beradiki, u butun ijtimoiy taraqqiyot mexanizmining almashinuvi sababli yuzaga kelgan bo'lib, uning birinchi bosqichi yuqori iste'mol darajasiga ega rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti yutuqlari bilan, ikkinchisi esa "iste'mol jamiyati"ni yengish va postsanoat jamiyat sharoitlarida inson faoliyati asoslarining o'zgarishi bilan bog'liq.

Islohotlar o'tkazilgunga qadar fanda, garchi bu tushunchaning nazariy tadqiqotlari o'tkazilgan bo'lsada, "turmush sifati" atamasi keng ilmiy tadqiq etilmagan edi. Turmush sifati turmush darajasi va tarzi birligining oraliq tarkibiy qismi deb baholanardi. Iqtisodiyot fanida bu uch xil elementdan tashkil topgan butunlik "farovonlik" tushunchasi bilan birlashtiriladi va bu tushuncha "turmush darajasi" tushunchasi bilan bir xil deb baholangan.

"Turmush sifati" tushunchasining asosiy ta'riflarini tahlil qilish qator mualliflar "iste'molchilik" yondashuviga (shaxsiy talab nuqtayi nazaridan) asoslanganligini, boshqalari esa uni subyektiv hissiyotlarga ega kontekstda baholaganligini ko'satadi.

10.2. Turmush sifatining asosiy komponentlari

Turmush sifati shaxsning, uning faoliyat turlarini, ehtiyojlari tarkibini va ularni qondirish darajasini, insonning (aholi, ijtimoiy guruhlarning) jamiyatdagi turmush sharoitlarini va tabiat muhiti bilan uyg'un munosabatlarini tavsiflovchi, turmushdan qanoatlanish hissini yaratuvchi hayotiy qadriyatlari majmui hisoblanadi.

Ushbu ta'rif turmush sifatining asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi va quyidagilarga asoslanadi:

– aholining mehnat, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga;

– ijtimoiy muhit xususiyatlarini, tabiiy muhit va inson tomonidan yaratilgan sun'iy muhit ("ikkinchi tabiat") boyliklarini o'z ichiga oluvchi turmush sharoitlariga;

– inson tomonidan amalga oshiriluvchi va eng avval mehnat, turmush, dam olish va boshqalarni o'z ichiga oluvchi faoliyat turlariga.

Turmush sifatining ruhiy jihati kognitiv (oqilona) va affektiv (hissiy) subyektiv komponentlar bilan belgilanadi (10.1-rasm).

10.1-rasmdan ko'rinib turganidek, kognitiv komponent insonning hayotidan va uning turli sohalaridan qoniqishini baholashdan iborat. Birinchisi va ikkinchisi ham axborotning inson tomonidan qayta ishlanishining turli mexanizmlariga tayanuvchi ikkita nisbatan mustaqil ruhiy voqelikdan tarkib topadi.



10.1-rasm. Turmush sifatini subyektiv tashkil qiluvchilar tarkibi.

Affektiv komponent ijobiy va salbiy jihatlar muvozanatidir. Muvozanat deganda, salbiy (og'ir ruhiy kayfiyat, xavotirlanish, stress) va ijobiy (baxt, ijtimoiy yordam, shaxsiy omilkorlikni his qilish) affektlarining o'zaro nisbati tushuniladi.

Bundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, turmush sifatining asosiy tarkibiy qismlariga mehnat hayoti sifati, ijtimoiy hayot sifati, atrof muhit sifati va shaxsiy hayot sifati kiradi (10.2- rasm).

Mehnat faoliyati jarayonida inson ehtiyojlarini qondirish ishning mazmunini alohida idrok etishga, ya'ni uning tabiatining alohida ijrochi tomonidan tushunilishiga asoslangan. Masalan, o'zini namoyon qilishga ehtiyoj sezuvchi xodim ishdagi mustaqillikni, bunday ehtiyoji yo'q xodimga nisbatan salbiy qabul qiladi. Shu bilan birga, o'z hayotining katta qismini ishda o'tkazar ekan, inson o'z ehtiyojlarini aynan tashkilot (korxona) doiralaridagi faoliyat orqali qondiradi.

Mehnat hayotining sifati – bu xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini tashkilot (korxona) doiralaridagi faoliyat orqali qondirish darajasidir.

Uni odamlarga ta'sir qiluvchi istalgan tashkiliy parametrlarni yaxshi tomonga o'zgartirgan holda oshirish mumkin. Ya'ni, bunga xodimlarning boshqaruvda ishtirok etishi, ularni o'qitish, rahbar xodimlar tayyorlash, xizmat bo'yicha ilgarilash dasturlarini amalga oshirish, xodimlarga jamoada samaraliroq munosabatda bo'lish va o'zini tutish usullarini o'rgatish, mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish orqali erishish mumkin.



10.2-rasm. Turmush sifatining komponentlari.

Mehnat hayoti sifatining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

– *mehnatning mazmuni* (qiziqarli mehnat, ijod unsurlarining mavjudligi);

– mehnatni tashkil qilish (loyihaviy va masofali mehnat, ko'p vazifali ish o'rni, mehnatning moslashuvchan grafigi, manfaatlariga va mehnatiga aloqador qarorlar qabul qilishda xodimlarning ishtiroki);

– mehnatning adolatli taqdirlanishi va e'tirof etilishi;

– mehnatning havfsiz va sog'lom sharoitlari;

– qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar imkoniyati;

– huquqiy himoyalanganlik;

– mahoratni o'stirish va o'z kuchlarini rivojlantirish imkoniyatlari;

– hamkasblar bilan do'stona munosabatlarga yordam beruvchi tashkiliy madaniyat.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda mehnat hayoti sifati konsepsiyasining keng tarqalganligi munosabati bilan u xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi deb tan olingan.

Ijtimoiy hayot sifati ijtimoiy sohani (sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot, fan, madaniyat va san'at) rivojlantirishning yuksak darajasini: ko'rsatiladigan xizmatlarning ommabopligini; aholini ijtimoiy himoya qilishni (nafaqa, pensiyalar miqdori), shuningdek, sog'lomlashtirish, reabilitatsiya, sport bilan shug'ullanish va madaniy qadriyatlarga qo'shilish imkoniyatlarini taqozo qiladi.

Yevropa iqtisodiy komissiyasi tasnifida turmush sifati ko'rsatkichlarining sakkizta guruhi ajratiladi: birinchi o'rinda – sog'liq, ikkinchisida – iste'mol, uchinchisida – ta'lim. BMT tasnifida birinchi o'ringa oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli qo'yilgan, keyin – salomatlik ahvoli, bilim darajasi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash sohasining ahvoli, iste'mol darajasi rivojlangan mamlakatlar va xalqaro ixtisoslashgan tashkilotlarning inson imkoniyatlarini qayta tiklashni ta'minlashga safarbar qilingan milliy ijtimoiy tizimlarni baholashdagi ilmiy vositalari qatoridan mustahkam o'rin oldi.

Qator mamlakatlarda turmush sifatini oshirishga tomon qo'yilgan ilk qadam aholi daromadlarini muntazam oshirish, pensiya, nafaqa va eng kam ish haqi miqdorini tirikchilik minimumigacha yetkazish yo'li bilan qashshoqlikni yengish bo'ldi. Shu maqsadlarda jahon amaliyotida ishlab chiqilgan soliq, qayta taqsimlash mexanizmlarini va ish haqlarining muvozanatlashtirilgan tizimlarini hisobga olgan holda, ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulotni taqsimlash jarayonlarini o'zgartirish kerak.

Ijtimoiy sohadagi ustunliklarning almashinishi aholining moddiy, aqliy va ma'naviy ehtiyojlarini, umuman yangi darajada qondirishga va bu shaxs, jamiyat va davlatning dinamik ravishda rivojlanishiga imkon beradi.

Shaxsiy hayot sifati insoniyatning dunyo miqyosidagi rivojlanishining bugungi kundagi yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, oiladagi uyg'un munosabatlar va shaxslarning o'zaro hurmatiga, uy xo'jaligini va bolalar tarbiyasini birgalikda olib borishga, ishdan bo'sh vaqtlarni o'tkazish va o'z shaxsini rivojlantirish uchun bo'sh vaqtning mavjudligiga, qadriyatlarni va dunyoqarashni shakllantirishga asoslanadi.

Atrof muhit sifati insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri xususiyatining o'zgarishini, tabiiy dunyoni, suv va havo muhitini himoya qilishga, flora va faunani saqlashga, zararli kimyoviy moddalar chiqarib tashlashni qisqartirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazishni taqozo qiladi.

Turmush sifati kategoriyasining murakkabligi va serqirraligi uni o'lchash va kompleks ravishda baholashda muayyan qiyinchiliklar

tug'diradi. Shu o'rinda aytish kerakki, turmush sifatini baholashning miqdoriy usullarini birlashtiruvchi ilmiy soha **kvalimetriya** deb ataladi.

Mehnat hayoti sifatiga muvofiq ravishda uning xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi mehnat jarayonining miqdor va sifat xususiyatlarini, rahbarlik usullarini, taqdirlashning adolatli taqsimlanishini o'z ichiga oladi.

Mehnat jarayonining miqdor me'yorlari yoki etalonlari vaqt, ishlab chiqish, to'lov me'yorlari, mehnat va dam olish tartiblaridan iborat. Sifat xususiyatlari esa mehnat jarayonining mazmuni, martabaning oshish imkoniyati, maqomiy o'rinlar va boshqa xususiyatlardan tarkib topadi.

Ijtimoiy hayotning sifati sohasida ijtimoiy parametrlar qo'llanishi mumkin. **Ijtimoiy parametrlar** deganda ijtimoiy sohani, uning tarkibini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning ehtiyojlari va manfaatlarini, ularni qondirish shakllari va usullarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, aholi daromadlari, iste'moli darajasi va dinamikasini, ularning tabaqalanishini, ularni belgilovchi omillarini o'lchovchi va baholovchi ko'rsatkichlar tushuniladi.

Turmush sifati bahosining integral modeli obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlar hamda indikatorlar bilan baholanuvchi ko'p omilli konstruktsiya bilan ko'rsatiladi. U quyidagilarni aks ettiradi:

– hududlar ahvoli va rivojlanishining geoiqlim, iqtisodiy va ekologik o'ziga xos xususiyatlarini;

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillarini, ya'ni aholi daromadlarini, umrning uzoqligini, mehnat bozoridagi ahvolni, uy-joy va madaniy-maishiy sharoitlar bilan ta'minlanganlikni, tovarlar va xizmatlarning alohida turlari bo'yicha iste'molni;

– aholining ijtimoiy kayfiyati ko'rsatkichlarini, mehnat va shaxsiy hayot muvozanatini. Bunday konseptual model 10.3-rasmda ko'rsatilgan.

Turmush sifatining nisbiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

– resurslarning zichlik ko'rsatkichlari (aholi soni, yo'llar uzunligi va boshqalarning hudud maydoni birligiga);

– aholiga jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar (sut ishlab chiqarish va hokazo);

– tarkibiy ko'rsatkichlar (umumiy sondagi ulush, masalan, qotillik sodir qilganligi aniqlangan shaxslarning umumiy sonida balog'atga yetmaganlar ulushi);



10.3-rasm. Aholi turmush sifatining tarkibiy sxemasi.

– o'zaro nisbat ko'rsatkichlari (1000 ta nikohga to'g'ri keladigan ajralishlar soni yoki 100 ming aholiga to'g'ri keladigan o'z joniga qasd qiluvchilar soni);

– og'ish ko'rsatkichlari (mahalliy qiymatning etalon uchun qabul qilingan qiymatdan og'ishini tavsiflovchi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar);

– dinamik ko'rsatkichlar (o'zgarish sur'atlari, masalan, amaldorlar sonining o'sish sur'atlari, madaniyatning tushish sur'atlari va h.k.).

1. Yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan turmush sifatini, mamlakat aholisi salomatligini (tug'ilish, o'lim, umrning davomiyligi), uning mulki va ijtimoiy xavfsizligini (mehnat sharoitlari, jinoyatchilik, nafaqa, pensiyalar miqdori), ekologik parametrlarni tavsiflovchi statistik ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan 10 ballik shkala bo'yicha baholashning kompyuter tizimi taklif qilingan.

Buyuk Britaniyaning "The Economist" nashriyoti ekspertlari turli mamlakatlarda yashashning qulaylik darajalari haqida tadqiqot o'tkazgan. Tadqiqotda yakuniy ball qator ko'rsatkichlarning yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, ekspertlar tomonidan quyidagi to'qqiztasi asosiy deb topilgan:

1. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YalM (yetakchi omil);
2. Sog'liqni saqlash tizimidan qoniqish darajasi;
3. Ishsizlik darajasi;
4. Iqlim sharoitlari;
5. Fuqarolar erkinligiga amal qilish;
6. Siyosiy barqarorlik va xavfsizlik;
7. Ijtimoiy hayotni rivojlantirish;
8. Oilaviy hayotning qulayligi;
9. Jinslar tengligi.

Yuqoridagi birinchi ko'rsatkichdan tashqari barcha ko'rsatkichlar fuqarolardan so'rov o'tkazish orqali belgilanadi. Mazkur ko'rsatkichlar orqali 8,3 ball to'plagan Irlandiya dunyoda yetakchilik qiladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YalM darajasi bo'yicha mamlakat 4-o'rinda bo'lsada, qolgan ko'rsatkichlar mamlakatni birinchi o'ringa olib chiqqan.

Shunday qilib, turmush sifati shaxsning faoliyat turlarini, ehtiyojlari tarkibini va ularni qondirish darajasini, insonning jamiyatdagi turmush sharoitlarini va tabiat muhiti bilan uyg'un munosabatlarini tavsiflovchi hayotiy qadriyatlar majmui hisoblanib, qator ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

10.3. Turmush sifati ko'rsatkichlari va omillari

Turmush sifati insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish (moddiy ahvoli, oziq-ovqat, salomatligining ahvoli, mehnati va boshqalardan qoniqish) darajasining subyektiv bahosini ifodalaydi.

Turmush sifatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar:

Inson sog'lig'i – umr davomiyligi, o'lim darajasi, kasalliklarning davom etish vaqti va og'irligi, insonlarning jismoniy va aqliy qobiliyatlari, ularning kayfiyatlari.

Ovqatlanish: ovqatlanishning bir maromdaligi, oziq-ovqatning tarkibi, qiymati (kaloriya, grammlardagi vitamin, oqsillar miqdori), mazaliligi; mahsulotlarning yangiligi va tozaligi.

Ta'lim: ta'lim olishning davom etish muddati va saviyasi; ilmiy bilimlarni egallash darajasi, adabiyotlarning badiiy va axloqiy saviyasi, kutubxona, televidenie, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalarining ommabopligi.

Ish bilan bandlik va mehnat sharoitlari: mehnat sharoitlari va xususiyati, uning qizg'inligi va samaradorligi, insonlarning shaxsiy mayllari va qobiliyatlariga muvofiqligi, kasb tanlash erkinligi, ish vaqtining, har yilgi ta'tillarning davom etish muddati, bandlik va ishsizlik, mehnatning moddiy va ma'naviy bahosi, jamoadagi mikroiqlim, mehnatdan qoniqish.

Turarjoy sharoitlari: turarjoy maydoni va qulay qurilganligi, jihozlari, qismlarining qulay joylashganligi va aholi yashash joyining obodonligi.

Ijtimoiy ta'minot: ijtimoiy tenglik, bandlik kafolatlari, keksalik, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikning ta'minlanganligi, bolali oilalarga yordam va nafaqa, dotatsiyalarning tegishli ko'rsatkichlari.

Kiyim: kiyim va poyabzalning sifati, tanlash imkoniyati, ommabopligi va xilma-xilligi.

Dam olish va bo'sh vaqt: uning davom etish muddati, o'z bo'sh vaqtini o'tkazishni tanlash imkoniyati, dam olish va sport, turizm, ekskursiyalar, sayohatlar uchun turli muassasalarning ommabopligi, bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olishdan qoniqish.

Inson huquqlari: inson huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlari, xavfsizlikning ta'minlanishi, epidemiyalar, halokatlar, harbiy va milliy to'qnashuvlar, siyosiy nizolar munosabati bilan stressga sabab bo'luvchi keskinliklardan himoya, huquq organlarining xolisligi va insonparvarligi, ularga ishonch darajasi.

Shuningdek, **jamiyatning intellektual salohiyati indeksi** ham turmush sifatining muhim indikatori hisoblanadi. Jamiyatning intellektual salohiyati aholining bilim saviyasini hamda mamlakatdagi fanning ahvolini aks ettiradi. Intellektual salohiyat indeksini hisoblashda katta yoshli aholining bilim darajasi, talabalarning aholi umumiy sonidagi ulushi, YaIMdagi ta'limga xarajatlar ulushi, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlarning umumiy sonida fanda hamda ilmiy xizmat ko'rsatishda bandlarning ulushi, YaIMda fanga xarajatlarning ulushi hisobga olinadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan inson kapitali ham turmush sifati indikatoridir. U davlat, korxonalar va fuqarolarning ta'limga, sog'liqni saqlashga va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlariga aholi jon boshiga sarflanadigan xarajatlari darajasini aks ettiradi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson kapitali hamda uning ulushining butun kapital tarkibidagi darajasi ham shunchalik kattadir. Inson kapitali hatto qashshoq mamlakatlarda ham takror ishlab chiqarilgan, moddiy-ashyoviy sharoitlarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarishdan oshib ketadi.

Turmush sifati indikatoriga **aholining yashash qobiliyati koeffitsienti** ham kiradi. U aholi genofondini, aqliy rivojlanishini saqlab qolish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Bu koeffitsient besh balli shkala bo'yicha o'lchanadi. YuNESKO va Butun jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mamlakatlar bo'yicha aholining yashash qobiliyati koeffitsienti quyidagi qiymatga ega bo'lgan:

5 ball – dunyodagi hech bir mamlakat ega emas;

4 ball – Shvetsiya, Gollandiya, Belgiya, Daniya;

3 ball – AQSH, Yaponiya, Germaniya, Tayvan oroli, Singapur, Janubiy Koreya;

2 ball – Xitoy, Eron, Braziliya, Argentina, Mo'g'iliston, Turkiya, Vetnam;

1,6 ball – Somali, Gaiti, Birma (1989-yildan boshlab Myanma);

1,5 ball – Bosniya, G'arbiy Sahroi Kabir.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi har bir mehnatga layoqatli insonga zarur turmush darajasini saqlab turishga imkon beruvchi sharoitlarni ta'minlashdir. Bu maqsadga erishish ushbu siyosatning qator tarkibiy elementlari hisobiga ta'minlanishi mumkin.

"Turmush sifati" kategoriyasining tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

1. Turmush sifatining obyektiv ko'rsatkichlari:

– daromadlar darajasi;

– oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi va sifati;

– nooziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi va sifati;

– xizmatlarni iste'mol qilish darajasi va sifati;

– uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi va sifati;

– ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanish darajasi va sifati;

– tug'ilish darajasi va sifati;

– ijtimoiy ta'minot darajasi va sifati;

– salomatlik (umr davomiyligi) darajasi va sifati;

– ta'lim darajasi va sifati;

– ilmiy-innovatsiya faoliyati darajasi va sifati;

– shaxs havfsizligi (jinoyatchilik darajasiga teskari kattalik);

– aholining ish bilan bandlik (jumladan, mehnat sharoitlari) darajasi va sifati;

– insonning kundalik hayoti va faoliyatining darajasi va sifati;

– fuqarolar huquqlarini ta'minlash darajasi va sifati.

2. Turmush sifatining subyektiv ko'rsatkichlari:

– fuqarolar madaniyati darajasi;

– fuqarolarning mamlakat miqyosidagi hayot va faoliyat sharoitlaridan qoniqish darajasi (shu jumladan, mamlakat "imidji" bahosi ham);

– fuqarolarning mintaqa miqyosidagi hayoti va faoliyat sharoitlaridan qoniqish darajasi;

– fuqarolarning munisipal ta'lim miqyosidagi hayoti va faoliyat sharoitlaridan qoniqish darajasi;

– fuqarolarning mikrodarajadagi (tashkilot, korxona, oila) ijtimoiy-ruhiy va iqtisodiy munosabatlardan qoniqish darajasi;

– fuqarolarning kelajakka ishonch darajasi.

Turmush sifati kategoriyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri turmush darajasi bo'lib, u jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasini va ularni qondirish darajasini, shuningdek, bu ehtiyojlarni rivojlantirish va qondirish uchun jamiyatdagi mavjud sharoitlarni aks ettiradi. Faqatgina bu uch tarkibiy qism birgaligidagina turmush darajasining miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlarini ishonchli tarzda tasvirlab berishi mumkin.

Turmush sifati aholi turmushining u yoki bu jihatiga baho beruvchi quyidagi **umumiy** va **xususiy ko'rsatkichlar** tizimi bilan belgilanadi:

– umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar (turmush darajasi mezoni, turmush qiymati indeksi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy mahsulot);

– aholi daromadlari (aholining mavjud umumiy daromadlari, aholi ixtiyoridagi real daromadlar, aholining shaxsiy daromadlari, aholining ixtiyoridagi shaxsiy daromadlari, aholining pul daromadlari, xodimlarning o'rtacha daromadlari va o'rtacha ish haqi, mavjud ish haqining o'rtacha miqdori, pensiya, nafaqa, yordam, stipendiyaning o'rtacha miqdori);

– aholi iste'moli va xarajatlari (aholi tomonidan moddiy boyliklar va xizmatlar iste'molining umumiy hajmi, aholining pul xarajatlari, aholining iste'mol xarajatlari, aholi tomonidan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol qilinishi, o'rtacha ish haqining xarid qobiliyati, o'rtacha pensiyaning xarid qobiliyati);

– to'plangan mulk va uy-joy, uzoq muddatga foydalanish uchun mo'ljallangan predmetlar va aholi mulkining mavjudligi, aholining turarjoy sharoitlari);

– aholining ijtimoiy tabaqalanishi (umumiy daromadlari miqdori bo'yicha taqsimlanishi, asosiy oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarning o'rtacha jon boshiga (uy xo'jaligi bo'yicha o'rtacha) umumiy daromadning har xil darajasiga ega aholi tomonidan iste'mol qilinishi, o'rtacha jon boshiga (uy xo'jaligi bo'yicha o'rtacha) umumiy daromadning har xil darajasiga ega aholining iste'mol xarajatlari tarkibi, aholi qatlamlarining real va me'yoriy iste'mol savati bahosining dinamikasi, daromadlar to'planish indeksi (Djini koeffitsienti), daromadlarning taqsimoti va aholi iste'molining denil koeffitsienti, o'rtacha jon boshiga (uy xo'jaligi bo'yicha o'rtacha) to'g'ri keladigan daromad darajasi bo'yicha aholi kvintil (detsil) guruhlarining jamiyat umumiy daromadidagi ulushi);

– aholining kam ta'minlangan qatlamlari (tirikchilik minimumi (qashshoqlik bo'sag'asi), minimal iste'mol budjeti, ish haqining eng kam miqdori, nafaqaning eng kam miqdori, eng kam ish haqining xarid qobiliyati, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati, muhtojlik koeffitsienti (darajasi), daromad tanqisligi, muhtojlik zonasi, qashshoqlikning ijtimoiy portreti).

Aholi turmush darajasini baholashning asosiy ko'rsatkichlarini 10 ta guruhga birlashtirish mumkin: aholi daromadlari; ijtimoiy ta'minot;

sog'liqni saqlash; ta'lim; uy-joy sharoitlari; madaniyat va dam olish; transport ta'minoti va aloqa; aholini huquqiy himoya qilish; atrof muhit; demografik vaziyat.

Endi aholi turmush sifati ko'rsatkichlarining tasnifini batafsil ko'rib chiqamiz.

Aholi daromadlari. Aholining farovonligini tavsiflash uchun o'zgarmas narxlar va soliqlar chog'ida (daromadlarning oshishiga qaraganda ular kamroq oshirilganda) o'sishi ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarining oshishi haqida guvohlik beruvchi (jami aholi, oila, alohida inson) umumiy daromadlari muhim ahamiyatga ega.

Umumiy daromad aholi ixtiyoriga tushuvchi turmush vositalarining butun miqdorini, imtiyozlarni va bepul xizmatlarni qamrab oladi. Bunga keng iste'mol bilan korrespondensiya qiluvchi bepul ta'lim va tibbiy xizmat baholari kirmaydi.

Ijtimoiy ta'minot. Ijtimoiy ta'minot xarajatlari istalgan mulkchilik shaklidagi davlat organlari va tashkilotlar tomonidan uy xo'jaligini har xil ofatlar va kutilmagan holatlardan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan xarajatlarning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bu xarajatlar ijtimoiy yordam va ma'muriy to'lovlardan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minotga sarflanadigan xarajatlar quyidagi tarkibni o'z ichiga oladi:

– ijtimoiy ta'minot xarajatlariga (uy xo'jaliklari, tadbirkorlar, davlat fondlaridan) mablag' ajratish tarkibini;

– nafaqa turlari (kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, kasbiy kasallik, keksalik, boquvchisini yo'qotganlik, nogironlik, ishsizlik) bo'yicha xarajatlar tarkibi.

Sog'liqni saqlash. "Sog'liq" va "turmush sifati" tushunchalarini birlashtiruvchi aloqalarning mavjudligi birinchisining turmush sifati umumiy muammolari doiralarida o'rganishni nafaqat qonuniy, balki zarur ham qilib qo'yadi. Sog'liq, unga ega bo'lish darajasiga deyarli barcha ehtiyojlarning qondirilish darajasi bog'liq bo'lgan ne'mat va boylik kiradi. Sog'liq va farovonlik o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarining murakkab tizimi bilan tavsiflanuvchi ko'p tomonli aloqa sog'liqni aholi turmush darajasining kompleks tadqiqotlari doiralarida har tomonlama o'rganish zaruriyatini shart qilib qo'yadi.

Ta'lim. Ta'limga ehtiyoj nafaqat miqdor, balki sifat xususiyatga ega, shuning uchun ta'limning rivojlanishi ta'lim tizimini kengaytirish

chizig'i bo'ylab ham, uni sifat jihatidan takomillashtirish chizig'i bo'ylab ham borishi mumkin. Ta'lim o'z ichiga quyidagilarni oladi: o'quvchilar va talabalarning aholining umumiy sonidagi ulushi; erkaklar va ayollar soni; YaIM foizlarida ta'limga xarajatlar; ta'lim darajasi; 1000 maktab o'quvchisiga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni; davlat umumta'lim maktablari, davlat OO'Yu va o'rta maxsus kasb-hunar muassasalari soni, shuningdek, undagi o'quvchilarning 10000 aholiga soni.

Uy-joy sharoitlari. Bu ko'rsatkich o'z ichiga butun uy-joy fondiga shaxsiy uy-joy ulushini (%da); uy-joy fondining umumiy maydonini (kv.m); bir kishiga to'g'ri keladigan uy-joyning umumiy maydonini (kv.m); uy-joyning qulaylik darajasini (markaziy isitish, suv quvuri va quvurlar tizimining mavjudligi) oladi.

Madaniyat va dam olish. Bu ko'rsatkich o'z ichiga kitob va jurnallarning aholi jon boshiga miqdorini; kutubxona, teatr, kinoteatr, gazetalarning har 1000 aholiga nisbatan sonini; har 10 ming aholiga nisbatan turist sifatida xorijga chiqqan shaxslar sonini; sanatoriy-kurortlarda davolangan yoki dam olgan shaxslar sonini oladi.

Transport ta'minoti. Bu ko'rsatkichni avtomobil yo'llarining, shu jumladan, asosiy yo'llarning asfaltlangan yo'llar foizidagi masofasi (ming.km) bilan; shaxsiy foydalanish uchun yengil avtomobillarning 1000 kishiga to'g'ri keladigan soni bilan; avtomobil yo'llarining 100 kv.m hududga qalinligi bilan baholash mumkin.

Aholining huquqiy himoyasi. Uni aholi turmushining xavfsizlik darajasi va huquq-tartibot organlarida bandlar soni (ming.kishi) tavsiflaydi.

Atrof-muhit. Atrof-muhitni baholash uchun muhitning ifloslanishini, tabiatga ta'sir ko'rsatishni (masalan, suvga ekologik standartlarni), harorat, havoning namligi va quruqligini, madaniy yodgorliklar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ta'sirni, aholi zichligini hisobga olish mo'ljallanadi.

Demografik vaziyat. Aholining turmush sifatini to'liqroq tavsiflash uchun aholining demografik vaziyatini ham hisobga olish zarur. Bu vaziyatni tavsiflashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar: jami aholi soni; tabiiy o'sish koeffitsienti; tug'ilish koeffitsienti; o'lim koeffitsienti; migratsiyaning netto koeffitsienti (emigrantlar va immigrantlar o'rtasidagi tafovutning aholining o'rtacha yillik soniga nisbati orqali hisoblanadi); umrning (yoshning) kutilayotgan davomiyligi; qarish indeksi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash va rejalashtirishda qator muammolarni hal qilish zarurati yuzaga keladi. Aholining turmush sifati yuqorida ko'rilgan ko'p omillar bilan belgilanadi, shuning uchun har bir sanab o'tilgan omillarning aholi turmush sifatiga ta'siri darajasini aniqlash, ularning ta'sir ko'rsatish yo'nalishlarini tadqiq qilish, ularni boshqarish imkoniyatlarini o'rganish aholi turmush sifatini tadqiq qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Turmush sifatiga eng ko'p ta'sir qiluvchi omillarni tanlash va ular ta'sirini baholash murakkab vazifadir.

Turmush sifatiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarni tadqiq qilishda quyidagi funksional bog'liqlikdan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$Turmush\ sifati = f\ (F_{tur.dar}, F_{tur.shar});$$

Bu yerda: $F_{tur\ dar}$ – turmush darajasini tavsiflovchi omil;

$F_{tur\ shar}$ – turmush sharoitini tavsiflovchi omil.

Turmush darajasini tavsiflovchi omillar quyidagilardan iborat:

$$F_{tur.dar} = f\ (D_{dar}, S_{ta'm}, Z_{sog'l}, Q_{ta'l}, J_{yash.shar}, K_{madan}, P_{huq}, C_{atr.muh}, D_{demog});$$

Bu yerda: D_{dar} – aholi daromadlari;

$S_{ta'm}$ – ijtimoiy ta'minot;

$Z_{sog'l}$ – sog'liqni saqlash;

$Q_{ta'l}$ – ta'lim;

$J_{yash.shar}$ – yashash sharoitlari;

K_{madan} – madaniyat va dam olish;

$P_{huq.}$ – huquqiy himoya;

$C_{atr.muh}$ – atrof muhit;

D_{demog} – demografik vaziyat.

O'z navbatida, turmush sharoitini tavsiflovchi omillarning funksional bog'liqligi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$F_{tur.shar} = f\ (S_{san.shar}, Y_{bo'sh.vaqt}, T_{trans}, Z_{sog.liq}, O_{ekolog}, P_{ruhiy}).$$

Bu yerda: $S_{san\ shar}$ – sanitariya sharoitlari;

$Y_{bo'sh\ vaqt}$ – bo'sh vaqtni o'tkazish uchun sharoitlar;

T_{trans} – transport holati;

$Z_{sog\ liq}$ – sog'liqni saqlash;

O_{ekolog} – ekologiya;

P_{ruhiy} – ruhiy ahvol.

Vazifaning rasmiy qo'yilishi uchun turmush sharoitlari ko'rsatkichlari ($S_{san\ shar}$, $Y_{bo'sh\ vaqt}$, T_{trans}, $Z_{sog'liq}$, O_{ekolog}, P_{ruhiy}) bilan turmush darajasi

ko'rsatkichlari o'rtasidagi ($D_{dar.}$, $S_{ta'm.}$, $Z_{sog'l.}$, $Q_{ta'l.}$, $J_{yash.\ shar.}$, $K_{madan.}$, $P_{huq.}$, $C_{atr.muh.}$, $D_{demog.}$) funksional bog'liqliklar turini bilish zarur.

Yuqoridagi omillarning turmush sifati ko'rsatkichiga ta'sir qilish darajasini miqdoriy jihatdan baholash uchun o'zaro bog'langan, regressiv va omiliy tahlil, ekspert baholari usulini qo'llashni taklif qilamiz. Regressiv tahlilning qo'llanishi o'rganilayotgan kattalik o'rtacha qiymatining qator omillarga bog'liqligini belgilashga imkon beradi.

Turmush sifati faqatgina moddiy ehtiyojlar bilan cheklanmasligini unutmaslik kerak. Chamasi, turmush sifatining turli ko'rsatkichlarini yagona shartli bahoga keltirib qo'yish juda murakkab jarayon bo'lib, uni matematik statistikadagi mashhur usul bo'lgan omilli tahlil asosida o'tkazish mumkin. Bu usulni agar boshlang'ich ko'rsatkichlar o'rtasida korrelyatsion aloqa mavjud bo'lsa qo'llash mumkin. Shunda turmush darajasini tavsiflovchi butun ko'rsatkichlarni bitta omilga yoki ularning kichikroq soniga birlashtirish mumkin. Undan tashqari, omilli tahlil usuli har bir boshlang'ich ko'rsatkichning natija beruvchi omilga tushadigan og'irligi qiymatini topishga imkon beradi.

Turmush sifatini tavsiflash uchun xalqaro amaliyotda qashshoqlikning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari ham qo'llaniladi. Mutlaq qashshoqlik – shaxsning (yoki oilaning) eng kam turmush ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur daromadning yo'qligidir, ya'ni tirikchilik minimumi budjetidan kamroq bo'lgan daromadlardir. Nisbiy qashshoqlik agar daromad mamlakat bo'ylab yuzaga kelgan daromadning 40–60 foizidan oshib ketmasa yuz beradi.

Aholining turmush sifati ko'rsatkichlari bahosi inson hayot faoliyatining asosiy parametrlari va sharoitlarining hayot ehtiyojlariga munosib, to'laqonli va talablarini qondiradigan turmush darajasiga muvofiqlik darajasini aniqlash tartibi sifatida qabul qilinadi. U ushbu individ yoki jamiyat parametrlari va xususiyatlarini turmushning taqqoslash asosi, etalon uchun qabul qilingan tegishli parametrlari va xususiyatlari bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi. Bu baho olingan natijalarning bahosiga ko'ra anglashni talab qiladi va mintaqalardagi aholi turmush sifatini baholash hamda prognozlashtirish borasidagi ishga doimiy asosda kirishishga imkon beradi. Shu bilan birga, olinadigan natijalarning tizimligini, bir ma'noligini, qiyoslana va qayta tiklana olishini ta'minlaydi. Bunday baholash natijalaridan farovon hayotni yaxshilash bo'yicha davlat

siyosatini amalga oshirishda, sanoat va ijtimoiy soha rivojlanishining eng muhim yo'nalishlarini ishlab chiqishda, shuningdek, ijtimoiy muhim texnologiyalar, innovatsiya loyihalarining hamda subyektlarni rivojlantirish dasturlarining samaradorligini belgilash uchun foydalanish mumkin. Shu bilan birga, turmush sifatini oshirish uchun davlat va jamoat tashkilotlarining jamiyat hayotining barcha sohalaridagi tartibga soluvchilik rolini kuchaytirish, faoliyatini jonlantirish zarur.

Turmush sifatini belgilovchi omillar quyidagi guruhlarga tasniflanishi mumkin (10.4-rasm).



10.4-rasm. Turmush sifatini belgilovchi omillar.

Endi aholining turmush sifatiga ta'sir etuvchi omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

O'z navbatida, **tabiiy omillar** inson istiqomat qiladigan muhit, harorat rejimi, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun tabiiy boyliklarning mavjudligi, **inson omili** esa iqtisodiy o'sishni va iste'mol bozorlarining katta sig'imini ta'minlashga imkon beruvchi aholi soni va inson sarmoyasining sifatidir.

Tabiiy boyliklar va aholi sonining xo'jalik faoliyati natijalariga ta'sirini bir ma'noli va belgilovchi omil deb hisoblash mumkin emas. Chunki, juda kam tabiiy boyliklarga ega mamlakatlarda (Yaponiya, Shveytsariya) turmush sifati ancha yuqori. Aholi soniga kelganda, farovonlikning yuksak darajasi yashovchilar soni katta bo'lgan mamlakatlar (Yaponiya, AQSH, Germaniya) uchun ham, kichikroq mamlakatlar uchun ham (Lyuksemburg, Finlyandiya) xos.

Siyosiy omillar siyosiy barqarorlik, demokratik erkinlik, fuqarolar totuvligi, urushlar bo'lmasligini ta'minlash, **texnologik omillar** tabiat va insonga ta'sir qiluvchi ilmiy bilimlar tizimi o'z ifodasini topadigan mehnat vositalarini yaratishni ta'minlovchi texnologiyalarni rivojlantirish darajasi, **iqtisodiy omillar** iqtisodiy o'sish, inson sarmoyasini rivojlantirish, YalMni ko'paytirish, moliyaviy bozorlarni rivojlantirish va barcha turdagi boyliklardan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratish, **ekologik omillar** tabiatning ahvoli, yer, havzalar va havoning ifloslanish darajasi, atrof-muhitning insonga ta'siri bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, aholining turmush sifatiga axborot, ijtimoiy va ma'naviy omillar ham ta'sir ko'rsatib, o'z navbatida. **axborot omillari** mamlakatning barcha hududida ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, axborot xolisligining oshirilishi, dunyo miqyosidagi axborot tarmog'iga, ya'ni internetga kirish huquqining ta'minlanishi, aloqaning zamonaviy vositalarining rivojlantirilishi, **ijtimoiy omillar** odamlar qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, qonunlar tizimi bilan ifodalash va xavfsizlikni ta'minlash uchun ijtimoiy sharoitlar, **ma'naviy omillar** odamlar ehtiyojlarini, ular hayotining maqsadlarini, axloqiy me'yorlarini shakllantirish tizimi bilan izohlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Turmush sifati deganda nimani tushunasiz?
2. Turmush sifatining asosiy ko'rsatkichlarini sanab bering.
3. Mehnat hayoti sifati deganda nimani tushunasiz?
4. Turmush sifatining obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlarini izohlab bering.
5. Kvalimetriya – bu nima?
6. Turmush qiymati deganda nimani tushunasiz?
7. Turmush qiymatidagi hududiy farqliklar qanday omillarga bog'liq?
8. Turmush qiymatini hisoblash tartibini tushuntirib bering.
9. Aholining turmush sifatiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

TEST

1.Aholining turmush darajasi tushunchasi nimani ifodalaydi?

a) aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'mol darajasini, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi shart-sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuini

b) jamiyatda yashovchi insonlar ehtiyojlarining rivojlanish va o'sib borish qonuniyatlarini

c) aholining daromadlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni

d) aholining farovonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni

2. _____ – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya.

a) turmush sifatiи
b) turmush darajasi
c) turmush tarzi
d) turmush qiymati

3. Quyidagilardan qaysi biri aholi turmush darajasining "Shved modeli" komponentlariga kirmaydi?

a) maktab ta'limi, turar joy
b) ovqatlanish, bo'sh vaqt va uni o'tkazish
c) kiyim-kechak, inson huquqlari
d) mehnat sharoitlari, iqtisodiy imkoniyat

4. Aholi turmush darajasida asosiy e'tibor "salomatlik" va "ovqatlanish" komponentlariga qaratilgan model to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang ko'rsating.

a) shved modeli
b) BMT konsepsiyasi
c) franstuz modeli
d) amerika modeli

5. Aholi turmush darajasining "Shved modeli"da asosiy e'tibor qaysi komponentga qaratilgan?

a) mehnat va mehnat sharoitlariga
b) maktab ta'limiga
c) salomatlik va ovqatlanishga
d) inson huquqlariga

6. Aholi turmush darajasining "Franstuz modeli"da asosiy e'tibor qaysi komponentga qaratilgan?

a) daromadlar taqsimlanishi va ulardan foydalanish

b) aholi soni va tarkibi, mehnat resurslari va mehnat sharoiti

c) salomatlik va ovqatlanishga

d) siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarga

7. *Jismoniy ehtiyojlar bu* _____

a) inson organizmining normal faoliyati uchun zarur bo'lgan ob'ektiv shart-sharoitlar majmui

b) insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq sub'ektiv shart-sharoitlar

c) insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq ob'ektiv sharoitlar majmui

d) insonning jamiyat a'zosi sifatidagi hayot faoliyati sharoitlarini aks ettirishi

8. Insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq va uning jamiyatni a'zosi sifatidagi hayot faoliyati sharoitlarini aks ettiradigan kategoriya nima deb ataladi?

a) jismoniy ehtiyojlar

b) ma'naviy ehtiyojlar

c) moddiy ehtiyojlar

d) shaxsiy ehtiyojlar

9. "Inson boshqalarning ehtiyojlarini qondirishi sababligina inson bo'ladi, boshqalar ham shunday yo'l tutadi. Birov ekin ekadi, boshqa odam non yopadi, uchinchisi kiyim tikadi, to'rtinchisi igna yasaydi va hamma bir-birining ehtiyojini qondirish uchun to'planadi". Yuqoridagi jumlalar kimning qalamiga mansub?

a) Abu Ali ibn Sino

b) Amir Temur

c) Alisher Navoiy

d) Mirzo Ulug'bek

10. Aholining turmush sifatini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning xalqaro tizimi BMT tomonidan qachon ishlab chiqilgan?

a) 1969 yil b) 1971 yil
c) 1978 yil d) 1949 yil

11. BMT tomonidan ishlab chiqilgan aholining turmush sifatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi nechta guruhdan iborat?

a) 8 b) 12
c) 6 d) 18

12. Aholi turmush darajasining ma'naviy ehtiyojlarni qondirilishi bo'yicha ko'rsatkichlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

a) ishlab chiqarishda ish vaqti yo'qotilishi, real pul daromadlari, xodimlar mehnat sharoiti o'zgarishi, shikastlanish darajasi

b) sport-sog'lomlashtirish, madaniy-istirohat maskanlari, pensiyalar, nafaqalar, o'rtacha va eng ish haqi miqdorlari

c) ishsizlar soni, ish bilan bandlik darajasi, atrof-muhit, jinoyatchilikning ahvoli, aholining pul daromadlari hamda harajatlari

d) aholining savodxonligi, nashr etilayotgan adabiyotlar, davriy nashrlar hajmi, fuqarolarning televizor, axborot vositalari va kompyuterlar bilan ta'minlanganligi

13. Aholi turmush darajasining ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

a) ishlab chiqarishda ish vaqti yo'qotilishi, xodimlar mehnat sharoiti o'zgarishi, xodimlar mehnat sharoiti o'zgarishi, shikastlanish, sport-sog'lomlashtirish, madaniy-istirohat maskanlari

b) daromad, pensiyalar, nafaqalar, o'rtacha va eng ish haqi miqdorlari, maktab yoshidagi bolalarning maktablar bilan ta'minlanganligi, akademik listeylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari, ularda tahsil olayotganlar soni va qabul miqdori

c) ishsizlar soni, ish bilan bandlik darajasi, atrof-muhit, jinoyatchilikning ahvoli, aholining pul daromadlari hamda harajatlari, nashr etilayotgan adabiyotlar, davriy nashrlar hajmi

d) aholining savodxonligi, ishsizlar soni, ish bilan bandlik darajasi, fuqarolarning televizor, axborot vositalari va kompyuterlar bilan ta'minlanganligi

14. "Aholi daromadlari va turmush sifati" fanining asosiy maqsadi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'mol darajasini, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi shart-sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuini aniqlash

b) aholining turmush tarzini va daromadlar siyosatini yaxlit, murakkab, muayyan tarixiy, nisbatan mustaqil hodisa sifatida tushunish, ularning ichki va tashqi aloqalari, munosabatlari, omillari, yo'nalishlari va qonuniyatlarini aniqlash hamda uni takomillashtirish istiqbollarini belgilash

c) daromadlar sohasidagi tendenstiyalarni ilmiy o'rganish uchun qator ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, rivojlanish nazariyalarini belgilash, daromadlarni (ish haqini) o'lchash va tahlil qilish usullarini aniqlash

d) aholining turmush tarzini, uning namoyon bo'lish shakllarini o'rganish, aholining hayot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, uni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni belgilash hamda turmush farovonligini oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish

15. "Aholi daromadlari va turmush sifati" fanining "Statistika" fani bilan o'zaro aloqadorligi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) "turmush sifati" konstepstiyasida insonning salomatligi va ovqatlanishi ustunlik qilganligi nuqtai nazardan

b) turmush darajasi va daromadlar sohasidagi tendenstiyalarni o'rganish uchun qator ko'rsatkichlar va ma'lumotlar, daromadlarni (ish haqini) o'lchash va tahlil qilish usullaridan foydalanganligi

c) xodimlarning nominal daromadlari va nominal ish haqi ko'p jihatdan moliya sohasidagi siyosat, respublika va mahalliy byudjetlarni shakllantirish tartibi, usullari bilan belgilanganligi

d) daromadlar va ish haqi siyosatini o'tkazishda uning huquqiy ta'minotiga asoslanganligi

16. "Aholi daromadlari va turmush sifati" fani aholi salomatligiga atrof-muhit omilining ta'siri nuqtai nazardan faysi fan bilan o'zaro aloqador?

a) sotsiologiya

b) etnografiya

c) aholi geografiyasi

d) tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti

17. "Aholi daromadlari va turmush sifati" fani xodimlarning nominal daromadlari va nominal ish haqi, respublika va mahalliy budjetlarini shakllantirish tartibi, usullarini tadqiq etishi bilan quyida keltirilgan qaysi fan bilan o'zaro aloqadorligining mavjudligini ko'rsatadi?

a) iqtisodiyot nazariyasi
b) moliya
c) soliq va soliqqa tortish
d) boshqaruv mehnatini tashkil etish

18. "Aholi daromadlari va turmush sifati" fani ijtimoiy guruhlarda ro'y beradigan ijtimoiy jarayonlarni tadqiq etishi bilan quyida keltirilgan qaysi fan bilan o'zaro aloqadorligining mavjudligini ko'rsatadi?

a) iqtisodiyot nazariyasi
b) sotsiologiya
c) siyosatshunoslik
d) huquqshunoslik

19. Rivojlangan mamlakatlarda qaysi omil aholi turmush darajasini hosil qiluvchi va unga jiddiy ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi?

a) ishlab chiqarish
a) istemol
b) qo'shimcha qiymat
c) naflilik

20. Jini indeksi nimani ifodalaydi?

a) daromadlarning farqlanishini
a) inson taraqqiyotini
b) turmush sifatining o'sishini
c) o'rtacha umr ko'rish davomiyligini

21. Har qanday ishlab chiqarishning bosh maqsadi nima hisoblanadi?

a) sotish
b) iste'mol
c) foyda
d) daromad olish

22. Aholi daromadlari o'rtasidagi farqlanishni hisoblovchi ko'rsatkichlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) Jini va inson taraqqiyoti indekslari

b) bandlik va ishsizlik koeffistientlari

c) Jini, destil va kvintil koeffistientlari

d) YaIM indeksi, kvintil koeffistienti

23. Mehnat hayoti sifatini belgilovchi omillar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

a) mehnat sharoiti, mehnat turi va tavsifi, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli

b) mehnatdan qoniqish, ish vaqtining moslashuvchanligi, mehnatga haq to'lash

c) salomatlik holati, mehnatdan qoniqish, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli

d) mehnat xarakteri, axborot, ma'naviy etuklik, mehnat sharoiti

24. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholining turmush darajasi nima bilan baholanadi?

a) aholi tomonidan olinadigan daromadlar miqdori, ovqatlanish darajasi, turar-joy sharoitlarining holati

b) aholi tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning puldagi qiymati

c) mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar

d) muayyan davrda yaratilgan YaIM

25. Turmush darajasi komponentlarini aks ettiruvchi "BMT konsepsiyasi" ishlab chiqilgan yil to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

a) 1961 b) 1991

c) 1954 d) 1946

26. Turmush darajasi komponentlarini aks ettiruvchi "Shved modeli" nechanchi yillarda qabul qilingan?

a) 1980-yillarda b) 1970-yillarda

c) 1990-yillarda d) 1960-yillarda

27. BMT mutaxassislari tomonidan dunyo hamjamiyatidagi nechta mamlakat aholisi turmush sifatining har yilgi ko'rsatkichlariga baho beriladi?

a) 136 b) 219

c) 180 d) 196

28. Turmush sifatini baholashning miqdoriy usullarini birlashtiruvchi ilmiy soha nima deb ataladi?

a) demometriya b) kvalimetriya

c) psixometriya d) geometriya

29. _____ – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi shart-sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir.

a) turmush darajasi b) turmush sifati

c) turmush qiymati d) turmush tarzi

30. _____ – bu aholining hayot uchun zarur bo'lgan moddiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy boyliklar, ya'ni inson ehtiyojlarini qondiruvchi elementlar, xizmatlar va shart-sharoitlar bilan ta'minlanganligidir.

a) qashshoqlik b) kambag'allik

c) farovonlik d) nochorlik

31. Turmush darajasini tavsiflovchi umumiy ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?

a) milliy daromad. iste`mol jamg'armasi, milliy boylik tarkibida iste`mol jamg`armasining ulushi

b) ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi, mehnat sharoitlari, iste'mol darajasi

c) turar joy bilan ta'minlanganlik. ijtimoiy ta'minot. daromad miqdori

d) ijtimoiy ta'minot, ish bilan bandlik, madaniy-maishiy tovarlar bilan ta'minlanish

32. Iste'mol byudjetining qanday standartlari mavjud?

a) miqdor va sifat b) eng kam, oqilona va elitar

c) nisbiy va mutlaq d) ta'minlagan va ta'minlanmagan

33. Jahon amaliyotida iste'mol byudjetining qanday usullari ishlab chiqilgan?

a) me'yoriy, statistik, birlashtirilgan, sub'ektiv va zahiraviy

b) statistik, matematik va ekonometrik

c) son va sifat

d) ijtimoiy, iqtisodiy va demografik

34. Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlovchi milliy daromadning bir qismi – bu ?

a) fiskal siyosat

b) pensiya jamg'armasi

c) iste'mol jamg'armasi

d) kasaba uyushmalari Federatsiyasi

35. _____ – odamlarning uzoq va sog'lom, munosib turmush kechirishlari, ma'lumotli bo'lishlari uchun zarur vositalardan foydalanish imkoniyatlarining kengaytirilishidir.

a) turmush tarzi

b) hayot sifati

c) inson taraqqiyoti

d) aholi farovonligi

36. Yashash minimumi budjeti – bu _____

a) insonning salomatligini saqlash va uning hayoti hamda faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan oziq va nooziq ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar eng kam miqdorining qiymati

b) insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari va uning hayoti davomida zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining qiymati

c) insonning salomatligini saqlash va moddiy ehtiyojlarini hayoti davomida qondirish uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va xizmatlarning qiymati

d) insonning hayoti davomida zarur bo'ladigan nooziq-ovqat mahsulotlarining to'plamining qiymati

37. Inson taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlari to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) daromad, ijtimoiy xizmat, jamg'arma

b) real daromad, ish bilan bandlik, manzilli ijtimoiy himoya

c) umr ko'rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyati

d) ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, san'at, ijtimoiy ta'minot

38. Ma'naviy ne'matlar (qadriyatlar) ishlab chiqarish sohasi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish

b) ishlab chiqarish va iste`mol

c) fan va san`at

d) moliya va ijtimoiy ta'minot

39. Ishchi kuchini takror hosil qilish uchun moddiy ne'matlardan ularning quyi chegarasi doirasida foydalanish imkoniyati_____ deb ataladi.

a) qashshoqlik

b) kambag'allik

c) farovonlik

d) ta`minlanganlik

40. "Qashshoqlik" tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan javobni aniqlang.

a) moddiy ne'matlardan biologik mezonlar asosida minimal darajada foydalanish imkoniyati

b) ishchi kuchini takror hosil qilish uchun moddiy ne`matlardan ularning quyi chegarasi doirasida foydalanish imkoniyati

c) inson jismoniy va intellektual qobiliyatlarini takror hosil qilishni ta`minlovchi ilmiy asoslangan oqilona iste`mol darajasi

d) inson barkamol rivojlanishini ta'minlovchi ne'matlardan to'liq foydalanish imkoniyati

41. Fanga birinchi marta "iqtisodiy odam" atamasini kiritgan olim nomi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) Adam Smit
b) Alfred Marshall
c) David Rikárdo
d) Jon Styuart Mill

42. "Xalqlar boyligining mohiyati va sabablari xususidagi tadqiqotlar" asarining muallifi kim?

a) Alfred Marshall
b) Jon Styuart Mill
c) Adam Smit
d) David Rikárdo

43. Iqtisodiyotda daromad keltirishga qodir bo'lgan yoki odamlar tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslar nima deb ataladi?

a) tadbirkorlik
b) kapital
c) demping
d) investistion kreditlar

44. Daromadlar ko'payishi bilan aholi tomonidan ne'matlarni iste'mol qilish proporstional bo'lmagan holda ortishiga asoslangan iqtisodiy qonunni fanga kiritgan iqtisodchi olim nomini aniqlangan.

a) Alfred Marshall
b) Jon Styuart Mill
c) Adam Smit
d) Ernst Engel

45. Pul daromadlarini inflyastiyadan himoya qilish maqsadida qanday vositadan foydalaniladi?

a) indeksastiya
b) diversifikastiya
c) demping
d) kauching

46. Aholi daromadlari tabaqalanishining kvantil koeffistienti to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

a) aholining eng ta'minlangan 10,0 foizi daromadlarining eng kam ta'minlangan 10,0 foizi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi

b) aholining taqqoslanayotgan guruhlari ichidagi daromadlarning o'rtacha miqdorlari nisbati yoki ularning daromadlari umumiy hajmidagi ulushini ko'rsatadi

c) aholining eng ta'minlangan 25,0 foizi daromadlarining eng kam ta'minlangan 25,0 foizi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi

d) kambag'allarning ta'minlanganlar soniga nisbatini ko'rsatadi

47. Aholi daromadlari tabaqalanishining destil koeffistienti to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

a) aholining eng ta'minlangan 10,0 foizi daromadlarining eng kam ta'minlangan 10,0 foizi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi

b) aholining taqqoslanayotgan guruhlari ichidagi daromadlarning o'rtacha miqdorlari nisbati yoki ularning daromadlari umumiy hajmidagi ulushini ko'rsatadi

c) aholining eng ta'minlangan 25,0 foizi daromadlarining eng kam ta'minlangan 25,0 foizi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi

d) kambag'allarning ta'minlanganlar soniga nisbatini ko'rsatadi

48. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad oqilona iste'mol byudjeti darajasidan yuqori bo'lgan oilalar _____ deb ataladi.

a) ta'minlangan oilalar

b) boy oilalar

c) kam ta'minlangan oilalar

d) nochor oilalar

49. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori eng kam iste'mol byudjeti bilana oqilona iste'mol byudjeti o'rtasidagi oilalar _____ deb ataladi.

a) ta'minlangan oilalar

b) boy oilalar

c) kam ta'minlangan oilalar

d) nochor oilalar

50. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad turmush kechirishning eng kam miqdoridan past darajada yoki unga teng bo'lgan oilalar _____ deb ataladi.

a) ta'minlangan oilalar
b) boy oilalar
c) kam ta'minlangan oilalar
d) kambag'al oilalar

51. Uzoq va sog'lom turmush kechirish imkoniyatidan mahrumlikda necha yoshga etmasdan vafot etgan aholining ulushi asos sifatida olinadi?

a) 40 yoshga yetmasdan vafot etgan aholi salmog'i
b) 35 yoshga yetmasdan vafot etgan aholi salmog'i
c) 30 yoshga yetmasdan vafot etgan aholi salmog'i
d) 25 yoshga yetmasdan vafot etgan aholi salmog'i

52. Aholining turmush darajasini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) aholining jins va yosh tarkibi
b) aholining real daromadlari, ish bilan bandlik
c) aholining kasb-malakaviy tarkibi
d) ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi

53. Qaysi javobda juda taqchil tabiiy boyliklarga ega bo'lgan boy mamlakatlar keltirilgan?

a) Yaponiya va Shveytsariya
b) AQSH va Germaniya
c) Lyuksemburg va Finlyandiya
d) Rossiya va Buyuk Britaniya

54. Milliy boylikning tarkibi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) yer fondi va suv resurslari
b) milliy mulk va tabiiy resurslar
c) milliy mulk va YaMM
d) YaMM va YaIM

55. Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini va umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi milliy daromadning bir qismi ..... deb ataladi.

a) milliy daromad
b) iste'mol fondi
c) jamg'arma fondi
d) milliy boylik

56. _____ bu fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish rivojlanishini ta'minlovchi milliy daromadning bir qismidir.

a) milliy daromad
b) iste'mol fondi
c) jamg'arma fondi
d) milliy boylik

57. Kapital tushumlarga xos bo'lmagan xususiyatni aniqlang.

a) kutilmagan
b) nomuntazam
c) muntazam
d) uy xo'jaligi uchun juda kam takrorlanadigan

58. Ijtimoiy soha tarmoqlari to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) sanoat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish
b) qurilish, qishloq xo'jaligi, san'at, moliya, sanoat, o'rmon xo'jaligi
c) transport, aloqa, ta'lim, turizm, san'at, madaniyat
d) ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, san'at, kommunal xo'jaligi

59. Iste'mol budjetining zaruriy darajasi jamoatchilik fikri va ekspertlari so'rovi asosida belgilanadigan usuli to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) me'yoriy
b) statistik
c) sub'ektiv
d) zahiraviy

60. Iste'mol budjetining oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlarning iste'mol me'yorlari bo'yicha, qolgan qismlar esa statistik yo'l bilan belgilanadigan usuli to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) me'yoriy
b) me'yoriy-statistik
c) sub'ektiv
d) zahiraviy

61. Iste'mol budjetining alohida tovar va xizmatlar hamda ularning real qiymatlari asosida belgilanadigan usuli to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) me'yoriy
b) me'yoriy-statistik
c) sub'ektiv
d) zahiraviy

62. Iste'mol budjetining me'yorlari aholining qaysi ijtimoiy-demografik guruhlari bo'yicha ishlab chiqiladi?

a) 0-6 yoshdagi bolalar, 7-15 yoshdagi bolalar, mehnatga layoqatli erkaklar va ayollar, pensionerlar

b) 0-5 yoshdagi bolalar, 6-16 yoshdagi bolalar, mehnatga layoqatli aholi, nogironlar, pensionerlar

c) 0-4 yoshdagi bolalar, 5-15 yoshdagi bolalar, mehnatga layoqatli erkaklar va ayollar, nogironlar, pensionerlar

d) yoshdagi chaqaloqlar, 1-5 yoshdagi bolalar, 6-15 yoshdagi bolalar, mehnatga layoqatli aholi, nogironlar, pensionerlar

63. Aholi umumiy daromadining tarkibi qaysi javobda noto'g'ri keltirilgan?

a) pul daromadlari
b) natura shaklidagi daromadlar
c) doimiy asosda, takrorlanuvchi hususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlar
d) aholi farovonligi va hayot sifati

64. Tushumlar "daromad" hisoblanishi uchun qanday mezonlarga muvofiq bo'lishi kerak?

a) kutilayotgan bo'lishi va muntazam ravishda kelib tushishi kerak

b) uy xo'jaligining joriy iqtisodiy farovonlik darajasiga haqiqiy hissa qo'shishi kerak

c) uy xo'jaligi kapitalining kamayishi hisobiga kelib tushadigan tushum bo'lmasligi kerak (masalan: uyni, akstiyalarni va shunga o'xshashlarni sotish)

d) barcha javoblar to'g'ri

65. Lotoreyadagi yutuqlar, o'yinlardan olingan sovrinlar, sug'urta talablari bo'yicha mol-mulkka yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lovlar, olingan meroslar, pensiyaga chiqishda bir marta to'lanadigan summalar, hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta to'lovlari va qarzni qaytarish evaziga olingan summalar aholining umumiy daromadiga qo'shiladimi?

a) ha

b) kapital tushumlarga taaluqli

c) bir martalik ijtimoiy to'lovlarga taaluqli

d) doimiyi ijtimoiy to'lovlarga taaluqli

66. Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq ravishda umumiy daromadlar qanday tarkibiy qismlarga bo'linadi?

a) birlamchi va transfertlardan olingan daromadlar

b) nominal va real daromadlar

c) pul va natura shaklidagi daromadlar

d) pul va natura shaklidagi daromadlar hamda bepul xizmatlar qiymati

67. Quyidagilardan qaysi biri mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlarga kirmaydi?

a) xodimlarga hisoblangan ish haqi

b) rag'batlantirish hususiyatiga ega bo'lgan barcha to'lovlar

c) kompensastiya to'lovlari va ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash

d) ijtimoiy transfertlar

68. O'zbekiston Respublikasida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni hisoblash uchun Milliy hisoblar tizimining qaysi tushunchasi asos bo'lib hisoblanadi?

a) natural daromad
b) aralash daromad
c) real daromad
d) renta

69. Aholi iste'mol xarajatlari uchun mumkin bo'lgan eng katta miqdorni aniqlash imkonini beradigan daromad turini aniqlang.

a) nominal daromad
b) aholi ixtiyoridagi daromad
c) real daromad
d) pullik daromad

70. Ishlab chiqarishdan olingan daromadning qanday turlari farqlanadi?

a) yollanma ishchilarning daromadi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad
b) mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromad
c) mol-mulkdan olingan daromad va yollanma ishchilarning daromadi
d) transfertlardan daromad va mehnat faoliyatidan olingan daromad

71. Mehnat faoliyatidan olingan daromadning qanday turlari mavjud?

a) yollanma ishchilarning daromadi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad
b) mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromad
c) mol-mulkdan olingan daromad va yollanma ishchilarning daromadi
d) transfertlardan daromad va mehnat faoliyatidan olingan daromad

72. Mol-mulkdan olingan daromad turi noto'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) foizlar va renta
b) dividendlar
c) mualliflik haqi
d) tadbirkorlik

73. Transfertlardan daromadning qanday turlari mavjud?

a) ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlar

b) pensiya, nafaqa va stipendiya

c) moddiy yordam, mualliflik haqi, nafaqa

d) nafaqa, moddiy yordam, renta

74. Quyidagi javoblarning qaysi birida ijtimoiy transfertlar turlari to'g'ri keltirilgan?

a) ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlar

b) pensiya, nafaqa va stipendiya

c) moddiy yordam, mualliflik haqi, nafaqa

d) nafaqa, moddiy yordam, renta

75. Hayot darajasi, birinchi navbatda, qaysi ko'rsatkich bilan belgilanadi?

a) aholining daromadlari miqdori

b) aholining ish bilan bandligi

c) iqtisodiy rivojlanish

d) ijtimoiy ta'minot

76. _____ – insonning ijtimoiy erkinligi, har tomonlama rivojlanish imkoniyati, o'z iqtidori va turmush rejalarini amalga oshirish darajasini ifoda etuvchi ijtimoiy tizimlar va tuzilmalardagi mavqeining mujassam integral xarakteristikasidir.

a) aholi daromadi

b) inson taraqqiyoti

c) turmush sifati

d) ish bilan bandlik

77. _____ – bu xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini tashkilot (korxona) doiralaridagi faoliyat orqali qondirish darajasidir.

a) ijtimoiy hayot sifati

b) mehnat hayoti sifati

c) atrof-muhit sifati

d) shaxsiy hayot sifati

78. _____ insoniyatning dunyo miqyosidagi rivojlanishining bugungi kundagi yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, oiladagi uyg'un munosabatlar va shaxslarning o'zaro hurmatiga, uy xo'jaligini va bolalar tarbiyasini birgalikda olib borishga, ishdan bo'sh vaqtlarni o'tkazish va o'z shaxsini rivojlantirish uchun bo'sh vaqtning mavjudligiga, qadriyatlarni va dunyoqarashni shakllantirishga asoslanadi.

a) ijtimoiy hayot sifati

b) mehnat hayoti sifati

c) atrof-muhit sifati

d) shaxsiy hayot sifati

79. Qaysi javobda shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar to'g'ri keltirilgan?

a) bozor uchun mo'ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati

b) uy xo'jaligi a'zolari tomonidan ishlab chiqarilgan maishiy xizmatlar (ovqat tayyorlash, uyni tozalash, bolalarni parvarishlash va sh.o'.)

c) uy-joy egalari tomonidan foydalanilmayotgan turar-joy xizmatlarining hisoblangan qiymati

d) korxona (tashkilot)dan olingan mehnatga doir daromadlari

80. Quyidagi javoblardan qaysi biri noto'g'ri. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hajmini hisoblash uy xo'jaliklari kuzatuvi asosida, shuningdek, quyidagi choraklik statistik baholashlar orqali amalga oshiriladi:

a) jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan (qayta ishlangan). hamda bozorda sotilgan yoki shaxsiy iste'mol uchun sarflangan sanoat mahsulotlari hajmi

b) sotish hamda shaxsiy iste'mol maqsadlarida dehqon xo'jaliklarida etishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hajmi

c) yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar (transport, savdo va shunga o'xshash) hajmi

d) jismoniy shaxslar tomonidan (ya'ni, pudratchi sifatida yuridik shaxslarni jalb qilmagan holda) yakka tartibda uy-joy va noturar-joy qurilishi hajmi

81. _____ – bank hisob-raqamlaridan, kredit uyushmalari yoki boshqa moliyaviy muassasalarga qo'yilgan omonotlardan, depozit sertifikatlari, davlat obligastiyalari, zayomlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha hamda boshqa shaxslarga berilgan qarzdorlik majburiyatlari va kreditlar bo'yicha olingan to'lovlar.

a) dividendlar

b) foizlar

c) renta

d) ish haqi

82. Yaratilgan adabiy asarlar, ixtirolar va mualliflik huquqi berilgan (ya'ni, nafaqat muallifga (yaratuvchiga) to'lanishi mumkin bo'lgan, balki boshqa mulkdorlarga, masalan, merosxo'rga ham to'lanadigan) boshqa patentlangan materiallar uchun egasi tomonidan olingan mualliflik mukofotlari ..... deb ataladi?

a) dividendlar

b) foizlar

c) renta

d) mualliflik haqi

83. "Renta" tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan javobni aniqlang.

a) bank hisob-raqamlaridan, kredit uyushmalari yoki boshqa moliyaviy muassasalarga qo'yilgan omonotlardan, depozit sertifikatlari, davlat obligastiyalari, zayomlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha hamda boshqa shaxslarga berilgan qarzdorlik majburiyatlari va kreditlar bo'yicha olingan to'lovlar

b) sarmoyador (jismoniy shaxs) ning korxonada ishlashi yoki ishlamasligidan qat'iy nazar, korxonaga sarmoya kiritishi natijasida olingan tushumlar

c) yaatilgan adabiy asarlar, ixtirolar va mualliflik huquqi berilgan (ya'ni, nafaqat muallifga (yaratuvchiga) to'lanishi mumkin bo'lgan, balki boshqa mulkdorlarga, masalan, merosxo'rga ham to'lanadigan) boshqa patentlangan materiallar uchun egasi tomonidan olingan mualliflik mukofotlari

d) jismoniy shaxs tomonidan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga ishlab chiqarilmagan aktivlarni (masalan, er maydoni) foydalanishga berishidan olingan ijara to'lovlar

84. Yuridik shaxsning tadbirkor (xususiy korxonaning mulkiy egasi yoki fermer xo'jaligining rahbari) ixtiyoriga (soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lagandan so'ng) o'tkazilgan foydasi qaysi daromad turiga kiradi?

a) tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad
b) mol-mulkdan olingan daromadlar
c) ijtimoiy transfertlar
d) aralash daromadlar

85. _____ – bu uy xo'jaliklariga tovar, xizmat yoki aktiv evaziga qoplanmasdan tovarlar, xizmatlar va aktivlarning kelib tushishidir.

a) transfertlar
b) tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad
c) mol-mulkdan olingan daromadlar
d) ish haqi

86. _____ – qonunchilikda nazarda tutilgan, ya'ni ma'lum bir yoshga etganligi, nogironlik, boquvchisini yo'qotganligi, shuningdek, qonunchilikka asosan ta'sis etilgan tizimlarga kirmaydigan (masalan, ish beruvchi tomonidan ta'sis etilgan) ijtimoiy ta'minot bo'yicha muntazam amalga oshiriladigan pul to'lovlaridir.

a) nafaqalar
b) stipendiyalar
c) kompensastiyalar
d) pensiyalar

87. Oliy ta'lim muassasalarining talabalariga to'lanadigan har oylik pul ta'minoti, shuningdek, jismoniy shaxslarga, shu jumladan, xorijiy davlatlardan ajratiladigan o'quv grantlari deb nimaga aytiladi?

a) nafaqalar
b) stipendiyalar
c) kompensatsiyalar
d) pensiyalar

88. Quyidagi javoblardan qaysi birida transfertlarning "boshqa joriy transfertlar" turi noto'g'ri ko'rsatilgan?

a) alimentlar

b) muntazam moliyaviy yordamlar

c) bolalar yoki ota-onalar tomonidan beriladigan moddiy yordamlar

d) stipendiyalar

89. Transfertlardan olingan daromadlarni hisoblashda pensionerlar soni va ularga tayinlangan pensiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar qaysi tashkilotdan olinadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligidan

b) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasidan

c) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan

d) O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidan

90. Transfertlardan olingan daromadlarni hisoblashda kam ta'minlangan oilalar uchun, 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalar uchun, 2 yoshgacha bolalari bo'lgan ishlamaydigan onalar uchun nafaqalar to'g'risidagi ma'lumotlar qaysi tashkilotdan olinadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligidan

b) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasidan

c) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan

d) O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidan

91. Transfertlardan olingan daromadlarni hisoblashda aholidan pul tushumlari va aholiga pul mablag'lari to'lovlari, shuningdek, chet elga va chet eldan amalga oshirilgan pul o'tkazmalari to'g'risidagi ma'lumotlar qaysi tashkilotdan olinadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligidan

b) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasidan

c) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan

d) O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidan

92. Majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirgunga qadar bo'lgan daromad qanday daromadni ifoda etadi?

a) real

b) o'z ixtiyoridagi

c) yalpi

d) transfert

93. Ijtimoiy rivojlanishga oid siyosatning asosiy yo'nalishlari noto'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) ta'limdan teng bahramand bo'lishni ta'minlash

b) kam ta'minlangan oilalarning tibbiy xizmatdan hech bir moneliksiz bahramand bo'lishini ta'minlash

c) energiya manbalari, sanitariya, toza ichimlik suvidan teng bahramand bo'lishni ta'minlash

d) sanoatni tarkibiy jihatdan qayta qurish, xususiy sektor va xususiy investistiyalarni rivojlantirish

94. Qaysi ta'limning maqsadi bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash, sog'lom, rivojlangan va ozod shaxsni shakllantirish, uning iste'dodini ochish, o'qishga, tizimli ta'limga intilishni tarbiyalashdan iborat?

a) umumiy o'rta ta'lim

b) maktabgacha ta'lim

c) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

d) oliy ta'lim

95. Bitiruvchiga muayyan kasbni o'rgatish va umumta'lim fanlar bo'yicha bilim berish orqali uni mehnat bozorida ishlashga tayyorlash qaysi ta'lim turining maqsadi hisoblanadi?

a) umumiy o'rta ta'lim

b) maktabgacha ta'lim

c) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

d) oliy ta'lim

96. Mehnat hayoti sifati konsepsiyasi qaysi tashkilot tomonidan ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi sifatida tan olingan?

a) YuNESKO
b) BMT
c) XMT
d) YuNISEF

97. Hayot davomiyligi, o'lim darajasi, kasalliklarning davom etish davri va h.k. lar turmush sifatining qaysi ko'rsatkichida aks etadi?

a) ovqatlanish
b) salomatlik
c) mehnat sharoiti
d) turar joy sharoiti

98. Turmush sifatining ob'ektiv ko'rsatkichlari to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) fuqarolarning mamlakat miqyosidagi turmush sharoitlaridan qoniqish darajasi
b) fuqarolarning mintaqa miqyosidagi turmush sharoitlaridan qoniqish darajasi
c) fuqarolarning mikrodarajadagi (tashkilot, korxona, oila) ijtimoiy-ruhiy va iqtisodiy munosabatlaridan qoniqish darajasi
d) uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi

99. Turmush sifatining sub'ektiv ko'rsatkichlari to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlanish darajasi va sifati
b) fuqarolarning mintaqa miqyosidagi turmush sharoitlaridan qoniqish darajasi
c) fuqarolarning tashkilot, korxona va oila ijtimoiy-ruhiy va iqtisodiy munosabatlaridan qoniqish darajasi
d) uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi

100. Aholining turmush sifatiga ta'sir etuvchi tabiiy omillar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) inson istiqomat qiladigan muhit, harorat rejimi, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun tabiiy boyliklarning mavjudligi

b) iqtisodiy o'sishni va iste'mol bozorlarining katta sig'imini ta'minlashga imkon beruvchi aholi soni va inson kapitalining sifati

c) siyosiy barqarorlik, demokratik erkinlik, fuqarolar totuvligi, urushlar bo'lmasligini ta'minlash

d) iqtisodiy o'sish, inson sarmoyasini rivojlantirish, YaIMni ko'paytirish, moliyaviy bozorlarni rivojlantirish va barcha turdagi boyliklardan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratish

101. Insonlar ehtiyojlarini, ular hayotining maqsadlarini, axloqiy me'yorlarini shakllantirish tizimi turmush sifatiga ta'sir etuvchi qaysi omil tarkibiga kiradi?

a) ijtimoiy
b) ma'naviy
c) axborot
d) iqtisodiy

102. Tabiat va insonga ta'sir qiluvchi ilmiy bilimlar tizimi o'z ifodasini topadigan mehnat vositalarini yaratishni ta'minlovchi texnologiyalarni rivojlantirish darajasi tizimi turmush sifatiga ta'sir etuvchi qaysi omil tarkibiga kiradi?

a) texnologik
b) ma'naviy
c) axborot
d) iqtisodiy

103. Inson kapitalini rivojlantirish, YaIMni ko'paytirish va barcha turdagi moddiy boyliklardan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratish turmush sifatiga ta'sir etuvchi qaysi omil tarkibiga kiradi?

a) texnologik
b) ma'naviy
c) ijtimoiy
d) iqtisodiy

104. Demokratik erkinlik, fuqarolar totuvligi, urushlar bo'lmasligini ta'minlash turmush sifatiga ta'sir etuvchi qaysi omil tarkibiga kiradi?

a) siyosiy
b) ma'naviy
c) ijtimoiy
d) iqtisodiy

105. _____ – bu pul shaklida ifodalangan aholi (uning turli qatlamlari va guruhlari) tomonidan iste'mol qilinadigan me'yorlar yoki amalda iste'mol qilinishi zarur bo'lgan moddiy ne'mat va xizmatlar miqdoridir.

a) turmush tarzi
b) aholi daromadlari
c) turmush qiymati
d) ijtimoiy me'yorlar

106. Tungi vaqtdagi ishlar uchun qanday tartibga haq to'lanadi?

a) ishning har bir soati kamida bir baravar miqdorda
b) ishning har bir soati kamida bir yarim baravar miqdorda
c) ishning har bir soati kamida ikki baravar miqdorda
d) ishning har bir soati kamida ikki yarim baravar miqdorda

107. Xodimning aybisiz yaroqsiz mahsulot tayyorlanganda va bekor turib qolingan vaqtda unga qanday tartibda haq to'lanadi?

a) ish haqi saqlanmaydi
b) o'rtacha ish haqining 50 foizi saqlanadi
c) ishbay haq to'lanadi
d) o'rtacha ish haqi saqlanadi

108. Xodimning aybi bilan tayyorlangan to'liq yaroqsiz mahsulot va bekor turib qolingan vaqt uchun qanday tartibda haq to'lanmaydi?

a) ish haqi saqlanmaydi
b) o'rtacha ish haqining 50 foizi saqlanadi
c) o'rtacha ish haqining 30 foizi saqlanadi
d) o'rtacha ish haqi saqlanadi

109. Mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholashning reytingini tuzish vazifasi qaysi tashkilot zimmasiga yuklatilgan?

a) Oliy attestatsiya komissiyasi

b) Davlat test markazi

c) Davlat statistika qo'mitasi

d) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

110. Mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimini joriy etishda ko'zlangan maqsad noto'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) oliy o'quv yurtlari o'rtasida sog'lom raqobat va musobaqa muhitini shakllantirish

b) e'tibordan chetda qolib kelayotgan jihatlar va rezervlarni baholash

c) yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda sifatini yanada oshirish

d) har bir oliy o'quv yurtining mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari orasida qanday o'rinni egallab turgani

111. Ijtimoiy farovonlik bo'yicha O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zgalar havas qiladigan ko'rsatkichlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining yuqoriligi, agrar sektorning barcha tarmoqlarida ulkan natijalar qo'lga kiritilganligi

b) yalpi ichki mahsulotning o'sishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag'lar ulushining ko'pligi

c) oilalarning tinchligi va osoyishtaligi, ishsizlik darajasining pastligi, ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish darajasi

d) ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish darajasi, real daromadlarning muntazam o'sish sur'ati, ishbilarmonlik muhiti uchun qulay investitsion muhitning mavjudligi

112. Quyidagi keltirilgan javoblardan haq to'lanadigan jamoat ishlarini mablag' bilan ta'minlamaydigan manbani toping.

a) ish beruvchilar mablag'lari

b) mahalliy budjet mablag'lari

c) Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari

d) Kasaba uyushmalari federatsiyasi

113. Joylardagi davlat hokimiyati organlariga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda tashkil etilgan jamoat ishlariga qanday tartibda haq to'lanadi?

a) ellik foizi ish beruvchilar mablag'lari va ellik foizi mahalliy budjet va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga

b) yetmish besh foizi ish beruvchilar mablag'lari va yigirma besh foizi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga

c) o'ttiz foizi ish beruvchilar mablag'lari va yetmish besh foizi mahalliy budjet va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga

d) o'ttiz besh foizi ish beruvchilar mablag'lari va oltmish besh foizi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga

114. Joylardagi davlat hokimiyati organlariga qarashli bo'lmagan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda tashkil etilgan jamoat ishlariga qanday tartibda haq to'lanadi?

a) ellik foizi ish beruvchilar mablag'lari va ellik foizi mahalliy budjet va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga

b) yetmish besh foizi ish beruvchilar mablag'lari va yigirma besh foizi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga

c) o'ttiz foizi ish beruvchilar mablag'lari va yetmish besh foizi mahalliy budjet va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga

d) o'ttiz besh foizi ish beruvchilar mablag'lari va oltmish besh foizi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga

15. Haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish bilan bog'liq xarajatlar kim tomonidan qoplanadi?

a) Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari

b) ish beruvchi

c) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari

d) mahalliy budjet

116. O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarning uyiga borib ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilgan, mehnat bo'limlarida ro'yxatga olingan ishsiz fuqarolarga ish haqi to'lash xarajatlari qaysi manba hisobidan amalga oshiriladi?

a) yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarning o'z mablag'lari

b) Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari

a) Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'lari

b) mahalliy budjet

117. Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazining shtatdagi xodimlariga sarflanadigan xarajatlar qaysi manba hisobiga amalga oshiriladi?

a) tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi

b) mahalliy budjet

c) Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari

d) Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'lari

118. Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazini barpo etish va uni joriy ta'minlash xarajatlari qaysi manba hisobiga amalga oshiriladi?

a) davlat budjeti

b) mahalliy budjet

c) Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari

d) Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'lari

119. Jon boshiga to'g'ri keluvchi aholi daromadlari qanday aniqlanadi?

a) jami daromad oila a'zolari soniga bo'linadi

b) yalpi ichki mahsulot respublika fuqarolari soniga bo'linadi

c) aholi daromadlari jami aholi soniga bo'linadi

d) aholi daromadlari oilalar soniga bo'linadi

120. Ishlab chiqarish jarayoniga yetuk kadrlarni tayyorlash jarayoni mamlakatimizda kamida _____ yilni talab etadi.

a) 9 yoki 12

b) 9

c) 2

d) 6

121. _____– bu, insonning salomatligini saqlash va uning hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning minimal to'plamidir.

a) daromad

b) minimal ish haqi

c) oila budjeti

d) iste'mol savati

122. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksida haftasiga necha soatlik ish vaqti belgilangan?

a) 39 soatlik

b) 40 soatlik

c) 41 soatlik

d) 38 soatlik

123. Hozirgi kunda O'zbekistonda budjet xodimlari mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasi nechta razryad asosida to'lanadi?

a) 0-22

b) 0-28

c) 1-22

d) 1-28

124. O'zbekistonda amalda bo'lgan yagona tarif setkasi qaysi tarmoq korxonalari xodimlari uchun qo'llanadi?

a) qurilish
b) sanoat
c) qishloq xo'jaligi
d) budjet

125. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

a) shaxs, davlat va jamiyat, o'zluksiz ta'lim, ishlab chiqarish
b) davlat va jamiyat, shaxs, uzluksiz ta'lim, fan
c) shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish
d)uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish, shaxs

126. Turmush darajasining BMT konsepsiyasida asosiy e'tibor qaysi komponentga qaratilgan?

a) mehnat mazmuni
b) salomatlik
c) maktab ta'limi
d) inson huquqlari

127. _____ – bu jon boshiga iste'mol etiladigan tovar va xizmatlarning miqdori va sifati bo'lib, ularning bozor qiymati bilan o'lchanadi.

a) ijtimoiy farovonlik
b) iqtisodiy farovonlik
c) turmush darajasi
d) turmush sifati

128. Ijtimoiy siyosatni o'tkazishda davlatning boshqarish funksiyasi noto'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) aholining iqtisodiy nofaolligini qo'llab-quvvatlash
b) aholining yashash darajasini keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik
c) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari mahallalar orqali aholiga aniq ijtimoiy yordam ko'rsatish
d) ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish

129. Qaysi koeffistient aholining eng ta'minlangan 25,0 foizi daromadlarining eng kam ta'minlangan 25,0 foizi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi?

a) aholi daromadlari tabaqalanishining kvantil koeffistienti
b) aholi daromadlari tabaqalanishining destil koeffistienti
c) Jini indeksi
d) inson taraqqiyoti indeksi

130. Qaysi koeffistient aholining eng ta'minlangan 10,0 foizi daromadlarining eng kam ta'minlangan 10,0 foizi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi?

a) aholi daromadlari tabaqalanishining kvantil koeffistienti
b) aholi daromadlari tabaqalanishining destil koeffistienti
c) Jini indeksi
d) inson taraqqiyoti indeksi

131. Milliy mulk va tabiiy resurslar qaysi tushunchaning tarkibiga kiradi?

a) kapital tushumlar
b) milliy boylik
c) iste'mol fondi
d) inson kapitali

132. Mualliflik haqi quyida keltirilgan qaysi daromad turi tarkibiga kiradi?

a) ijtimoiy transfert
b) ish haqi
c) mol-mulkdan olinadigan daromad
d) tadbirkorlik daromadi

133. Nafaqa quyida keltirilgan qaysi daromad turi tarkibiga kiradi?

a) ijtimoiy transfert
b) ish haqi
c) mol-mulkdan olinadigan daromad
d) tadbirkorlik daromadi

134. Nafaqa quyida keltirilgan qaysi daromad turi tarkibiga kiradi?

a) ish haqi
b) ijtimoiy transfert
c) mol-mulkdan olinadigan daromad
d) tadbirkorlik daromadi

135. Jismoniy shaxs tomonidan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga ishlab chiqarilmagan aktivlarni (masalan, yer maydoni) foydalanishga berishidan olingan ijara to'lovlari nima deb ataladi?

a) dividend
b) renta
c) foiz
d) transfert

136. BMTning Mingyillik rivojlanishining birinchi maqsadi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan.

a) aholi o'rtasida kam ta'minlanganlik va to'yib ovqatlanmaslikni kamaytirish
b) boshlang'ich va o'rta ta'lim sifatini oshirish
c) ayollar va erkaklarning tengligini rag`batlantirish hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish
d) bolalar o'limini kamaytirish, onalar salomatligini yaxshilash, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurash olib borish

137. BMTning Mingyillik rivojlanishining ikkinchi maqsadi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan.

a) aholi o'rtasida kam ta`minlanganlik va to'yib ovqatlanmaslikni kamaytirish
b) boshlang'ich va o'rta ta'lim sifatini oshirish
c) ayollar va erkaklarning tengligini rag`batlantirish hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish
d) bolalar o'limini kamaytirish, onalar salomatligini yaxshilash, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurash olib borish

138. Iste'mol budjeti va aholi turmush darajasini prognozlashtirish masalalari bilan qaysi tashkilot shug'ullanadi?

a) Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi
b) Iqtisodiyot vazirligi
c) Sog'liqni saqlash vazirligi
d) Moliya vazirligi

139. Mehnat haqi metodologiyasi masalalari bilan qaysi tashkilot shug'ullanadi?

a) Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi
b) Iqtisodiyot vazirligi
c) Sog'liqni saqlash vazirligi
d) Moliya vazirligi

140. Oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradigan va realizastiya qiladigan, yuridik shaxsni tashkil etgan va tashkil etmagan holda faoliyat yuritadigan oilaviy mayda tovar xo'jaligi nima deb ataladi?

a) shaxsiy yordamchi xo'jalik
b) dehqon xo'jaligi
c) fermer xo'jaligi
d) mikrofirma

141. Qishloq, ovul va qo'rg'onlarda yashovchi fuqarolarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun uy-joy qurish uchun berilgan uchastkalarining bir qismi — tomorqada oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida oila ehtiyojlari uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hamda oila ehtiyojidan ortiqchasini dehqon bozorlarida sotish bilan shug'ullanadigan oilaviy xo'jalik nima deb ataladi?

a) shaxsiy yordamchi xo'jalik
b) dehqon xo'jaligi
c) fermer xo'jaligi
d) mikrofirma

142. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kirmaydigan tashkilot nomini aniqlang.

a) Nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi

b) Muruvvat va Sahovat uylari

c) Mehribonlik uylari

d) Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi

143. Mehnatga haq to'lash tizimini, yagona tarif setkasini, ish haqini tumanlar bo'yicha tartibga solishni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadigan Vazirlik nomi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

a) Iqtisodiyot vazirligi

b) Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi

c) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

d) Ichki ishlar vazirligi

144. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar toifasi noto'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) ta'lim muassasalarini tugatgan yoshlar

b) muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar

c) xodimlar

d) jazoni o'tash muassasalaridan bo'shatilgan, jazoni o'tayotgan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko'rilgan shaxslar

145. Kasanachilar ishiga qanday tartibda haq to'lanadi?

a) ishbay

b) vaqtbay

c) akkord

d) mukofotli

146. Kasanachiga ish vaqtidan ortiqcha ishlaganlik, dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik, shuningdek tungi vaqtda ishlaganlik uchun mehnatiga qanday tartibda haq to'lanadi?

a) bir hissa miqdorda

b) bir yarim barobar

c) haq to'lanmaydi

d) ikki barobar

147. Qaysi javobda insonning imkoniyatlarini kengaytirib, jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiradigan ko'rsatkich keltirilgan?

a) jismoniy holat
b) tadbirkorlik qobiliyati
c) ta'lim va ma'lumot darajasi
d) ma'naviy yetuklik

148. Har bir inson to'la-to'kis hayot kechirish va o'zi tanlagan mehnat faoliyati sohasida ishlay olishi uchun muayyan ..... darajasiga ega bo'lishi kerak.

a) ta'lim va ma'lumot
b) sog'liq va jismoniy rivojlanish
c) hayotiy tajriba va ko'nikma
d) odob-ahloq va xulq-atvor

149. _____ – bu xodimning yaratuvchanlik va yangilikka intilib ishlashini anglatuvchi ko'rsatkichdir.

a) jismoniy holat
b) tadbirkorlik qobiliyati
c) ta'lim va ma'lumot darajasi
d) ma'naviy yetuklik

150. Aholi daromadlari - xarajatlar =

a) jamg'arma
b) real daromad
c) nominal daromad
d) investitsiya

ATAMALAR LUG'ATI

Aholi daromadlari – bu alohida shaxs yoki oila (uy xo'jaligi) tomonidan turli manbalardan ma'lum davr mobaynida olinadigan va iste'mol, jamg'arma, turli yig'in va soliqlarga sarflanadigan pul va natural tushumlar majmuasidir.

Aholi daromadlari indeksatsiyasi – olingan mehnat va boshqa daromadlarning xarid qobiliyatini saqlash va tiklashga qaratilgan davlat mexanizmi tushuniladi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – bu davlat tomonidan munosib turmushni, ya'ni jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi standartlarga mos moddiy ta'minotni va insonning erkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuasi.

Aksiya – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz.

Aholining pul daromadlari – bu ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlari, mulkdan foiz, dividend, renta, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlar.

Adolatli tengsizlik – bozor qonunlariga mos ravishda, jamiyatda qabul qilingan va qonuniy ruxsat berilgan usullar bilan topilgan daromadlardagi farqlar.

Adolatsiz tengsizlik – g'ayriqonuniy, ya'ni man etilgan usullar bilan topilgan daromadlardagi farqlar. Adolatsiz tengsizlik xufyona (man etilgan) iqtisodiy faoliyat bor joyda yuzaga keladi.

Atrof muhit sifati – insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri xususiyatining o'zgarishini, tabiiy dunyoni, suv va havo muhitini himoya qilishga, flora va faunani saqlashga, zararli kimyoviy moddalar chiqarib tashlashni qisqartirishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Aholining yashash qobiliyati koeffitsiyenti – aholi genofondini, aqliy rivojlanishini saqlab qolish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Bu koeffitsiyent besh balli shkala bo'yicha o'lchanadi.

Bepul ijtimoiy xizmat – keksa yoshdaligi, kasalligi, nogironligi, qarindoshlari yo'qligi tufayli o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga noqobil fuqarolarga, agar shunday fuqarolarning daromadi yashash minimumidan past bo'lsa; qiyin hayot vaziyatiga tushgan shaxslarga; ishsizlik, tabiiy ofat, halokatdan jabr ko'rganlarga; qiyin hayot vaziyatiga tushib qolgan balog'atga yetmagan bolalarga ko'rsatiladi.

Birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimi – joriy pensiya majburiyatlarini qoplash uchun zarur badal turlarini yig'ish orqali amalga oshiriladigan pensiya tizimi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha beriladigan nafaqa – pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya – pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lgan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega.

Vaqtbay ish haqi – ishchining ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) hisobga olinib to'lanadigan ish haqi.

Davlat budjeti – davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

Davlat daromadi – milliy mahsulot va milliy boylikning pul shaklida davlatga tekkan va uning mulkiga aylangan qismi. Davlat daromadi quyidagi asosiy shakllarga ega: soliqlar, soliqdan tashqari to'lovlar, davlat korxonalaridan tushgan pul, davlatga tekkan dividend, davlat mulkini sotishdan kelgan pul tushumi.

Davlat zayomlari – davlatning qarz majburiyatlari. Hukumat va mahalliy hokimiyat zayomlar chiqarib, uni korxona, tashkilotlar va aholiga sotadi. Zayom chiqarish qarz ko'tarib, xarajatlarni qoplashni bildiradi.

Davlat ijtimoiy kafolatlari – bu qonun bilan tasdiqlangan va fuqarolarning konstitutsiyaviy majburiyatlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat majburiyatlaridir.

Davlat ijtimoiy yordami – mehnatga layoqatligining yo'qligi, ishsizligi, daromad manbayi mavjud bo'lmaganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan beriladigan yordam.

Davlat ijtimoiy sug'urta nafaqalari – mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan (shug'ullangan) va belgilangan tartibda ijtimoiy sug'urtalangan shaxslarga (ularning oila a'zolariga) ular vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lganlari, homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqanlari hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy sug'urta (pensiya jamg'armasi) mablag'lari hisobidan nafaqalar tayinlanadi.

Davlat ijtimoiy ta'minoti – shaxslarning moddiy holati e'tiborga olinmagan holda davlat tomonidan beriladigan ta'minot.

Davlatning minimal ijtimoiy standartlari – bu qonunlar bilan o'rnatilgan me'yorlar bo'lib, ular mehnatga haq to'lash, pensiya ta'minoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida aholini ijtimoiy himoyalashning eng kam darajasini kafolatlaydi.

Daromad samarasi – daromadning xarid qobiliyatiga ta'siridir. Masalan, narxning ortishi daromad samarasini pasaytiradi va aksincha, tovarlarning arzonlashuvi uning samarasini oshiradi.

Daromadlarning tabaqalashuvi – aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar darajasidagi tafovutlar.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa – nafaqaning bu turi xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan turmush o'rtog'i, 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari, ota-onasi, bobosi yoki buvisi vafot etganda bir yo'la beriladi.

Dividend – aksiyadorlik jamiyati olgan foydaning aksiya egasiga ulush bo'lib tegadigan qismi. Dividand aksiya chiqargan korxonaning rentabel ishlashiga bog'liq.

Ehtiyoj – insonlarning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyatdir.

Yoshi bo'yicha nafaqa – ish staji, ularni boqishga bo'lgan qarindoshlari bo'lmagan shaxslar: erkaklarga 65 yoshga, ayollarga 60 yoshga yetganlarida tayinlanadi.

Yoshga doir pensiya – pensiyaning bu turini olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha davlat kafolatlari – davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqalarida jamg'arilgan mablag'lari saqlanishi hamda to'planishini kafolatlaydi.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqi – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, respublika hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etish – ish beruvchilarning, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini shakllantirish – jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqalarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya pensiya hisob varaqalarida mablag'larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat: jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari; jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari; shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqalari mablag'lariga hisoblab chiqarilgan foizlar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan foydalanish – jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlarini bajarish uchun foydalanish mumkin emas. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'arish tamoyiliga asoslangan xususiy pensiya tizimi – badallarni kapitallashtirish va pensiya hisobini individuallashtirish tamoyili asosida shakllanib, shaxsiy hisoblarda jamg'ariluvchi sug'urta badallari pensiya darajasini belgilaydi.

Jamg'arma – aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'planib borishi.

Jamiyatning intellektual salohiyat indeksi – turmush sifatining muhim indikatori hisoblanib, aholining bilim saviyasini hamda mamlakatdagi fanning ahvolini aks ettiradi. Intellektual salohiyat indeksini hisoblashda katta yoshli aholining bilim darajasi, talabalarning aholi umumiy sonidagi ulushi, YalMdagi ta'limga harajatlar ulushi, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlarning umumiy sonida fanda hamda ilmiy xizmat ko'rsatishda bandlarning ulushi, YalMda fanga harajatlarning ulushi hisobga olinadi.

Jamoatchilik iste'mol jamg'armalari – iste'molning jamoaviy shakli turlaridan biri bo'lib, aholiga bepul xizmat ko'rsatish sohasining amal qilishi uchun moddiy asosni tashkil qiladi. Mazkur jamg'armalar hisobiga aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha davlat muassasalari: kasalxonalar, poliklinikalar, boshqa sog'liqni saqlash muassasalari, maktablar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa o'quv muassasalari, bolalar bog'chalari, ko'pgina madaniyat muassasalari ta'minlanadi.

Jismoniy ehtiyojlar - inson organizmining mo'tadil hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan obyektiv sharoitlarning majmui.

Ijtimoiy me'yorlar – bu ijtimoiy jarayonning eng maqbul ahvolining ilmiy asoslangan miqdor va sifat tavsifi bo'lib, u jamiyat rivojining va davlat imkoniyatlarining obyektiv qonuniyatlarini hisobga olish asosida olingan va moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarni eng yuksak darajada qondirishga, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy institut – bu odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkiliy tuzilma tarzida tashkil etishning barqaror shakli yoki me'yoriy jihatdan tartibga solinadigan qoidalar tizimi.

Ijtimoiy yordam – davlat va notijorat tashkilotlari tomonidan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ularning muhtojligini tekshirish asosida ne'matlar va xizmatlarning berilishi.

Ijtimoiy siyosat – bu jamiyatning faqat barcha ne'matlardan mahrum qilingan qisminingginа emas, balki uning hamma fuqarolarining daromadlari va turmush darajasini tartibga solishga, tuzatishga qaratilgan siyosatdir.

Ijtimoiy sug'urta – aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yo'qotishi bilan bog'liq turli xatarlardan ijtimoy muhofaza qilish shaklidir.

Ijtimoiy standartlar – ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdagi yo'nalish, boyliklarni taqsimlashning asosi, ijtimoiy kafolat shakli va davlatning omma oldidagi majburiyati. Masalan, aholining alohida guruhlari uchun tirikchilik minimumi; mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori; yagona tarif setkasining birinchi toifasi me'yori; pensiyaning eng kam miqdori; nogironlar, keksalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga va aholining boshqa guruhlariga xizmat ko'rsatish me'yorlari; uy-joy bilan o'rtacha ta'minlanganlik; aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromad; turmush sifati ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymati.

Ijtimoiy ta'minot – bu aholiga ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy yordam ko'rsatish, bepul ta'lim olish kabilarni o'z ichiga olib, insonlarning farovon hayot kechirishiga xizmat qiladi hamda aholining muhtoj qatlamlariga asosan ijtimoiy transfyertlar orqali yetib boradi.

Ijtimoiy xatar – kasallik, baxtsiz hodisa, farzand tug'ilishi va uni parvarishlash, keksalik oqibatida mehnatga layoqatning yo'qolishi, shunungdek, mehnatga talabning yo'qligi tufayli moddiy jihatdan ta'minlanmaganlikning yuz berish holati.

Ijtimoiy hayot sifati – ijtimoiy sohani (sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot, fan, madaniyat va san'at) rivojlantirishning yuksak darajasini; ko'rsatiladigan xizmatlarning ommabopligini; aholini ijtimoiy himoya qilishni, sog'lomlashtirish, reabilitatsiya, sport bilan shug'ullanish va madaniy qadriyatlarga qo'shilish imkoniyatlarini anglatadi.

Ijtimoiy parametrlar – ijtimoiy sohani, uning tarkibini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning ehtiyojlari va manfaatlarini, ularni qondirish shakllari va usullarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, aholi daromadlari, iste'moli darajasi va dinamikasini, ularning tabaqalanishini, ularni belgilovchi omillarini o'lchovchi va baholovchi ko'rsatkichlar.

Ijtimoiy transfertlar – bu ekvivalent olinmasdan jamiyatga amalga oshiriladigan pullik yoki natural (xizmatlar yoki tovarlar ko'rinishidagi) to'lovlardir. Ijtimoiy transfertlar to'lovining maqsadi – ijtimoiy himoya va aholi turmush sifatini oshirish, shuningdek, mamlakatdagi inson resurslari imkoniyatlarini rivojlantirishdir.

Imtiyoz – qonunda belgilangan umumiy qoidalarni bajarishdan to'liq yoki qisman ozod qilish, qandaydir majburiyatlarni bajarish; biror afzalliklarni taqdim qilish. Imtiyozda qandaydir ijtimoiy kafolat, moddiy yordam yoki nafaqa berishning o'ziga xos tartibi mavjud.

Investitsiyalar – ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo'yilmalar.

Iste'mol budjeti – eng muhim moddiy boyliklar va xizmatlar hajmi va tarkibining qiymat ko'rsatkichidir. Faktik va me'yoriy iste'mol budjeti farqlanadi. Me'yoriy iste'mol budjeti davlat daromadlar siyosatining ijtimoiy me'yorlari bo'lib, ijtimoiy siyosatni o'tkazishda yo'nalish rolini o'ynaydi. Iste'mol budjeti eng kam, oq-

ilona va elitar iste'mol budjeti kabi standartlarda bo'lib, ehtiyojlarni qondirishning turli darajalarini aks ettiradi.

Iste'mol fondi – bu insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini va umuman jamiyat ehtiyojlarini (ishlab chiqarish sohasiga. mudofaga harajatlar) qondirishni ta'minlovchi milliy daromadning bir qismidir. Ushbu fond miqdori ehtiyojlarni qondirishning imkoniyatlarini belgilaydi.

Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta – bu iqtisodiyotning alohida tarmoqlari doirasida yollanma ishchilar uchun uzoq muddatli tarmoqli va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladigan sug'urta.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta – ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturlari asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy sug'urtaning tarkibiy qismidir. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta jamoaviy va yakka tartibda bo'lishi mumkin. Uning asosiy maqsadi sug'urta qilingan shaxslarni majburiy tibbiy sug'urta dasturlaridan ortiqcha sifatli tibbiy xizmatlar bilan kafolatli ta'minlashdir.

Ish haqi – ishchi kuchi bahosining pul ifodasidagi aniq shakli hisoblanadi. Shuningdek, ish haqi ishchilar o'rtasida sarflangan mehnat miqdori va sifatiga qo'yilgan haqiqiy hissaga muvofiq taqsimlanadigan hamda korxona ishining pirovard natijalari bo'lmish foydaning asosiy qismidir.

Ishbay ish haqi – ishlab chiqargan mahsuloti miqdoriga yoki bajargan ishi miqdoriga qarab to'lanadigan ish haqi.

Iqtisodiy resurslar – ma'lum davrdagi ma'lum bir mamlakat ixtiyorida to'plangan va mavjud bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchilarga yetkazib berish va iste'mol jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, imkoniyatlar va manbalardir.

Iqtisodiy o'sish – iqtisodiy ravnaq, ya'ni iqtisodiyotning ilgarilab rivojlanishi bo'lib, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko'payib borishini bildiradi.

Kambag'allik – bu jamiyatning katta qismi uchun xos bo'lgan, mo'tadil turmush tarzini olib borish uchun moddiy boyliklarning yetishmasligi sababli yuzaga keladigan holatdir. Kambag'allik

aholining bir qismi hayot va faoliyatining jamiyatda qabul qilingan asosiy sharoitlarga eng kam ehtiyojlarini qondira olmagan holatida yuzaga keladi.

Kambag'allikning jiddiyligi – kambag'al aholi daromadlari tirikchilik minimumi darajasiga yetishi uchun qancha mablag' zarurligini, kambag'allikning keskinligi "kambag'al aholi" toifasi daromadlarining tabaqalanishini ifodalaydi.

Kvalimetriya – turmush sifatini baholashning miqdoriy usullarini birlashtiruvchi ilmiy soha.

Kompensatsiya – bu aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga qonunchilikda qayd etilgan maqsadlarga sarflagan xarajatlarni to'liq yoki qisman qoplashdir.

Korporativ sug'urta – ish beruvchilarning daromadlari hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy muhofaza tizimi bo'lib, u xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini (tibbiy yordam, sog'lomlashtirish, turarjoy, transport va o'quv xarajatlarini, madaniyat sohasidagi xizmatlar, pensiya to'lovlari) qondirishga yo'naltiriladi.

Majburiy ijtimoiy sug'urta – mehnatga layoqatlikni (kasallik, baxtsiz hodisa, qarilik) yoki ish joyini yo'qotish tufayli daromad (ish haqi) dan mahrum bo'lish hollarida qo'llaniladigan amaldagi qonunchilikda belgilangan ijtimoiy kafolatdir.

Majburiy kasbiy sug'urta – salomatligiga xavf soluvchi yuqori darajali xatar mavjud, ya'ni jarohatlanish darajasi, kasb kasalliklari darajasi yuqori va og'ir bo'lgan yollanma ishchilar guruhlarini, shuningdek, muddatidan oldin kasbiy pensiyalar berilishi ko'zda tutilgan shaxslar doirasini qamrab oladigan sug'urta.

Majburiy tibbiy sug'urta – majburiy tibbiy sug'urta mablag'lari hisobiga tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan berul tibbiy xizmatlardan foydalanishda jismoniy shaxslarga teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan davlat ijtimoiy sug'urtasining tarkibiy qismi.

Me'yoriy daromad – qo'shimcha ravishda sotilgan tovardan tushadigan qo'shimcha pul. Uni aniqlash uchun tushgan umumiy pul (daromad) o'simi qo'shimcha sotilgan tovarlar miqdoriga bo'linadi.

Mehnat staji – xodimning mehnat shartnomasi asosida korxona, muassasa, tashkilotlarda yollanib ishlagan, ish haqi olgan davri (boshqa ish vaqti, dam olish vaqtlarini ham uzluksiz o'z ichiga qamrab olgani holda) nazarda tutiladi va u yuridik fakt sifatida ijtimoiy ta'minot masalalarida muayyan huquqlar hamda majburiyatlarni keltirib chiqaradi.

Mehnat kooperatsiyasi – ixtisoslashgan mehnat turlarining bir-biriga bog'lanib, muayyan turdagi mahsulot yaratishda ishtirok etishidir.

Mehnat taqsimoti – yagona mehnatning mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan mehnat turlariga ajralib borishi, mehnat turlarining to'xtovsiz ravishda yangidan paydo bo'lishidir.

Mehnatga haq to'lash tizimi – mehnat me'yorlari doirasida unga haq to'lash me'yorini bildiradigan ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqalardir. Mehnatga haq to'lash tizimi xodimning amalda erishilgan mehnat natijalariga hamda xodim bilan ish beruvchi o'rtasida kelishilgan ishchi kuchining bahosiga muvofiq ish haqi olishini kafolatlaydi.

Mehnat hayoti sifati – bu xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini tashkilot (korxona) doiralaridagi faoliyat orqali qondirish darajasidir. Mehnat hayoti sifatining mehnatning mazmuni; mehnatni tashkil qilish; mehnatning adolatli taqdirlanishi va e'tirof etilishi; mehnatning havfsiz va sog'lom sharoitlari; qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar imkoniyati; huquqiy himoyalanganlik; mahoratni o'stirish va o'z kuchlarini rivojlantirish imkoniyatlari; hamkasblar bilan do'stona munosabatlarga yordam beruvchi tashkiliy madaniyat kabi asosiy elementlardan iborat.

Milliy boyliklar – jamiyat tasarrufida bo'lgan moddiy zaxiralar, to'plangan mahsulotlar, iqtisodiy aylanmaga kirgan yoki jalb qilingan tabiiy zaxiralarning yig'indisi.

Milliy daromad – bu ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mehnat vositalari va moddiy xarajatlardan istisno umumiy ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib, u yangidan yaratilgan qiymat, ya'ni ushbu yildagi ishlab chiqarishning jamiyat farovonligi uchun qo'shilganidir.

Milliy mulk – milliy boylikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, jamiyatning moddiy farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mol-mulklarni o'z ichiga oladi. Uning salmog'i va tarkibi yalpi ichki mahsulot va aholi farovonligini oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Moliya – pul fondlarining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

Mulkdan keladigan daromad – xo'jalik yurituvchi subyektlarga moliyaviy va nomoliyaviy resurslarni foydalanishga berib qo'yishdan olinadigan daromadlardir.

Mutlaq kambag'allik konsepsiyasi – shaxs yoki oqilona minimal hayotiy ehtiyojlarni ta'minlash uchun zarur bo'lgan daromadni ta'riflashga asoslanadi. O'zbekistonda insonning minimal ehtiyojlarini ta'riflash uchun shunday tirikchilik minimumi belgilanganki, uni hisoblab chiqishda kaloriyalar, oqsillar, yog'lar va uglevodlar zaruriy iste'molining fiziologik me'yorlaridan foydalaniladi.

Mutlaq qashshoqlik – bu daromadlarning umuman yoki shaxsning (oilaning) minimal turmush ehtiyojini qondirish uchun zarur daromadning yo'qligi. Mutlaq qashshoqlik ko'proq daydilar va boshpanasizlarda uchraydi.

Natural daromadlar – bu asosan uy xo'jaliklari tomonidan shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (shaxsiy yordamchi xo'jalik, fermer xo'jaligidan), shuningdek, davlat budjeti, korxonalar fondi va turli xayriya yordami mablag'lari hisobiga olinadigan natural tushumlar va bepul xizmatlardir.

Nisbiy kabag'allik konsepsiyasi asosiy mezon sifatida insonning minimal ehtiyojlaridan emas, balki uning farovonligi ko'rsatkichlarining u yoki bu mamlakatda ustunroq keluvchi moddiy ta'minlanganlik darajasi bilan bo'ladigan nisbatidan foydalanadi. Bunday yondoshuvda daromadlari mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadning muayyan ulushidan oshmaydiganlar kambag'al hisoblanadi.

Nisbiy qashshoqlik yashash minimumi budjetidan kam bo'lgan daromadlari miqdori bilan aniqlanadi. Jahon amaliyotida bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadlarning 40–60 % idan kam bo'lmagan daromadlarga nisbatan qo'llaniladi.

Nogironlar – jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar.

Nogironlik bo'yicha nafaqalar – nogironlik sodir bo'lgan hollarda, ya'ni mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda, faqat I va II guruh nogironlarga tayinlanadi va to'lanadi.

Nogironlik guruhlari – sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi. Nogironlikning uch guruhi, sabablari, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va qancha muddatga belgilanishi tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Nogironlarni reabilitasiya qilish – nogironlarga organizmining izdan chiqqan yoki yo'qolgan funksiyalarini tiklashiga va ularni kompensasiya qilishiga, turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi uchun yordam berishga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, jismoniy, kasbga, mehnatga doir chora-tadbirlar tizimi.

Nogironlik pensiyalari – mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotilgan hollarda tayinlanadigan pensiya.

Nominal daromadlar – aholi pul daromadlarining soliq va to'lovlar to'lashga qadar va narxlar o'zgarishidan qat'iy nazar darajasini tavsiflaydi. Bu daromad turmush darajasini ifodalamaydi.

Nooziq-ovqat tovarlari – yakka tartibda foydalaniladigan tovarlardan (kiyim-kechak, oyoq kiyimi va maktab-yozuv tovarlari) va umumiy oila tovarlaridan (choyshab, yostiq, ko'rpa jildlari, madaniy-maishiy va xo'jalik tovarlari, sanitariya predmetlari va dori-darmonlar) iborat tovarlardir.

Obligatsiya – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo'yganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Oziq-ovqat mahsulotlari savati – bu bir oyga bitta odam uchun mo'ljallangan (mahsulotlarni iste'mol qilishning eng kam me'yorlari asosida hisoblab chiqilgan) oziq-ovqat mahsulotlarining to'plami bo'lib, u jismoniy ehtiyojlarga muvofiq keladi, talab qilingan to'yimlilikni va asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga boylikni va ovqatlanishni tashkil qilishning an'anaviy ko'nikmalariga amal qilinishini ta'minlaydi.

Opsionlar – bu egasiga belgilangan muddatda (odatda 3–6 oy) qimmatli qog'ozlar yoki tovarlarning ma'lum miqdorini qayd qilingan narxda sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi qog'ozlardir.

Pensiya – qonun tomonidan kafolatlangan va fuqarolarni keksaligida, qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizligi, boquvchisini yo'qotganda hamda mehnat faoliyatining muayyan sohasida ma'lum ish stajiga erishgan paytida ta'minlashga qaratilgan pullik to'lovdir.

Pensiya tizimi – sug'urta asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish hamda konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan pul mablag'lari jamg'armasidan foydalanishga asoslangan tizim.

Pul emissiyasi – davlat tomonidan qo'shimcha ravishda, ya'ni keragidan ortiqcha chiqarilgan pul bo'lib, bu bilan davlat xarajatlari qoplanadi.

Renta – miqdori chegaralangan yer va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish uchun to'lanadigan narxdir. Aksariyat hollarda renta ijara to'lovi shaklida chiqadi. Renta egasi tomonidan yer, mulk, sarmoyadan foydalanishdan olinadigan, egasidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni, qo'shimcha kuchlar sarflashni talab qilmaydigan daromaddir. Bunday daromad, masalan, yerni yoki inshootni ijaraga berishdan olinishi mumkin.

Real daromadlar – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini ko'rsatadi.

Soliqlar – majburiy to'lov shaklida firmalar, tashkilotlar va aholi davlatga to'laydigan puldir. Soliqlar fiskal, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va ijtimoiy himoya vazifalarini bajaradi.

Subsidiya – davlat tomonidan aniq maqsad yo'lida ishlatish uchun qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'idir. Subsidiyalar iqtisodiyotni tarkiban o'zgartirish, eksport-importni muvozanatlashtirib turish ishlarini yo'lga qo'yish, ayrim hududlarga yordam berish maqsadlarida ajratiladi.

Sof foyda – yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

Stipendiya – bu ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiydigan oliy o'quv yurtlari talabalariga to'lanadigan muntazam pullik to'lovdir.

Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromad – tovarlar realizatsiyasidan daromad olish maqsadida yakka tartibda amalga oshirilgan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyatlardan keladigan barcha tushumlar.

Tarif jadvali – tarif tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, bu jadvalning vazifasi uning yordamida har bir korxona personalining malakasiga muvofiq ish haqi to'lashdagi zarur farqlarni anglashdan iborat. Tarif jadvali tarif razryadlari va tarif koeffitsiyentlaridan tashkil topadi.

Tarif tizimi – bajarilayotgan ishlarning murakkablik darajasini, mehnat sharoitlari va intensivligini, uni qo'llash sohalarining ahamiyatini va mehnat jarayonining yollanib ishlovchilar mehnat bilan qo'shadigan ulushini baholashning imkonini beradigan jami haq to'lash shartlaridir.

Ta'sischilik foydasi – sotilgan aksiyalar va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qo'yilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lib, jamiyatni ta'sis etuvchilar o'zlashtiradi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza – muayyan shaxs organizmining barcha tizimlarini kompleks tekshirish asosida uning sog'lig'ini yo'qotganlik darajasini, organizmi fuknsiyalari turg'un buzilishi oqibatida turmush faoliyatining cheklanganlik darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning yuz berganligi sabablari hamda vaqtini aniqlash, shuningdek, shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra amalga oshirishi mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va

mehnat sharoitlari, o'zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojlari haqida tavsiyalar tayyorlash.

Tibbiy sug'urta – sog'liqni muhofaza qilishda aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish shakli. Tibbiy sug'urtadan maqsad sug'urta hodisasi yuz berganda jamg'arilgan vositalar hisobidan tibbiy yordam olishda fuqarolarni kafolatlash va oldini olish tadbirlarini moliyalash hisoblanadi.

Tirikchilik minimumi – insonning salomatligini saqlash va uning hayoti hamda faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari eng kam to'plamining qiymat bahosini, shuningdek, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlariga, soliqlarga va majburiy xizmatlarga harajatlarni, bu maqsadlarga aholining past daromadli guruhlari xarajatlari ulushidan kelib chiqqan holda ifodalaydi.

Turmush darajasi – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir.

Turmush sifati – shaxsning, uning faoliyat turlarini, ehtiyojlari tarkibini va ularni qondirish darajasini, insonning (aholi, ijtimoiy guruhlarning) jamiyatdagi turmush sharoitlarini va tabiat muhiti bilan uyg'un munosabatlarini tavsiflovchi, turmushdan qanoatlanish hissini yaratuvchi hayotiy qadriyatlari majmui hisoblanadi.

Turmush qiymati – bu pul shaklida ifodalangan aholi (uning turli qatlamlari va guruhlari) tomonidan iste'mol qilinadigan me'yorlar yoki amalda iste'mol qilinishi zarur bo'lgan moddiy ne'mat va xizmatlar miqdoridir.

Uy xo'jaligi – bitta xonadonda yashaydigan, o'zining barcha daromadlari va boyliklarini birlashtirgan, tovarlar hamda xizmatlar iste'moliga, asosan turarjoy va oziq-ovqat mahsulotlariga sarf-harajatlarni birgalikda amalga oshiradigan shaxslar guruhidir.

Farovonlik – bu aholining hayot uchun zarur moddiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy boyliklar, ya'ni inson ehtiyojlarini qondiruvchi elementlar, xizmatlar va sharoitlar bilan ta'minlanganligidir.

Foiz – pul egasi o'z pulini o'zgalarga qarzga bergani uchun oladigan daromadi. Foiz darajasi kreditga bo'lgan talabga va uning taklifiga bog'liq bo'ladi.

Foyda – ishbilarmonlik qobiliyatini ishga solib, xatarli ishga qo'l urgani uchun tadbirkorlarga tegadigan mukofotdir. Foyda miqdori narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda, xarajatlarga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi.

Fuqarolarning shaxsiy sug'urtasi – bu shartnoma asosida tuziladigan, uning doiralari hamda amal qilinishi vaqt davrlari, ma'lum jismoniy shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari, xatar turlari bilan cheklangan institut.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti – ijtimoiy tinchlikni qaror toptirish va saqlash, inson huquqlarini muhofaza qilish, ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish va mehnat sohasidagi bir qator o'ziga xos masalalarni hal qilish maqsadida tashkil etilgan tashkilot hisoblanadi.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi – bu xodim hayotidagi zarur manfaatlar sohasi bo'lib, uning miqdoriy va sifatiy tavsiflari davlat va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy taraqqiyoti darajasini ifodalovchi tizimdir.

Shaxsiy yordamchi xo'jalik – tomorqa, bog'dorchilik yoki poliz ekin maydonlaridagi shaxsiy mehnatga asoslangan iste'molchilik xo'jaligidir. Shaxsiy yordamchi xo'jalikda mevalar, reza mevalar, sabzavotlar, kartoshka yetishtiriladi, chorva mollari, parranda boqiladi, ya'ni bu xo'jalikdan o'z daromadlari natural shaklda to'ldirila borib, oziq-ovqat tovarlarini oladi. Aholining ayrim guruhlari uchun shaxsiy yordamchi xo'jalik mahsulotini sotish natijasida pul daromadlari manbai shakllanadi.

Shaxsiy tomorqa xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar – daromadni shakllantirishda muhim rol o'ynab, ularning hajmi Milliy hisoblar tizimida umumqabul qilingan tamoyil bo'yicha, ya'ni mahsulotni ishlab chiqarilgan qiymatidan uni ishlab chiqarishga ishlatilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini ayirish orqali hisoblab chiqiladi.

Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi – shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek, o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'la yoxud qisman yo'qotganligi.

Shaxsiy hayot sifati – insonning dunyo miqyosidagi rivojlanishining bugungi kundagi yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, oiladagi uyg'un munosabatlar va shaxslarning o'zaro hurmatiga, uy xo'jaligini va bolalar tarbiyasini birgalikda olib borishga, ishdan bo'sh vaqtlarni o'tkazish va o'z shaxsini rivojlantirish uchun bo'sh vaqtning mavjudligiga, qadriyatlarni va dunyoqarashni shakllantirishga asoslanadi.

Yalpi daromad – bu shaxsiy iste'molga shaxsiy yordamchi xo'jalikdan natural tushumlar qiymatini va aholiga ijtimoiy fondlar hisobiga bepul va imtiyozli xizmatlar qiymatini hisobga olgan holda kirimning barcha manbalari bo'yicha pul daromadlarining umumiy yig'indisidir.

Yalpi milliy mahsulot – bir yil davomida pirovard natijada yaratilgan va bozor narxida hisoblangan barcha mahsulot va xizmatlardir. Aholi jon boshiga yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdori iqtisodiyotning naqadar rivojlanganligini bildiradi.

O'z ixtiyoridagi daromadlar – soliqlarni to'lash va majburiy to'lovlardan keyingi, aholi ixtiyorida haqiqatdan ham qoladigan, oxirgi iste'mol uchun sarf qilish mumkin bo'lgan daromad hisoblanadi.

O'rtacha daromad – tovar birligini sotishdan tushgan daromad. Uni topish uchun umumiy daromad sotilgan tovarlar miqdoriga bo'linadi.

Qashshoqlik – iste'mol qilinishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish holati.

Qiyin hayotiy vaziyat – fuqaro hayot faoliyatini obyektiv izdan chiqaruvchi vaziyat (nogironlik, qarilik tufayli o'ziga o'zi

xizmat ko'rsata olmaslik, kasallik, yetimlik, boqimsizlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlik, turarjoyga ega bo'lmaslik, oiladagi kelishmovchiliklar va keskin munosabatlar, yolg'izlik), bularni mustaqil bartaraf etish mumkin emas, shunga ko'ra, uni qo'llab-quvvatlovchi va unga yordam beruvchi ijtimoiy xizmat zarur.

Qo'shimcha daromad – mablag'larning asosiy manbasidan tashqari olinadigan daromaddir. Masalan, o'rindoshlik bo'yicha ishlash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar.

Qo'shimcha dam olish kuni uchun beriladigan nafaqa – bu nafaqa nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga bola 16 yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Hissadorlik jamiyati – ko'proq foyda olish maqsadida mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurslarini birlashtirgan uyushmadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2012.

2. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Т.: Адолат, 2007.

Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси // www.lex.uz.

Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси // www.lex.uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 19 февралдаги «Соғлом бола йили» Давлат дастури тўғрисидаги 2133-сонли қарори // www.lex.uz.

4. Каримов И.А. 2014-йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислоҳотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. // Халқ сўзи газетаси 2014 йил 18 январь, №13 (5943).

5. Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. // "Халқ сўзи" газетаси, 2013 йил 19 январь, № 13 (5687).

6. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир. – Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халк сўзи, 2010 йил 28 январь.

7. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси . – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.

8. Каримов И.А. Жахон молиявий-иктисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2013 йил 15 февралдаги "Кам таъминланган оилаларга ижтимоий нафакалар ва моддий ёрдам тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида"ги Низомни тасдиклаш хакида"ги карори // www.lex.uz.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Уй-жой фондини фойдаланишга тайёр ҳолда реконструкция ва таъмирдан ўтказиш учун пудрат ишлари кўламини кенгайтиришни рағбатлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2009 йил 29 январь, ПҚ-1051-сон.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Мамлакатимизда ноозиқ-овкат истеъмол товарлари ишлаб чикаришни кенгайтиришни рағбатлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2009 йил 28 январь, ПҚ-1050-сон.

12. Abdurahmonov Q.X, Zokirova N.Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O`quv qo'llanma. - T.: «Fan va texnologiya», 2013. – 536 b.

13. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Дарслик. – Т.: «Fan va texnologiya», 2012. – 388 б.

14. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: MEHNAT, 2009. – 512 б.

15. Абдураҳмонов Қ.Х., Тохирова Х., Шарипов Б. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш. – Тошкент, 2006.

16. Абакумова Н.Н., Подовалова Р.Я. Политика доходов и заработной платы: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009.

17. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. Учебное пособие. – М.: РАГС, 2009.

18. Агапцов С.А., Романов Е.Ю. Доходы социальных фондов. – М.: Экономика, 2008.

19. Беляров Ю.А., Хлопков В.В. Охрана труда в организации. Практические рекомендации. – М.: Книжный мир, 2009.

20. Ваҳобов А.В. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. – Т.: Шарқ, 2003.

21. Волгин Н.А., Плакса В.И. Доходы и занятость: мотивационный аспект. – М.: Луч, 2007.

22. Вышегородцев М.М. Уровень жизни как фактор развития человеческого капитала. – М.: Диалог-МГУ, 2009.

23. Гейц И.В. Отраслевое регулирование заработной платы: Учебно-методическое пособие. – М.: Дело и сервис, 2006.

24. Джуманова Р.Ф. Аҳоли турмуш даражаси: кўрсаткичлари ва уни ошириш йўллари. Иқтисод фан. номзод. олиш учун ёзил. диссертацияси. – Т.: ЎзМУ, 2008.

25. Дулясова М.В., Ханнанова Т.Р. Социальная защита работника: жизнь, здоровья, деловая репутация. – М.: Экономика, 2008.

26. Заработная плата в коммерчиских организациях и бюджетних учреждениях: учеб – практич. Пособие – М – проспект, 2012 – 55 с.

27. Заработная плата для бюджетников : учеб – практич. Пособие М.: Проспект, 2010 – 74 с.

28. Зокирова Н.Қ., Абдурахмонов О.Қ. Инқироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: "Fan va texnologiya", 2009.

29. Зокирова Н.К. Социально-трудовые отношения: международный и национальные аспекты. - Т.: Фан, 2008.

30. Жеребин В.М., Романов А.Н. Уровень жизни населения: основные категории, характеристики и методы оценки. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.

31. Ижтимоий ҳимоя йили: мазмун ва моҳият / М.Ножиматов, Ш.Жумаев, У.Олтинов. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.

32. Инсон тараққиёти. Дарслик. и.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида. – Т.: Фан ва технология, 2013. – 476 б.

33. Кукушина В.С. Социальная защита населения. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2007.

34. Лига М.Б. Качество жизни как основа социальной безопасности. – М.: Гардарики, 2006.

35. Методические рекомендации по расчетам прожиточного минимума по регионам Российской Федерации. – М.: ФТиСО, 2008.

36. Подовалова Р.Я. Политика доходов и заработной платы. Учебное пособие. – М.: Инфра, 2009.

37. Политика доходов и заработной платы. Учебник /И.М. Алиев, Н.А. Горелов. – Ростов н/Д: Феникс, 2008.

38. Политика доходов и заработной платы / Под ред. П.В. Савченко, Ю.П. Кокина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Экономикс, 2010.

39. Политика доходов и качество жизни населения. / Под ред. Н.А.Горелова. – Санкт-Петербург, 2009.

40. Политика доходов и социальной защиты населения. Материалы «Круглого стола». – М.: НИИ труда, 2008.

41. Пономаренко А. Скрытые доходы домашних хозяйств // ЭиЖ. Партнер – консультант. – 2008.

42. Рабкина Н.Е., Римашевская Н.М. Основы дифференциации заработной платы и доходов населения. – М.: Экономика, 2004.

43. Римашевская Н.М., Римашевский А.А. Равенство или справедливость. – М.: Финансы и экономика, 1999.

44. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. Учебник. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2010.

45. Рынок труда и доходы населения. / Под ред. Н.А.Волгина. – М.: Экономика, 2009.

46. Саидов К.С., Сеймуратов Р.А., Асломова Д.Х. Социал иктисодиёт. Ўкув кўлланма. – Т: Ўзбекистон, 2006.

47. Смирнова Н.А. Роль качества занятости в повышении уровня жизни населения. – М.: РГБ, 2008.

48. Социальная политика, уровень и качество жизни: Словарь. – М.: ВЦУЖ, 2008.

49. Социальная защита населения в Республике Узбекистан. – Т.: Top Image Media, 2007.

50. Суринов А.Е. Доходы населения. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2010.

51. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: Фан, 2005.

52. Тишин Е.В. Социальное обеспечение нетрудоспособного населения: направления и формы совершенствования. – СПб.: ИСЭП РАН, 2006.

53. Халқаро Меҳнат Ташкилотининг асосий конвенциялари ва тавсиялари. – Т.: "Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси миллий маркази", 2008.

54. Экономика труда / Под ред. Горелова Н.А.: Учебник. – СПб.: Питер, 2007.

55. Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2004.

56. Человеческое развитие. Учебник. – Т.: Университет мировой экономики и дипломатии, 2008.

57. Юлдашев У.С. Иқтисодиётнинг трансформацияланиши жараёнида аҳоли даромадларининг шаклланиши ва тақсимланиши. Иқтисод фан. номзод. олиш учун ёзил. диссертацияси. – Тошкент, 2001.

58. Ғойибназаров Б.К. Аҳоли турмуш даражасини статистик баҳолаш. – Т.: Фан, 2005.

MUNDARIJA

KIRISH 3

I bob "AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH SIFATI" FANINING PREDMETI VA MAZMUNI 5

1.1. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari 5

1.2. Daromadlar siyosati va uning asosiy yo'nalishlari 6

1.3. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi 8

Nazorat va muhokama uchun savollar 11

II bob AHOLI DAROMADLARI VA ULARNING SHAKLLANISH MANBALARI 12

2.1. Aholi daromadlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati 12

2.2 Aholi daromadlarining asosiy vazifalari 14

2.3. Aholi daromadlarining turkumlanishi 16

2.4 Aholining pulsiz ko'rinishidagi daromadlari va ularning shakllanishi 28

2.5 Real daromadlarning shakllanishida soliqlarning o'rni 32

Nazorat va muhokama uchun savollar 38

III bob AHOLINING UMUMIY DAROMADLARI TARKIBI 39

3.1. Ishlab chiqarishdan olingan daromad 39

3.2. Mol-mulkdan olingan daromad 44

3.3 Transfertlardan daromad 53

Nazorat va muhokama uchun savollar 67

IV bob **AHOLI UMUMIY DAROMADLARINI HISOBLASH METODIKASI** 68

4.1. Aholi umumiy daromadlarini hisoblash metodikasining mohiyati 68

4.2. Aholi birlamchi daromadlari tarkibiy qismlarining shakllanishi 69

4.3. Transfertlarni hisoblash tartibi 72

4.4. Aholi umumiy daromadlarini hisoblash uchun axborot bazasi 73

Nazorat va muhokama uchun savollar 77

V bob AHOLI DAROMADLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH 78

5.1. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning zaruriyati 78

5.2 Aholi daromadlarini tartibga solishning klassik va yangi klassik nazariyalari 89

5.3 Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning shakllari va usullari 94

5.4 Aholi daromadlarini inflyasiyaga qarshi yo'nalishda tartibga solish 101

Nazorat va muhokama uchun savollar 106

VI bob AHOLI DAROMADLARINING TABAQALASHUVI 107

6.1. Aholi daromadlarining tabaqalashuvi haqida tushuncha va uni o'lchash usullari..... 107

6.2. Aholi daromadlarining tabaqalashuviga ta'sir etuvchi omillar 115

6.3. Aholi turmush darajasining hududiy tabaqalanishi 120

Nazorat va muhokama uchun savollar 126

VII bob KAM TA'MINLANGANLIK KO'RSATKICHLARI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI 127

7.1. "Kam ta'minlanganlik" tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati 127

7.2. Kam ta'minlanganlik indikatorlari va ko'rsatkichlari 131

7.3. Kam ta'minlanganlikka ta'sir etuvchi omillar 134

7.4. Kam ta'minlanganlikning kelib chiqish sabablari, uning tarqalishi va cheklash yo'llari 136

Nazorat va muhokama uchun savollar 139

VIII bob AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA UNING KO'RSATKICHLARI 140

8.1. Aholining turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi 140

8.2. Aholi turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillar 144

8.3. Aholi turmush darajasining ijtimoiy standartlari 146

8.4. Inson taraqqiyoti indeksi va uni hisoblash metodikasi 149

Nazorat va muhokama uchun savollar 156

XIX bob AHOLINING XARAJATLARI VA ISTE'MOL BUDJETI 157

9.1. Aholi xarajatlari tasnifi 157

9.2. Aholi iste'moli: tarkibi va o'zgarishi 159

9.3. Iste'mol budjetining shakllanish usullari 169

Nazorat va muhokama uchun savollar 172

XX bob TURMUSH SIFATI KO'RSATKICHLARI VA OMILLARI 173

10.1 "Turmush sifati" tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati 173

10.2 Turmush sifatining asosiy komponentlari 176

10.3 Turmush sifati ko'rsatkichlari va omillari 183

Nazorat va muhokama uchun savollar..... 192
TEST..... 193
ATAMALAR LUG'ATI..... 228
ADABIYOTLAR RO'YXATI..... 246

UO'K: 336.671:331(075)
60.7
A15

Taqrizchilar:

Umurzakov Baxodir Xamidovich	G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali "Mehnat iqtisodiyoti va boshqaruv" kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori.
Xolmurodov Salimbek Eshbekovich	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Mehnat va ijtimoiy soha iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Abdurahmanov X.X.

Aholi daromadlari va turmush sifati : X.X. Abdurahmanov, N.U.Arabov. M.M.Xolmuxamedov. -Toshkent: Ilm Ziyo. 2014. 256 b.

KBK 60.7

ISBN - 978-9943-16-171-9

ABDURAMANOV XAMID XUDAYBERGENOVICH,
ARABOV NURALI URALOVICH,
XOLMUXAMEDOV MUHSINJON MURODULLAEVICH

AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH SIFATI

«Tafakkur Bo'stoni»
Toshkent – 2014

Muharrir *Z. Mirzahakimova*
Musahhih *S. Abduvaliyev*
Sahifalovchi *U. Voxidov*
Dizayner *D. O'rinova*

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011y
Bosishga 2014 yil 10 sentabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84$^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi. Times New Roman garniturasi. Shartli bosma tabog'i. 16,0. Nashr tabog'i 16,5. Shartnoma № 27/14. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 39-4.

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy
Telefon: (+99894) 941-60-06. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh.. Chilonzor ko'chasi, 1 uy.

18300-00
6-0.7
A-139

ISBN-978-9943-16-171-9